



2024
№ 4

ISSN 3030-380X

TA'LIMDA
ISTIQBOLLI
IZLANISHLAR

XALQARO ILMIY METODIK JURNAL

МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ

INTERNATIONAL SCIENTIFIC METHODOLOGICAL JOURNAL

TA'LIMDA ISTIQBOLLI IZLANISHLAR

Xalqaro ilmiy-metodik jurnal

ПЕРСПЕКТИВНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В ОБРАЗОВАНИИ

Международный научно-методический журнал

PROSPECTIVE RESEARCH IN EDUCATION

International Scientific Methodological Journal

№ 4 2024

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK Rayosatining 2024 - yil 7 - iyundagi 355-son qarori bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR:

TILAVOV MUXTOR HASAN O'G'LI

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Кулешов Валерий Владимирович - pedagogika fanlari doktori, professor Rossiya Fanlar akademiyasining akademigi (Ukraina)

Andriyenko Yelena Vasilyevna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Fizika, matematika, axborot va texnologiya ta'limi instituti, Novosibirsk, Rossiya)

Romm Tatyana Aleksandrovna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Tarix, gumanitar va ijtimoiy ta'lim instituti, Novosibirsk, Rossiya)

Eko Sri Margianti - Gunadarma universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

Xamidov Obidjon Xafizovich - Buxoro davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

Axmedov Murodjon Ubaydullayevich - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent. (Oriental universiteti rektori)

Zaripov Lochin Rustamovich - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot markazi, O'quv-uslubiy faoliyatni takomillashtirish boshqarma boshlig'i)

Salixov Saidamir Alisher o'g'li - iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent Toshkent shahridagi Turkiyaning Iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti, Toshkent filiali fakultet rahbari

Paxrutdinov Shukriddin Ilyosovich – siyosiy fanlar doktori, professor. Oriyental universitetining “Iqtisodiyot va turizm” kafedrasini professori.

Mamanazarova Nargiza Komildjanovna - Pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent. Oriyental universitetining “Iqtisodiyot va turizm” kafedrasini professori.

Nazarov Akmal Mardonovich - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor (Buxoro davlat universiteti psixologiya va sotsiologiya kafedrasini mudiri)

Ostanov Shuhrat Sharifovich - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), (Buxoro davlat universiteti psixologiya va sotsiologiya kafedrasini dotsenti)

Rustamov Shavkat Shuhrat o'g'li - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), (Buxoro davlat universiteti psixologiya va sotsiologiya kafedrasini dotsenti)

Dilova Nargiza Gaybullayevna - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor (Buxoro davlat universiteti Kengash kotibi)

Olimov Shirinboy Sharofovich - pedagogika fanlari doktori, professor (Buxoro davlat universiteti Pedagogika kafedrasini mudiri)

Hamroyev Alijon Ro'ziqulovich - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor (Buxoro davlat universiteti Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasini mudiri)

Ibragimov A'lamjon Amrilloevich - pedagogika fanlari doktori, professor (Samarqand viloyati Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi direktori)

Ibraymov Asqar Esbosinovich - pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent (O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi, Elektron ta'lim bo'limi boshlig'i)

Sayfullayeva Nigora Zakiraliyevna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) (Buxoro davlat universiteti Tahririy-nashriyot bo'limi boshlig'i)

Radjabov Dilshod Zaripovich - filologiya fanlari doktori, professor (Buxoro davlat universiteti O'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasini mudiri)

Turdiyev Bexruz Sobirovich - falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), (Buxoro davlat universiteti “Yurisprudensiya, ijtimoiy-siyosiy fanlar kafedrasini dotsenti)

Mas'ul kotib:

Dehqonboyev Shohjahon Oybek o'g'li – Psixologiya va sotsiologiya kafedrasini o'qituvchisi

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2024-yil 26-mart № 245685 -sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

MUNDARIJA

Familiya I.Sh.	Mavzu	Bet
DOLZARB MAVZU		
Xuseynova Abira Amanovna	Zamonaviy jamiyatda insonlardagi huquqiy savodxonlikni oshirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	5
Nazarov Akmal Mardonovich	Shaxsning psixologik taraqqiyotida ilmiy va innovatsion faoliyatning ahamiyati	8
PSIXOLOGIYA		
Miraxmetova Laziza Farruxovna	Talabalardagi sanogen tafakkurning pedagogik-psixologik xususiyatlari	15
Qodirov Obid Safarovich	Yangi O'zbekistonda tarbiyasi qiyin o'smirlar bilan ishlashning o'ziga xos xususiyatlari	20
Shukurova Gulnoz Muhammadovna	Kichik maktab yoshdagi bolalarda aqliy taraqqiyot muammolarining pedagogik-psixologik jihatlari	23
Ostanov Shuhrat Sharifovich	Deviant xulq atvorli o'smirlarda kreativlikni rivojlantirishning pedagogik - psixologik jihatlari	30
Salomova Nagiza Sattorovna	Pedagog shaxsida kasbiy mahorat rivojlanishining ijtimoiy psixologik xususiyatlari	34
Po'latova Madina Shavkatovna	Boshlang'ich sinf o'quvchilarda psixik jarayonlar samaradorligini ta'minlashda diqqatning roli	39
Akramov Abdufattoh Shavkatovich	Zamonaviy jamiyatda psixologik salomatlikni mustahkamlash muammosining o'rganilishi	43
Umarova Diloru Turobovna	Psychological characteristics of the manifestation of reflexive abilities in students	47
Sherimbetova Zamira Shalabayevna	Talabalarda o'z ustida mustaqil ishlash va o'quv fanlarini o'zlashtirishining pedagogik-psixologik jihatlari	50
Raximova Nazokatxon Kasimjanovna	Talabalarni o'qitish sifatini oshirishda ijtimoiy yetuklikning psixologik determinantlari	54
Arzimbetov Tileubergen Tilepbergenov	Talabalarda sport faoliyati motivlarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	59
Shixova Inobat Omonovna	Sharq mutafakkirlari asarlarida tafakkur va mantiqiy fikrlash masalasining yoritilishi	62
Baxriddinov Nurali Bekmurodovich	Talabalarni kredit-modul ta'lim tizimida kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning psixologik asoslari	67
Elibayeva Lola Sulaymonovna	Boshlang'ich sinflarda sust o'zlashtiruvchi o'quvchilarni faolligini oshirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	72
PEDAGOGIKA		
Allamberganova Baxargul Xudayberganovna	Zamonaviy jamiyatda yoshlarga chet tili o'rganishda mustaqil ta'limni o'rni va ahamiyati	77
Aliyev Dilshod Maxmatrabiyeovich	Masofaviy ta'lim muhitida umumta'lim muassasa rahbarlarining axborot-kommunikatsion kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart sharoitlari	81
Mirzayeva Difuza Shavkatovna	Maktabgacha ta'limda art pedagogikasi vositasida bolalar ijodkorligini rivojlantirishga qo'yilgan talablar	89
Azimov Asqadjon Axtamovich	Innovatsion rivojlanish jarayonida tasviriy san'at yo'nalishi o'quvchilarining muloqotga kirishish muammolari	95
Оталиева Аделья Рахметовна	Повышение технико-тактической подготовки юных каратистов инновационными методами	98
Qayimov Laziz Mirzo o'g'li	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matn o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish mazmuni	102

Xatamov Boburjon Qosimjon o'g'li	O'smirlik davrida virtual olam vositalari xususan: ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirish	107
Muxlisov Sodiqjon Saidjonovich	Innovatsion rivojlanish davrida informatika o'qituvchilarida tashkiliy-pedagogik kompetentlikni rivojlantirish xususiyatlari	113
Sharopov Mirjon Nurxon o'g'li	Talabalarni texnik ijodkorlik faoliyatida tayyorlashning pedagogik psixologik xususiyatlari	117
Арыстанбаева Алия Турганбаевна	Особенности преподавания религиоведческих дисциплин в светском вузе	121
Хидойходжаева Хилола Тахировна	Мотивация профессионального развития педагогов	124
Ibodulloyev Nurali Sheraliyevich	O'zbekistonda ijtimoiy pedagogikaning rivojlanishi va oilaning ijtimoiy manfaatlarini ta'minlashdagi o'rni	129
Юлдашев Алишер Ахорович	Педагогико-психологическая особенность использования цифровых технологий в подготовке учителей физического воспитания	133
Baxronov Abbos Faxridin o'g'li	Ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarda sportchilarning karyerasini o'rganishning nazariy pedagogik jihatlari	136
Razakov Farxod Kuvandikovich	Talabalarda o'quv faoliyati motivlarini rivojlantirishning pedagogik - psixologik jihatlari	139

Xuseynova Abira Amanovna,

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a'zosi, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakilining (Ombudsmanning) Buxoro viloyati mintaqaviy vakili, falsafa fanlari doktori, professor

ZAMONAVIY JAMIYATDA INSONLARDAGI HUQUQIY SAVODXONLIKNI OSHIRISHNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Maqolada jamiyat taraqqiyotida inson huquqlarining o'rni tadqiq qilingan. Xalqaro huquqiy hujjatlarda inson huquqlarini himoya qilishning asosiy mexanizmlariga e'tibor qaratilgan. Insonlarda huquqiy ongni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarni tadqiq etilgan, hamda ijtimoiy-psixologik jihatlarini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ombudsman, inson huquqlari, implementatsiya, huquqiy meros, milliy strategiya, huquqiy ong, determinant, liberal, huquqiy savodxonlik.

Аннотация. В статье исследуется роль прав человека в развитии общества. В международных правовых актах основное внимание уделяется основным механизмам защиты прав человека. Исследованы социально-психологические особенности развития правосознания у людей, а также разработаны практические рекомендации по совершенствованию социально-психологических аспектов.

Ключевые слова: омбудсман, права человека, имплементация, правовое наследие, национальная стратегия, правосознание, детерминанта, либерал, юридическая грамотность.

Abstract. The article explores the role of human rights in the development of society. International legal documents focus on the basic mechanisms of protection of human rights. Research has been carried out on socio-psychological characteristics of the development of legal consciousness in humans, as well as practical recommendations for improving socio-psychological aspects have been developed.

Key words: ombudsman, human rights, implementation, legal heritage, national strategy, legal consciousness, determinant, liberal, legal literacy.

Kirish. Hozirgi dunyoda inson huquqlari yetakchi o'rinni egallashi umume'tirof etilgan dalildir. Inson huquqlari masalasining har qanday sivilizatsiyalashgan, adolatli fuqarolik jamiyatini qurishdagi rolini kamaytirib bo'lmaydi. Demokratik, huquqiy davlat qurishning bosh sharti asosiy huquq va erkinliklarni rag'batlantirish va himoya qilish hamda jamiyatda har bir insonning huquqlarini kafolatlashning haqiqiy tizimini yaratish hisoblanadi.

Zamonaviy dunyoning rivojlanishi o'ziga inson huquqlari muammosining yechilishini uyg'unlashtirib kelmoqda. Ularning yuksak qadriyatini tan olish va ularga amal qilish davlatlarning ichki ishlarida demokratizmning ramziga aylanib qoldi va bu esa, davlatlar o'rtasidagi munosabatlarning sivilizatsiyalashganligini anglatadi. Bu hol qonuniydir va tushunarli. Inson huquqlari o'zida sayyoramizning global muammolarini, ya'ni yadroviy xavf va ekologik yo'q bo'lib ketish, kabi omillarni ham aks ettiradi. Bu tushunchalar umumbashariy ezgulik, odillik, ozodlik, tenglik, demokratizm, mehribonlik tushunchalarini aks ettirib, shaxsning davlat bilan munosabatlarida ustuvor o'rinni asos qilib oldi.

Huquqiy davlat - bu inson huquqlari sohasidagi xalqaro standartlar bo'yicha yashovchi, tegishli qonunlarga ega bo'lgan, samarali davlat tizimiga ega va inson huquq va erkinliklari haqida aniq ma'lumotga ega, eng muhimi shu huquqlarga ehtiyoj sezadigan fuqarolarga ega davlatdir.

Davlat, unda inson huquqlari qanchalik darajada tan olinishi, amal qilinishi, va himoya etilishiga qarab, shunchalik huquqiy deb atalishi mumkin.

Muammoning o'rganilishi. O'zbekistonda shaxsning huquqiy savodxonligini ta'minlash borasidagi psixologik tadqiqotlar ko'lamida ma'lum bir darajada tadqiq etilgan bo'lsa-da, mazkur yo'nalishdagi ilmiy izlanishlarda huquq psixologiyasining ba'zi muammolarini psixolog

olimlardan M.X.Axmedova, Y.Y.Agzamova, B.Jo'raev, N.G'.Kamilova, G'.A.Normurodov, B.M.Umarov, V.G.Shepotkin, U.D.Qodirov va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan S.N.Aleksandrova, S.SAlekseev, V.Vasilyev, O.B.Yermakova, A.M.Kunijev, M.M.Molonova, O.V.Martishin, Y.V.Orexova, O.N.Panteleeva, S.A.Shediy, T.N.Shamaeva, Y.A.Pevsova, N.I.Xabibulina, A.F.Cherdansev va boshqalar huquqiy ong, huquqiy savodxonlik, huquqiy tushunchalar shakllanishi xususiyatlarining ijtimoiy-psixologik yo'nalishlari bo'yicha tadqiqotlar olib borishgan, lekin o'spirinlarning huquqiy ongini rivojlantirish bo'yicha maxsus ilmiy tadqiqotlar olib borilmagan.

Forobiyning "Fozil shahar"da hokimga qo'yilgan eng muhim hislat sifatida adolatli bo'lish kerakligini qo'yadi. Adolat so'zining mazmunida poklik, to'g'rilik, haqiqat, mujassamdir. Insoniyat yaralgandan beri adolatni qadrlab kelgan. Adolat bo'lgan joy gullab – yashnagan, xalq erkin bo'lgan. Adolat – oyoq osti qilingan joylarda esa razolat hukm surib, jamiyat tubanlikka yuz tutgan. Adolatparvarlik – insondagi o'tkir aql, sof mulohaza, toza ko'ngil, olijanob va mard ekanini ko'rsatib turuvchi dalildir. Dunyoda adolatparvarlikdan ko'ra ko'rkamroq xalq va tabiat yo'q undan ko'ra sharafliroq hislat va iqbol, ta'sirliroq naf qiluvchi narsani topish amri mahol. Adolatli bo'lish so'zida turish, qat'iylik demakdir [12].

Mashhur olim Abu Abdulloh al-Xorazmiy mantiq masalalarini ko'rib chiqishni so'z va iboralarining o'zaro munosabatini tahlil etishdan boshlaydi. Sharq mantiqshunoslari so'zlarning ma'no anglatishiga ko'ra uch turini: so'z o'zining to'liq mazmunini anglatadigan, so'z o'z mazmunining bir qismini anglatadigan, so'z o'z mazmunidan kelib chiqadigan narsani anglatadigan holatlarni farqlaganlar. Xorazmiy ham bu masalaga mufassal to'xtalib, bu turlarni va ularning tushunchalardagi mantiqiy ma'nolarini ko'rib o'tadi. Bu bilan olim Yaqin va O'rta Sharq mantiqshunoslari ilgari surgan tushunchalarning ma'no anglatishi haqidagi ta'limotini davom ettiradi.

O'z navbatida qayd etish kerakki, Abu Abdulloh al-Xorazmiy Aristotel va Forobiyning tafakkur va til, mantiq va grammatika orasidagi bog'liqlik g'oyasini yanada rivojlantirdi. U mulohaza (hukm) masalasiga alohida to'xtalib o'tadi. Abu Abdulloh al-Xorazmiy hukmning modalligi bo'yicha lozim bo'lgan, mumkin bo'lgan va haqiqiy kabi uch turga bo'linishiga katta e'tibor beradi va o'z ta'limotida Aristotel g'oyasining asosiy mohiyatini to'liq aks ettiradi. Shu bilan birga Xorazmiy xulosa chiqarish masalalariga ham alohida to'xtalib o'tib, sillogizmni xulosa chiqarishning eng muhim ko'rinishi va nazariy bilimlarni egallashdagi asosiy vosita, deb bildi. U isbotlash va u bilan bog'liq bo'lgan masalalarni, dialektika asoslarini, shuningdek o'sha davrda sillogizm turlari hisoblangan sofistika, ritorika va poetika bilan bog'liq masalalarning har birini alohida boblarda talqin qildi. Umuman olganda, Xorazmiy qadimgi grek-yunon ilg'or mantiqiy an'analarini Yaqin va O'rta Sharq hamda O'rta Osiyo falsafasi materiallaridagi o'ziga xos, ajoyib g'oyalardan foydalanib boyitdi va rivojlantirdi.

Tahlil va muhokama. O.A.Vasilyenko izlanishlarining ko'rsatishicha, tushunchalarning shakllanishi huquq nazariyasi tushunchalari sohasi to'rtta asosga ko'ra tarkib topishi keltirilgan. Ularni quyidagicha ajratib ko'rsatgan:

- yangi huquqiy kategoriyalarning shakllanishi;
- mavjud huquqiy kategoriyalarni aniqlashtirish, chuqurlashtirish va rivojlantirish;
- huquq nazariyasi kategoriyalaridan uning mantiqiy darajasiga mos emaslarini tarmoqlashtirish;
- o'zini ishlatib bo'lingan eski kategoriyalarni chetlatish [22].

Yuqoridagi natijalar faqat shaxsda huquqiy bilimlarni oshirish dasturlarining vazifalari to'g'ri qo'yilgandagina amalga oshirishni huquqshunoslar va pedagog-huquqshunoslar ta'kidlashadi. Odatda huquqiy savodxonlik dasturlariga quyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsad qilib qo'yiladi:

- savodxonlikni oshirish hamda o'z salohiyatini rivojlantirish;
- huquqshunoslar va pedagog-huquqshunoslarni tarbiyalash;
- jamiyatga ta'lim berish hamda huquqiy imkoniyatlarni kengaytirish;
- huquqshunos-talabalarni o'z sohalari bilan amaliy tanishtirish;

- jamiyat jipsligini oshirish va huquqiy bilimlarni eng quyi qatlamdan shakllantirish.

Huquqiy savodxonlikning muhim natijalaridan biri bu huquqiy madaniyatdir. Aynan huquqiy savodxonlikning rivojlanishi yuksak huquqiy madaniyatni shakllanishiga sabab bo'ladi. Mazkur masalada bir qancha mutaxassislar o'z izlanishlarini olib borishgan. Shunday ishlarda huquqiy savodxonlik madaniyati uchta tarkibiy qismga ajratiladi:

1. Moddiy.
2. Informatsion (axborotli).
3. Subyektiv.

Ta'kidlash joizki, huquqiy madaniyatning moddiy qismi davlat - huquqiy tashkilotlar, huquqiy institutlar, huquqiy-ijtimoiy munosabatlarning huquqiy texnologiyalari va moliyaviy asoslar bilan shakllanadi. O'z navbatida informasion qism esa tarkibiga tarixiy, mantiqiy hamda dalillarga asoslangan huquqiy axborotlar bazasini qamrab oladi. Qolaversa, aynan huquqiy madaniyatning informasion qismi huquqiy munosabatlarning asosi hisoblanuvchi huquqiy ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va yetkazish jarayonlarini ham o'z ichiga oladi.

Insonlardagi huquqiy savodxonlikni oshirishning ijobiy jihatlari yuzasidan L.Xanter quyidagilarni keltirib o'tadi:

- 1) o'z majburiyatlari va huquqlarini to'g'ri anglaydi.
- 2) ziddiyatning huquqiy ziddiyat ekanligini ajrata olish yoki ziddiyatga huquqiy yechim topa olishni biladi;
- 3) muammoli holatlarni oldini olishda zaruriy xatti-harakatlarni amalga oshirish yoki buning imkonini bo'lmasa o'zini munosib tuta bilish ko'nikmasini rivojlantiradi;
- 4) qonun va huquq bo'yicha ma'lumotlarni qayerdan, qay tarzda olishni biladi;
- 5) malakali huquqiy yordam olishni biladi;
- 6) huquqiy institutlarning faoliyatini tushuna olish kabi malaka va xususiyatlariga ega bo'la olish imkonini beradi.

Huquqiy savodxonlik masalasini falsafiy jihatdan o'rganilganlik masalasi bo'yicha fikr yuritilar ekan, mazkur masala jamiyat faoliyatiga bog'liqligini inobatga olib asosan tahlil ijtimoiy falsafa doirasida amalga oshirilganligini kuzatish mumkin. Insonlar va jamiyat o'rtasidagi ijobiy munosabatlarning asosi sifatida huquqiy savodxonlikning falsafiy yondashuvlar aks etgan tadqiqot ishlari amalga oshirilgan bo'lib, mazkur ilmiy tadqiqot ishlarida o'zbek mutaxassislaridan F.F.Xatamovning ilmiy ishini alohida ko'rsatib o'tish mumkin. O'z ilmiy tadqiqot ishida muallif quyidagilarni asosiy vazifa qilib oladi:

- huquq va huquqiy savodxonlik fenomenlarining ijtimoiy boshqaruv institutlari xodimlari faoliyatidagi o'rni, ijtimoiy-aksiologik ahamiyatini ochib berish; ijtimoiy boshqaruv institutlarining differensial belgilari, ularning huquqiy savodxonlikka ta'siri me'rlari, sosiometrik parametrlarini aniqlash;

- markaziy boshqaruv va mahalliy boshqaruv institutlari xodimlarining huquqiy madaniyati, uning real muammolarni hal etishdagi, xalq bilan muloqotdagi regulativ, kommunikativ funksiyalarini yoritib berish;

- biznes boshqaruv, korporativ boshqaruv va o'zini o'zi boshqaruv institutlari xodimlarida huquqiy savodxonlikni oshirish ularning modernizasiya va innovasion rivojlanish bilan bog'liq jihatlarni ochib berish;

- milliy taraqqiyotning yangi bosqichida boshqaruv institutlari xodimlarida huquqiy savodxonlikni oshirish masalalarining qo'yilishini o'rganish;

- biznes boshqaruv va korporativ boshqaruvda huquqiy savodxonlikni yuksaltirish mexanizmlarini topish uchun ilmiy eksperiment o'tkazish;

- o'zini o'zi boshqaruv institutlari xodimlarining huquqiy bilim-larini oshirishga oid ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Xulosa. Xalqimizning huquqiy ong va huquqiy bilimlarini rivojlanishining jahon va mahalliy tadqiqotlardagi holati muammoning yaxlit hamda yetarlicha o'rganilmaganligi, insonlarning huquqiy bilimlarning ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar predmeti sifatida tadqiq etishga zarurat mavjudligi nazariy-amaliy jihatdan dalillandi.

Jamiyatda huquqiy tushunchalarni o'zlashtirish, huquqiy bilimlarga bo'lgan ehtiyoj va motivlarida o'zi, oila a'zolari va yaqinlari bilan bog'liq haq-huquqlarning buzilishi, shuningdek, o'zini anglash, xatti-harakatlarini tartibga solishi, prosotsial xulq-atvorni amalga oshirish uchun huquqiy jihatdan bilimlarga ega bo'lishi, ijtimoiy, psixologik, pedagogik, tibbiy xizmat va mulkchilik huquqlari bilan bog'liq holatlardagi huquqiy buzilishlar yetakchi sabablar ekanligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 18 fevraldagi "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'omlashtirish mahalla institutini yanada qo'llab-quvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5938-son Farmoni.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent., "O'zbekiston" 2017.-488b
3. Mirziyoyev Sh.M. "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son farmoni
4. Герцог Т. Ю. Правовая функциональная грамотность и правовая культура: вопросы определения, соотношения, структуры // Правовая политика и правовая жизнь. Саратов: Саратов. гос. юр. академия, 2011. № 2. С. 68–73.
5. Ibaydullayev Q. Yoshlarda huquqiy madaniyatni yuksaltirish – ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishi. Zamonaviy ta'lim / sovremennoe obrazovanie 2019, №5, 88-94 b.
6. Xuseynova. A. (2020). Роль женщин в социально-политической жизни общества. Центр научных публикаций (buxdu. uz), 1(1). (Xuseynova, A. (2020). The role of women in the socio-political life of the society. Center for scientific publications (buxdu.uz), 1(1).

Nazarov Akmal Mardonovich

*Buxoro davlat universiteti, Psixologiya va sotsiologiya kafedrası mudiri,
psixologiya fanlari doktori (DSc) professor*

SHAXSNING PSIXOLOGIK TARAQQIYOTIDA ILMIY VA INNOVATSION FAOLIYATNING AHAMIYATI

Annotatsiya. Maqolada innovatsion faoliyatni rivojlantirish usullari, innovatsion faoliyatni shakllantirish tizimini joriy etish va uni optimallashtirish, innovatsion salohiyat, kasbiy mahorat, innovatsion bilim, ko'nikma hamda malakalarni rivojlantirishga doir ilmiy-nazariy tahlillar keltirilgan. Shuningdek, yoshlarda ilmiy va innovatsion faoliyat samaradorligini ta'minlovchi ijtimoiy, pedagogik, iqtisodiy, psixologik omillarning ta'siri hamda ushbu faoliyatga to'g'ri yo'naltirish mexanizmlari tadqiq qilingan.

Tayanch so'zlar: innovatsiya, metodologiya, mexanizm, individual, komponent, adekvat, malaka, adaptatsiya, qobiliyat, psixoanalitik, fenomen, strategiya, stress, emotsiya, kognitiv, hissiy, ekstremal, psixoterapiya, stereotip, patologik.

Аннотация. В статье представлен научно-теоретический анализ методов развития инновационной деятельности, внедрения и оптимизации системы формирования инновационной деятельности, развития инновационного потенциала, профессионального мастерства, инновационных знаний, умений и навыков. Также исследовано влияние социальных, педагогических, экономических, психологических факторов, обеспечивающих эффективность научно-инновационной деятельности у молодёжи, а также механизмов правильной ориентации на данную деятельность.

Ключевые слова: инновация, методология, механизм, индивидуальный, компонентный, адекватный, компетентность, адаптация, способность, психоаналитический, феномен, стратегия, стресс, эмоция, когнитивный, эмоциональный, экстремальный, психотерапия, стереотип, патологический.

Abstract. The article presents scientific and theoretical analyzes on the development of innovative activities, the implementation and optimization of the system for the formation of innovative activities, innovative potential, professional skills, innovative knowledge, skills and skills. Also, the influence of social, pedagogical, economic, psychological factors that ensure the effectiveness of scientific and innovative activities in young people, as well as the mechanisms of correct orientation to this activity were studied.

Key words: innovation, methodology, mechanism, individual, component, adequate, competence, adaptation, ability, psychoanalysis, phenomenon, strategy, stress, emotion, cognitive, emotional, extreme, psychotherapy, stereotype, pathological.

Kirish. Yurtimizda ayniqsa, talaba-yoshlarni ilmiy va innovatsion faoliyatga yo'naltirish bo'yicha bir qancha samarali ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan, bu borada ilmiy, ijodiy va innovatsiya sohasiga taaluqli huquqiy normativ hujjatlar qabul qilinganligi bu sohaga alohida e'tibor berilayotganligidan dalolat beradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni qabul qilingan. Farmonga asosan innovatsiya va ilm-fan sohalariga Davlat budjetidan ajratiladigan yillik mablag'lar hajmi 2018-yilga nisbatan 3 baravarga oshirildi va yani 1,5 trillion so'mga yetkazilgan; 2018-yildan boshlab har yili o'tkazilayotgan Xalqaro innovatsion g'oyalar haftaligi - "Innoweek.uz" xorijiy innovatsion va ilmiy markazlar, investitsion fondlar, texnologik agentliklar, texnoparklar va biznes-inkubatorlarni bir maqsad yo'lida jamlovchi innovatsion haftaliklar tashkil qilinmoqda. Bu haftaliklar ilmiy-innovatsion oylarga innovatsion yillarga aylanib bormoqda.

Asosiy qism. Innovatsion faoliyat bo'yicha butunjahon intellektual mulk tashkiloti (WIPO) tomonidan Kornell universiteti va Xalqaro biznes maktabi (INSEAD) bilan hamkorlikda chop etiladigan "Global innovatsiyalar indeksi" (GII) jurnalining hisobotida dunyo davlatlarining innovatsion salohiyati va innovatsion ko'rsatkichlarini bo'yicha yillik reytingida e'lon qilinib

boradi. Shunga muvofiq tarzda mamlakatimizni "Global innovatsion indeks" (GII) reytingida ilmiy-innovatsion faoliyatini 2026 yilgacha 30 pog'onaga ko'tarish vazifalari belgilangan.

Quvonarlisi shundaki, ushbu reytingda O'zbekiston 81 ta indikator bo'yicha baholanadigan Global innovatsion indeksi reytingida 2015-yilga nisbatan 36 ta pog'onaga ko'tarilganligini alohida e'tirof etish mumkin.

Innovatsiyalar sohasiga taaluqli huquqiy normativ hujjatlar qabul qilinganligi bu sohaga alohida e'tibor berayotganligidan dalolat beradi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-sonli Farmoni qabul qilingan. Ushbu Farmonga asosan innovatsiya va ilm-fan sohalariga:

- Davlat byudjetidan ajratiladigan yillik mablag'lar hajmi 2018-yilga nisbatan 3 baravarga oshirildi ya'ni, 1,5 trillion so'mga yetkazilgan;

- 2018-yildan boshlab har yili o'tkazilayotgan Xalqaro innovatsion g'oyalar haftaligi — "Innoweek.uz" xorijiy innovatsion va ilmiy markazlar, investitsion fondlar, texnologik agentliklar, texnoparklar va biznes-inkubatorlarni bir maqsad yo'lida jamlovchi innovatsion haftaliklar tashkil qilinmoqda. Bu haftaliklar innovatsion oylarga innovatsion yillarga aylanib bormoqda.

Innovatsiya har qanday jarayonga yangi tashkiliy uslub kiritish hisoblanadi.

"Innovatsiya" - atamasi lotincha "novatio" so'zidan olingan bo'lib, "yangilanish" (yoki "o'zgarish"), "in" qo'shimchasi esa lotinchadan, "yo'nalishida" deb tarjima qilinadi, agar buni bir butun "innovatio" ko'rinishida tarjima qilinadigan bo'lsa "o'zgarishlar yo'nalishida" deb izohlanadi. Innovation - tushunchasi birinchi bo'lib XIX asrda ilmiy-amaliy tadqiqotlarda uchraydi.

"Innovatsiya" tushunchasining yangicha yo'nalishini "innovatsion kombinatsiyalar"ni tahlil qilish, iqtisodiy sohalarning rivojlanishidagi o'zgarishlar natijasida XX asrning boshida avstriyalik va amerikalik iqtisodchi Y.Shumpeterning ilmiy tadqiqotlarida qo'llagan. Taniqli iqtisodchi Y.Shumpeter 1900-yillarda iqtisod sohada ushbu terminni ilmiy jihatdan qo'llagan ilk olimlardan biri edi.

Innovatsiyaga har qanday turdagi yangilik sifatida emas, balki, mavjud tizimning samaradorligini jiddiy ravishda oshiradigan omil sifatida qaraladi. Keng tarqalgan yangilish fikrlashlarga qaramasdan innovatsiyalar kashfiyotlardan farq qiladi, innovatsiyalarning ilmiy kashfiyotlar va ixtirolardan farqi quyidagi tushunchalar bilan izohlanadi:

Ilm-fan – bu ma'lum mablag'larni bilimlar va g'oyalarga aylantirish jarayoni hisoblanadi. Innovatsiyalar – bu bilimlar va g'oyalarni mablag'larga aylantirishdir.

Ixtiro – bu yangi konsepsiyalarni yaratishdan iborat.

Innovatsiya – bu ixtironing amaliy ahamiyatini alohida ajratib ko'rsatish va uni muvaffaqiyatli sotiladigan mahsulotga aylantirish jarayonlarini o'z ichiga oladi.

Yangilik - bu intellektual faoliyat natijasi bo'lib, bu yangi strategiya, biznesning yangi modeli, yangi tashkiliy tuzilma, yangi marketing usuli, yangi jarayon, yangi texnologiya, yangi mahsulot yoki ularning ma'lum birikmasidan tashkil topgan murakkab jarayonlar yig'indisi hisoblanadi.

Bugungi kunda psixologiyada shaxsning ilmiy-innovatsion faoliyatini rivojlantirish dolzarb muammolardan sanaladi. Ushbu muammolarga yechim topish maqsadida shaxsning imkoniyatlarini o'rganish natijasida amalga oshiriladi.

Innovatsion faoliyat - to'plangan bilim, texnologiya va uskunalarni tijoratlashtirishga qaratilgan ilmiy, texnologik, tashkiliy, moliyaviy va tijorat tadbirlar majmui sanaladi.

Innovatsion faoliyatning bir necha turlari mavjud:

1. Ilmiy tadqiqotlar va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari (ITTKI).

2. Yangi foydali xususiyatlarga ega mahsulotlarni yaratish.

3. Texnologik innovatsiyalar: mavjud mahsulot, buyum, texnikani yangi yoki samarali ishlab chiqarishni olish; ishlab chiqarishni tayyorlash va tashkil etish, yangi mahsulotni ishlab chiqarish yoki yangi texnologik jarayonni qo'llash uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish va sifat nazorati taomillari, usullari va standartlaridagi o'zgarishlar.

4. Jarayon innovatsiyalari: ishlab chiqarishni loyihalash, ishlab chiqarishning yangi usullari, yangi ishlab chiqarish jarayonlari, shu jumladan rejalar va chizmalarni, texnik spetsifikatsiyalar va boshqalar dizayni va ishlab chiqish.

5. Tashkiliy yangiliklar - menejment tizimini takomillashtirish.

6. Amalga oshirilgan texnologiyalar - o'z texnologik maqsadiga ko'ra, texnologik va boshqa innovatsiyalarni joriy etish bilan bog'liq bo'lgan mashina va uskunalar sotib olish.

7. Ixtirolar, sanoat namunalari, foydali modellardan foydalanish, shuningdek, texnologik mazmundagi xizmatlardan foydalanish uchun patent, litsenziyalar (shartnomalar) shaklidagi amalga oshirilmagan texnologiyalarni xarid qilish; texnologik innovatsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq dasturiy vositalarni xarid qilish.

8. Xodimlarni o'qitish, tayyorlash va qayta tayyorlash.

9. Marketing innovatsiyalari - mahsulotlar dizayni va qadog'idagi muhim o'zgarishlarni o'z ichiga olgan yangi yoki sezilarli darajada yaxshilangan marketing usullarini amalga oshirish, mahsulot (xizmatlar) ni sotish va taqdimoti, ularni marketing bozorlarida taqdim etish va targ'ib qilish, yangi narx strategiyalarini shakllantirishning yangi usullarini qo'llashdan iborat.

Rus psixologi V.A.Petrovskiyning olib borgan tadqiqotlarida talabalarning haddan tashqari kutilmagan noodatiy faoliyatga moslashmagan holatlari borligi aniqlagan. Bu esa talabalarda hayotiy muammolarni anglash va hal qilishning yangi darajalarga olib chiqadi hamda ijodkorlik, kognitiv jarayonlarning faol shaklida namoyon bo'ladi.

XX asrning 90-yillariga kelib Yevropa davlatlarida iqtisodiy inqiroz ijtimoiy jihatdan umidsizlik holatining kuchayishiga sabab bo'ladi, bu esa barqaror hayotdan mustaqil ravishda uzoqlashishda namoyon bo'ldi. Masalan, 1988-yildan 1994-yilgacha Rossiya bo'yicha ma'lumotlarga qaraganda, 20 yoshgacha bo'lgan aholi orasida o'z joniga qasd qilishning ko'payganligini kuzatishimiz mumkin. (o'g'il bolalar o'rtasida 41 foiz, qizlar o'rtasida 13 foiz). Aynan o'sha paytlarda yoshlar orasida alkogolizm, giyohvandlik, o'g'rilik va boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarning soni ko'payganligini ko'rishimiz mumkin. Agarda talaba birinchidan o'ziga ishongan bo'lsa, juda yuqori va hatto o'zini o'zi qadrlash darajasi yuqori bo'lsa, ikkinchidan o'z faoliyatini o'zining harakatlari natijasida rivojlantiradi, ayniqsa ular muvaffaqiyatsizlikka uchraganida, o'zini past baholasa va salbiy holatlarni his qilganda ayniqsa yaqqol seziladi. Bunday ikki toifadagi talabalar o'ziga xos tarzda o'zini o'zi anglash yo'llari, usullari va shakllarini qidiradilar. Talabalar o'rtasida shaxslararo munosabatlar va hayot haqiqatlari o'rtasida yashirin ziddiyatlarning mavjudligi olimlar tomonidan o'tkazilgan sotsiologik so'rov natijalarga ko'ra, 1853 nafar talabadan o'z baxtini nimada ko'rmoqda, degan savolga ko'pchilik talabalar o'zlarining maqsadlarini belgilagan mustahkam oila (59%), samimiy do'stlar (52%), muhabbat (50%), sevgan faoliyatidagi muvaffaqiyat (44%) deb hisoblagan. Quyidagi omillar sezilarli darajada past natijani tashkil etgan moddiy ta'minot (31%), o'zining shaxsiy hayoti (20%), qadriyatlar (9%).

Mashhur yozuvchi R.Berne ta'kidlaganidek, "Bizning baxtsizliklarimizning siri shundaki, bizning baxtli yoki baxtsizligimizni o'ylash uchun juda ko'p bo'sh vaqt bor" deb yozgan edi

Talabalarning ilmiy-innovatsion faoliyatga tayyorgarligini shakllantirish jarayonini psixologik qo'llab-quvvatlashning ichki shartlari quyidagilardan iborat:

- innovatsiya asoslarini o'rganish jarayonini faollashtirish;

- talabalarning innovatsiyaga bo'lgan qiziqishini oshirish yo'llarini izlash;

- talaba shaxsini o'z-o'zini rivojlantirish va o'zini o'zi anglash jarayonini takomillashtirishdan iborat.

Yangilikdan farqli o'laroq, innovatsiya – bu iqtisodiy samara olish uchun yangiliklarni amalda qo'llashdan iborat bo'lgan hodisadir.

I.Stepanovanning fikriga ko'ra, "innovatsiya" tushunchasi ilmiy-texnika salohiyatini real, yangi mahsulot va texnologiyalarni yuzaga chiqaradigan jarayon sifatida talqin etiladi.

L.Vodachek va O.Vodachkova innovatsiyalarni "korxona faoliyatining tizim sifatida maqsadli o'zgarishi" deb ta'riflaydi.

B.Santoning fikriga ko'ra, innovatsiya - bu yuqori sifatli texnologiyalar yaratiladigan texnik, ijtimoiy-iqtisodiy jarayon.

L.A.Bayev va E.V.Shugurov fikriga ko'ra, "innovatsiya" tushunchasini aniqlashda quyidagi yondashuvlar mavjud:

- obyektga ko'ra yondashuv;
- jarayonli yondashuv;
- obyekt-naflilik yondashuvi;
- jarayon-naflilik yondashuvi;
- jarayonli-moliyaviy yondashuv.

Obyektga ko'ra yondashuvga asosan, ilmiy-texnik taraqqiyotning natijasi - yangi texnika va texnologiya – innovatsiyalar bo'lib xizmat qiladi. Obyekt mezoni quyidagilarni alohida ajratib ko'rsatish imkonini beradi:

- bazis innovatsiyalar - yirik ixtirolarni amalga oshirishdan iborat, texnologiyalarning yangi avlodini yaratishga sabab bo'lgan innovatsiyalar;
- takomillashtiruvchi innovatsiyalar, ya'ni ilmiy-texnologik siklning barqaror rivojlanishi bosqichida ko'p uchraydigan kichik ixtirolarni amalga oshiruvchi innovatsiyalar;
- soxta innovatsiyalar (ratsionalizatorlik innovatsiyalar) texnika va texnologiyalarning eskirgan avlodlarini qisman takomillashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, odatda texnik taraqqiyot sekinlashishiga olib keladilar, chunki, ular jamiyatga hech qanday samara bermaydi yoki salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Innovatsion ijtimoiy texnologiyalar - bu innovatsion faoliyat usullari, jamiyatda innovatsiyalarni yaratish va moddiylashtirishga, ijtimoiy hayotning turli sohalarida sifat o'zgarishlariga hissa qo'shadigan, jamiyatdagi moddiy va boshqa resurslardan maqsadga muvofiq foydalanishga olib keladigan tashabbuslarni amalga oshirishga qaratilgan usullardir.

Ta'kidlash joizki, ijtimoiy sohadagi innovatsiyalarning asosiy maqsadi zamonaviy jamiyatning ijtimoiy muammolarini hal qilishdir. Ijtimoiy munosabatlardagi innovatsion faoliyat aholining ijtimoiy muammolarini hal qilishning yangi, yanada samarali va arzon usullarini topish zarurati bilan bog'liq.

F.Budzinski, L.Shols tadqiqotlari bo'yicha innovatsion faoliyatni quyidagi ko'rinishlari mavjud:

1. Tadqiqot. Ushbu bosqichda innovatsion faoliyat jarayonida hal qilinishi kerak bo'lgan ustuvor ijtimoiy muammolar aniqlanadi, ma'lum bir yechimlar tahlil qilinadi, muammolarni hal qilishning samarali usullarini ishlab chiqadi. Eng istiqbolli innovatsion g'oyalarni izlash va tanlash, shuningdek, ularning hayotiyligini baholash amalga oshiriladi.

2. Rivojlantirish. Oliy ta'lim tizimida tahsil olayotgan talabalar innovatsion g'oyalarni loyiha yoki modelga rasmiylashtirishga harakat qiladi. Ushbu bosqichda ijtimoiy texnologiya yoki dastur batafsil ishlab chiqiladi, so'ngra mutaxassis uning samaradorligi, asosliligi va moslashuvchanligini baholash uchun tegishli soha vakillariga murojaat qiladi.

3. Joriylanish. Ijtimoiy innovatsion kasbiy faoliyatda amalga oshirish innovatsiyalarni sinovdan o'tkazishni anglatadi, ya'ni uni qisqa vaqt ichida bitta obyektga amalga oshirish tushuniladi. Ijtimoiy sohalarida innovatsiyalarni sinovdan o'tkazish maqsadli ravishda yangi ijtimoiy tajriba yoki qidiruv faoliyatini yaratishni o'z ichiga olgan uyushgan ijtimoiy eksperiment sifatida amalga oshiriladi.

Psixologik-pedagogik adabiyotlarni tahlili shuni ko'rsatdiki, Oliy ta'lim tizimida tahsil olayotgan talabalarning innovatsion faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari muammosi bo'yicha uni kasbiy faoliyat jarayonida amalga oshirish mutaxassislardan uni bajarishga yuqori darajada tayyorgarlikni talab qiladi.

"Innovatsion faoliyat insoniyat madaniyatining bir qismi bo'lib, jamiyat taraqqiyotining eng muhim usuli sifatida mavjud va rivojlanib borayotganligi sababli, bu insonlarni tashqi dunyo bilan o'zaro munosabatlarga, ularning ehtiyojlari, qiziqishlari hamda maqsadlarini amalga oshirishga jalb qiladigan o'ziga xos inson faoliyatining shaklidir".

Globalashuv, zamonaviy jamiyat va innovatsiyalarni axborotlashtirish jarayonida talabalarning ilmiy va ijtimoiy innovatsiyalarni, mamlakatning eng muhim strategik maqsadlarini hal qiladigan ilmiy loyihalarni joriy etish bo'yicha yangi aniq faoliyatga psixologik tayyorgarligi dolzarb bo'lib qolmoqda.

Endi oliy ta'lim tizimida tahsil olayotgan talabalarni innovatsion faoliyatini rivojlantirishning navbatdagi omili sanalgan innovatsion ta'lim tushunchasiga izoh beradi.

"Innovatsion ta'lim" tushunchasi birinchi bor 1979-yilda "Rim klubi"da qo'llanilgan. Ta'lim innovatsiyalari bir necha turga ajratiladi. Ular quyidagilardir. Innovatsiyalar turli ko'rinishga ega.

Quyidagilar innovatsiyalarning asosiy ko'rinishlari sanaladi:

- yangi g'oyalar;
- tizim yoki faoliyat yo'nalishini o'zgartirishga qaratilgan aniq maqsadlar;
- noan'anaviy yondashuvlar;
- odatiy bo'lmagan tashabbuslar;
- ilg'or ish uslublari

Barcha sohalarida bo'lgani kabi ta'limda ham "novatsiya", "innovatsiya" hamda ularning mohiyatini ifodalovchi faoliyat to'g'risida so'z yuritiladi. Agar faoliyat qisqa muddatli, yaxlit tizim xususiyatiga ega bo'lib, faqatgina tizimdagi ayrim elementlarni o'zgartirishga xizmat qilsa u novatsiya (yangilanish) deb yuritiladi. Bordi-yu, faoliyat ma'lum konseptual yondashuv asosida amalga oshirilib, uning natijasi muayyan tizimning rivojlanishiga yoki uni tubdan o'zgartirishga xizmat qilsa, u innovatsiya (yangilik kiritish) deb ataladi. Ilmiy adabiyotlarda "novatsiya" (yangilanish, yangilik) hamda "innovatsiya" (yangilik kiritish) tushunchalarining bir-biridan farqlanishiga alohida e'tibor qaratiladi.

Har qanday innovatsiyada "yangi", "yangilik" tushunchalari muhim ahamiyatga ega. Turli munosabat va jarayonlarga kiritilayotgan yangilik mazmunan xususiy, subyektiv, mahalliy va shartli g'oyalar tarzida namoyon bo'ladi. Xususiy yangilik munosabat, obyekt yoki jarayonga tegishli elementlardan birini o'zgartirish, yangilashni nazarda tutadi. Subyektiv yangilik ma'lum obyektning o'zini yangilash zaruriyatni ifodalaydi. Mahalliy yangilik alohida olingan obyekt uchun kiritilayotgan yangilikning amaliy ahamiyatini tavsiflash uchun xizmat qiladi. Shartli yangilik esa munosabat, obyekt yoki jarayonda murakkab, progressiv yangilanishning sodir etilishini ta'minlovchi ma'lum elementlarning yig'indisini yoritishga xizmat qiladi.

Xulosa. R.N.Yusufbekova innovatsiyalarni pedagogik nuqtayi nazardan ko'rib chiqishga e'tiborni qaratadi. Xususan, pedagogik innovatsiyalar muallif tomonidan ta'lim va tarbiya jarayonida avval ma'lum bo'lmagan, qayd qilinmagan holat yoki natijaga olib boruvchi pedagogik hodisaning o'zgarib turishi mumkin bo'lgan mazmuni ekanligi ta'kidlanadi. Bu o'rinda mualliflar innovatsion jarayonlarning quyidagi ikki muhim bosqichini bir-biridan ajratib ko'rsatishadi:

1. Yangilik sifatida namoyon bo'ladigan g'oyalarni ishlab chiqish (m: korxona, tashkilot tomonidan muayyan turdagi mahsulotni ishlab chiqishning rejalashtirilishi).

2. Yangilik (muayyan mahsulot)ni keng ko'lamda ishlab chiqish. Oliy ta'lim muassasalarida innovatsion jarayonlarni tashkil etishda o'ziga xos yondashuvlar kuzatiladi. Ular:

1. Gnostik-dinamik yondashuv (unga ko'ra pedagoglar pedagogik innovatsiyalar, ularning turlari, yaratilishi, amaliyotga tadbiq etilishi, xorij mamlakatlarida yaratilgan ilg'or pedagogik (ta'limiy) innovatsiyalar va ularni o'rganish, mahalliy shart-sharoitlarni inobatga olgan holda amaliyotda ulardan foydalanishga doir bilim, ko'nikma, malakalarni izchil o'zlashtiradilar, o'z faoliyatlarida pedagogik innovatsiyalarni faol qo'llash borasidagi tajribalarni o'zlashtiradilar).

2. Individual faoliyatli yondashuv (bunda pedagoglar o'zlarining individual imkoniyatlari, qobiliyatlari, tajribalariga tayangan holda amaliy faoliyatda pedagogik innovatsiyalarni qo'llashda muayyan izchillikka erishadilar).

3. Ko'p subyektli (dialogik) yondashuv (mazkur yondashuv pedagogik jarayonda innovatsiyalarni hamkasblarning o'zaro, xususan, ko'p yillik ish tajribasi, kasbiy mahorat va tajribaga ega pedagoglarning faoliyatlari bilan tanishish, ularning ta'lim innovatsiyalarini

samarali, maqsadli va uzluksiz qo'llashga doir tavsiya hamda ko'rsatmalaridan foydalanishlarini ifodalaydi).

4. Insonparvarlik yondashuvi (ushbu yondashuv pedagogik jarayonda innovatsiyalarni qo'llashda ta'lim oluvchilarning imkoniyatlari, xohish- istaklari, qiziqishlari, bilim, ko'nikma va malakalari darajasini inobatga olish maqsadga muvofiqligini yoritishga xizmat qiladi).

5. Individual-ijodiy yondashuv (unga ko'ra, har bir pedagog faoliyatini o'rganilayotgan mavzu, o'quv materialining mohiyati, shuningdek, o'z imkoniyatlari, salohiyati, mahorati, ish tajribasidan kelib chiqqan holda ta'lim va tarbiya jarayonlarini ijodiy ishlanmalar asosida tashkil etadi). Innovatsion faoliyat – yangi ijtimoiy talablarning an'anaviy me'yorlarga mos kelmasligi yoki yangi shakllanayotgan g'oyalarning mavjud g'oyalarni inkor etishi natijasida vujudga keladigan majmual muammolarni yechishga qaratilgan faoliyat.

Mohiyatiga ko'ra innovatsion faoliyat ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba-sinov ishlari olib borish, fan-texnika yutuqlaridan foydalanish asosida yangi takomillashtirilgan mahsulotni yaratishdan iborat. Pedagogning innovatsion faoliyati quyidagilar bilan belgilanadi:

- yangilikni qo'llashga tayyorgarligi;
- pedagogik yangiliklarni qabul qilishi;
- novatorlik darajasi;
- kommunikativ qobiliyatning rivojlanganligi; ijodkorligi

M.Jumaniyozovni e'tirof etishicha pedagogik innovatsion faoliyat quyidagi belgilar asosida namoyon bo'ladi:

- ijodiy faoliyat falsafasini egallashga intilish;
- pedagogik tadqiqot metodlarini egallash;
- mualliflik konsepsiyalarini yaratish qobiliyati;
- tajriba-sinov ishlarini rejalashtirish va amalga oshira olish;
- o'zidan boshqa tadqiqotchi-pedagoglarning tajribalarini qo'llay olish;
- hamkasblar bilan hamkorlik;
- fikr almashish va metodik yordam ko'rsata olishlik;
- ziddiyatlarning oldini olish va bartaraf etish;
- yangiliklarni izlab topish va ularni o'z sharoitiga moslashtirib borish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi Farmoni.
2. Abdullayeva B.S. Bo'lajak o'qituvchilar o'quv-ilmiy faoliyati motivatsiyasining psixofiziologik determinantlari: Monografiya. –T.: «Bookmany print» nashriyoti, 2021 y. – 162 b.
3. Nishonova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlashni shakllantirishning psixologik asoslari: Psix.f. dok. dis. - T., 2005.- 391 b.
4. Ibragimova G.N. "Interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish". P.f.n. dis. - T., 2017. - 130 b.
5. И.Степанов. Инновационная деятельность и инновационный процесс: в чем отличие? [Текст] / И.Степанов. // Инновации. - 2004. - №2. - С. 36.
6. Белоусова, А. К. Стиль мышления: психодиагностика и возрастная психология [Текст] / А.К. Белоусова. - Ростов н/Д: ЮРГИ, 2007. -С. 156.
7. Василюк Ф.Е. Структура образа // Вопросы психологии. - М., 1993. - №5. - С. 5-19.

Miraxmetova Laziza Farruxovna

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
“Umumiy psixologiya” kafedrası o‘qituvchisi, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD)*

TALABALARDAGI SANOGEN TAFAKKURNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada talabalardagi sanogen tafakkurning pedagogik-psixologik xususiyatlari o‘rganilgan. Shuningdek, talabalarda sanogen tafakkurning rivojlanganligi ijodkorlik darajasiga bog‘liqligini empirik tahlil qilingan. Bundan tashqari talabalar sanogen tafakkur darajasini aniqlash bo‘yicha ijtimoiy-psixologik so‘rovnomasi natijalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: sanogen tafakkur, patogen tafakkur, sanogen refleksiya, sog‘lom fikr yuritish, sanogen xulq-atvor, bo‘lajak o‘qituvchi.

Аннотация. В данной статье исследованы педагогико-психологические особенности саногенного мышления у студентов. Также был проведён эмпирический анализ зависимости развития саногенного мышления у учащихся от уровня творчества. Кроме того, были проанализированы результаты социально-психологической анкеты учащихся на определение уровня саногенного мышления.

Ключевые слова: саногенное мышление, патогенное мышление, саногенная рефлексия, здравый смысл, саногенное поведение, будущий учитель.

Abstract. This article explores the pedagogical and psychological features of sanogenic thinking in students. It has also been empirically analyzed that the development of sanogenic thinking in students depends on the level of creativity. In addition, the results of the socio-psychological survey of students on determining the level of sanogenic thinking were analyzed.

Key words: sanogenic thinking, pathogenic thinking, sanogenic reflex, common sense, sanogenic behavior, future teacher.

Kirish. Jahon ta‘lim muassasalari va tadqiqot markazlarida talabalarning sanogen tafakkurini rivojlantirish, intellektual imkoniyatlarini adekvat baholay olishga xizmat qiluvchi psixoprofilaktik va psixokorreksion ishlarni amalga oshirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Chunki, ilmiy salohiyati yuqori darajada rivojlangan mamlakat barcha sohalarida doimo ilg‘or bo‘ladi. Hozirgi kunda zamonaviy ta‘lim sohasidag huquqiy me‘yoriy hujjatlarda talabalarni kreativ, tanqidiy fikrlaydigan, ta‘lim jarayonidagi yuzaga keladigan muammolarga aniq yechim topa oladigan qilib tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Qolaversa, bugungi kunda ilm-fan va texnologiyalarning tez sur‘atlar bilan rivojlanishi sharoitida uzluksiz ta‘limning barcha bosqichlari, jumladan, oliy ta‘limning samaradorlik, natijadorlik va sifatini ta‘minlashda ta‘lim oluvchilarning tafakkur, kreativlik, mantiqiylik, mazmundorlik, ijodiy qobiliyatlarining rivojlanganlik darajalariga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Sanogen tafakkur muammosi vatanimiz va qator xorijlik olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Ular asosan sanogen tafakkurning mohiyati, tabiati va uni rivojlantirish mexanizmlarini tadqiq qilishga alohida e‘tibor qaratmoqda. Mazkur ilmiy tadqiqot ishlarida asosan muammoning nazariy-falsafiy, ijtimoiy va psixologik jihatlari keng miqyosda o‘rganilgan. Mualliflar o‘z asarlarida sanogen tafakkurning individual shakllariga, uning elementlarini shakllantirishning o‘ziga xos usullariga e‘tibor berishadi. Shaxs ijtimoiy munosabatlar jarayonida o‘z xatti-harakatlarini, his-tuyg‘ularini, kayfiyatini nazorat qilishi kerak. Buning uchun u o‘zini chuqurroq anglashi lozim. Har bir inson nafaqat o‘zining his-tuyg‘ularini va xatti-harakatlarini nazorat qilishi, balki muayyan qoidalarga muvofiq fikrlash tarzini ham nazorat qila olishi kerak. Mazkur holat bilan bog‘liqlikda pedagog-psixolog olimlar fikrlashning ikkita turini ajratib ko‘rsatishadi: sanogen va patogen fikrlash. Sanogen tafakkur (lotincha: “sanus” – sog‘lom va yunon tilida – “genesis” - rivojlanish) his-hayajon, ichki kechinmalar, fikrlarni va emotsiyalarni boshqaruvchi, sog‘lomlashtiruvchi tafakkur. Patogen fikrlash bu insonning salomatligiga zarar

yetkazuvchi salbiy qarashlar yig'indisi bo'lib, u shaxsning o'z-o'zi va shaxslararo munosabatlar jarayonida vujudga keladigan emotsional beqarorlik va ichki nizolar bilan izohlanadi. Sanogen tafakkurning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqqan professor Yu.M.Orlov insonning ruhiy salomatligi masalasiga to'xtalib, quyidagi fikrni bildirib o'tadi: "Sanogen tafakkur yuritish hayot falsafasining, ong va tana salomatligining eng ishonchli yo'llaridan biridir. Ushbu metodika yangi hissiy-aqliy odatlarni yuqori darajada o'zlashtirishga imkon beradi, o'tmishdagi patogen fikrlash tajribasini to'playdi. Sanogen tafakkur inson ongini sog'lomlashtirishning samarali usuli hisoblanadi. Ya'ni, insonning hayotiy faoliyati davomida yuzaga kelgan inqirozli holatlarini ruhiy qo'llab-quvvatlash yordamida, hissiy-emotsional o'z-o'ziga ta'sir ko'rsatish orqali bartaraf etish usuli".

Rus akademigi I.P.Pavlov ta'biri bilan aytganda - fikrlash tufayli inson «borliqning hokimiga» aylangan bo'lsa, xayvonlar abadiy «tabiat quli» bo'lib qolaverdilar. Shuning uchun tafakkur voqelikni bavoysita, so'z yordami bilan umumlashgan tarzda aks ettirish jarayoni hisoblanadi. Atrof-muhitdagi hodisaning tashqi ifodasi sezgi, idrok, tasavvur prosesslarida yorqin, obrazli tarzda, turli alomatlar, fazoviy joylashishi va harakatida aks etadi. Tafakkurda esa inson ularning murakkab bog'lanishlarini anglab yetadi. Tafakkur – inson psixik faoliyatining yuksak formasi bo'lib, inson tajribasida, sezgi, idrok va tasavvur asosida vujudga kelgan va taraqqiy qilib boradi. J.Piajening qarashlariga ko'ra, shaxsning rivojlanish davrlaridan 3-davr ya'ni rasman operatsiya davri(11-15 yoshni) aynan o'smir yoshli o'quvchining komillikka, mustaqillikka, keng tafakkur yuritishga o'tish bosqichidir. Komillikni shakllantirishda avvalo, sanogen tafakkurni rivojlantirish masalasi qo'yiladi. Komillik- o'quvchini o'z salomatligini asrash va o'z faoliyatini jamiyat ravnaqi, ezgulik sari yo'naltirish, shuningdek zamonaviy hayotda mavjud bo'lgan turli tibbiy, ekologik, ijtimoiy, iqtisodiy tahdidlardan o'zini muhofaza qilish bilimi va malakalari majmuasidan iboratdir.

K.Rodjersning ta'kidlashicha, insonning barcha harakatlari qandaydir bir umumlashtiruvchi motiv asosida yuzaga keladi va amalga oshiriladi. Mazkur motivni u faollashuvga moyillik va rag'bat- deb ataydi. Rus psixolog olimi P.Ya.Galperinning fikriga ko'ra, tafakkur bu oriyentirlash - tadqiqot faoliyati, oriyentirovka jarayoni, ya'ni oriyentirovka - bu jarayon, oriyentirovka - faoliyatidir. Olim psixologiya fani intellektual masalalarni yechishda sub'yektning tafakkurga oriyentirovka qilish jarayonini o'rganishdan iborat deb tushuntiradi.

A.V.Petrovskiyning qarashlaridan ma'lumki, shaxsning taraqqiy etishi, sog'lom bo'lishi, sanogen tafakkurining rivojlanishida interindivid (faoliyatda shaxslarning sub'yektiv munosabatlari) shaxslararo munosabatlarning ta'siri muhim ahamiyatga ega bo'lib, unda metaindivid ya'ni (atrofdagi kishilarning "hissasi") ijtimoiy muhit katta ta'sir ko'rsatadi. L.C.Vigotskiy shaxsning ijtimoiy hayotida tafakkurning ahamiyatini: "Tafakkur hissiy bilish endi yetarli bo'lmay qolgan yoki hatto o'zlashtirish qilib qolgan joyda boshlanadi. Tafakkur sezgi, idrok va tasavvurlarning bilish bilan bog'liq bo'lgan ishlarini davom ettiradi va rivojlantiradi" – degan qarashlar bilan izohlagan

Sanogenik fikrlash haqida ko'plab xorijiy mutaxassislarining (R.Bern, K. Buettner, D.Jampolskiy, M.Jeyms, D.Yongvard, E.Le Shan, M.Rutter, Z.Freyd, K.Xorni va boshqalar), rus olimlarining (E.M.Aleksandrovskeya, A.B.Dobrovich, I.V.Dubrovina, A.I.Zaxarov, N.Kozlov, V.Levi, V.Y.Semke, M.Tyshkova va boshqalar) asarlari mavjud.

Talabalik davrida kasbiy bilimlar bilan bog'liq tafakkurning shakllanishi muhim hisoblanadi. Tafakkurning o'zi esa o'ziga xos xususiyatga ega. "Tafakkur" tushunchasini tahlil etish asosida uning quyidagi asosiy xususiyatlarga ega ekanligi haqidagi xulosaga kelingan:

- 1) tafakkur voqea-hodisalarni aniq va umumlashgan holda aks ettirishga imkon beradi;
- 2) borliqni bilvosita aks ettiradi, ya'ni inson o'zlashtirgan tajribalariga tayangan holda yangi bilimlarni hosil qiladi.

- 3) ijodiy fikr yuritish va faoliyatdagi ijodkorlik inson tafakkurining muhim xususiyati hisoblanadi.

- 4) tafakkur til bilan bevosita bog'liq. Chunki, fikrlashni, tafakkur yuritishni ideal va ijtimoiy hodisa sifatida baholash mumkin. Sababi u faqatgina til vositasida reallikka aylanadi. Natijada,

barcha uchun tushunarli va bevosita qabul qilinadigan, his etadigan shaklga kiradi va insonlar o'rtasida o'zaro fikr almashish vazifasini bajaradi.

Demak, til inson tafakkurining real voqealik kasb etishiga xizmat qiladi. Tafakkur va uning o'ziga xos xususiyatlari «sanogen tafakkur» va patogen tafakkur tushunchalari mazmunini aniqlashtirish imkonini beradi.

Har bir inson nafaqat o'zining his-tuyg'ularini va xatti-harakatlarini nazorat qilishi, balki muayyan qoidalarga muvofiq fikrlash tarzini ham nazorat qila olishi kerak. Mazkur holat bilan bog'liqlikda pedagog-psixolog olimlar fikrlashning ikkita turini ajratib ko'rsatish adi: sanogen va patogen fikrlash. Talabalik yillarida yoshlarning hayoti va faoliyatida o'zini o'zi kamolotga yetkazish jarayoni muhim rol o'ynaydi, lekin o'z-o'zini boshqarishning tarkibiy qismlari (o'zini-o'zi tahlil qilish, nazorat etish, baholash, tekshirish va boshqalar) ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Tahlil va natijalar. Bizning talqinimizcha, har bir talaba uchun ijobiy fikrlash zavq olish qobiliyatidir va zavqlanish qobiliyati juda muhimdir, chunki: ijobiy his-tuyg'ular, zavq va yaxshi kayfiyatning tez tiklanishiga yordam beradi. Yaxshi kayfiyatdagi talabaning ishlash qobiliyati yuqori bo'lib, katta muvaffaqiyatlarga erisha oladi.

Boshqa talabalar bilan bo'lishilgan zavq ularning atrofida hamdardlik kuchayishiga va shaxslararo munosabatlarning yaxshilanishiga olib keladi.

Talabalarda ijobiy fikrlashni rivojlantirish (shakllantirish)ga qaratilgan bir qator holatlar mavjud:

- hissiy, nerv-mushak, aqliy kuchlanishni kamaytirish;
- surunkali charchoq va hissiy charchashning oldini olish;
- salbiy hissiy tajribalarni yengishda yordam berish yoki ularni yengish usullarini o'rgatish;
- avtomatik fikrlarni tanib olish usullarini o'rganish;
- his-tuyg'ularingizni ochiq ifoda etish qobiliyatini rivojlantirish;
- hissiy holatlarni tartibga solish;
- turli sezgilardan lazzat olish qobiliyatini rivojlantirish;
- diqqatni zavq keltiradigan voqealar, narsalar va harakatlarga qaratish.
- Sanogen tafakkur bo'yicha keltirilgan mulohazalar va berilgan ta'riflardan kelib chiqqan

holda uning quyidagi o'ziga xos pedagogik-psixologik xususiyatlari ajratildi:

- O'z fikrlarini tashqi ifodalay olish, ya'ni eksteriorizatsiyaning namoyon bo'lishi;
- Fikrlash jarayonida interiorizatsiya (ichki qabul qilish)ning namoyon bo'lishi;
- Fikrlashda noodatiylik (improvizatsiya) va ijodkorlik;
- Fikrlashning refleksivligi va pozitiv fikrlash;
- Fikrlashda shaxsiy refleksiya va mustaqillikning namoyon bo'lishi;
- Fikriy harakatlarning uyg'un amalga oshirilishi (eshitish, nutq va harakat);
- Fikrlashdagi moslashuvchanlik;
- Fikrlash jarayonida o'z-o'zini ishlantirish va nazoratning yuqoriligi;

“Talabalar sanogen tafakkur darajasini aniqlash” ijtimoiy-psixologik so'rovnoma

Tadqiqotimiz davomida biz sanogen tafakkur darajasini o'rganish maqsadida so'rovnoma ishlab shiqdik.

Yo'riqnoma: Sizga xulq-atvoringiz xususiyatlari aks yetgan bir nechta savollar to'plami taqdim yetilmoqda. Har bir savolni diqqat bilan o'qib bo'lgach, ha (+) yoki yo'q (-) tarzda savolni tasdiqlaysiz. Har bir tasdiq ushuni 1 ball belgilangan.

Mazkur metodika sizdagi tafakkur turini tekshirishni emas, sizning biror bir faoliyatdagi xulq-atvoringizdagi individual xususiyatlarni aniqlashga qaratilgan. Savollarga samimiy va ikkilanmasdan javob berishingiz shart sanaladi. So'rovnomamiz 4 ta shkaladan iborat bo'lib, har bir shakala talabalardagi ma'lum bir tafakkur darajalarini shakllanganligini aniqlab beradi. Endi har bir shaklning tavsifiga o'tamiz.


1. Mustaqil fikrlash - mahsuldorlik faoliyatida shaxsning ichki resurslarini kashf etish imkoniyatlarining qay darajadiligini namoyon etadigan, kreativ va qiymat-mazmunli sohalarning birligi bilan tavsiflanadigan uyg'un shakldir.

2. Nostandart fikrlash - prinsipial yangi g'oyalarni yaratishga tayyorligi bilan ajralib turadigan insonning ijodiy qobiliyati. P.Torrensning fikriga ko'ra, ijodkorlik quyidagilarni o'z ichiga oladi muammolarga, kamchiliklarga yoki qarama-qarshiliklarga nisbatan sezgirlikni oshirish, ushbu muammolarni aniqlash bo'yicha harakatlar, farazlarni ilgari surish, gipotezalarni sinash va o'zgartirish asosida yechimlarni topish, qaror natijasini shakllantirish ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun o'quv qo'llanmalari qo'llaniladi, ular yangi elementlarni o'z ichiga olgan kamchilik yoki ochiqlik bilan tavsiflanadi, ko'plab savollarni shakllantirishga da'vat etiladi.

3. Sanogen tafakkur - his-hayajon, ichki kechinmalar, fikrlarni va emotsiyalarni boshqaruvchi, sog'lomlashtiruvchi tafakkur. Bundan tashqari bunday talabalar inson ongini sog'lomlashtirish, o'z-o'zini kamolga etkazish maqsadlariga erishish uchun sharoit yaratish, ya'ni fe'l-atvor hamohangligi, o'z-o'zini va atrofdagilar bilan kelishish, shuningdek yomon odatlarni bartaraf etish, o'z his-tuyg'ularini boshqarish, o'z ehtiyojlarini nazorat qilish ustun bo'ladi.

4. Refleksiv tafakkur - faoliyat va muloqotni tashkil etishdagi refleksiya vazifalari tipologiyasini ishlab chiqish, tafakkur darajasi, tarkibiy qismi (komponenti) va ijodiy jarayonda shaxsning o'zini-o'zi rivojlantirish mexanizmi, muayyan vaziyatda obyekt va u bilan ta'sirda bo'lish haqidagi bilimlar hamda 'zini o'zi anglashi, ijodiy tafakkur yuqoriligi bilan ajralib turadi.

Talabalar sanogen tafakkurini o'rganish maqsadida biz Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetidan 100 nafar psixologiya ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarni respondent sifatida jalb etildi. Tadqiqotimiz davomida biz ularni gender hamda bosqichlar kesimida ham tahlil qilib chiqdik. Talabalar sanogen tafakkur darajasini o'rganish bo'yicha bir qator metodikalardan foydalanib, tegishli empirik ma'lumotlarni qo'llashga kiritiladi. Shaxasdagi sanogen tafakkur tuzilmasini aniqlash imkonini beruvchi "Talabalar sanogen tafakkur darajasini aniqlash" ijtimoiy-psixologik so'rovnomasi o'tkazib oldik va natijalarni tahlil qildik. Bunda biz talabalarni bosqichlar kesimida tahlil qildik. Natijalarni bosqichlar kesimida tahlil qilish orqali sanogen tafakkurni rivojlanish dinamikasini kuztish imkoniyatiga ega bo'ldik.



1-rasm. Talabalardagi sanogen tafakkurni rivojlanganlik darajasini o'ziga xos xususiyatlari

Olingan natijalarda ko'rinib turibdiki sanogen tafakkurning past darajasi 1-bosqichlarda 18%ni, 4-bosqichlarda 8%ni tashkil etgan. Mazkur holat talabalardagi o'z hissiyoti va fikrlarini boshqarish, ularni konstruktiv ifodalash ko'nikmasini yetishmasligidan dalolat beradi. Birinchi bosqichlardagi mazkur holat o'quv jarayoniga moslashish bilan bog'liq bilishga oid qiyinchiliklar, ya'ni kasbiy tushunchalarni o'zlashtirishdagi murakkabliklar hamda ta'limga moslashish bilan bog'liq jarayonlar ta'sirida yuzaga keladi. Chunki talaba birinchi bosqichga qabul qilinganda ijtimoiy moslashishni talab etuvchi shaxslararo munosabatlar, pedagoglar bilan muloqotning o'ziga xos jihatlari bilan bog'liqdir. Qolaversa, sanogen tafakkurni rivojlanishi talabalarda

kognitiv faoliyat ko'nikmalarining shakllanganlik darajasi bilan bog'liq. Talabalarda kognitiv rivojlanish jarayonida uning olam haqida olgan ma'lumotlari, uning xotirada saqlanishi va bilimga aylantirilishini hamda bu bilimlarning diqqat va xatti-harakatlariga qanday ta'sir qilishi jihatlariga e'tibor qaratilishi bilan bog'liq. Birinchi bosqich talabalariga qaraganda to'rtinchi bosqich talabalarida kognitiv faoliyatning yuqoriroq bo'lishi ularda sanogen tafakkurning nisbatan yuqoriroq bo'lishiga olib kelganligini kuzatishimiz mumkin.

Sanogen tafakkurning o'rtacha darajasi 1-bosqich talabalarining 66%ida, 4-bosqich talabalarining 58%ida kuzatilgan. Mazkur holat talabalarda ratsional va irrotsional qarashlarning teng darajada ifodalashidan dalolat beradi. Bunda emotsiya va tafakkur o'zaro bir-biri bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi. Talabalarning kasbiy bilimlarini shakllanishi bilan bog'liq ravishda ta'lim jarayoni bilan bog'liq destruktiv fikrlari, qarashlari negativ emotsiyalarni namoyon bo'lishini muvozanatlashtirib turishga xizmat qiladi. Bunda talabalarda kasbiy bilimlarni shakllanishi ta'lim jarayoni bilan bog'liq kaususli holatlarda stressga barqarorlikni namoyon etishiga, psixoemotsional barqarorlikni saqlashiga xizmat qilishi aniqlangan.

Sanogen tafakkurning yuqori darajasi 1-bosqichlarning 16%ida 4-bosqichlarning 34%ida aniqlangan. Birinchi bosqichlardagi ta'limga moslashish bilan bog'liq holatlar ratsional tafakkurning yuqori darajada namoyon bo'lishiga, 4-bosqichlarda talabalarning "ta'lim subyekti" sifatida o'z ijtimoiy roliga moslashganlik hamda kognitiv immunitetni shakllanganlik darajasidan dalolat beradi. Qolaversa, 4-bosqich talabalarida sanogen tafakkurning ratsional darajasini yuqoriligi emotsionallik bilan ham uzviy bog'liqdir. Bunda talabalarning o'zlaridagi salbiy his-tuyg'ularni yo'qotish, o'rnini ijobiyarlari bilan to'ldirish qobiliyatini ustunligini ko'rsatadi. Yuqori bosqich talabalarida insonparvarlik va sub'ektivlik tamoyiliga asoslangan muloqot uslubini shakllanganligi, talabada turli vaziyatlarda o'ziga ishonch bilan qarash tuyg'usini tarkib topganligini bildiradi.

Xulosa. Talabalarda sanogen tafakkurni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini tadqiq etish asosida quyidagi xulosalarni chiqardik:

Sanogen tafakkurning darajaviy ifodalanishi uning psixologik xususiyatlari bilan bog'liq bo'lib, uning diagnostik jihatlarini metodologik tamoyillar negizida rivojlanib borishiga hamohang tarzda kuzatilish aniqlangan. Talabalarda sanogen tafakkurning rivojlanishi uning ta'lim sub'ekti sifatidagi kognitiv, motivatsion, emotsional xususiyatlarini barqaror shakllanishiga bog'liq dinamika differentsiatsiyaga ega ekanligi kuzatilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF–60-sonli Farmoni.
2. Алиева М. Тренинг развития жизненных целей / М.: Алиева, Е.Трогинкина – СПб.: Реч, 2002. – 174 с
3. Гальперин П.Я., Психологии творческого мышления// Вопросы психологии. Г.1982 – № 5
4. Davletshin M.G., Abduraxmonov F.R. "Qadimgi Sharq mamlakatlarida psixologik fikr taraqqiyoti". – T.: 1995. –B.26.
5. Adler A. Reconsideration of testing for competence rather than intelligence. 1991, October, 1012-1023.
6. Эллис А. Гуманистическая психотерапия: Рационально-эмоциональный подход/Пер.с англ.-СПб.:Изд-во Сова; М.: Изд-во ЭКСМО-Пресс, 2002. – С.272.
7. Шнейдер Л.Б. Профессиональная идентичность: Структура, генезис и условия становления. Автореф. дисс. док. психол. наук. 2001.

Qodirov Obid Safarovich

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti "Psixologiya" kafedrasini mudiri,
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

YANGI O'ZBEKISTONDA TARBIYASI QIYIN O'SMIRLAR BILAN ISHLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada tarbiyasi qiyin o'smirlar bilan ishlashning psixoprofilaktik mexanizmlari xos qonuniyatlar, yoshlar tarbiyasida yuzaga kelayotgan ba'zi bir qiyinchilik va kamchiliklarning ijtimoiy psixologik sabablari, barkamol yoshlarni tarbiyalashda ijtimoiy-madaniy va milliy-psixologik omillarning tarbiyaviy ta'siri haqida fikr bildirilgan.

Tayanch so'zlar: psixika, intellektual salohiyat, aqliy taraqqiyot, o'z-o'zini anglash, turmush tarzi, salbiy o'zgarishlar, hamkor tarbiya, etnopsixika, psixoprofilaktika.

Аннотация. В статье рассматриваются психопрофилактические механизмы работы с трудно обучаемыми подростками, конкретные закономерности, социально-психологические причины некоторых трудностей и недостатков в воспитании молодёжи, воспитательное влияние социокультурных и национально-психологических факторов на образование всесторонне развитой молодёжи.

Ключевые слова: психика, интеллектуальный потенциал, психическое развитие, самосознание, образ жизни, негативные изменения, совместное обучение, этнопсихика, психопрофилактика.

Abstract. In this article, psychoprophylactic mechanisms of working with difficult-to-educate adolescents, specific laws, socio-psychological reasons for some difficulties and shortcomings in the education of young people, the educational influence of socio-cultural and national-psychological factors in the education of well-rounded young people are expressed.

Key words: psyche, intellectual potential, mental development, self-awareness, lifestyle, negative changes, co-education, ethnopsychiatry, psychoprophylaxis.

Kirish. Yangi O'zbekistonda yoshlarning bilimi va ma'naviy dunyosini boyitish, intellektual salohiyatini oshirish borasida ko'pgina ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Aksariyat yoshlar yaratilgan imkoniyatlardan unumli foydalanishyapti. Shu bois ham ular orasida jannatmakon yurtimiz dovru'g'ini olamga yoyayotgan iqtidorli, iste'dodlilari judayam ko'p. Biz bundan faxrlanamiz. Biroq "guruch kurmaksiz bo'lmaganidek", hayotda o'z yo'lini topa olmagan, natijada bilib-bilmay jinoyat ko'chasiga kirib qolayotgan tarbiyasi qiyin o'smirlarni uchratish mumkin. Ular yoshlikning jo'shqinligini, kuch-g'ayratini nomaqbul ishlarga sarflamoqda.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuniga binoan, ta'lim tizimida Davlat ta'lim standartlarining ishlab chiqilishi va uning tarkibiy qismi sifatida o'quv dasturi va darsliklarning tayyorlanishi hamda ularning amalda joriy etilishi ta'lim tizimini jahon andozalariga xos takomillashtirishning dastlabki bosqichi bo'ldi. Biroq ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan fidoyi insonlar va o'qituvchilar jamoasi har qancha urinmasin, baribir ta'lim jarayonida tarbiyasi qiyin o'smirlarning uchrab turishi hammani ajablantiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojatnomasida "Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo'liga o'tmoqdamiz. Bu bejizga emas albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g'oyaga innovatsiyaga tayangan davlat yutadi. Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovatsion g'oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak" deb ta'limga innovatsion yondashuv to'g'risida aniq yo'l -yo'riqlar ko'rsatib berilgan.

Hozirgi maktab ta'limining bosh vazifasi o'quvchilarning fan asoslarini faol va ongli o'zlashtirishini ta'minlashdan iborat. O'zlashtirish hamisha faol aqliy jarayon natijasi bo'lib, odamning bilishga oid olamdagi xilma-xil noma'lum narsa va hodisalar mohiyatini anglash bilan

belgilanadi. Psixologiya fani nuqtayi nazaridan no'malum narsa va hodisalar mohiyatini anglash, bilish yoki uni ijodiy o'zlashtirish jarayoni asosan uchta yo'nalishga bog'liq bo'ladi.

Birinchidan, o'zlashtirilayotgan materialning mazmun-mohiyati o'zlashtiruvchi uchun qay darajada mos va tushunarlilikiga, ahamiyatliligiga va u qanday usulda yetkazilayotganligiga bog'liqdir.

Ikkinchidan, ta'lim jarayonini boshqarayotgan mas'ul kishining shu sohadagi bilimi va tajribasiga, malaka va mahoratiga, shaxsiy va kasbiy fazilatlariga bog'liq.

Uchinchidan, o'quvchining aqliy taraqqiyoti darajasiga, emotsional-irodaviy holatiga, o'qishga nisbatan unda qaror topgan individual psixologik xususiyatlariga, qiziqishi va havaslariga bog'liqdir. Ana shu uchta yo'nalish to'la ta'minlangan ta'lim jarayonidagina samarali o'zlashtirish hosil bo'lishi allaqachonlar isbotlangan. Shu bois mamlakatimiz istiqbolining dastlabki kunlaridanoq buyuk ma'naviyatimizni tiklashga, milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirishga, uning milliy zaminini mustahkamlab, zamon talablari bilan uyg'unlashtirish asosida jahon andozalari va ko'nikmalari darajasiga chiqarishga alohida ahamiyat berib kelinmoqda.

Ana shunday tarbiyaviy muammolarni hal etishning qanday yo'llari va choralari mavjud? Hozirgi kunda psixologik olimlar tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha tarbiyasi qiyin, injiq, o'zi bilganicha ish tutadigan, quloqsiz, xulqida salbiy illat va ko'rinishlar oshkor ifodalanib turadigan bolalarning kelib chiqishida ijtimoiy sabablardan tashqari pedagogik, psixologik, iqtisodiy, etnomadaniy va hududiy sabablarning ham muhim ta'siri borligi isbotlandi. Ana shu muammolarni o'rganish borasida olib borayotgan tadqiqotlarimiz natijalarining tahliliga ko'ra o'smirlar tarbiyasida, xulq-atvorida, munosabatlarida, maqsad-intilishlarida nojo'ya xatti-harakatlar paydo bo'lishining sabablari va motivlari (turtkilari) har xilligi aniqlandi. Jumladan, shaxsning biologik o'sishidagi nuqsonlar, sezgi organlarining kamchiliklari, o'qishga salbiy ta'sir etuvchi oliy nerv faoliyati va temperamentning shakllanishidagi qusurlar ham tarbiyasi qiyinlikka olib kelishi mumkin. Shaxsning psixik o'sishidagi kamchiliklar, chunonchi, aql-idrokning zaif rivojlangani, irodaning bo'shligi, hissiyotning kuchsizligi, zarur ehtiyoj va qiziqishlarning mavjud emasligi, o'smirlarning intilishiga xos mavjud imkoniyati o'rtasidagi nomutanosiblik va hokazolar xatti-harakatni izdan chiqaradi.

Shaxsning fazilatlarini tarkib topishidagi nuqsonlar:

- axloqiy hisslarning yetishmasligi,
- o'qituvchi, sinf jamoalari, oila a'zolari bilan noto'g'ri muloqot,
- ishyoqmaslik, bo'sh vaqtni to'g'ri taqsimlamaslik ham salbiy qiliqlarni vujudga kelishiga asos bo'ladi.

Shaxsning bilim, o'quv faoliyatidagi kamchiliklari:

- aqliy faoliyat usullaridan keng foydalana bilmaslik, eng muhimi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashdagi uzilishlar;

maktab faoliyatidagi kamchiliklar:

- o'qitishdagi nuqsonlar,
- tarbiyaviy chora va tadbirlardagi xatolar ham shular jumlasiga kiradi.

Maktabdan tashqari muhitning ta'siridagi kamchiliklar, xususan,

- oilada pedagogik-psixologik bilimlarning yetishmasligi,
- oilaviy nizolar, ajralish, ota-onaning ichkilikka va noaxloqiy hayotga berilishi
- balog'atga yetmagan tengqurlarining ta'siri,
- madaniy-ma'rifiy ishlab chiqarish jamoalari hamda jamoatchilik qurshovidagi

kamchiliklar ham tarbiyasi qiyin o'smirlar ko'payishiga sabab bo'ladi.

So'nggi yillarda jamiyatning barcha sohalarida (iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy) global o'zgarishlar sodir bo'la boshladi. Shiddat bilan rivojlanib borayotgan bu davrda yosh avlodning, ayniqsa, o'smirlarning xulqiga ko'proq ta'sir qilib, turli o'zgarishlarga sabab bo'lib ularda ma'naviy bo'shliq hosil bo'lishiga olib keldi. Buning uchun:

- ✓ o'smirlarni zamonaviy kasbiy yo'nalishlar, boshqalarga zarari tegmaydigan, biroq foydali bo'lgan qiziqarli mashg'ulotlar bo'yicha xabardorligini oshirish maqsadida umumta'lim maktablari, mahallalarda uchrashuvlar, davra suhbatlari o'tkazish;

✓ aynan shu toifadagi bolalarda entuziazm kuchli ekanini inobatga olgan holda ularni ixtiyoriy ravishda “keksalarga yordam”, “nogironligi bo‘lgan farzandi bor oilalarga ko‘mak” aksiyalariga jalb qilish;

✓ o‘smirlarning bo‘sh vaqtlarini oqilona tashkillashtirish yuzasidan maqsadli yo‘naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur.

Ma'lumki, yoshlarning ma'naviy-ahloqiy tarbiyasi bilan oila, mahalla, ta'lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari, xuquqni muhofaza qiluvchi tashkilotlar, ilmiy-pedagogik kadrlar shug'ullanadilar. Tarbiya jarayoni barcha ishtirokchilarining bahamjihatlik bilan olib boradigan ishlarigina o'zining ijobiy natijalarini berishi mumkin. Tarbiyasi og'ir bolalar va o'smirlarni e'tibor, g'amxo'rlik orqali tarbiyalash kelgusida ularning hayotga muvaffaqiyatli moslashishida muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. “Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida”. Qonunchilik palatasi tomonidan 2010 yil 12 avgustda qabul qilingan. Senat tomonidan 2010 yil 28 avgustda ma'qullangan.// Qalqon. 2010. № 10 B- 2-13.
2. Sh.M.Mirziyoyev Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T.: “O'zbekiston”, 2017. -48 b.
3. Sh.M.Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: “O'zbekiston” NMIU, 2017. -488 b.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 2022 yil 20 dekabr. // www.uza.uz
5. O'zbekiston Respublikasi Milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. 3-tom, Toshkent, -704 b.
6. A.Jabborov O'qituvchi etnopsixologiyasi. Qarshi “Nasaf”, 2015. – 180 b.
7. G'oziyev E.G'. Jabborov A. M. Faoliyat va xulq-atvor motivatsiyasi. T.:, 2003. -124 b.
8. Qodirov O.S. “O'smirlarda (11-15 yosh) jinoyat motivlari shakllanishining psixodiagnostikasi va psixokorreksiyasi” // Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertasiya. T.: 2020, - 155 b.
9. O.S.Qodirov. Umumiy psixologiya // O'quv qo'llanma. - Samarqand, 2022.-250 b.
10. O.S.Qodirov, Sh.N.Xotamov. Ijtimoiy psixologiya // Darslik. - Samarqand, 2023.-360 b.

KICHIK MAKTAB YOSHDAGI BOLALARDA AQLIY TARAQQIYOT MUAMMOLARINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada kichik maktab yoshdagi bolalarda aqliy taraqqiyot muammolarining pedagogik-psixologik jihatlari o'rganilgan. Shuningdek kichik maktab yoshdagi bola shaxsida aqliy taraqqiyotni o'rganishda turli xil amaliy metodikalarning o'rni, maktab aqliy taraqqiyot metodikasi va bu metodika jarayoni bolalarning ijtimoiy – psixologik taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etishi ilmiy nazariy jihatdan yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: kichik maktab yoshi, inqiroz, mehnat faoliyati, o'yin faoliyati, individuallik, tafakkur, aqliy jarayonlar, diqqat, sezgi, idrok, qiziqish, ustanovka, motivatsiya.

Аннотация. В данной статье рассмотрены педагогико-психологические аспекты проблем психического развития детей младшего школьного возраста. Наряду с этим в научно-теоретическом аспекте освещена роль различных практических методик в изучении психического развития личности ребёнка младшего школьного возраста, методика школьного психического развития и значение этого методического процесса в социально-психологическом развитии детей.

Ключевые слова: младший школьный возраст, кризис, трудовая деятельность, игровая деятельность, индивидуальность, мышление, психические процессы, внимание, интуиция, восприятие, интерес, установка, мотивация.

Abstract. This article explores the pedagogical-psychological aspects of mental development problems in young school-aged children. Also, the role of various practical methodologies in the study of mental progress in the person of a child of a small school age, the methodology of school mental development and the importance of this methodical process in the socio – psychological development of children is covered in scientific theory.

Key words: small school age, crisis, labor activity, game activity, individuality, thinking, mental processes, attention, intuition, perception, interest, ustanovka, motivation.

Kirish. Ma'lumki, har qanday insonning o'sish, rivojlanish va shakllanish davrlari ta'lim-tarbiya faoliyatisiz amalga oshmaydi. Aqliy taraqqiyot va ta'lim-tarbiya, bir-biriga chambarchas bog'liq faoliyatdir. Ta'lim tizimini tubdan isloh qilish hozirgi davr talabi bo'lib, ta'lim tizimidagi o'zgarishlar, o'quv dasturini mukammallashtirish, muammoli darslarni tashkil qilish ta'limni mukammallashtirishga qaratilgandir. Ta'lim jarayonida o'quvchi faollik ko'rsatmasa amalga oshirilayotgan tadbirlar ko'zlangan natijani bermaydi. Ta'lim jarayonida o'quvchilarni mustaqil ishlashga o'rgatish ham muhimdir. Ta'lim jarayonida ular, maktab o'quvchilariga qo'yiladigan har – xil talablar bilan tanishadi. Fanlarni o'zlashtirish uchun psixologik jihatdan tayyorlanadi. Ular psixikasida bilim olish uchun ko'nikma, malakalar yetarli darajada rivojlanib boradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining asosiy faoliyati o'qish hisoblanadi. O'quv faoliyati boladan nutq, tafakkur, qobiliyat rivojlanishi uchun yangi sharoit yaratadi.

Bolalarda aqliy taraqqiyot muammolari, quyidagilardan, bola shaxsiy va intellektual imkoniyatlari rivojlantirish uchun eng yaxshi sharoitlarni yaratish asosida psixik tarakkiyotdan chetlashishlarni tuzatishdan, shaxsiy va axloqiy taraqqiyotidan yoqimsiz salbiy yo'nalishlarning oldini olish.

Psixologik maslahat berish amaliyotidan normal taraqqiyot korreksiyasi va normal taraqqiyot korreksiyasidan farqlanadi. Normal taraqqiyotda tuzatishning mazmuniga ko'ra quyidagi turlari ajratiladi, aqliy taraqqiyot korreksiyasi, shaxs va taraqqiyoti korreksiya, salbiy holatlarning oldini olish korreksiyasidir. Psixolog ishida korreksion vazifalarni yechish maksadida psixologik yordamni tashkil etishga bog'lik ravishda uning turini ko'rsatish mumkin: madaniy oqartuv ishlari, maslahat-tavsiyalar berish, individual va korreksiya.

Bolalar psixik taraqqiyotini tuzatish muammosi bo'yicha chet el psixologiyasiga murojaat qilishimiz quyidagilar bilan bog'liq:

1) Chet el psixologiyasida tuzatish ishlarining texnikasi, o'tkazish tartiblari, metodlari, juda yaxshi ishlangan bo'lib, amaliy psixologik vazifalariga moslashtirilgandir.

2) So'nggi vaqtlarda tuzatish metodlari va texnikalarini, ularning nazariy manbalari va asoslarini tahlil qilmasdan to'g'ridan - to'g'ri notanqidiy o'zlashtirish kuchaymoqda.

3) Chet el psixologiyasidagi bola psixik taraqqiyotini tuzatish muomalasidagi barcha nuqtai nazarlarni guruhga ajratamiz.

a) psixodinamik nuqtai nazar bo'yicha terapevtik kuch ongni, uning tuzilishini rivojlantirishga qaratiladi.

b) xulqiy nuqtai nazar bo'yicha individ uning tashqi muhitda aktivligini aniqlaydigan stimulyatsiya bog'lanishining ko'rinishini o'zgartirishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. Ilg'or ilmiy psixologiya fanida shaxs ijtimoiy taraqqiyoti bo'yicha yaratilgan umumiy qonuniyatlar, konsepsiyalar, shuningdek, shaxsga individual yondashuv prinsplari B.M.Teplov, V.S.Merlin, N.S.Leytes, E.A.Golubeva, B.R.Qodirov, E.G'. G'oziyevlar tomonidan, shaxs va ijtimoiy ustanovka prinsplari D.Uznadze, Sh.A.Nodirashvili, A.G.Asmolov, G.Ollport, G.Rozenberg va boshqalar shaxs va munosabat mutanosibligi prinsiplari V.N.Myasishev, T.Liri, S.L.Rubinshteyn, B.S.Merlinlar shaxs aqliy taraqqiyot bosqichlari haqida o'z asarlarida keltirganlar.

Ko'p yillik kuzatishlar va pedagogik tajribalar, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bolaning aqliy rivojlanish darajasini pastligi yoki ularda ma'lum o'quv malakalarning rivojlanmaganligi, past o'zlashtirishga, bolaning kasbga, ilmga qiziqishining pasayishiga olib keladi. Shuning uchun bolaning intellektual rivojlanish darajasini, ularda mavjud o'quv malakalarini o'rganish, kamchiliklarni tuzatish, maxsus o'quv va mehnat malakalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan ishlar o'quv-tarbiya jarayonining samaradorligini oshiradi. Hozirgi vaqtda pedagoglar va pedagogik psixologiya mutaxassislari oldida ikkita o'zaro uzviy bog'liq muammo-bolaning ta'lim olishga bo'lgan qobiliyatini va o'zlashtirishning pastligi sabablarini, ular orasidagi bog'liqlikni o'rganish dolzarb bo'lib turibdi.

Agar bolaning ta'lim olishga bo'lgan qobiliyatini alohida o'quv fanlari bo'yicha o'quv materiallari asosida tuzilgan metodika yordamida aniqlansa, uning faqat shu o'quv predmeti (fizika, geometriya, chet tili) bo'yicha ta'lim olishga bo'lgan qobiliyati aniqlanadi. Masalan vazifalarning barchasi matematika fanidan tuzilsa, bolaning matematika fanidan qanday bilimga egaligini, ehtimol unda qanchalik shu fanni o'zlashtirishga imkoniyat va bilim borligini ko'rish mumkin. Bunday metodikalarning qo'llanilish sohalari, chegaralari va qo'llanilish muddatlari cheklangan. Diagnostikaning asosiy vazifasi faqatgina bir fandan emas, balki bir qancha fanlardan o'zlashtirishini, yomon o'zlashtirish sabablarini (agar shunday hol ro'y bergan bo'lsa) topishdangina iborat emas. Pedagog uchun bolaning haqqoniy o'quv imkoniyatlarining barcha qirralarini iloji boricha to'liq ochib berishga xizmat qiluvchi, har qanday sharoitda, qaysi predmetdan qanday mavzu o'tilganidan qat'i nazar qo'llash mumkin bo'lgan metodikalar zarur.

Tahlil va natijalar. Biz tomondan o'rganilgan asliy harakatlar yig'indisini o'rgatish proseslari bilan bog'liq bo'lgan intellektual faoliyat effektivligini aniqlash uchun yetarli deb hisoblash mumkin. Ularni o'rganish an'anaviy tarzda psixologiyada mentimetrik yo'nalishlar bilan bog'liq va konkretroq L.Bine, L.Termen, D.Veksler nomlari bilan bog'liq. Bu metodikalar nafaqat psixodiagnostik ahamiyatga, balki, o'lchash texnikasining taqqosiy ko'rsatkichlariga bog'liq. Intellektga metodika tanlashda asosiy kriteriy bo'lib, ishonchlilik va D.Veksler metodikasining validligi. Bu metodik eksperimental ma'lumotlarga taqqoslanish bilan isbotlangan. Ma'lumotlar boshqa kattaroq metodikalar va tekshiriluvchilarimizni Oliy o'quv yurtida o'qishlari davomida davomiy kuzatishlar orqali bizning kompleks tadqiqotlardan olingan.

Intellektga standartlashtirilgan Vekslerning metodikasi 11 ta turli-xil vazifalardan iborat, ulardan har-biri alohida metodikani ifodalaydi va ilgari sobiq sovet va chet el psixologiyasida qo'llanilib kelingan, oxirgi paytda esa injener va mehnat psixologiyasida keng qo'llanilmoqda.

Veksler metodikasi katta yoshdagilarni butun kattalik davri (16 yoshdan 15 yoshgacha) mobaynida intellekt xususiyatlarini va o'zgarishlarini aniqlash uchun belgilangan.

Veksler umumiy intellektni ikki guruhda mavjudligini tan oladi: Verbal-6 va noverbal-5.

Verbal maktab

1. Umumiy xabardor bo'lishning subtesti.

Bu yerda nisbatan sodda ma'lumotlar va bilimlar zaxirasi o'rganiladi, bunga muvofiq esda saqlab qolishning to'g'riligi, turg'unligi. Ma'lum darajada mazkur subtest savollari yordamida qiziqishlarni aniqlash mumkin. Eksperimental ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, umumiy xabardor bo'lish yoki o'tishi bilan susayishi qiyin bo'lar ekan. Hammasi bo'lib 29 ta savol taklif etiladi. To'g'ri javob uchun 1-ball.

Misollar:

- Rezina nimadan qilinadi?
- Nimaga, quyoshda to'q kiyimda och kiyimga nisbatan issiq bo'ladi?
- Gnoseologiya nima?

Funksiya:

Materialni uzoq vaqt davomida xotirada saqlab turish. Assotsiatsiyalar va malaka tashkillanishi.

Natijaga ta'sir etuvchi faktorlar:

Madaniy muhit, qiziqishlar.

2. Umumiy tushunishlikning subtesti.

Subtest ifodalar ma'nosini tushunish qobiliyatini, fikr-mulohaza yuritish qobiliyatini, "sog'lom fikrni" o'lchaydi. Yana ijtimoiy, ma'naviy normalarni tushunish darajasini ifodalanadi. Tekshiriluvchidan berilgan holatni bir necha gaplar bilan adekvat yechilishi talab etiladi. Veksler "sog'lom fikr" mukammal kompleksli funksiya, va bu yerda nafaqat intellektual, balki emosional faktorlar ham ishtirok etadi. Yosh o'tishi bilan bu subtestga ko'ra ahamiyatli natijalar o'zgarishi kuzatilmaydi, 14 ta savol taklif etiladi. Baho javobning to'g'riligiga ko'ra qo'yiladi: 0,1,2.

Misollar:

- "Temirni issig'ida bos" qanday ma'noni bildiradi?
- Nimaga kar bo'lib tug'ilgan odam gapirolmaydi?

Funksiya:

Abstrakt tafakkur. Bilimlar tashkillanishi. Tushunchalar shakllanishi.

Natijaga ta'sir etuvchi faktorlar:

Real holatlarga reaksiya. Diqqat hajmi.

3. Arifmetik subtest.

Bu subtestda arifmetik vazifalar seriyasini og'zaki yechish talab etiladi. Vazifalarni yechishiga qarab diqqatni konsentratsiyalash qobiliyati, sonli materialni qo'llashini yengilligi haqida fikr yuritish mumkin. Arifmetik operatsiyalarni miyada bajarish qobiliyati yosh o'tishi bilan keskin yomonlashmaydi. Baholashda faqat javobning aniqligiga qaralmaydi, vazifani yechish uchun sarflangan vaqtga ham ahamiyat beriladi.

Misollar:

- Ikkita olma konservalangan bankalar narxi 31 tiyin. 12 ta bankaning narxi qancha bo'ladi?
- Sakkizta odam ishni 6 kunda bajaradi. Ishni yarim kunda bajarish uchun nechta odam

kerak bo'ladi?

Funksiya:

Xotirada (arifmetik operatsiyalarni) saqlanib qolishi.

Natijaga ta'sir etuvchi faktorlar:

Asosiy arifmetik operatsiyalarni egallash imkoniyati.

4. O'xshashlik o'rnatish subtesti.

Tekshiriluvchining vazifasi - bir qator tushunchalar umumiylikni o'rnatish. Tushunchalarni shakllantirish qobiliyatiga qarab baholanadi. Idrok etilgan materialni klassifikatsiyalash, tartiblash, abstraktlash, taqqoslash, o'xshashlik va farqlarni ajratish qobiliyati ko'rinadi. Bu subtest natijalari, vaqt chegaralanmaganligiga qaramay yosh o'tishi bilan pasayadi. Baho 0 va 2

ballar orasida tariflanadi va tekshiriluvchining tashqi taqqoslanmaydigan tushunchalarni birlashtiruvchi umumiylikni qanchalik yaxshi topilishiga bog'liq. Javoblarning quyidagi darajalari ajratiladi: konkret, funksional va konstitusional. Masalan: "libos-polto" juftligi o'rtasida umumiylikni o'rgatishda quyidagi javoblar bo'lishi mumkin:

1. Bir xil matodan qilingan va tugmali.
2. Biz ularni kiyib yuramiz, issiqlik beradi.
3. Ustki kiyim.

Javoblarning bunday variantlari yuqorida berilgan 3 ta darajalarga muvofiq, tushunchalarning 13 ta juftligi taklif etiladi.

Misollar:

- apelsin-banan; havo-suv.

Funksiya:

Aloqa va o'zaro bog'liqliklarning analizi.

Verbal tushuncha shakllanishi.

Natijaga ta'sir etuvchi faktorlar:

Madaniyatga yondashishning minimal imkoniyatlari.

5. Sonli qatorlarni qaytarish subtesti.

Diqqatni va operativ xotirani tadqiqot qilish uchun mo'ljallangan bo'lib, ikki qismdan iborat: sonlarni teskari va to'g'ri tartibda qaytarish. Gerommi ko'rsatishcha sonlarni to'g'ri tartibda qayta tiklash yosh o'tishi bilan susayadi. Sonlarni teskari tartibda qayta tiklash nisbatan yaqqolroq ko'rinadi. Eksperiment tekshiriluvchi sonli qatorlarni xatosiz tiklay olishning susayishiga qadar davom etadi. Birinchi seriyada maksimal ball-9. Ikkinchi seriyada maksimal ball-8.

To'g'ri tartibda eslab qolinadigan sonlar:

6439 42731 619473 5917423 58192647

7286 75836 392487 4179387 38295174.

Teskari tartibda eslab qolinadigan sonlar:

283 3279 15286 539418 8122936

415 4968 61943 724856 4739128.

Funksiya:

Tezkorlik bilan qayta tiklash. Eshituv obrazlari. Ba'zan ko'ruv obrazlar.

Natijaga ta'sir etuvchi faktorlar;

Diqqat hajmi.

6. Lug'aviy subtest.

So'zlar ro'yxati, ular ma'nosini tushuntirish vazifasi bilan taklif qilinadi. Bu subtestda so'z boyligi baholanadi. So'z boyligi olingan ta'lim darajasiga bog'liq. Hammasi bo'lib 40 ta so'z bor, birinchi 10 ta so'zlar keng tarqalgan, har kuni ishlatiladiganlar, ikkinchi o'ntalik - o'rtacha qiyinchilikka ega bo'lgan so'zlar, ularni adekvat traktovka qilish uchun ma'lum darajada ma'lumotli bo'lish kerak bo'ladi, va nihoyat mukammal so'zlar, ularni ma'nosini anglatish uchun chuqur bilimga ega bo'lishi kerak. Subtest natijalari qarshi jarayonida oz miqdorda o'zgaradi. Baholash u yoki bu so'zni aniq tushuntirishga nisbatan baholanadi, 0 dan 2 gacha bo'ladi.

Misollar:

1 guruh so'zlari: olma, stol, nonushta, qish.

2 guruh so'zlari: hukm, mikroskop, ibodatxona.

3 guruh so'zlari: urush, geoid, ballast.

Funksiya:

Til rivojlanishi. Tushunchalar shakllanishi.

Natijaga ta'sir etuvchi faktorlar:

Madaniyatga o'rgatish imkoniyatlari.

Noverbal maktab.

7. Sonlar shifrokasi (b) subtesti.

Sonlarning bir necha qatori beriladi, har bir sonning tagida unga muvofiq simvolni chegaralangan muddat davomida yozib chiqmoq kerak. Ko'ruv harakat malakalarni o'zlashtirish

darajasi, ko'ruv harakatli stimullarni integratsiyalashga bo'lgan qobiliyat tadqiqot qilinadi. Subtestni muvaffaqiyatli bajarish 40 yoshdan boshlab susayib boradi. Baho belgilangan vaqt ichida to'g'ri shifrlangan sonlar miqdoriga muvofiq.

Funksiya:

Takror tarzda qayta tiklash. Vizual-motorli integratsiya. Ko'ruv obrazlar.

Natijaga ta'sir etuvchi faktorlar:

Harakatli faollik darajasi.

8. Yetishmayotgan qismlarni topish subtesti.

Testli vazifa 21 ta sur'atlardan iborat bo'lib, ularning har birida qandaydir qismi yetmaydi yoki muvofiqsizlik mavjud. Ko'ruv idrokning xususiyatlari kuzatuvchanlik muhimlardan ahamiyatsiz qismlarni ajrata bilish qobiliyati o'rganiladi. 20 sekund vaqt davomida berilgan to'g'ri javob 1 ball bilan baholanadi.

Funksiya:

Ko'ruv idroki: analiz. Ko'ruv obrazlar.

Natijaga ta'sir etuvchi faktorlar:

O'rab turgan atrof muhitni idrok etish malakasi. Ba'zan ko'rish o'tkirligi.

9. Kossa kubiklar subtesti.

Subtestdagi vazifa - 10 ta rasmlarni ketma-ketlikda har xil rangli taxta kubiklardan (har bir kubik diagonal bo'yicha ikkita rangga bo'lingan: oq va qizil) qayta tiklash. Bu yerda avvalambor motorsensorli kordinatsiya, materialni osonlik bilan manipulyasiya qilish, qismlardan butunni sintez qilish qobiliyat o'rganiladi. Vaqt har bir vazifaga ko'ra chegaralanadi. Baho bajarishining aniqligi va sarf etilgan vaqtga bog'liq.

Funksiya:

Shaklni idrok etish. Ko'ruv idroki: sintez.

Vizual motorli integratsiya.

Natijaga ta'sir etuvchi faktorlar:

Harakatli faollikning darajasi. Rangli ko'ruvning minimal darajasi.

10. Ketma-ket rasmlar subtesti.

Rasmlarning 8 ta seriyasi taqdim etiladi, seriyalarning har biri syujet bilan birlashtirilgan va tekshiriluvchi namoyish etmayotgan hodisalarni ularning davriy ketma-ketligiga muvofiq tarzda tartibga solish kerak. Fragmentlarni mantiqiy butunlikka keltirish qobiliyati o'rganiladi. Situatsiyalarni tushunish qobiliyati. Veksllarning ta'kidlashicha taqdim etiladigan situatsiyalarni tushunish uchun hazilkashlik bo'lishi kerak. Baho ilgari subtestdek to'g'ri bajarilishi va sarflangan vaqtga bog'liq. Alohida vazifalarga baho har xil. 4 balldan 6 ballgacha. Vazifalar borgan sari murakkablashadi.

Funksiya:

Munosabatlarning ko'ruv idroki (vizual intuitsiya, munosabatga kirishish).

Natijaga ta'sir etuvchi faktorlar:


Madaniyatga kirishishning minimal imkoniyatlari. Ba'zan ko'ruv o'tkirligi.

«Tasvirlarni ko'chirish» metodikasi.

Ushbu metodika 4-5 yosh bolalarga mo'ljallangan. Topshiriqning mohiyati shundan iboratki, rasmda o'ng tomondagi maxsus tayyorlab qo'yilgan kvadratlar ichiga, shu rasmdagi, chap tomonda berilgan kataklar ichidagi tasvirlarni ko'chirish kerak. Buning uchun bolaga qora flamaster berilib, quyidagicha ko'rsatma beriladi:

«O'ng tomondagi kataklarga, aynan chap tomondagi shakllarga o'xshash rasmlarni chizish kerak. Bunda iloji boricha toza va bo'yaladigan joylarda bo'shliq qoldirmaslikka hamda shakllar konturidan chiqib ketmaslikka harakat qilish kerak».

Topshiriqni bajarishga ajratilgan vaqt 5 daqiqa.



Natijalarni baholash: 10 ball - bola hamma topshiriqni 5 daqiqa mobaynida bajarib bo'ldi. Unda bo'yaladigan joylarda bo'shliq qolmasa, chizilgan shakllar konturi esa topshiriq andozasidan 1 mm dan ko'p farq qilmasa.

8 - 9 ball - bola topshiriqni bajarishga 5 daqiqa vaqt safrlasa, unda bo'yaladigan har bir shakllarning 1 - 2 joylarida bo'shliq qolsa, chizilgan shakllar konturi aslidan 1 mm dan ko'p farq qilmasa.

6-7 ball - bola topshiriqni bajarishga 5 daqiqa vaqt sarflasa, bo'yaladigan har bir shakllarning 3 - 4 joylarida bo'shliq bo'lsa, chizilgan bir necha shakllar konturi aslidan 1,5 mm dan ko'p farq qilmasa.

4-5 ball - bola 5 daqiqada 4 - 5 shaklni bo'yashga ulgursa, ammo bo'yalgan shakllarning 5 dan 1 qismidan kam joylarida bo'shliq bo'lsa va aslidan 2 mm gacha farq qilmasa;

2-3 ball - bola 5 daqiqada 2 - 3 shaklni bo'yashga ulgursa, ammo bo'yalgan shakllarning 5 dan 1 qismidan kam joylarida bo'shliq bo'lsa va aslidan 2 mm gacha farq qilmasa;

0-1 ball - bola 5 daqiqada bitta shaklni bo'yashga ulgursa, hamda bo'yalgan shaklning 4 dan bir qismida bo'shliq bo'lsa va shakl aslidan 3 mm gacha farq qilmasa.

Taraqqiyot darajasi haqida xulosa chiqarish: 10 ball - juda yuqori, 8 - 9 ball - yuqori, 4 - 7 ball - o'rtacha, 2 - 3 ball - past, 0 - 1 ball - juda past.

Xulosa. Mazkur ish davomida kichik maktab yoshdagi bolalarning aqliy (intellektual) testlar haqida umumiy tushunchalar berildi. O'rganilgan adabiyotlardan kelib chiqib quyidagi ilmiy xulosalarni qilish mumkin: Jahon psixologiyasi fanida intellekt va ilmiy konsepsiyalar mavjud bo'lishiga qaramay ayrim ziddiyatlar holatlaridan qat'iy nazar insonning aqliy taraqqiyotini aniqlashga, uni oldindan aytib berishga, o'lchashga, rivojlantirish va vositalarini isloh qilishga xizmat qiladi.

3. Ontogenezda inson bilishining psixologik tuzulishi, uning o'ziga xos xususiyatlarini sharhlashda moddiy manba, harakatlantiruvchi turtki, kuch quvvat negizi, atrof muhitni aks ettirish bosqichlari, ifodalanish shakllari va ko'rinishlari, ruhiy jarayonlarning qatnashuvi, shaxslararo munosabat, o'z - o'zini baholash va borliq to'g'risidagi taassurotlari, bilimlari orqali namoyon bo'lishini muayyan tartibda joylashtirish ma'lum tizimni vujudga keltiradi. Keyingi vazifa esa bu tizimning psixologik talqining faraziy mulohazalarini har bir tarkibning o'zaro izchil bog'liqligi va uyg'unligi to'g'risida fikrlashdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. G'oziyev E.G'. Zamonaviy individual va guruh psixologiya. T., Universitet. 1999 y. 1,2 b.t.

2. G.M. Shukurova "Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti ilmiy axborotnomasi" ilmiy-amaliy jurnal //Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar tafakkurini shakllanishining ilmiy-nazariy asoslari. Buxoro 2024 B-133-138

3. Dilnoza Xalkuziyeva, Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga axloqiy-irodaviy tayyorligining psixologik jihatlari. Scientific progress. 2021/6, pp 704-706.

4. Nishonova Z. Alimova G. "Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi" T.: 2006 y

5. Davletshin M.G., Kovalev A.G., Krutenskiy V.A. Qobiliyat va uning diagnostikasi. T., "O'qituvchi" 1979 y

Internet saytlari

1. www.lib.psichology.ru

2. www.pedagog.uz

3. www.google.ru

4. www.ziynet.com

5. www.ref.uz

Ostanov Shuhrat Sharifovich

Buxoro davlat universiteti

Psixologiya va sotsiologiya kafedrası dotsenti,

p.f.f.d (PhD)

DEVIANT XULQ ATVORLI O'SMIRLARDA KREATIVLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK - PSIXOLOGIK JIHATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada deviant xulq atvorli o'smirlarda kreativlikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik jihatlari o'rganilgan. O'smir va o'spirinlarda destruktiv xulq-atvor psixokorreksiyasi bo'yicha nazariy ma'lumotlar ochib berilgan. Shuningdek, destruktiv g'oya tushunchasining ijtimoiy-psixologik mohiyatini aniqlangan.

Kalit so'zlar: agressiya, o'smir, xulq-atvor, destruktiv, depressiya, psixokorreksiya, psixokonsultatsiya, diagnostika.

Аннотация. В данной статье рассматриваются педагогико-психологические аспекты развития креативности у подростков с девиантным поведением. Выявлены теоретические данные по психокоррекции деструктивного поведения у подростков и подростков. Также выявлена социально-психологическая сущность понятия деструктивной идеи.

Ключевые слова: агрессия, подросток, поведение, деструктивное, депрессия, психокоррекция, психоконсультация, диагностика.

Abstract. This article explores the pedagogical - psychological aspects of the development of creativity in adolescents with deviant behavior. Theoretical data on destructive behavioral psychocorrection has been revealed in adolescents and adolescents. Also identified the socio-psychological nature of the concept of a destructive idea.

Key words: aggression, adolescent, behavioral, destructive, depression, ppsychocorrection, psychoconsultation, diagnostics.

Kirish. O'smirlik yoshi bolalikdan yetuklikka o'tish davri sifatida doimo keskin davr deb hisoblanadi. Bu yosh davr inqirozi kichik yosh davr deb kelingan. Bu yosh davr inqirozi kichik yosh davridan ancha farq qiladi. U eng jiddiy va eng uzoq davom etuvchi davr hisoblanadi. Bu davr mobaynida bolaning atrofga va o'ziga bo'lgan avvalgi munosabatlari sinib, qayta tiklanadi va o'smirning mustaqil hayotga qadam qo'yish bosqichi shakllanadi. Hayotga qadam qo'yish birdaniga yuz beradigan hodisa emas, balki uzoq davom etuvchi jarayon bo'lib, uning biologik, psixologik va ijtimoiy tomonlari o'z qo'zg'aluvchi kuchlari, taraqqiyotining o'z maromi va sur'atlariga ega. O'smirlarning fizik va psixologik taraqqiyotining yuqori, biroq bir-biriga mos bo'lmagan sur'atlari bilan bog'liq holda hali yetarli bo'lmagan ijtimoiy yetuklik jarayoni vujudga kelgan bu ehtiyojlarni har doim ham qanoatlantirib bo'lmaydi.

Hozirgi globallashuv jarayonida shaxs ongini egallashga qaratilgan xurujlardan saqlanish, har bir kishi ongida mustahkam ma'naviyatni shakllantirish, yoshlarni destruktiv guruhlar ta'siridan asrash, jamiyatimizdagi har bir fuqaro ongida milliy va ma'naviy qadriyatlarimizga tayangan holda mafkuraviy immunitet, xavfsizlikni ta'minlashda antimanipulyativ, assertiv xulq-atvorni tarkib toptirish muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadigan masalalardan biridir. Bu esa kelajakda shaxs xavfsizligi, qolaversa, jamiyat hamda davlatning xavfsizligini ta'minlanishda garov vazifasini o'taydigan omillardan hisoblanadi.

O'smirlarda destruktiv xulq-atvor psixokorreksiyasini psixologik tadqiq etish orqali ularni turli guruhlar, oqimlarga kirishining oldini olish, shuningdek, destruksiya tufayli oila, ta'lim muassasasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ziddiyatlar, suitsid, va boshqa jinoyatlarning oldini olish mumkin.

Adabiyotlar tahlili. Xorij va sobiq ittifoqda bir qator soha mutaxassislari yoshlar o'rtasida sodir etilayotgan jinoyatchilik, giyohvandlik va alkogolizm kabi illatlarning kelib chiqishiga sabab bo'luvchi ijtimoiy-psixologik omillar va ularning oldini olish, shaxsda antimanipulyativ, assertiv xulqni shakllantirish borasida ilmiy tadqiqot ishlarini olib bordilar. E.Bern, D.Karnegi,

E.Shostrom, A.Maslou, P.M. Granovskaya, F.V. Bassin, V.N.Myasihev, K.E.Igoshev, L.M.Zyubin, A.Buryak, Ye.N.Volkov, Ye.V.Zaika, B.T.Kondrashchenko, E.B.Melnikova kabi bir qator olimlar o'z tadqiqotlarida destruktiv guruhlar faoliyati natijasida yuzaga kelayotgan ijtimoiy-psixologik muammolarni tadqiq etishga harakat qilganlar. V.P.Sheynov, V.B.Shapar, I.Vagin, N.N.Kozlov, S.G.Kara-Murza, Sh.F.Mustafaeva kabi Rossiya va O'zbekiston psixolog olimlarining ta'kidlashlaricha, shaxs ongi, xulqi hamda faoliyati mazmunini ularni qurshab olgan muhit belgilaydi. Ularning fikriga ko'ra, kishi ongi, xulqi, xarakteri mikro va makro muhitdagi faoliyati orqali boshqariladi. Ijtimoiy muhitdagi nosog'lomlik esa kishi ongi va xulqida turli og'ishlarni keltirib chiqaradi. Shaxsni manipulyativ tarzda boshqarishda avvalo, ong faoliyatining o'rnini, mexanizm va qonuniyatlarini nazariy va amaliy talqin qilib, so'ng antimanipulyativ xulqni shakllantirish zarurdir.

Psixologik-pedagogik jihatdan destruktiv guruhlariga kirishga moyillik darajasi mavjud yoshlarni aniqlash, ular bilan tarbiyaviy ishlarni olib borishda hozirgi kunda amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifalar bir qanchadir. Masalaning yana bir dolzarb jihati shundan iboratki, xavfsizlikning asosiy subyektlaridan birini yoshlar shaxsini tashkil etadi.

Insonda ma'lum bir xulq-atvor xislatning paydo bo'lishi va shakllanishi ma'lum bir qadriyatga moslanishi (yo'nalishi), ularga taxminiy baho berishida o'z aksini topadi. Sub'ekt ma'lum bir hislatni ongida loyihalashtirib olganidagina qadriyatga yo'naltirish haqida gap ketishi mumkin. Qadriyatga nisbatan yo'naltirishning shakllanishi ehtiyoj hamda faoliyatga moslashish orqali faollashadi. Ma'naviyat to'g'risidagi mulohaza yuritiladigan odamlarning xatti-harakatlariga e'tibor beriladi. Xuddi shu boisdan ma'naviyatning mohiyati xatti-harakatlarda to'la aks etadi. Ilk o'spirinning psixik rivojlanishini harakatga keltiruvchi kuch jamoat tashkilotlari, maktab jamoasi, oila, mahalla va ta'lim jarayonining talablari darajasi bilan u erishgan psixik kamolat o'rtasidagi ziddiyatdan iborat bo'lib, ushbu qarama-qarshiliklar uni xulq-atvor tasavvurlarining tezkor o'sishi orqali bartaraf qilinadi.

Rus psixologi I.Vagin saylov texnologiyasi asosida siyosat sohasida manipulyativ psixologiya konsepsiyasini yaratgan va o'z qarashlari bilan jamiyatda ayrim jarayonlar sub'yektiv tarzda boshqarilishini ko'rsatib o'tgan.

N.Kozlov shaxsning evolyutsion tarzda shakllanish jarayonidagi qadriyatlari mustahkamligi unga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan turli destruktiv munosabatlardan himoyalinishiga sabab bo'lishini ta'kidlaydi.

S.Kara-Murza shaxsni manipulyativ tarzda boshqarishda avvalo ong faoliyatining o'rnini, mexanizm va qonuniyatlarini nazariy va amaliy talqin qilib, so'ng antimanipulyativ xulqni shakllantirish kerakligini ko'rsatgan.

L.Mixaylov, V.Solomin, T.Malikova va O.Shatrovalar antimanipulyativ xulqning sub'yektiv va ob'yektiv omillarini o'rganib, har bir shaxs normal hayot tarziga turtki bo'layotgan xavflarni aniqlash lozimligini ta'kidlaganlar.

O'zbekistonlik faylasuf, sosiolog, psixolog va pedagog olimlar ham mazkur muammo yuzasidan izlanishlar olib borishgan. Jumladan, A.X.Yugay, S.M.To'ychiyeva, D.X.Qarshibayevalar o'z ilmiy tadqiqotlarida o'quvchilardagi antimanipulyativ xulq avvalo, ta'lim muassasalarida shakllantirilishi lozimligini, buning uchun ta'lim jarayoniga e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatib o'tganlar.

R.Samarov o'z ilmiy ishida jamiyatda mavjud bo'lgan destruktiv xulqlarni aniqlash, ularning metodologik asoslarini tahlil qilish, taraqqiyotga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni ko'rsatish hamda har bir davlatning milliy manfaatidan kelib chiqib, muammoning xavflilik darajasini yoritish, unga siyosiy tus berish zarurligini ta'kidlaydi.

A.Tashanov, Sh.Mustafayevaning ilmiy ishlarida buzg'unchi g'oyalarning milliy o'zlikni anglashga salbiy ta'siri, bugungi global o'zgarishlar sharoitida mafkuraviy, destruktiv tahdidlar va ularning milliy o'zlikni anglash, yoshlar tarbiyasiga salbiy ta'siri ijtimoiy-falsafiy, psixologik jihatdan maxsus tadqiq etilgan.

Mazkur yo'nalishda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishda quyidagi jihatlariga e'tibor qaratilgani maqsadga muvofiq:

- yoshlik davriga xos psixologik himoyaning o'ziga xos jihatlarini aniqlash;
- tashqi muhitga va psixologik jihatdan destruktiv ta'sirga ega axborotga qarshi yo'naltirilgan (ichki) psixologik himoyaning turlari hamda ko'rinishlarini tasnif qilish;
- psixologik himoya mexanizmlarining faolligini ta'minlovchi shaxsning hissiy va kommunikativ xususiyatlarini o'rganish;
- psixologik himoyaning yetakchi mexanizmlari asosida shaxsning yoshlik davriga xos psixologik portretini ishlab chiqish.

Destruktiv sektalarga qarshi kurash borasida dunyodagi eng yetakchi tashkilotlardan biri bo'lgan Amerika Oila Fondi qo'llanmalarida sektalarga kishilarni jalb qilish bilan shug'ullanadigan shaxsning to'rt xil belgi, xususiyatlari ko'rsatib o'tiladi:

- shu paytgacha uchratilgan insonlar orasidagi eng do'stona munosabatda bo'ladigan odam;
- ob'yekt nimalarni, qanday faoliyatni xush ko'rishi yuzasidan nihoyatda qiziquvchanlikni namoyon qiladigan odam;
- ro'parasidagi insonga maqtovlar yog'dirib, iltifot ko'rsatib, undan energiya, jismoniy yoki aqliy kuch-quvvat, pul, kvartira va hokazolar olish mumkinligiga ishora qiladigan odam;
- barcha, har qanday savollarga javob bera oladigan odam.

Agar uning suhbatdoshi ishonuvchan, sodda ko'rinsa, oldindan o'ylangan reja asosida uni suhbatga tortishga, qiziqtirishga harakat qiladi. Bunda quyidagi ko'rinishda ish olib borishi mumkin:

-a'zolikka nomzodning hissiyotlari, ruhiy holatidan kutilmagan darajada boxabarligini namoyon etib, uning farovonligi, xotirjamligi, yaxshi yashashi uchun kuyib-pishib harakat qilayotganini ko'rsatadi. Bu esa nomzodda uni tushunayotganliklari to'g'risida ishonch hissini uyg'otadi;

-nomzodning muammolari, tashvishlari yuzasidan kerakli ma'lumotlarni aniqlashtirib borib, uning qiziqishlari, mashg'uloti, niyat, maqsad, orzulariga hamohang ravishda suhbat olib boradi. Muloqot jarayonida suhbatdoshidan ko'z uzmaydi, unga yaqin holatda turadi, qarama-qarshi jins vakili bo'lsa, psixologik ma'noda "shahvoniy" hujum qiladi. Yo'riqchi muvaffaqiyatga erishsa, jalb qilinayotgan insonda unga nisbatan ruhiy yaqinlik, munosabatlarni davom ettirishga moyillik paydo bo'ladi.

Tahlil va natijalar. Yetarli darajada axborotga ega bo'lmagan va sodda kishilarda guruh a'zolari juda jonkuyar, mehribon insonlar sifatida yorqin taassurot qoldiradi. Biroq yo'riqchi va rahbarlarning asl niyatlari xatti-harakatlarida ifodalanmaydi. Ular imkoni boricha tez fursatlarda nomzodning guruh uchun qay darajada qimmatga ega ekanligini, ya'ni pul olib kela olishi yoki boshqa a'zolari jalb qila olishi mumkinligini aniqlashlari lozim bo'ladi. Agar unga e'tibor qaratilishi zarur, deb topishsalar, nomzod a'zolikka qabul qilingunga qadar guruh diqqat markazida bo'ladi.

Hozirgi vaqtda ta'lim tizimi mutaxassislari bilan hamkorlikda yoshlarga ko'rsatiladigan salbiy diniy ta'sirlarning oldini olishga qaratilgan ijtimoiy-psixologik dasturlarni amalga oshirish bo'yicha ishlar samaradorligini kuchaytirish zarur.

Destruktiv guruhlarining ta'lim tizimiga qiziqishlari, mazkur sohadan manfaatdorliklarini quyidagicha ko'rsatib o'tish mumkin:

- ta'lim muassasalari bilan hamkorlik natijasida o'z faoliyati qonuniyligini namoyish qilish va nufuzini ko'tarish imkoniyatini qo'ldan bermaslik;
- ta'limga doir axborotlar niqobi ostida o'z g'oyalarini, mafkurasini targ'ib-tashviq etish;
- ko'plab yangidan-yangi a'zolari jalb qilish va ommaviy ta'sir ko'rsatish imkoniyati;
- o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy tarbiyalash borasida o'zlarining "ijtimoiy-foydali faoliyati"ni targ'ib qilish.

Xulq-atvor tasavvurlar ijtimoiy tasavvurlarning bir tarmog'i bo'lib, u qotib qolgan ma'lum kognitiv narsalar emas, balki ular doimiy rivojlanishda, harakatda va taraqqiyotda bo'ladi. Uning dastlabki bosqichi idrok qilish bosqichi bo'lib, unda bevosita ongda aks etadigan ma'lumotlar qabul qilinishi, ular anglanganlik va shaxs uchun zarurat nuqtayi nazaridan saralanishi ro'y beradi. Undan so'ng ikkinchi bosqich – assotsiativ bog'lanishlar bosqichi ro'y beradi, ya'ni bunda

ongdagi yangi xabarlar eskilar bilan solishtirilib, assotsiativ va xulq -atvor bog'lanishlar o'rgatiladi. Yuqoridagi ikkinchi bosqichning umumiy xususiyati umumlashtirish–generalizatsiyadir. Keyingi bosqichlar ko'proq tafakkur va tushunchalar sohasiga taaluqli bo'lib, unda har bir ma'lumot yoki xabar differensial holda individ uchun ahamiyatlilik nuqtayi nazaridan ajratiladi va shu asosda ma'lum ustanovkalar shaklida shaxs xulq-atvori yo'nalishini belgilaydi.

Xulosa. Deviant xulq - atvorli o'smirlarda kreativlikni rivojlantirishning pedagogik - psixologik jihatlariga baho berishda asosiy e'tibor ijtimoiy-madaniy kontekstda sodir bo'ladigan neyrofiziologik jihatlariga qaratilishi maqsadga muvofiq. Shunga ko'ra, destruksiya biologik jihatdan asosiy, determinantlashgan emas, balki, biologik jihatdan ahamiyatli omildir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-tom. – T.: O'zbekiston, 2017. – 592 b.
3. Андреева Г.М. «Социальная психология» М. 2005. – S.224.
4. Afdurauf Fitrat. Oila. - T.: Ma'naviyat, 2000. - 89 b.
5. Alimov U. Ilmning fazilati. - T.: Movarounnaxr, 2010. - 127 b.
6. Davletshin M.G. Yosh davrlar va pedagogik psixologiya asoslari. -Toshkent: TDPU, 2006. – 43 b.
7. Загайнов Р.М. «Психолог в команде». М.: ФиС. - 1984. – С.376.
8. Короленко Р. «Психофизиологическая адаптация к экстремальным условиям». Харьков. 1998. – С.142.
9. Мерлин В.С. Лекция по психологии мотивов человека. 1971– С. 46.

PEDAGOG SHAXSIDA KASBIY MAHORAT RIVOJLANISHINING IJTIMOIIY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada pedagog shaxsida kasbiy muhim sifatlarning ijtimoiy psixologik xususiyatlari o'rganilgan bo'lib, boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy muhim sifatlarni shakllanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillarni haqida so'z boradi. Shuningdek, ta'lim tizimida pedagog shaxsida kasbiy muhim sifatlarni o'ziga xos psixologik xususiyatlarini shakllanishining amaldagi holati aniqlangan, pedagog shaxsida kasbiy muhim sifatlarni shakllanishi bo'yicha muayyan psixologik me'zonlarga asoslanib psixologik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: kasbiy mahorat, individuallik, psixologik omillar, determinant, xotira, faoliyat, boshlang'ich sinf, psixosomatika, ko'nikma.

Аннотация. В данной статье исследуются социально-психологические особенности профессионально значимых качеств в личности педагога, рассматриваются психологические факторы, влияющие на формирование профессионально значимых качеств учителя начальных классов. Выявлено также фактическое состояние формирования специфических психологических характеристик профессионально значимых качеств в личности педагога в системе образования, разработаны психологические рекомендации по формированию профессионально значимых качеств в личности педагога на основе определённых психологических критериев.

Ключевые слова: профессионализм, индивидуальность, психологические факторы, детерминант, память, активность, начальный класс, психосоматика, навыки.

Abstract. In this article, the social psychological characteristics of professionally important qualities are studied in the personality of an educator, and primary school teachers talk about psychological factors that affect the formation of professionally important qualities. Also in the educational system, the current state of the formation of specific psychological characteristics of professionally important qualities in the personality of an educator is determined, psychological recommendations are developed based on certain psychological criteria for the formation of professionally important qualities in the personality of an educator.

Key words: professional seal, individuality, psychological factors, determinant, memory, activity, primary class, Psychosomatics, skills.

Kirish. Ayni paytda, mamlakatimizda barkamol avlod tarbiyasi va uning mukammal ta'lim olishi masalalari davlat siyosati maqomi darajasida hal qilinayotganligi bugungi yoshlarimizning hech kimdan kam bo'lmagan porloq kelajagiga jiddiy e'tibor qaratilayotganligidan dalolatdir.

Jahonda ijtimoiy - iqtisodiy, madaniy va ayniqsa, siyosiy sohalarida kuzatilayotgan keskin o'zgarishlar va iqtisodiy sohadagi beqarorlik insonlarning dunyoqarashi, xulq-atvori, turmush tarzi va ularning kasbiy faoliyatiga ham ta'sir etib, katta o'zgarishlar yasash kerakligini taqozo etmoqda.

Respublikamiz miqyosida ta'lim va tarbiya ishlarini takomillashtirish, uni jahon andozalari darajasiga chiqarish, fan sohasidagi yangiliklarni amaliy hayotga tadbqiq etish muhim masalalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish, ularda fan asoslariga nisbatan ko'nikma, malaka, bilimlarni shakllantirish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan hisoblanadi. Ana shu ustuvor vazifalarni amalga oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Jamiyat taraqqiyotining muhim sharti kadrlarni tayyorlash tizimining mukammal bo'lishi, zamonaviy iqtisod, fan, madaniyat, texnika va texnologiyalar asosida yuksalish bilan xarakterlanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ta'limda mutaxassisni tayyorlash muammosi G.V.Akopov, E.A.Klimov, B.C.Merlin, A.N.Leontyev, V.D.Shadrikov va boshqalar. Kasbiy ongning shakllanishi va rivojlanishining psixologik qonuniyatlari to'g'risida Yu.M.Zabrodin,

K.K.Platonov, E.I.Rogov, E.S.Romanova, P.D.Uspenskiy, kasbiy rivojlanish va kasbiy ta'lim tizimini takomillashtirish haqida A.A.Bodalev, E.A.Klimov, V.V.Petuxov, A.I.Smirnov, kasbiy yuksalishning psixologik kriteriyalari haqida E.A.Klimov, A.K.Markova, L.M.Mitinalar ilmiy tadqiqot olib borganlar. Shuningdek, vatanimiz psixolog olimlaridan M.G.Davletshin, E.G'.G'oziev, V.M.Karimova, G'.B.Shoumarov, B.R.Qodirov, R.Z.Gaynutdinov, A.M.Jabborov, V.A.Tokareva, Sh.R.Barotov, Z.T.Nishonova, R.I.Sunnatova, N.S.Safоеv, G.Berdiev, B.T.Gappirov, S.X.Jalilova, M.Qoplonova, M.M.Mavlanov, N.M.Majidov, A.M.Mashkurov, N.X.Muratalieva, X.A.Ruxieva, Sh.A.Eshmetov, K.B.Qodirov, E.A.Xidirov va boshqalarning olib borayotgan ilmiy izlanishlari diqqatga sazovordir.

Beruniy ta'lim jarayonining mohiyatini chuqur tahlil qilib, o'qituvchining kasbiy va shaxsiy tayyorgarligiga qator didaktik va psixologik talablar qo'yadi, hamda pedagogik faoliyatida quyidagilarga amal qilishni tavsiya etadi:

- sezgi organlarining ma'lumotlariga ko'ra bilishni davom ettirish;
- fanni o'rganayotganda fikrlash, xotirlab esga olish zarur;
- o'rganilayotgan ilmlarni to'la bilib olish uchun, o'sha ilmni tashkil etib turgan elementlarni puxta o'rganib chiqish;
- bilimda oddiydan murakkabga, ma'lumdan noma'lumga, yaqindan-uzoqqa, osondan-qiyinga, dalillardan-xulosalarga qarab borish;
- uzoq o'tmishga oid bilimlarni o'rganganda shu ilm, fan tarixini o'rganish;
- hodisalarni, fan asoslarini bir-birlariga taqqoslab, solishtirib, har tomonlama chog'ishtirib o'rganish.

Beruniy o'qitish jarayonida bolalarga tushunarli bo'lmagan so'zlarni quruq yodlashga asoslangan ta'limni qattiq qoralab, "Tushunish yodlashdan yaxshiroq va afzaldir. Ma'lumki, har bir murakkab narsaning sodda bo'laklari bor, murakkablik shular yig'indisidan kelib chiqadi. Sezgilari beshta bo'lib, ular quloq bilan eshitish, ko'z bilan ko'rish, burun bilan hidlash, til bilan tatish va teri bilan tegib bilishdan iboratdir, ilm va ma'rifat faqatgina o'shalar orqali hosil bo'ladi" kabi amaliy asoslangan xulosalarga tayanadi. Beruniyning bu kabi hayotiy xulosalari bugungi kunda ham o'z qimmatini pasaytirgan emas, albatta.

Dj.Levi o'z tadqiqotlarida o'quvchilar jamoasida nizolarning shakllanish sabablari, ularni o'rganish, oldini olish yo'llari va jamoada sog'lom psixologik muhitni yaratish usullariga doir ijobiy fikrlarni ilgari suradi. Uning fikricha, o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi davrida o'quv-tarbiya jarayonlariga xos nizolarni tushunish ko'nikmasini o'stirish, shuningdek, mojarolarning sabablarini o'rganish va bartaraf etish yoki boshqarishning samarali vositalarini topa bilish mahoratlarini rivojlantirish muhim hisoblanadi. Uning ta'kidlashicha, o'quv dasturlarida, bir tomondan, nizolarning kelib chiqishi va sabablari bilan bog'liq, ikkinchi tomondan, mojarolarning oldini olish, hal etish va ularni boshqarish bilan bog'liq masalalarni (savollarni) aks ettirish zarur.

Dj. Levi misol tariqasida boshlang'ich ta'lim (6-12 yoshli bolalar) uchun quyidagi mashg'ulot variantlarini keltiradi:

- 1) kooperativ ko'nikmalar (guruhda birgalikda o'qish va hamkorlik);
- 2) kommunikativ ko'nikmalar;
- 3) nizolarni ijodiy (o'ylab, maslahatlashib) hal qilish ko'nikmasi.

Mazkur mashg'ulot variantlarida rolli o'yinlar, sahna ko'rinishlari va psixologik xulqiy treninglardan o'rinni foydalanish zarurligi va uning afzalliklari haqida to'xtalib o'tadi.

Psixolog olim E.G'.G'oziyevning oliy ta'lim muassasalarida bo'lg'usi o'qituvchilar kasbiy tayyorgarligining dolzarb muammolari bo'yicha olib borgan tadqiqotlari tahlillariga ko'ra, kasbiy tayyorgarlikning sifati asosan uchta muhim omilga bog'liqdir:

1. O'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilimlar va ko'nikmalarning puxtaligi, barqarorligi va mustahkamligiga;
2. O'quv va tarbiyaviy ishlarni oqilona tashkil etish va nazorat qilish sifatiga;
3. O'quvchilarni mustaqil (faol va ijodiy) ravishda oqilona bilim olishga o'rgatish va bu sohada muayyan maslahatlar, tavsiyalar berib borishga.

Tahlil va natijalar. Olimning ta'kidlashicha, oliy ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladigan, uning sifat darajasini orttiradigan zarur shart-sharoitlarni besh jabhaga ajratish mumkin.

1.Oliy maktab tuzilishining etnik, etnopsixologik va hududiy xususiyatlariga asoslanib uni qayta qurish maqsadga muvofiqligi.

2.Oliy o'quv yurtlarida talabalarni o'qitish, shaxs sifatida shakllantirish jarayoni hozirgi zamon talablariga to'liq javob bera olishi.

3.Oliy maktab o'quv rejasi, dasturi va ularga asoslangan darsliklar, qo'llanmalar, ishlanmalar, ma'ruza matnlari hozirgi kun hayot tarzini, fan yutuqlari va zarur axborotlarni, ilg'or tajribalarni, mamlakatimiz hududlari xususiyatlarini to'liq va asosli aks ettirishi.

4.O'quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirish, ijodiy izlanishga o'rgatish, tanqidiy tafakkurni tarkib toptirish.


5. O'quvchilarni milliy g'oya va milliy istiqlool mafkurasi ruhida tarbiyalash orqali ularda vatanparvarlik, insonparvarlik, fidoyilik, mehnatsevarlik kabi yuksak his-tuyg'ularni shakllantirish.

Shuningdek, olim o'z izlanishlariga asoslanib, bo'lg'usi o'qituvchilarning auditoriyadan tashqari faoliyatlarida bilimlarni o'zlashtirishni takomillashtirish yo'l-yo'riqlari; o'quvchilarning umumkasbiy fanlar asoslarini o'rganishga yo'naltirilgan qiziqishlari, ehtiyojlari, motivatsiyasi, qobiliyati va dunyoqarashiga xos xususiyatlarni e'tiborga olgan holda, ularga zarur maslahat va tavsiyalar berib borish tartiblari haqida; o'quvchilarning psixologik xususiyatlari, tafakkur xususiyatlari va ularda mustaqil fikrlashni shakllantirish vositalari to'g'risida ham qator tavsiya va ilmiy yechimlarni olg'a suradi. Olimning fikricha, komil inson bo'lib kamol topishni ezgu niyat qilgan bo'lg'usi o'qituvchi ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ma'naviyat va qadriyatlar tizimini egallashi hamda kelajak rivojini ta'minlashi uchun avvalo o'zlarida mustaqil fikrlashni, ijodiy izlanishni va aqliy faoliyat usullarini shakllantirishi maqsadga muvofiqdir.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy mahorat darajasini belgilovchi xususiyatlar (n=40, foiz hisobida).

1-jadval.

	Muloqot- mandlik	Tashkilot- chilik	Predmetga yo'nalganlik	Intelle- gentlik	Qo'llab- quvvatlash motivi
5-yilgacha	4,45	3,34	5,13	3,23	5,11
10 -ilgacha	5,31	5,12	6,33	5,58	5,45



1-rasm. Pedagog shaxsida kasbiy sifatlarni shakllanish xususiyatlari

Tadqiqot natijalari bo'yicha shu narsani kuzatish mumkinki, o'qituvchilarining kasbiy tayyorlash jarayonida pedagogik faoliyatning yetakchi yo'nalishlarida nisbiy farqlar mavjud. Chunki, mutaxassislar tayyorlash jarayonida Davlat ta'lim standartlarida qo'yilgan talablarning, ta'lim jarayonini tashkil etishga va o'quv mezonlarining bir xilligi farqlar keskin tus olmaganligini ko'rsatsa-da, ammo bilimlarni o'zlashtirish, kasbiy tasavvurlar va mutaxassislikka xos o'quv-

tarbiyaviy ko'nikmalarni shakllantirish ko'proq o'quvchining shaxsiy kamolotiga bog'liq ekanligini tasdiqlaydi. 5-yilgacha mehnat stajiga bo'lganlarning tasavvuricha, pedagog uchun yetakchi faoliyat yo'nalishi "predmetlarga yo'nalganlik" (5,13) va "qo'llab-quvvatlash motivi" (5,11)dir. Agar ularning tasavvuridagi mulohazalarga tayanadigan bo'lsak, bo'lajak o'qituvchilarining birinchi galda, o'quvchilariga predmetlarni o'zlashtirish va ularni rag'batlantirib borishi borasida yetakchi ko'nikma va malakalarni egallash to'g'risida xulosa chiqarishga imkon bermoqda.

10-yilgacha stajga ega bo'lganlarning baholarida ham "predmetga yo'nalganlik" (6,33) yetakchi faoliyat yo'nalishi hisoblangan. Ularning navbatdagi ustanovkalar bo'yicha bergan baholaridagi farqlar ham o'ziga xos bo'lib, bo'lajak pedagoglar uchun faoliyatning boshqa yo'nalishlarida differensiyalashuv emas, balki uyg'unlik bo'lishi ma'qul, degan tasavvurga ega ekan: "muloqotmandlik" (5,31), "tashkilotchilik" (5,12), "intelligentlik" (5,58), "qo'llab-quvvatlash motivi" (5,45). Bunday tasavvur ta'lim-tarbiya jarayonida bo'lajak pedagoglar kasbiy sifatlari bilan shaxs kamolotini uzviylikda rivojlantirish zarurligini anglatadi. Bu holat mazkur oliy ta'lim muassasalarida mutaxassis sifatida kasbiy tayyorlash jarayoni to'g'ri yo'lga qo'yilgan, degan xulosani beradi.

Shunday ekan, o'qituvchining mehnat faoliyatini yengillashtirish va o'quvchilarda empatiya tuyg'usini vujudga keltirish, ularga ta'lim-tarbiya berishning asosiy shartlaridan biri ekanligidir. Shuningdek, ushbu o'rinda taniqli pedagog Amanashvilining "O'quv-tarbiya jarayonida bolalar narsa joylashtiriladigan yashik emas, aslida ularni ruhlantirish lozim", degan mulohazasini eslashning o'zi kifoyadir. Bolaning maktab muhitiga moslashishida bo'lajak pedagoglar roli doimo e'tirof etiladi. Agar o'qituvchi ularning ishonchiga kira olsa, shubhasiz yuqori natijalarga erishishi, o'quvchilar guruhida psixologik muhitni me'yorida ta'minlashi muqarrar. Bu ijtimoiy-psixologik ta'sir ularning ta'lim-tarbiya jarayonining keyingi bosqichlarida, hattoki, turmushlarining qolgan qismida ham bir-birlariga nisbatan uyg'unlashib yashashga undaydi. Bundan ko'rinadiki, bolalar pedagogning kasbiy faoliyati uchun yetakchi motivlarni turlicha baholagan va o'zlari uchun yetakchi motivni bir-biridan farqli tarzda baholagan bo'lsalar-da, ammo o'qituvchi uchun har bir faoliyat motivlarining o'ziga xos o'rni mavjud. Shunga ko'ra, mazkur faoliyat motivlarini bir-biridan ajratib bo'lmasligini hisobga olgan holda mutaxassislarni kasbiy tayyorlash jarayoni davomida ularga alohida e'tibor bilan qarash lozim.

Natijalarning ko'rsatishicha, o'quvchilarning o'qituvchi sifatida shakllanishlariga doir barcha yo'nalishlar bo'yicha izchil o'zgarishlar va tafovutlar kuzatiladi. Chunki, ularni tadqiq etishning natijalari talabalar har bir ta'lim bosqichida kasbiy faoliyatlari to'g'risida bir-biridan farq qiluvchi tasavvurlarga ega, degan mulohazani beradi.

Talabalarining kasbiy kamolot borasidagi dastlabki tasavvurlari va yo'nalishlari ularning "ideallari" bilan "real imkoniyatlari" qiyoslaganda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari uchun tavsiyalar:

O'quvchilar maktabda o'tkazadigan vaqtning ko'p qismi faqat ta'lim faoliyati bilan band bo'lganligi sababli, kasb tanlash motivlarini fanga yo'naltirish orqali rivojlantirish mantiqiy bo'ladi. Maktab fanlarini o'qitish jarayonida yuqori sinf o'quvchilarini mehnatga tayyorlash vazifalariga erishish, ularni zamonaviy iqtisodiyot asoslari (sanoat, qurilish, transport, xizmat ko'rsatish sohasi, qishloq xo'jaligi, ishlab chiqarish sohasi) bilan tanishtirish, mehnatni rivojlantirish ko'nikmalarni shakllantirish va umuman olganda, kasbni ongli ravishda tanlashni rag'batlantirish.

Shuni hisobga olgan holda boshlang'ich sinf o'qituvchilari:

umumta'lim maktablari o'quvchilarini konferensiyalar, seminarlar, davra suhbatlari, ishbilarmonlik o'yinlari, loyiha faoliyati, fan haftaliklari, olimpiadalar, tanlovlar, devoriy gazetalar yaratish, uy insholari yozish va hokazolarda ishtirok etishga jalb qilish orqali ularning bilimga qiziqishini rivojlantirish;

maktab o'quvchilarini fanlar bo'yicha tegishli faoliyat sohalaridagi ish mazmuni bilan tanishtirish orqali kasb tanlash motivlarini rivojlantirishni ta'minlash;

o'rta maktab o'quvchilarida kasblar uchun muhim bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirish;

o'rta maktab o'quvchilarida ma'lum bir ish sohasida o'zlarining cheklovlari va afzalliklarini tushunish uchun zarur bo'lgan munosib o'zini-o'zi hurmatni shakllantirishga hissa qo'shish;

dastur materialidagi mavzularni ajratib ko'rsatish, ularning taqdimotida o'rta maktab o'quvchilarini muayyan ish sohalari bilan tanishtirishga mo'ljallangan materialni kiritish tavsiya etiladi;

muayyan mavzu mazmuniga mos keladigan materialni taqdim etishning eng samarali shakllarini aniqlash;

mintaqangizdagi kasblarga alohida e'tibor qaratgan holda, iqtisod yo'nalishlari va ushbu fan bo'yicha dasturiy material bilan bog'liq asosiy kasblarni tavsiflovchi adabiyotlarni o'rganish;

o'quvchilarning fanga bo'lgan kognitiv qiziqishlarini aniqlash maqsadida kuzatishni tashkil etish;

umumta'lim maktablari o'quvchilarining o'rganilayotgan fanga va turdosh kasblarga bo'lgan moyilligi va qobiliyatini rivojlantirish maqsadida ular bilan yakka tartibdagi ishlarni amalga oshirish;

fanga qiziqish bildirgan maktab o'quvchilari, shuningdek, sinf o'qituvchilari va ota-onalari bilan birgalikda har bir o'rta maktab o'quvchisiga individual ta'lim traektoriyasi (ITT) bo'ylab oldinga siljish imkonini beradigan individual o'quv dasturlarini ishlab chiqish;

kabinetdagi stendlarda ushbu fanni o'rganish bilan bog'liq kasblar bo'yicha ko'rgazmali materiallarni yangilash;

o'rta maktab o'quvchilarida o'z fanlari bo'yicha kasb tanlash motivlarini rivojlantirish bo'yicha o'z bilimlaringizni chuqurlashtirish.

Xulosa. O'rganilgan adabiyotlar va o'tkazilgan tadqiqot natijalariga muvofiq quyidagi xulosalar ishlab chiqildi: buyuk ajdodlarimizning ta'limotlarida mujassamlashgan o'qituvchining kasbiy sifatlarining milliy-ruhiy xislatlariga xos qimmatli ma'lumotlar hozirgi davrda ham bo'lg'usi o'qituvchilar kasbiy muhim sifatlarini takomillashtirishda, o'quv-tarbiya jarayonlari samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, o'qituvchi to'g'risida buyuk ajdodlarimizning ta'limotlari negizida ham har bir o'qituvchini shakllantirishning pedagogik va psixologik omillariga jiddiy e'tibor qaratish taqozo etiladi. Pedagogning kasbiy faoliyatida muloqotchanlikni rivojlanganligi ulardagi tashkilotchilik qobiliyatlari bilan uzviy bog'liqlikka ega bo'lishi mumki.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar, II jild,-T.: 1965. 49-50 b
2. Davletshin. M.G. Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixologiyasi.-T.: O'zbekiston, 1999.
3. G'oziyev E.G., Xasanov B. Psixologiya muammolari. T.: "Universitet", 1999.
4. Бадмаев С.А. Психологическая коррекция отклоняющегося поведения школьников. Издание 4 - е. - М., 2003. - 96 с.
5. Васильев И.А., Магомед-Эминов М.Ш. Мотивация и контроль за действием. Изд. МГУ, 1991, - 360 с.
6. Грановская Р.М., Никольская И.М. Защита личности: психологические механизмы. - СПб.: "Знание", 2003. - 124 с.
7. Дейнека А.В., Жуков Б.М. Современные тенденции в управлении персоналом. Учебное пособие.— М.: «Академия Естествознания». 2009. -180 с.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARDA PSIXIK JARAYONLAR SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDA DIQQATNING ROLI

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarda psixik jarayonlar samaradorligini ta'minlashda diqqatning roli va ahamiyati o'rganilgan. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarda diqqatning ko'chishi, bo'linishi, ko'lami, tezligi, kuchi va barqarorligi kabi sifatlarga ta'sir ko'rsatuvchi omillar o'rganilgan va diqqat sifatlarini rivojlantirishning amaliy usullari tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: diqqat, motivatsiya, faoliyat, individuallik, samaradorlik, psixik sifatlar, kognitiv, emotsional, irodaviy xususiyatlar, psixik jarayonlar, aqliy vazifalar, ong, determinizm.

Аннотация. В данной статье исследуется роль и значение внимания в обеспечении эффективности психических процессов у учащихся начальных классов. Также изучались факторы, влияющие на такие качества внимания, как миграция, расщепление, масштаб, скорость, сила и устойчивость у младших школьников, изучались практические методы развития качеств внимания.

Ключевые слова: внимание, мотивация, активность, индивидуальность, работоспособность, психические качества, познавательные, эмоциональные, волевые свойства, психические процессы, психические задачи, сознание, детерминизм.

Abstract. This article explores the role and importance of attention in ensuring the effectiveness of psychic processes in primary school students. Factors affecting qualities such as displacement, division, scale, speed, strength, and stability of attention were also studied in primary students, and practical methods for developing attentional qualities were researched.

Key words: attention, motivation, activity, individuality, efficiency, psychic qualities, cognitive, emotional, volitional characteristics, psychic processes, mental tasks, consciousness, determinism.

Kirish. Bugungi kunda muayyan faoliyat turida aqliy yoki jismoniy vazifalarni bajarayotgan kishilar diqqat bilan bog'liq u yoki bu darajadagi muammolarga duch keladi. Bu muammolar ular diqqatining tarqoqligi, parishonligi, kuchsizligi va be'qarorligida namoyon bo'ladi. Har bir bo'lajak mutaxassis kasbiy faoliyatda samaradorlikka erishishi uchun diqqat sifatlarining qanchalik rivojlanganligini bilishi va shu yo'l orqali taqsimlangan va konsentratsiyalashgan diqqatini o'stirib borishi lozim. Buning uchun talabalar psixologiya tarixidagi diqqat va uning sifatlariga oid nazariy qarashlar haqida ma'lumotga ega bo'lishlari bir muncha foydali.

Psixologik manbalarda diqqat mavzusini nazariy jihatdan o'rgangan olimlar unga aqliy faoliyatning muayyan ob'yektga yo'naltirilishi va to'planish hodisasi sifatida ta'rif berishadi. Diqqatning nazariy ahamiyatini o'rganuvchi olimlar uning boshqa psixik jarayonlar bilan bog'liqligini va psixik jarayonlar faoliyatida diqqatning roli masalalarini turli xil yondashuvlar asosida o'rganganlar.

Adabiyotlar tahlili. Boshlang'ich sinf o'quvchilarda psixik jarayonlar samaradorligini ta'minlashda diqqatning roli mavzusidagi tadqiqot ishini quyidagi olimlar tomonidan o'rganilgan A.N.Leontyev, A.P.Gazova, D.N.Uznadze, E.I.Boyko, E.N.Sokolov, E.B.Pirogova, F.I.Gonobolin, G.S.Bakradze, I.P.Pavlov, I.B.Straxov, L.S.Vigotskiy, M.V.Gamezo, N.N.Lange, N.F.Dobrinin, N.B.Kuzmina, N.M.Livanov, P.P.Blonskiy va S.L.Rubinshteynlarning ilmiy izlanishlarida diqqatning umumiy psixologik mazmuni haqi fikr mulohazalar yuritganlar.

I. P. Pavlov va A. A. Uxtomskiylarning ta'limotlariga binoan diqqatning holatlari, sifatlari, xususiyatlari, birinchidan, qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarining o'zaro birgalikdagi harakati bilan, ikkinchidan, miya strukturasi hukm suruvchi qo'zg'aluvchanlik bilan uyg'unlikka egadir.

Konsentratsiyalashgan diqqatning ilmiy ahamiyatini o'rgangan Rus psixologi P.P. Blonskiyning qarashlari zahiridagi asosiy g'oya-diqqatning bitta obyektga qaratilishidir. Bu ilmiy model ong-obyektga tarzda ifodalanadi. Bu g'oyani ilgari surgan va asoslagan P.P.Blonskiy "Odamning ongi bitta obyektga qaratilgandan keyin u atrofdagi narsa va hodisalarni ko'rmaydi"- deydi.

Diqqatning ahamiyatini nazariy jihatdan o'rgangan zamonaviy olimlardan biri Jorjtaun universiteti professori Kel Nyuportdir. U o'zining "Diqqat: chalg'ituvchi dunyoda muvaffaqiyat sirlari" kitobida AQSHdagi Uorton biznes maktabi professori Adam Grantning tajribasini tahlil qilib uning ish faoliyatidagi muvaffaqiyatini vazifalarni qismlarga bo'lib chiqqanligi bilan izohlaydi.

M.E.Zufarova birinchi sinfga qabul qilingan o'quvchilarning ta'limga tayyorligini ularda shakllangan qiziqish, ko'nikma-malaka, diqqat, ixtiyoriy esda qoldirish, ixtiyoriy tafakkur va nutq bilan bog'liqligini o'rgangan. M.E.Zufaruvaning izlanishlari natijasida birinchi sinf o'quvchilarining diqqati yetarli darajada barqaror emasligi kuzatilgan.

M.V.Xalimova o'zining "Bolalarda diqqat yetishmovchilik sindromi va uni psixologik korreksiya qilish yo'llari" mavzusida olib borgan tadqiqotida diqqat yetishmovchiligi sindromi va giperaktivlik mavjud bolalarda diqqatning barqarorligi, ishchanligi, xususiyatlari ko'rsatgichlari sog'lom tengdoshlari ko'rsatgichlaridan ancha zaif ekanligi tufayli bunday o'quvchilar aqliy vazifalarni bajarishda tez toliqishi va me'yordan ortiq xatoliklarga yo'l qo'yishlari aniqlandi.

Diqqat-ongimizning bir nuqtaga to'planib, ma'lum narsa va hodisalarga faol yo'naltirilgan jarayonga aytiladi. U har qanday ongli faoliyat samaradorligining zarur shartidir. Bu hayvonlar, shuningdek, inson diqqatlarining umumiy ta'rifi. Insonga nisbatan diqqatni ma'lum obyektlarga inson diqqatining, bir vaqtning o'zida boshqa obyektlardan chalg'igan holda, yo'nalganligi va jamlanganligi sifatida o'rganish mumkin. Bu ta'rifdan diqqatning ahamiyatga molik belgilari uning yo'nalganligi va jamlanganligidan iborat ekanligi kelib chiqadi.

Psixik faoliyatning yo'nalganligi ostida uning tanlash xususiyati, ya'ni, subyekt uchun ahamiyatli bo'lgan aniq jismlar, hodisalarni atrof-muhitdan ajratib olish yotadi. Ya'ni o'quvchilar o'zlari qiziqqan shakl, o'zlari yoqtirgan rangga e'tibor qaratishadi. Bu hikoya, ertak yoki topishmoq ham bo'lishi mumkin. Ba'zi o'quvchilar dars jarayonida kechadigan voqealarning borishiga qiziqsa, boshqasi esa, o'qituvchini tinglashni yoqtiradi, yana biri esa sinfdagi obyektlarning shakllariga qiziqadi. Bu jarayonlarda o'quvchilarning qiziqishiga qarab ularning diqqatlari ma'lum bir narsaga yo'naladi.

Yo'nalganlik tushunchasiga, shuningdek, ma'lum vaqt oralig'ida psixik faoliyatni saqlab qolish ham kiritiladi. Diqqatning boshqa xususiyati uning faoliyatga u yoki bu darajada chuqurlashganligini tuushuntirib beruvchi jamlanganligidir. Vazifa qanchalik murakkab bo'lsa, diqqatning jadalligi va zo'riqishi shunchalik kuchli bo'lishi kerak, ya'ni, bunda yot narsalardan chalg'ish bilan bog'liq. Aks holda, o'quvchilar yot narsalardan chalg'iy olmay qolishsa, vazifani bajarishga qiyinlashadi.

P.Ivanovning fikricha, biz faoliyatimiz jarayonida idrok va tasavvur qiladigan har bir narsa, har bir hodisa, o'zimiz qilgan ishimiz, o'y fikrlarimiz diqqatning obyekti bo'la oladi. Diqqat sezish jarayonida, idrok qilishda, xotira, hayol va tafakkur jarayonlarida har doim ishtirok etadi. Diqqat barcha aks ettirish jarayonlarimizning doimiy yo'ldoshidir. U har qanday ongli faoliyat samaradorligining zarur shartidir. Bosh miya po'stlog'ining muayyan joylaridagi optimal qo'zg'alish manbalari diqqatning fiziologik asosini tashkil qiladi. Diqqat ikki turga bo'linadi: ixtiyorsiz- passiv diqqat va ixtiyoriy-aktiv diqqat. Biron tashqi sabab ta'sirida kishi xohishidan qat'iy nazar hosil bo'ladi. Bunday diqqat odamdan iroda kuchini talab qilmaydi. Diqqatni jalb qilish uchun qo'zg'atuvchining kuchi katta ahamiyatga ega, masalan: o'qituvchining dars faoliyatida metodlarini tez tez almashtirib turishi, qo'llayotgan metodologik vositalarning takrorlanmasligi, rangi, shakli, vazifasi jihatidan bir biriga o'xshamasligi shular jumlasidandir. Bular o'quvchilarning e'tiborini yaxshi jalb qila oladi.

Tahlil va natijalar. Diqqatning ahamiyatini texnologiyalar kundan-kun rivojlanib borayotgan bugungi kunda aniq ish faoliyati bilan shug'ullanayotgan insonlar oldiga qanday talablar qo'yilayotganligi bilan bog'lash mumkin.

Bular:

Bir vaqtning o'zida bir nechta vazifalar bilan shug'ullanish;

vazifalarni masofadan turib boshqarish, ya'ni axborot oqimini boshqarish;

har xil vazifalarni tez va aniq amalga oshirilishini ta'minlash va boshqalar. Ushbu talablar mahnat faoliyatida insonlar tomonidan alohida psixik jarayonlarning aniq, ravshan va ravon yuzaga chiqishini ta'minlaydi.

Odam ayrim narsalarga o'z diqqatini ongli ravishda o'zi xohlab qaratsa, boshqa bir narsalar diqqatni beixtiyor ya'ni bizning hohishimizdan tashqari jalb qiladi. Odam psixik faoliyatining muayyan ob'ektga yo'naltirilishi va to'planishida ifodalanadigan diqqat quyidagi turlarga bo'linadi.

Diqqatning aktivligiga qarab - ixtiyorsiz, ixtiyoriy va ixtiyoriydan so'nggi diqqat.

Diqqatning ob'ektiga qarab - tashqi va ichki diqqat.

Diqqatning faoliyat turlariga qarab - individual, guruhviy va jamoaviy diqqat.

Ayrim adabiyotlarda diqqatning ikkita va ayrimlarida uchta deb ko'rsatiladi. Ular ixtiyorsiz diqqat, ixtiyoriy diqqat va ixtiyoriydan so'nggi diqqat turlaridan iboratdir.

Ixtiyorsiz diqqat deb to'satdan ta'sir qilgan biror sabab tufayli bizning xohishimizdan tashqari hosil bo'ladigan diqqatga aytiladi.

Odamning ko'z o'ngida paydo bo'ladigan juda yorqin rangli narsalar, o'zining tashqi ko'rinishi jihatidan odatdagi narsalardan keskin farq qiluvchi predmetlar, to'satdan paydo bo'lgan qattiq tovush, biror narsaning keskin harakati va shu kabilar ixtiyorsiz diqqatni yuzaga keltiruvchi sabablar bo'lishi mumkin. Masalan, hikoya o'qish mashg'uloti paytida to'satdan uchib o'tgan reaktiv samolyotning qattiq va bahaybat tovushi hammaning diqqatini beixtiyor o'ziga jalb qiladi.

Ixtiyorsiz diqqat odamning har turli ehtiyojlari va qiziqishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan diqqatdir. Shuning uchun ham ayni chog'dagi ehtiyojlarimiz, qiziqishlarimiz bilan bog'liq bo'lgan narsalarning ta'siri ixtiyorsiz diqqatga sabab bo'ladi. Masalan, erkin o'yin paytida zaldan eshitib qolgan bolani qiziqtirgan musiqa ovozi uning diqqatini o'yindan darhol o'ziga jalb qilib oladi.

Ixtiyorsiz diqqatning nerv-fiziologik asosini orientirovka yoki bu nima? refleksi tashkil qiladi. Chunki tevarak-atrofimizdagi narsalarning salgina o'zgarishi bizda darhol orientirovka refleksini yuzaga keltiradi. Boshqacha qilib aytganda, "nima gap?" degan ma'noda atrofimizga razm sola boshlaymiz.

Ixtiyoriy diqqat deb-oldindan belgilangan qat'iy bir maqsad asosida va ongli ravishda diqqatimizni ma'lum bir narsa va hodisalarga qaratishimizga aytiladi.

Odamning ko'pchilik faoliyatlari asosan ixtiyoriy diqqatning ishtiroki bilan amalga oshiriladi. Shuning uchun barcha faoliyat turlarida, ya'ni o'qish, o'yin va mehnat faoliyatlarida ixtiyoriy diqqatning roli juda kattadir. Ixtiyoriy diqqat ixtiyorsiz diqqatga nisbatan uzoq vaqt mobaynida davom etadigan diqqat turi bo'lib, u zo'r berishlikni, ya'ni irodaviy kuch sarf qilishlikni talab etadi.

Diqqat turlari va ularni qiyosiy xarakteristikasi

Diqqat turi	Paydo bo'lish shartlari	Asosiy xarakteristikasi	Asoslari
Ixtiyoriy	vazifani qabul qilishi	Vazifaga asosan yo'nalganlik, irodaviy zo'r berish, uzoq muddatli diqqatning to'planganligi toliqtiradi.	Ikkinchi signal sistemasining yetakchi o'rni
Ixtiyoriydan so'nggi diqqat	qiziqishi bilan yuzaga kelgan faoliyatga kirishish	Maqsadga yo'nalganlik saqlab qolinadi, toliqish bo'lmaydi, qiziqish ortadi.	Faoliyat jarayoniga bo'lgan qiziqish dominantasidir.

Ixtiyorsiz diqqat	Kuchli qo'zg'atuvchi asosida yuzaga keladi	Beixtiyoriylik, yengillik, bir faoliyatdan ikkinchi faoliyatga tez o'tiladi.	Shaxsning qiziqishini namoyon qiluvchi yoki xarakterlovchi dominanta.
--------------------------	---	---	--

Ta'lim va tarbiya jarayonida diqqat bilan bir qatorda idrokning sifatlariga e'tibor qaratish muhim ahamiyatga ega. Pedagog berayotgan bilimlarni o'zlashtirish uchun talaba-o'quvchilar avvalo ma'lumotlarni diqqat bilan idrok etishi-tushunishi, anglashi lozim. O'quvchilar o'zlashtirayotgan bilimlarini diqqat bilan qanchalik tez, aniq, to'la va ravshan idrok qila olsa, ma'lumotlarni shunchalik tez tushunib, vaqtida fahmlab va yetarlicha mustahkamlab oladi.

Demak ta'limiy samaradorlik uchun ta'lim oluvchilarda diqqat va idrok sifatlarining uyg'un shakllangan bo'lishi katta ahamiyatga ega. Ta'lim oluvchilarda diqqat sifatlarining yaxshi rivojlanganligi ular idrokining taraqqiyot darajasiga bog'liq. Pedagoglar fan asoslarini talabalarga tushuntirishda ularning individual xususiyatlari, diqqat sifatleri va tushunish darajasini hisobga olgan holda dars jarayonini tashkil qilishi lozim. O'qitishning "oddiydan murakkabga qarab borish" tamoyilidan, avvalo, talabalarining kasbiy faoliyatga oid bilimlarni ongli va tizimli o'zlashtirish maqsadida foydalanishi zarur. Pedagoglar talabalar diqqati va idrokining uyg'un shakllanishiga, ularda mutaxassislikka oid bilimlarga nisbatan qiziqish va ijobiy hissiyotni uyg'otishga xizmat qilishi lozim.

Xulosa. O'rganishlar jarayonida diqqat sifatlarining rivojlanganligi barcha psixik jarayonlar sifatiga ta'sir ko'rsatishi tadqiq qilindi. Bunda ixtiyoriy diqqatning irodaviy hatti-harakatlarga ta'siri, ichki diqqatning fikrlash opretasiyalariga bog'liqligi, ixtiyoriydan keyingi diqqatning idrok faoliyatiga ta'siri, ixtiyoriy esda olib qolishda diqqat konsentratsiyasining roli, xayol qilish jarayonida diqqat ko'limining o'rni, nutqiy faoliyatda diqqatning kuchi va barqarorligi kabi xususiyatlarning ilmiy ahamiyati o'rganildi.

Foydalanilgan adabiotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha shakllantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-sonli Farmoni. 8 oktyabr, 2019 yil.
2. Abduqodirov A.A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste'dod, 2008. – 180 b.
3. Бадмаева, Н.Ц. Влияние мотивационного фактора на развитие умственных способностей: Монография. - Улан-Удэ: Изд-во ВСГТУ, 2004. - 280 с.
4. Бугрименко, А.Г. Внутренняя и внешняя учебная мотивация у студентов педагогического вуза. Педагогическая наука и образование. - 2006. - №4. - С. 51-60.
5. Либин А. В. Дифференциальная психология. Учебник. М.: Юрайт. 2020. 442 с.
6. Nishanova Z.T, Xalilova N.I. Psixokorreksiya. Toshkent. Fan va texnologiyalar. 2016.-97 b.

Akramov Abdufattoh Shavkatovich
Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

ZAMONAVIY JAMIYATDA PSIXOLOGIK SALOMATLIKNI MUSTAHKAMLASH MUAMMOSINING O'RGANILISHI

Annotatsiya. Ushbu maqolada jamiyatda ta'lim tizimida ruhiy salomatlikka ta'sir etuvchi omillar va hissiy-irodaviy sifatlarning o'rtasidagi o'zaro korrelyatsion bog'liqlik ko'rsatkichlari o'rganilgan. Shuningdek psixologik salomatlikni mustahkamlashning ijtimoiy - psixologik mexanizmlari tadqiq etilgan hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: psixologik salomatlik, ijtimoiy salomatlik, ijodiy faoliyat, intellektual salohiyat, jismoniy salomatlik, individual psixologik xususiyatlar, psixosomatika, determinizm, hayot sikli.

Аннотация. В данной статье исследуются показатели корреляционной связи между факторами, влияющими на психическое здоровье, и эмоционально-волевыми качествами в системе образования в обществе. Также исследованы социально-психологические механизмы укрепления психологического здоровья и разработаны практические рекомендации.

Ключевые слова: психологическое здоровье, социальное здоровье, творческая активность, интеллектуальный потенциал, физическое здоровье, индивидуально-психологические особенности, психосоматика, детерминизм, жизненный цикл.

Abstract. This article explores the indicators of correlation between factors affecting mental health and emotional-volitional qualities in the educational system in society. Also, socio-psychological mechanisms of strengthening psychological health have been studied and practical recommendations have been developed.

Key words: psychological health, social health, creative activity, intellectual potential, physical health, individual psychological characteristics, Psychosomatics, determinism, life cycle.

Kirish. Bugungi kunda, zamonaviy psixologiyada psixologik salomatlikning pedagogik-psixologik xususiyatlari hamda unga ta'sir qiluvchi omillarni ilmiy-nazariy asoslarini tahlil etishga bag'ishlangan adabiyotlar nihoyatda ozchilikni tashkil etadi. Ayni paytda, psixologik salomatlik va uning funksiyalarini ochib beruvchi hamda uning metodologik ildizlarini asoslab bera oluvchi ilmiy tadqiqotlarni alohida o'rni bor.

Respublikamizda so'nggi yillarda izchillik bilan davom etayotgan barkamol avlodni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalash jarayonlarida ularni ham jismonan ham ruhiy salomatligini mustahkamlash, shaxsning yuksalishida psixologik salomatlikning o'rni hamda uning muammolarini bartaraf etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada, «jismoniy hamda ruhiy salomatlikni keng targ'ib etish, sog'lom turmush tarziga oid bilim va ko'nikmalarini yoshlar va kattalarda shakllantirishga qaratilgan ijtimoiy, amaliy, ilmiy va fundamental loyihalar ta'sis etish» masalasi ustuvor hisoblanib, talabalarda sport sog'lomlashtirish faoliyatini tashkil etish orqali har jihatdan psixologik yondashuv tamoyillarini yanada mukammal tarzda takomillashtirish zarurati tobora ortib bormoqda.

Adabiyotlar tahlili. Jahon mamlakatlari olimlari V.A.Ganzen, A.I.Eremeeva, Y.I.Kirshbaum, N.D.Levitov, A.O.Proxorov, Y.E.Sosnovikova, V.P.Zinshenko, B.G.Meshsheryakov, A.B.Leonova, V.I.Medvedev, K.K.Platonov, Yu.Strelkov, L.D.Shaynova va boshqalarning olib borgan tadqiqotlarida shaxs bilan bog'liq salomatlik omillarining pedagogik-psixologik tamoyillari ochib berilgan.

Yurtimiz psixolog tadqiqotshilari orasida bu muammo, E.G'.G'oziyev, G'.B.Shoumarov, V.M.Karimova, A.M.Jabborov, Sh.R.Barotov, Z.T.Nishonova, D.G'.Muxamedova, N.S.Safoyev, R.S.Samarov, Z.G.Gapparov, M.Mamatov, A.A.Sobirov tomonidan o'rganilgan. Biroq, sog'liqni saqlash toifasining ko'plab nazariy va amaliy ishlanmalariga qaramay, bugungi kunda uning holati juda noaniq.

Psixologik salomatlik bu – psixologik va ijtimoiy farovonlik holati bo'lib, unda inson o'z imkoniyatlarini anglab yetadi, hayotdagi qiyinchiliklar va stresslarga samarali qarshi turadi, samarali, ongli faoliyat olib boradi va jamiyat rivojiga hissa qo'shadi. Avvalo, bu psixikaning barqaror, yetarli darajada ishlashi, shuningdek, asosiy bilish jarayonlari: idrok, xotira, diqqat, tafakkur tufayli amalga oshiriladi. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ta'kidlashicha, ruhiy buzilishlar dunyo aholisining taxminan 12 foiziga ta'sir qiladi – taxminan 450 million kishi yoki dunyo bo'ylab har to'rtinchi odam sport sog'lomlashtirish bilan bog'liq muammolarga duch kelmoqda.

Tahlil va muhokama. Tizimli yondashuv doirasida yana bir qiziqarli klassifikatsiyani V.A.Ganzen tadqiqotlarida ushratishimiz mumkin.

1 - jadval.

V.A.Ganzen bo'yicha psixik holatlar klassifikatsiyasi

Psixik holatlar	Psixofiziologik xususiyatlarning namoyon etilishi
Irodaviy holatlar (taranglik – xotirjamlik) motivatsiyasi	ijobiy (ilhomlanish, shijoat, ko'tarinkilik, safarbarlik, tayyorgarlik, ustanovka, faollashish
	organik (gipoksiya, chanqoqlik, ochlik, jinsiy taranglik);
Affektiv holatlar ("lazzatlanish- noroziilik")	ijobiy (xushyoqish, do'stlik, sevgi, hamohanglik,);
	salbiy (antipatiya, asintoniya, dushmanlik, nafrat, g'azab)
Ongli holatlardagi diqqat	shalg'itish, konsentrasiya, diqqatni kushayishi yoki giperproyeksiya

Mazkur jadvaldan ko'rinib turibdiki, psixik holatlar orasida ushbu tasnifda juda ko'plab psixologik mutanosibliklarning namoyon etilishi kuzatiladi. Bunday holda, muallifning o'zi psixika tuzilishiga kiritilgan tarkibiy qismlarni o'rnatishga yordam beradigan tizimlarni ham taklif etadi.

Umuman, ruhiy holat dinamikasini quyidagi uchta guruhga bo'lib o'rganish mumkin:

1) Psixik holatning atrof-muhit ta'siri bilan bog'liq irodaviy harakatlar (E.P.Ilin, A.B.Leonova, V.I.Medvedev va boshqalar);

2) Psixik holatning inson xulq-atvori va tajriba birligida ifodalangan psixik faoliyat dinamikasining namoyon etilishi bilan bog'liq harakatlar (V.A.Ganzen, A.I.Eremeeva, Ye.I.Kirshbaum, N.D.Levitov, A.O.Proxorov, A.S.Puni, Yu.E.Sosnovikova va boshqalar) [152];

3) Psixik holat faoliyatda yuzaga keladigan ijtimoiy-psixologik omil sifatida, shaxsning aqliy faoliyatining namoyon etilishi (V.N.Myasisheev, S.L.Rubinshteyn va boshqalar) [162].

O'rganilayotgan muammo bo'yicha nazariy manbalarni tahlil qilish asnosida biz talabalarda sport sog'lomlashtirish faoliyatini rivojlantirish dinamikasini belgilab chiqdik:

O'zini va boshqalarni adekvat qabul qilish;

Shaxslararo muloqotni shakllanganligi;

O'zining istaklari va qadriyatlarini bilish,

Hayot mazmuni to'g'risida xabardor bo'lish.

To'g'ri qaror qabul qilish;

Atrofdagilarni qo'llab-quvvatlash;

Maqsadni to'g'ri tanlash;

Qiyin hayotiy vaziyatlarda boshqalarni qo'llab-quvvatlash;

O'z emotsiyasini boshqara olish.

Salomatlik uchta asosiy turga bo'linadi:

- "jismoniy salomatlik (organizmda o'z-o'zini tartibga solishni yaxshilash, fiziologik jarayonlarning uyg'unligi, atrof-muhitga maksimal moslashish);
- ruhiy salomatlik (insonning hayot strategiyasi, insonning vaziyatdan ustunlik darajasi);
- ijtimoiy salomatlik (mehnat qobiliyati, ijtimoiy faollik, dunyoga faol, faol munosabat o'lchovi).

Hissiy tartibga solish: hissiyotlarni tanib olish, tushunish va boshqarish qobiliyati ijtimoiy yetuklik uchun asosdir. O'qituvchilar o'quvchilarga aqliy mashqlar, hissiy ongni muhokama qilish, stress va tashvish bilan kurashish strategiyasi orqali hissiy tartibga solish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam berishi mumkin. Hissiy chidamlilikni rivojlantirish orqali o'qituvchilar talabalar ijtimoiy muammolarni yanada samarali hal qilishlari uchun qulay muhit yaratadilar.

Ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish: ijtimoiy yetuklik muloqot, hamkorlik, hamdardlik va nizolarni hal qilishni o'z ichiga oladi. O'qituvchilar hamkorlikdagi o'quv faoliyati va jamoaviy ishlashni talab qiladigan guruh loyihalari orqali ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam berishi mumkin. Konstruktiv fikr-mulohazalarni taqdim etish va ijobiy ijtimoiy aloqalarni modellashtirish talabalarning tengdoshlari va obro'li shaxslar bilan samarali muloqot qilish qobiliyatini oshiradi.

Shaxsni shakllantirish: o'smirlik shaxsni o'rganish va rivojlantirish uchun muhim davrdir. O'qituvchilar o'zlarini ifoda etish imkoniyatlarini taklif qilish, shaxsiy qadriyatlar va e'tiqodlar haqida mulohaza yuritishni rag'batlantirish va sinf ichida turli xil shaxsiyatlarni qabul qilishni rag'batlantirish orqali talabalarning shaxsini shakllantirishni qo'llab-quvvatlashlari mumkin.

Kognitiv moslashuvchanlik: ijtimoiy yetuk shaxslar turli xil ijtimoiy vaziyatlarda o'zlarining fikrlash va xatti-harakatlarini moslashtirish orqali kognitiv moslashuvchanlikni namoyish etadilar. Axloqiy dilemmalar va tarixiy kontekstlarni muhokama qilish talabalarga turli nuqtayi nazarlarni tushunishga va fikrlarni rivojlantirishga yordam beradi.

Chidamlilik va moslashuvchanlik: ijtimoiy yetuk shaxslar muvaffaqiyatsizliklar, qiyinchiliklar va o'tishlarni samarali engish orqali chidamlilikni namoyish etadilar. O'qituvchilar maqsadni belgilash, o'z-o'zini aks ettirish va muvaffaqiyatsizlikdan o'rganish imkoniyatlari orqali chidamlilikni rivojlantirishlari mumkin.

Axloqiy qarorlarni qabul qilish: ijtimoiy yetuklik axloqiy tamoyillar va qadriyatlarga asoslangan axloqiy qarorlarni qabul qilish qobiliyatini o'z ichiga oladi. O'qituvchilar o'quvchilarga kuchli axloqiy kompasni rivojlantirishga yordam berish uchun axloqiy dilemmalar, adolat, adolat va fuqarolik mas'uliyati bo'yicha munozaralarni osonlashtirishi mumkin. Talabalarni munozaralar, amaliy tadqiqotlar va jamoat ishlari loyihalariga jalb qilish axloqiy qarorlarni qabul qilish ko'nikmalarini kuchaytiradi va adolatli va adolatli jamiyatni yaratishda faol ishtirok etishni rag'batlantiradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, psixologik determinantlarni ta'lim amaliyotiga qo'shish o'quvchilarning yaxlit rivojlanishiga yordam beradigan tarbiyalovchi va qo'llab-quvvatlovchi o'quv muhitini yaratadi. Ijtimoiy ko'nikmalar, bilim moslashuvchanligi, axloqiy fikr, madaniy mahorat, chidamlilik, va moslashuvchanlik, o'qituvchilar uchun nafaqat ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu keng qamrovli yondashuvda ta'lim nafaqat akademik yutuqlarga e'tibor qaratishini, balki talabalarni shaxsiy hayotlarida muvaffaqiyat qozonish va jamiyatga ijobiy hissa qo'shish uchun zarur bo'lgan muhim ko'nikma va malakalar bilan ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T.: - "O'zbekistan", 2017 – 102 b.
2. Крюкова В.В. Модель структуры социальной зрелости старшеклассника. // Балтийский гуманитарный журнал. - 2011. - №6. - С.45-51.

3. Леонов И.Д. Сборник психологических тестов. - Кировоград: Юность. - 2009. - С. 68-70.
4. Петровский А.В. Ярошевский М.Г. Психология. Словарь. 2-е изд. испр. и доп. – М.: Политиздат. 1990. - 126 с.
5. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. – T.: 2010. - 544 b.
6. Hubert Hofmann, Stiksrud Arne (eds.): Giving shape to life. Erik H. Erikson from an interdisciplinary perspective. Krammer, Vienna 2004

Arzimbetov Tileubergen Tilebergenov

*O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
Nukus filiali Jismoniy tarbiya nazariyasi va gumanitar
fanlar kafedrası dotsenti v/b, p.f.f.d (PhD)*

TALABALARDA SPORT FAOLIYATI MOTIVLARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarda sport faoliyatini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari o'rganilgan. Shuningdek, talabalarda sport motivlarining yuzaga kelish shart-sharoitlari bo'yicha asosiy tushunchalar keltirib o'tilgan. Shuningdek, talabalarda sport motivlarining rivojlanishi bo'yicha psixologik xususiyatlari ilmiy nazariy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: motivatsiya, iste'dod, ustanovka, motiv, faoliyat, ong, shaxs, kompetentlik, qobiliyat, ko'nikma.

Аннотация. В данной статье рассмотрены педагогико-психологические особенности формирования спортивной деятельности у учащихся. Приведены также основные понятия об условиях возникновения у учащихся спортивных мотивов. Также были научно и теоретически проанализированы психологические особенности развития спортивных мотивов у студентов.

Ключевые слова: мотивация, талант, установка, мотив, деятельность, сознание, личность, компетентность, способности, умения.

Abstract. This article explores the pedagogical and psychological features of the formation of sports activities in students. Also in students, basic concepts on the conditions of the occurrence of sports motives are cited. Also in students, the psychological characteristics of sports motives on their development were scientifically theoretically analyzed.

Key words: motivation, talent, ustanovka, motive, activity, consciousness, personality, competence, ability, skill.

Kirish. Zamonaviy psixologiyada inson, uning psixologik imkoniyalari ko'lamidan oqilona foydalanish va shu asosida ijtimoiy istiqbollarni belgilash har bir davlatning, jamiyatning, xalqning eng muhim dolzarb vazifalaridan biri bo'lib kelgan. Zero, har bir shaxsning o'zi jamiyatning, xalqning bir qismi sifatida ham o'z-o'zini bilishi, tarbiyalashi va hamisha rivojlantira borishi muqarrardir. Respublikada izchillik bilan amalga oshirilayotgan «Ta'lim to'g'risidagi qonun» va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ushbu masalaning o'ziga xos yechimlarini izlashda muhim o'rin tutmoqda. Binobarin, Respublika Prezidenti tomonidan o'rinli e'tirof etilganidek, «Ta'limning yangi modeli jamiyatimizning potensial kuchlarini ro'yobga chiqarishda juda katta ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5924-son O'zbekiston respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi farmoni aynan talabalarning sport faoliyati shakllanishiga yordam berdi. Unda O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi tizimidagi sport maktablari o'quvchi-sportchilari o'rtasida "Bolalar sport o'yinlari"ni o'tkazish orqali iqtidorli sportchilarni aniqlash va yoshlar terma jamoalariga zaxira yaratish hamda oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida "Talabalar sport o'yinlari"ni tashkil etish natijasida talabalarni sport bilan muntazam shug'ullanishga jalb etish nazarda tutilgan.

Adabiyotlar tahlili. Talabalarda sport faoliyati motivlarini shakllanishi va uni rivojlanishi borasida bir qancha olimlar tadqiqot olib borganlar. Jumladan o'zbek psixologlaridan R. Asomova, A.A. Fayzullayev, M.G. Davletshin, V.M. Karimova, E.G'.G'oziyev, G'.B. Shoumarov,

Xorij olimlaridan V.G. Aseev, D.N. Uznadze, S.L. Rubinshteyn, D.I. Feldshteyn, A.N. Leontev, V.D. Shadrikov kabi olimlar o'z tadqiqotlarida talabalarda sport faoliyati motivini rivojlantirish bo'yicha o'z qarashlarini bayon etganlar.

Jumladan, E.G'oziyev va R. Asomova tadqiqotlarida ta'kidlaganidek, motiv va motivatsiya tizimi shaxsning faoliyati, muomalasi, xatti-harakatining ichki regulyatsiyasi funksiyasini bajarib,

ehtiyojini qondirish, xohish-istak, ezgu niyat, orzu-tilak, mayl, his-tuyg'u, ustanovka, ideal, iymon-e'tiqod, vijdon, maqsad qo'ya olish va boshqalarni amaliyotda ro'yobga chiqarishning bosh omili bo'lib hisoblanadi. Motiv va motivatsiya faqat bilimlarni o'zlashtirish, o'quv malakalarini egallash, muomala maromini qo'llash bilangina cheklanib qolmasdan, balki shaxsning xulq-atvorini, yangi xislatlar namoyon bo'lishini ham izohlab berishga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida talabalar uchun sport motivatsiyasining shakllanishi va rivojlanishi uchun muhim bo'lib hisoblanadi.

Motivatsiya – bu psixika orqali hosil bo'ladigan determinatsiyadir, motiv - bu shaxs xulq-atvorining kognitiv jarayonini bevosita tashqi olam bilan bog'lovchi subyektiv tarzda aks etishi demakdir (S.L. Rubinshteyn).

Professor E.G'oziyev ma'lumotlariga qaraganda, motivning tuzilish tarkibiga shaxsning yo'nalganligi, xarakter xususiyatlari, his-tuyg'ulari, ichki kechinmalari, faoliyat yo'nalishlarida ifodalangan ehtiyoji, qiziqishi, mayli, ustanovkasi kiradi. Zero, u yoki bu shaxsning motivlari tuzilishini, ularning asosiy funksional mexanizmlarini hamda shakllanish jarayoniga yo'naltirishning strategik rejasini ishlab chiqishni psixologik jihatdan tushunish muhim ahamiyat kasb etadi.

R.Asomova tadqiqotlarida professional motivlar birlamchi ahamiyatli motivlar sifatida quyidagi guruhlariga bo'lib o'rganiladi:

- a) ijtimoiy motivlar,
- b) guruhiiy xususiyatli motivlar,
- v) protsessual motivlar,
- g) rag'batlantiruvchi motivlar.

Mazkur motivasion guruhlarining o'ziga xos har bir jihati tadqiqotchi tomonidan ilmiy asoslab beriladi.

Muhokama. Umuman, shaxs motivatsiyasining shakllanishi professor E.G'oziyev modifikatsiyasi bo'yicha quyidagi yo'nalishlarga asoslanadiki, bu yo'nalishlar, bizningcha, sport motivatsiyasining nazariy asoslarini belgilashga xizmat qiladi.

Motivatsiya shakllanishining birinchi yo'li - bu ko'pincha «yuqoridan pastga» deb nomlanib, talabalarda o'quv motivining namunalari ideal darajadagisini tarkib toptirishda o'z ifodasini topadi. Talaba uchun tanish motivlar o'z xulqini ular bilan qiyoslash orqali o'zlashtiriladi, shaxsiy motivlar esa jamiyat tomonidan taklif qilinganlari bilan mujassamlashtiriladi.

Motivatsiya shakllanishining ikkinchi yo'li «pastdan yuqoriga» deb atalib, talaba ijtimoiy hayotdagi faoliyat turlarida bevosita ishtirok etadi, axloqiy xulq-atvor, faoliyat ko'nikmalarini amaliy jihatdan egallab boradi, unda real, haqiqiy, adekvat motivlar yuzaga kela boshlaydi.

Taniqli psixolog A.N. Leontev o'zining «Faoliyat, ong, shaxs» nomli monografiyasi orqali motivatsiya talqiniga yangicha yondashuv nazariyasini fanga kiritdi, bu yondashuv esa motivatsiya va munosabat uyg'unligining shaxs faoliyatida namoyon etilishini nazariy jihatdan asoslab berishga xizmat qiladi. Demak, A.N.Leontyev talqinidagi shaxs, faoliyat, ong va ijtimoiy faollik o'rtasidagi psixologik mutanosiblikning mavjudligi shaxs munosabatlari tizimining psixologik mexanizmlarni yaratishda muhim metodologik ahamiyat kasb etadi. V.D.Shadrikov tomonidan motivatsiyasi jarayonini faoliyat tizimining funksional psixologik modeliga bog'lab, faoliyatli yondashuv motivatsiyasining o'ziga xos ijtimoiy psixologik istiqbollarini ochib berishi ma'lum darajada shaxs umumiy taraqqiyoti yo'nalishlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

V. Kettellning motivatsiya nazariyasi o'ziga xosligi bilan boshqalardan ajralib turadi. U o'zining ilmiy imkoniyatlarini "Shaxs va motivatsiya", "Struktura va o'lchov", "Motivatsiya nazariyasi", "Shaxsning ilmiy tahlili" singari asarlarida sinab ko'rgan. Uning tasdiqlashicha, xulq-bu organizm va tashqi ta'sirning natijasidir. Inson xulqini tahlil qilayotib, u qobiliyat, temperament, dinamik qiyofa (xulqning faolligi va kuchi)ga ajratadi. Tizimning oxirgisi ergik ehtiyojlar (tug'ma reaksiyalarning omillari) va sentimentlar (o'zlashtirilgan, o'rgatilgan reaksiyalar) tarkibiga kiradi. Muallif taklif qilgan sxema shaxsning "hissiy", "sentimentlar",

"ergik" munosabatlari darajasini qamrab oladi (ergik - yunoncha, ish, quvvat demakdir). Xulqning motivatsion tarkibi temperament va hissiyotlar bilan aloqadordir. Ergik daraja instinktga, zaruratga, ehtiyojga qarama-qarshi qo'yiladi. Uning mulohazasicha, erg-motivatsiyaning o'zgaruvchan tasniflovchisidir, motiv esa rag'batlanuvchi ehtiyojdir. Muallif o'zining motivatsiya nazariyasida ijtimoiy va biologik jabhalarni, shuningdek, fiziologik va psixologik tomonlarni birlashtirishga harakat qiladi.

Xulosa. Talabalar o'rtasida sport faoliyati motivlarini rivojlantirish ularning sport bilan shug'ullanishi va doimiy ishtirokiga ta'sir qiluvchi pedagogik va psixologik omillarni tushunishni o'z ichiga oladi. Jumladan:

Ichki va tashqi motivatsiya:

Ichki omillar: shaxsiy zavq, qoniqish va sportda mahoratni rivojlantirish.

Tashqi omillar: tan olish, mukofotlar va ijtimoiy ma'qullash kabi tashqi mukofotlar.

Vazifa yo'nalishi:

shaxsiy takomillashtirish va ko'nikmalarni o'zlashtirishga e'tibor qaratish.

Ego yo'nalishi: motivatsiyaga boshqacha ta'sir qilishi mumkin bo'lgan ijtimoiy taqqoslash va g'alaba qozonishni ta'kidlash.

Psixologik ehtiyojlar:

Kompetensiya: sport mashg'ulotlarida o'zini samarali his qilish.

Bog'liqlik: tengdoshlar va murabbiylar tomonidan bog'langan va qo'llab-quvvatlanganligini his qilish.

Motivatsion strategiyalar: o'qituvchilar va murabbiylar individual imtiyozlarni qondirish uchun ichki va tashqi motivatorlarning kombinatsiyasidan foydalanishlari mumkin.

Malakalarni rivojlantirish: qo'shimcha o'quv tajribalari va geribildirim looplari talabalarning kompetensiya tuyg'usini oshiradi.

Ijobiy muhit: qo'llab-quvvatlovchi va inklyuziv muhitni yaratish doimiy ishtirokni rag'batlantiradi.

Uzoq muddatli jalb qilish: sportga umrbod muhabbatni tarbiyalash ichki motivatsiyani tarbiyalash va psixologik ehtiyojlarni qondirishni o'z ichiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5924-son O'zbekiston respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Farmoni.

2. E.G'.G'oziyev. Umumiy psixologiya. 2010 y.-Toshkent.

3. E.G'.G'oziyev. Ontogenez psixologiya. 2010 y.-Toshkent.

4. Шадриков В.Д. Мотивация деятельности в процессе производственного обучения. Психология производственного обучения.-Ярославль,1974.-144 с.

5. Чеснокова И.И. Проблема самосознания в психологии. – М.: «Наука», 1977. – 144с.

6. Шавир П.А. Психология профессионального самоопределения в ранней юности. – М.: «Педагогика», 1981.- 96 с.

Shixova Inobat Omonovna

Xorazm viloyati Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish

Milliy Markazi katta o'qituvchisi.

inobatsnixova@gmail.com.

SHARQ MUTAFAKKIRLARI ASARLARIDA TAFAKKUR VA MANTIQIY FIKRLASH MASALASINING YORITILISHI

Annotatsiya. Ushbu maqolada sharq mutafakkirlari asarlarida tafakkur va mantiqiy fikrlash masalasining yoritilishi, o'smirlar tafakkurini rivojlantirishda ajdodlarimiz o'g'itlari va ularning ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, tafakkur jarayonlarini o'rganish borasida amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: tafakkur komponentlari, kreativ fikrlash, ilmni jalb qilish, fikr, aql, "Avesto", komil inson, axloq kamoloti, aql, ma'naviy dunyosi, tafakkur madaniyati, tafakkur quvvati, halollik va adolat, hislat, fazilat, bilim.

Аннотация. В данной статье рассматривается освещение вопроса мышления и логического мышления в трудах восточных мыслителей, учение наших предков и их значение в развитии мышления подростков. Также разработаны практические рекомендации по изучению мыслительных процессов.

Ключевые слова: компоненты мышления, творческое мышление, привлечение науки, мысль, разум, «Авесто», совершенный человек, нравственное совершенство, разум, духовный мир, культура мышления, сила мышления, честность и справедливость, чувство, добродетель, знание.

Abstract. This article will highlight the issue of thinking and logical thinking in the works of Eastern thinkers, talk about the progenitors of our ancestors and their significance in the development of adolescent thinking. He also developed practical recommendations on the study of thought processes.

Key words: components of thinking, creative thinking, involvement of science, thought, mind, "Avesta", perfect man, moral perfection, mind, spiritual world, thinking culture, power of thinking, honesty and justice, feeling, virtue, knowledge.

Kirish. Jahonning ilmiy markazlarida ta'lim sifatini oshirish, tafakkur komponentlarini rivojlantirishga bag'ishlangan ko'plab zamonaviy ilmiy tadqiqotlar o'tkazilib, o'quvchilarining tafakkurini rivojlantirishning samarali usullari ta'lim jarayoniga tatbiq etilmoqda. Global Creativity Index (GCI) ning hisobotida keltirilishicha ilmiy-amaliy, ijod sohasini qo'llab-quvvatlash darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda ilmiy dunyoqarash shakllantirish ko'rsatkichi o'sganligi bilan tavsiflanadi. O'smirlar tafakkurini rivojlantirish nazariy-metodologik jihatlarini takomillashtirish, tafakkurini rivojlantirish jarayoni modelini yaratish, tafakkurni rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv vaziyatlarining pedagogik-psixologik imkoniyatlari va metodlarini aniqlashtirish bo'yicha tadqiqotlar alohida ahamiyatga molikdir. Sinf va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'smir yoshidagi o'quvchilarining tafakkurini rivojlantirish masalasi pedagogik-psixologik imkoniyatlarni yaratish zarurati kuzatilmoqda. Respublikamizda umumta'lim muassasalarida sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'smirlar tafakkurni rivojlantirish, atrofdagi voqelikka o'quvchilarining erkin, ongli munosabatda bo'lishi va mustaqil, ijodiy, kreativ fikrlash, onglik va ijtimoiy faollik, tashabbuskorlik kabi sifatlarini rivojlantirish, ijodiy va mantiqiy tafakkuri va tasavvuri rivojlangan shaxsni kamol toptirishning moddiy- texnik bazasi yaratilgan. Bunda "Jismonan sog'lom, ruhiy va intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega, vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish"[1] ustuvor vazifa etib belgilangan. Bunda o'smirlarning tafakkurini rivojlantirish, shaxsning intellektual sifatlarini shakllantirish, tajriba va tarbiya, psixologik resurslaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Respublikamizda ta'lim-tarbiya tizimi va barkamol

avlodni tarbiyalash davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlari darajasiga ko'tarilib ta'lim-tarbiya sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratildi. Mamlakatimizda huquqiy-demokratik davlat qurish pallasida yoshlarimizda hurfikrlilik, mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish, aqliy va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Mavzu bo'yicha adabiyotlar tahlili. David Gartli va Djozef Pristlilarning tahlilicha, sodda assotsiativ tasavvurlarni inson bosh miyasining katta yarim sharlarida sodir bo'ladigan fiziologik, neyrofiziologik bog'lanishlar bilan, aynan, identik narsa voqelik deb tushuntirishga, ularni o'zaro tenglashtirishga harakat qilganlar. Chunonchi, D.Gartli psixologiya fanini ruhiyat fizikasi deb nomlashga qaror qilgan. Hatto D.Pristli barcha ruhiy (bilish) jarayonlarini miya tebranishlarining mahsuli deb dalillashga intilgan. Bunday yondashuv o'sha davr uchun o'ziga xos munosabatni o'zida gavdalantirgan edi [2]. Psixologik tadqiqotlarda tafakkur muammosi yetarlicha o'rganilgan. Bu borada L.S.Vigotskiy va A.N.Leontyevlarning konsepsiyalari muhim ahamiyat kasb qildi. Unga ko'ra, insonni ontogeneza taraqqa etish jarayonida tashqi faoliyat asta-sekin ichki (aqliy) xatti-harakatlarga aylanadi. O'smirlar jarayonning tuzilishini o'zlashtiradi, tashqi bilimlardan qanday foydalanish qoidalarini egallaydi. Dastlabki o'zlashtirishdan keyin harakat asta-sekin o'zgarishi natijasida umumlashtirish vujudga keladi. Uni amalga oshirish tarkiblarining qisqarishi va darajasining pasayishi bilan ajratib turadi [10]. Psixolog olimlar: M.G.Davletshin, E.G'oziev, V.M.Karimova, S.X.Xurramova, I.P.Muxammadjonova, N.S.Leytes, B.S.Abdullayevlar, aqliy faoliyat, tafakkur va uni rivojlantirish ustida ish olib yuqori natijalarga erishganlar. Xorijlik olimlardan Y.M.Orlov, S.N.Morozyuk, Y.V.Miroshnik, K.E.Izard, Dj.Dyui, R.J.Sternberg, K.Sternberglar tafakkurning mohiyati, tabiati va uni rivojlantirish mexanizmlarini tadqiq qilishga alohida e'tibor qaratganlar.

Tahlil va amaliy natijalar. Insonning fikrlashga undovchi manbalardan biri "Avesto" zardushtiyligining muqaddas kitobi bo'lib, qadimiy ajdodlarimiz yaratgan eng qadimiy, noyob bilimlarning xazinasidir. Unda olamdagi barcha diniy, dunyoviy, tabiiy fanlar bo'yicha teran fikrlar mujassamlashgan. Jumladan "Avesto"da yaxshi fikr tarbiyasi haqida quyidagi mulohazalar uchraydi: "Tarbiya - hayotning eng muhim tirgagi tayanchi bo'lib hisoblanishi lozim. Har bir yoshni shunday tarbiyalash zarurki, u avval yaxshi o'qishni, so'ngra yozishni o'rganishi bilan eng yuksak pag'onaga ko'tarilsin". "Yaxshi fikr, yaxshi so'z, yaxshi ishga shon-shavkat baxsh etaman" [4]. Avestoda odamning tanasi ham, so'zi ham ishi-yu tafakkuri ham pok bo'lmoq'i lozim deyiladi. Ahuramazda dedi: "o'zgalarga ro'shnolik istagan odamning yo'li albatta hamisha nurafshon bo'lgay!".

Tasavvuf allomalaridan biri Azizuddin Nasafy "Komil inson" nomli kitobida yozadi: "Bilgilki, komil inson quyidagi to'rt narsaga mukammal shaklda ega bo'lgan insondir. Ularning birinchisi, yaxshi so'z, ikkinchisi ezgu faoliyat, uchinchisi go'zal axloq, to'rtinchisi ilmdir. Bu to'rt narsaga erishgan kishi komil bo'lishi mumkin", o'z fikrini davom ettirib: "Komil inson bo'lish uchun mukammallikka intilmoq lozim. Ya'ni, yaxshi aql, yaxshi so'z, yaxshi fikr, yaxshi axloq bilan o'rnak bo'lmoq, adolatli, qanoatli, oriyatli, ma'rifatli bo'lmoq, ilm - bilimni chuqur egallamoq, olamni balo - fitna, g'iybatlardan saqlamoq, kishilar mushkulini oson qilmoq lozim" [6] - deganlar.

Ummu Zarr: "U kun bo'yi uning bir burchagiga tafakkur qilib o'tirardi", dedi Hasan: "Bir soatlik tafakkur bir kechani ibodat bilan uxlamay o'tkazgandan xayrliroq", degan. Fuzayl aytadiki: "Fikr senga yaxshi va yomon amallaringni ko'rsatib turadigan ko'zgudir". Bir rivoyatda kelishicha: Ibrohimga buncha uzoq tafakkur qilib o'tirasani, deyishdi. U: "Fikr aqlning iligidir", deb javob berdi. Sufyon ibn Uyayna ko'pincha mana bu she'riy parchani o'qishni yoqtirardi: "Yigit kishida bo'lsa gar fikr, Har narsada unga ibrat bor" [5]. Bu rivoyatlardan olinadigan ma'nolarda ham odam bolasi har bir qilgan va qilayotgan amallari ustida fikr - mushohada yuritishi, tafakkuri orqali ibrat bo'la olishi mumkinligi bayon qilingan.

Ilm ikkiga bo'linadi badan va qalb salomatligi. Imom al-G'azzoliy qalb salomatligini quyidagicha izohlaydi: "Qalb deganda bizga ko'rinadigan bir parcha go'shtni nazarda tutayotganim yo'q. Balki u hissiy a'zolar bilan idrok qilib bo'lmaydigan ilohiy sirlardan bir sirning, yashirin ne'matlardan bir ne'matning nomidir. Gohida u "ruh", gohida esa "nafsi

mutmainna" (xotirjam nafs), deyiladi. Shariat uni "qalb" deb nomlaydi, chunki u o'sha ilohiy sirning ulovidir. Uning vositasi ila butun badan o'sha latofatga bir bosqich vazifani o'taydi. Bu sirning vazifasi faqatgina mukoshafa ilmi bilan ochiladi. "Qalb qimmatbaho javhar, butun ko'z oldimizda namoyon narsalar orasida eng aziz va sharaflidir. Va u ilohiy ishdur. Ruhning nisbati inson jasadidagi boshqa a'zoldan ko'ra sharafliroq. Allohning omonati yuklangan qimmatbaho javhar mana shu ruhdur" [5].

Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy o'z asarlarida ilm-ma'rifat, tafakkurning xalq va jamiyat faravonligida, insonning axloq kamolotida tutgan o'rni haqidagi fikrlarni bayon etadi. Xorazmiyning ta'kidlashicha, adabiyot ijtimoiy tafakkur shakllaridan biri sifatida inson badiiy kamolotiga xizmat qilishi lozim. Nutq boyligi puxta, chuqur bilishni, ijobiy fikrlash malakasini egallashning asosi, - deb hisoblaydi [6]. Buyuk alloma Abu Nasr Farobiy (873-950) aql va tafakkur yordami bilan bilim olishning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga harakat qilgan. Uning asarlarida tafakkur mavhumlikka, bivositalikka ya'ni sezgi a'zolari orqali bilish xususiyatiga ega, deb tushuntiriladi. Farobiy ta'limotiga ko'ra, inson tafakkur (aql) orqali materiyaning sezgilarga noma'lum bo'lgan tomonlarini, umumiy qonuniyatlarini, mohiyatini biladi, san'at, fan tizimidagi bilimlarni egallashga muvaffaq bo'ladi [7].

Bu jarayon "Farobiy ta'limotida o'z zamonasidagi fozil, ideal jamoa, axloq, ma'rifat, aql-idrok, ishonch, hamma uchun baxt-saodat tantana qilgan jamiyat haqidagi orzu-istak va intilishlarning nazariy ifodasi edi". "Odamlarga nisbatan ularni birlashtiruvchi boshlang'ich asos insoniylikdir. U o'z ruhining g'ururi va vijdonini qadrlaydigan bo'lsin, uning ruhi o'z tabiati bilan past ishlardan yuqori va oliyjanob ishlarga ishlatiladigan bo'lsin. Farobiy "Fozil odamlar shahri" asarida baxt-saodatga erishishni istagan har bir inson fozillikka intilib yashashi darkor", deb hisoblagan. "Inson birdamlik, yakdillik, adolat va haqiqatgo'ylik xushmuomalalik, ezgu niyatlar orqaligina baxt-u saodatga erishadi" [8].

Shuningdek, inson tafakkurining usullari nerv tizimida ham, miyasida ham emas, balki bir davrda tasavvur qilishga, o'ylashga, ishlashga, boshqa tomondan esa nerv faoliyatini boshqacha ishlashga yo'llaydigan ijtimoiy hodisadir. Inson fikrlari va qarashlari ijtimoiy munosabatlardan kelib chiqqan holda yuzaga chiqadi. Insonning sog'lom fikrlash usuli avvalo ijtimoiy hodisa bo'lib, fikr hech qachon o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, fikr biror narsa haqida, biror predmet haqida tasavvur qilish, o'ylash natijasida paydo bo'lishi mumkin. Predmetsiz fikrning bo'lishi mumkin emas. Tafakkurning funksiyasi miya faoliyati jarayonida kechadigan subyektiv psixologik jarayonlar bilangina chegaralanmaydi. Abu Rayhon Beruniy (973-1048) dunyoda insonning tutgan o'rni, istiqboli masalasiga katta e'tibor bilan qarab, ongli hayotiy faoliyat odamni hayvonning ongsiz hayotiy faoliyatidan farqlantiradigan muhim jihatlaridan biri ekanligini uqtiradi. Uning "Mineralogiya" asarida: "odamda tafakkur qudrati bulmaganda edi, uning ahvoli hayvonlar holatidan ham tubanroq bo'lgan bo'lardi, chunki odam kuch jihatidan hayvonlardan zaif, kuchli tabiiy himoya vositalaridan mahrumdir" - deb yozadi [8]. Beruniy ta'limotiga ko'ra, tabiatni bilish jarayoni sezgilardan boshlanib tafakkurga ko'tariladi, ma'lum narsalardan noma'lum narsalarga va hodisalarni bilishga tomon rivojlanib boradi. Bilish jarayonida hissiy bilish - sezgi, idrok, xotira kabilarga Beruniy katta e'tibor beradi va ularsiz tabiat hodisalari haqida tafakkur qilish mumkin emasligini ta'kidlaydi. Shuningdek, "jamiyatning o'zini-o'zi boshqarish darajasi kishilar ongining o'sishi, uning tafakkur madaniyati yetukligi bilan uzviy bog'liqdir. Beruniy ijtimoiy adolat va yaxshi fazilatlar haqida gapirib, rostgo'ylik, ya'ni haqiqatgo'ylikning adolat bilan uyg'unligi, bilim va ma'rifat egasi bo'lish, ijodiy mehnat va yaxshilik insonlarni kamolotga, birdamlik va adolatli bo'lishga yetaklaydi" deb ta'kidlagan [6]. Umar Xayyom o'z ijtimoiy va axloqiy qarashlarda shaxsiy baxtni jamoa baxti bilan bog'lab, uning asosini adolat, insonparvarlik, hurfikrlilik, insoniy burch tashkil etishini, shundagina hayotning baxtli damlariga erishish mumkinligini yozgandi. Buyuk alloma Abu Ali ibn Sino (980-1037) o'zining axloq haqidagi risolasida yozishicha, ijtimoiy adolat - inson xatti-harakatlarining eng muhim bezagidir. Adolat - ruhiy lazzatning bosh o'lchovi. Adolat odamga xos sabr, jasurlik, donolik kabi xislatlar orqali namoyon bo'ladi. Bu fazilatlariga ega inson, vijdon amri bilan o'zini yomon xulq-odob, munosabatlardan saqlaydi. Ezgulik, ruhiy poklik, yaxshilikni o'zida mujassam etishga harakat

qiladi. Ibn Sinoning axloqiy qarashlari, ruhiy poklanish, adolat haqidagi g'oyalari uning ijtimoiy va ma'naviy-tarbiyaviy qarashlaridan kelib chiqadi [5]. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy (1441-1501) ta'biri bilan aytganda, dunyoda insondan ulug'roq kamolot yo'q, chunki unga "bebaho marvarid" - aql-zakovat, tafakkur ne'mat kuchi hadya etilganki, unda "sir-asrorlarni va yuksak cho'qqilarni bilish qobiliyati bo'lib, uning ko'magida inson ulug' zafarlarni bajo keltiradi. Inson o'zining tafakkur quvvati, dahosi, mehnati bilan tabiat va jamiyatni o'z ehtiyojlari yo'lida o'zgartiradi [9].

Bizning talqinimizcha, inson tafakkuriga xos xususiyatlarni tekshirish va tahlil qilish natijasida sog'lom fikrlash inson oldida turgan muammolari, maqsad va vazifalari belgilangan holda o'z bilimi, dunyoqarashi va hayotiy tajribalariga tayanib, turli yo'l va usul, vositalari yordamida o'zining intellektual imkoniyatlari darajasida mustaqil ravishda hal qilishdan iborat bo'lgan aqliy faoliyatdir. Shaxs tafakkuri sog'lomligining belgilaridan biri – tashabbuskorlik bo'lib, u insonning o'z oldiga aniq maqsad, yaqqol vazifalar qo'yish, ularni amalga oshirish yo'lidagi muammolar yechimini topish, nihoyasiga yetkazish uchun zarur bo'lgan usul va vositalarni o'zi belgilashida namoyon bo'ladi. Husayn Voiz Koshifiy (1440-1505) o'zining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarini "Axloqi Muxsinii" kitobida bayon etadi. Uning ta'kidlashicha fikr, vijdonlilik, adolatlilik, axloqiy kamolot, insonparvarlik insonni nazorat qiluvchi tuyg'udir. Vijdonsizlik tufayli inson dunyoda bo'lgan hamma yomonlikni saqlab qolishga tayyordir. Buning uchun olish uchun bolaga yaxshi tarbiya berish, unda yaxshi sifatlarini o'stirish, mustaqil va fikrlash qobiliyatini o'stirish masalasiga alohida e'tibor berish kerak. Koshifiy til va fikr odobi haqida so'zlar ekan, yaxshi fikrini ifodalashni, yomon gapni aytmasni, g'iybat va bo'xton qilishdan saqlanishni maslahat beradi. Muhammadrizo Ogahiy (1809-1874) fikricha til va fikrlash insonni boshqa mavjudotlardan farq qilib turadigan asosiy belgidir, fikr va til "takallum" qilishga "fasohat va nafosatga", "ko'ngil mahzanidan javohir sochish uchun berilgan imkonidir. Inson tafakkuri, ma'naviy dunyosi rivojida muhimdir [9]. Olim fikricha, tafakkurning rivoji narsa va hodisalarni chuqur anglay olishdir. Narsa va hodisalarni chuqur anglay olgan kishidagina sog'lom fikrlash yaxshi rivojlanadi. Fikrlash uchun eng avvalo aql-zakovat zarur. O'tkir zakovat irsiy omillardan tashqari teran fikrlashlar, mushohada yuritishlar, o'ta ziyrak va nozik kuzatishlar natijasi hamdir. Ma'rifatparvar Abdulla Avloniy (1878-1934) o'zining "Turkiy guliston yohud axloq" asarida inson tafakkurining amaliy va hayotiy ahamiyatini bayon etib, shunday yozadi: "Ilm inson uchun g'oyat oliy va muqaddas bir fazilatdir. Zeroki, ilm bizga o'z ahvolimizni, harakatimizni oyna kabi ko'rsatur. Zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o'tkir qilur. Savobni gunohdan, halollik haromdan, tozani murdordan ayirib berur. To'g'ri yo'lga rahnamolik qilib, dunyo va ohiyatda masud bo'lishimizga sabab bo'lur. Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabi dur" [4].

Xulosa. O'smirlarning tafakkurini va huquq insonparvarliklariga munosabatini tubdan o'zgartirish uchun ularda fikrlashni rivojlantirish muhim ijtimoiy-psixolog hodisa sifatida o'rganilishini taqozo etadi. Binobarin, insonning tafakkuri, mustahkam iroda va e'tiqodi, halollik va adolat bilan hayot kechirishi, inson va ijtimoiy hayotga xos barcha hislat, fazilat, xususiyatlarga ega bo'lish, unga amal qilish kabi ma'naviy boylik majmui bo'lib hisoblanadi. Sharq mutafakkirlari o'z asarlarida aql, tafakkur haqida o'zlarining ajoyib fikrlarni bildirganlar. Bu fikrlar, o'z davrida ham bugungi kunda ham o'z qiymatini yo'qotmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 3 maydagi «Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4306-son Qarori.

2. Хадарцева Л.С. Формирование интеллектуальных умений учащихся при изучении гуманитарных предметов: Автореф. дисс. канд. пед. наук. -М., 1995. -30 с.

3. Венгер А.Л. Психологическое консультирование и диагностика. Практическое руководство. – М.: Генезис, 2001. – С. 212–248

4. Avesto Yasht kitobi. Asqar Mahkam tarjimai. – Toshkent: Sharq. 2001.- 112 b.

5. Azizuddin Nasafy "Komil inson" T.: O'qituvchi. 2006. B. 56-80.

6. Abduqodirov A.A. "Maktabgacha ta'lim muassasalarida multimedia texnologiyasidan foydalanish uslubiyoti" Nasaf. Toshkent. 2011. – 229 s.
7. Abu Nasr Forobiy. Risolalar. T.: "Fan", 2005. – 134-bet.
8. Богословский В.В. Модель проблемной ситуации // Проблемы эвристики. - М., 2000–С.83.
9. Выготский Л.С. Собрание сочинений в 6-ти томах. - М., 1983. -ТА-432 с.
10. Венгер А.Л. Психологическое консультирование и диагностика. Практическое руководство. – М.: Генезис, 2001. – С. 212–248;

Baxriddinov Nurali Bekmurodovich,

Samarqand davlat chet tillar instituti "Gumanitar fanlar va axborot texnologiyalari kafedrası" o'qituvchisi

TALABALARNI KREDIT-MODUL TA'LIM TIZIMIDA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Anotatsiya. Ushbu maqolada kredit-modul tizimida kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning psixologik asoslari zarurligi. Avvalo kompetentlik tushunchasini tarixi uni psixologik-pedagogik jihatdan o'rgangan olimlar qarashlarini tahlili o'rganilgan. Bundan tashqari kredit-modul tizimi oliy ta'lim dargohida ta'lim olayotgan talaba mehnat bozorida kelajakda o'z o'rniga ega bo'lishligi uchun bugungi kunda qanday kommunikativ komponentlarga ega bo'lishligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar. Kredit, kompetentlik, kognitiv, muhit, modul, maqsad, talaba, ixtiro, pedagog, yaratish, innovatsiya, mustaqil, asar, xulosa, mahorat, bilim, ko'nikma, malaka, mutaxassis.

Anotation. The need for psychological foundations for developing communication competence in the credit-module system in this article First of all, the history of the concept of competence has been studied to analyze the views of scientists who have studied it psychologically and pedagogically Additionally, the credit-module system discusses what communication communicative components a student studying in higher education will have today so that he or she will have his or her place in the labour market in the future.

Key words: Credit, competence, cognitive, environment, module, purpose, student, invention, pedagogical, creation, innovation, independent, work, conclusion, skill, knowledge, skills, skills, qualifications, specialist.

Аннотация. В статье обосновывается необходимость психологических основ развития коммуникативной компетентности в кредитно-модульной системе. Прежде всего, была изучена история понятия компетентности с целью анализа взглядов ученых, изучавших его психологически и педагогически. Кроме того, кредитно-модульная система обсуждает, какими коммуникативно-коммуникативными компонентами будет обладать студент, обучающийся в вузе, сегодня, чтобы в будущем занять свое место на рынке труда.

Ключевые слова: Кредит, компетенция, познавательная, среда, модуль, цель, студент, изобретение, педагогическое, творчество, инновация, самостоятельная, работа, заключение, умение, знание, умение, умения, умения, умения, квалификации, специалист.

Kirish. Jamiyat taraqqiyoti ta'limning rivojlanishi bilan uzviy bog'liq bo'lib, shu sohaga tegishli bo'lgan ijtimoiy rivojlanish jarayonlariga, ijtimoiy-psixologik, madaniy va kasbiy shartlar qo'yilgan. Ushbu shartlar asosida axborot manbalaridan keng foydalanish, avtomatlashtirilgan barcha sohalarida bilimlarni ishlab chiqish va tarqatish, sanoat va ijtimoiy sohalarida axborotni psixologik qayta ishlash sezilarli darajada farq qiladi. Buning asosiy mazmuni dunyoni oqilona idrok etishda axborot manbalaridan foydalanish hal qiluvchi ahamiyatga ega deb qabul qilinadi. Jamiyatning shakllanishi bilan birga bo'lgan kognitiv psixologik faoliyat ko'lamining o'sishi, axborot texnologiyalari asosida bilimlarning ishlab chiqarilishi jamiyatimizda keng foydalanishga olib keldi.

Bugungi kunda pedagog nafaqat kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan bilimlarga ega bo'lishi, balki ularni ta'lim faoliyatida ham qo'llay olish imkoniyatlariga ega bo'lishi va ularni ta'lim jarayoniga joriy qila olishi kerak, bularga quyidagilar kiradi:

kognitiv faoliyat maqsadlarini aniqlash; maqsadlarga erishishning eng yaxshi usullarini topish; turli ta'limga oid psixologik axborot manbalaridan foydalanish;

kerakli ma'lumotlarni qidirish va topish, natijalarni baholash;

faoliyatini tashkil etish;

talabalar bilan samimiy psixologik hamkorlik qilish.

Ta'lim sohasida zamonaviy innovatsion texnologiyalar, ta'limga oid psixologik metodikalar, yondashuvlarni qo'llamasdan, yetuk mutaxassis sifatida faoliyat olib borib bo'lmaydi. Bunda faoliyat, kompetensiya, shaxsga yo'naltirilgan, tizimli, texnologik va boshqa yondashuvlar muhim o'rin tutadi. Umuman olganda, biz "psixologik yondashuv" tushunchasi deganda, kimgadir psixologik ta'sir qilish, biror narsani o'rganish, tushuniladi.

Odatda, "psixologik yondashuv" tushunchasini tahlil qilish muayyan faoliyatni rivojlantirish, xususan, ta'limda fundamental psixologik o'zgarishlar aniqlanganda yoki mavjud vositalar bilan hal qilib bo'lmaydigan muammolar paydo bo'lganda amalga oshiriladi. G.K. Selevkoning so'zlariga ko'ra, yondashuv pedagogik jarayonda qo'llaniladigan faoliyat mazmuni, usullari, vositalari va usullari yig'indisiga ma'lum bir urg'u sifatida mavjudligini hisobga olgan holda, albatta, muayyan uslubiy yondashuvlardan foydalanishni talab qiladi.

Ta'lim innovatsiyalariga xos materiallarini tahlil qilish har bir faoliyat yondashuvida konseptual asos, qo'llaniladigan psixologik-pedagogik usullarning xususiyatlari, jarayonning mohiyati kabi tushunarli tarzda taqdim etiladigan materiallar bilan xarakterlanadi. Umuman olganda, faoliyat yondashuvida soddalashtirilgan tasvirlash faoliyati o'rganiladi, ya'ni mashg'ulotning birinchi bosqichida o'qituvchi rahbarligida talabalar guruhining faoliyati psixologik kognitiv mashg'ulotlarni o'z ichiga oladi. Bu yerda talabaning asosiy vazifasi o'qituvchi yordamida topshiriqlarni mustaqil ravishda bajarish ko'nikmalarini shakllantirish hisoblanadi.

Ta'lim jarayonida texnologik psixologik yondashuvga qo'yilgan ta'lim maqsadlariga erishish uchun o'quv jarayonini instrumental boshqarishni ta'minlaydi. Ushbu yondashuv o'quv natijalarini bashorat qilish va pedagogik-psixologik jarayonlarni yanada aniqroq boshqarish imkonini beradi.

Kredit-modul tizimidagi ta'lim jarayonida shaxsga yo'naltirilgan yondashuvdan foydalanish talabaga o'zini shaxs sifatida anglash, o'ziga xos

individualligini ro'yobga chiqarish va rivojlantirish, o'zini o'zi boshqarish imkoniyatlarini aniqlashga psixologik yordam beradi.

Tizimli psixologik yondashuv ta'lim jarayonining barcha elementlarini o'zaro bog'liq strukturaviy tarkiblashtirilgan elementlar tizimi sifatida ko'rish imkonini beradi. Tizimli psixologik yondashuv ta'lim tizimining faoliyatining maqsadlarini aniqlash, boshqa tizimlar bilan aloqalarni taqsimlash kabi vazifalarni o'z ichiga oladi.

Ta'limni psixologik rivojlantirishning kompetensiyaga asoslangan yondashuvi ish kontekstida kasbiy va shaxsiy faoliyatdagi muvaffaqiyat, muayyan vaziyatda o'z imkoniyatlarini adekvat baholash asosida tanlov qilish qobiliyatini aniq yo'naltirishni nazarda tutadi. E.F.Zeer ta'kidlaganidek, kompetensiyaga asoslangan yondashuvning asosiy maqsadlariga quyidagilar kiradi: o'rganish, o'zini o'zi anglash, o'z taqdirini o'zi belgilash, ijtimoiylashuv va individuallikni psixologik rivojlantirish. Psixologiya va pedagogikada kompetensiyaga asoslangan yondashuv asoslarining nazariy rivojlanishini o'rganish 20-asrning 60-yillardan boshlangan. I.A.Zimnyaya kompetensiyaga asoslangan yondashuv nazariyasini rivojlantirishning uch bosqichini ajratib ko'rsatgan va ularning har birini tavsiflagan.

Birinchi bosqich, 1960-1970 yillar, "kompetentlik" tushunchasining kiritilishi bilan tavsiflanadi. Kompetentlikka yo'naltirilgan ta'lim 1960-yillarda AQShda Massachusetts texnologiya instituti professori N.Xomskiy tomonidan til nazariyasi, transformatsion grammatika bilan bog'liq holda taklif qilingan "kompetentlik" tushunchasining umumiy kontekstida shakllangan. N.Xomskiy kompetentlik sifatida so'zlovchi – tinglovchi tomonidan o'z tilini bilishi bilan tildan muayyan vaziyatlarda amalda foydalanish o'rtasidagi tub farqni ko'rsatdi. 1959- yilda R. Uayt kompetentsiya toifasini shaxsiy komponentlar bilan to'ldirdi. Keyinchalik "kommunikativ kompetensiya" atamasi kiritiladi va bu atama birinchi marta 1965- yilda amerikalik tilshunos D. Xayms tomonidan qo'llanilgan bo'lib, N.Xomskiy tomonidan taklif qilingan "ideal kommunikator" va "lingvistik kompetensiya" tushunchalari bilan birgalikda ishlatilgan.

Ikkinchi bosqich, ya'ni 1970-1990 yillar "kompetensiya" tushunchasini nazariy jihatdan yanada rivojlantirish va nazariy ishlanmalarni ta'lim jarayoniga, shuningdek, boshqaruv sohasida

qo'llash bilan tavsiflanadi. Bu vaqtga kelib xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar turli xil faoliyat turlari uchun turli xil kompetensiya va malakalarni aniqladilar. J. Ravenning "Zamonaviy jamiyatdagi kompetensiya" (1984 -y.) asarida kompetensiya bir-biridan mustaqil ko'p sonli tarkibiy qismlardan tashkil topgan hodisa sifatida talqin qilinadi. J. Ravenning fikricha, ba'zi komponentlar kognitiv sohaga, boshqalari hissiy sohaga ko'proq bog'liq bo'lib, komponentlar samarali xatti-harakatlarning tarkibiy qismlari sifatida bir-birini almashtirishi mumkin.

J. Raven umuman olganda 39 ta kompetensiyani aniqlagan. U "qobiliyat" va "tayyor bo'lish" tushunchalarini kompetensiya turlarida tez-tez qo'llashi, shuningdek, "ishonch" va "mas'uliyat" kabi psixologik tushunchalarni belgilashi muhim hisoblanadi.

Umuman olganda, ikkinchi bosqichda kompetensiyaga asoslangan yondashuv nazariy tushuncha sifatida amalga oshirilgan. Bunda tadqiqot sohasi kengaygan holda kompetensiyaga asoslangan yondashuvni qo'llash mumkin bo'lgan yangi yo'nalishlar tadqiq qilingan.

Uchinchi bosqich (1990-2001) - kompetensiyaga asoslangan yondashuv ta'limda "kompetentlik" toifasidan nazariy qoida sifatida tasdiqlash bosqichi kabi tavsiflanadi. 1996-yilda Yevropa Kengashi tomonidan demokratik jamiyatni saqlashga hissa qo'shadigan, mehnat bozori va iqtisodiy o'zgarishlarning yangi talablariga javob beradigan "asosiy kompetensiyalar" tushunchasi kiritilgan bo'lib, ularga quyidagilarni kiritish mumkin: axborot jamiyati bilan bog'liq kompetensiyalar; uzluksiz kasbiy tayyorgarlik, shaxsiy va ijtimoiy hayotda uzluksiz o'z-o'zini tarbiyalash qobiliyatini shakllantirish bilan bog'liq kompetensiyalar.

2000-yillarning boshlarida ta'limda kompetensiyaviy yondashuvni qo'llash nazariyasi va amaliyotini rivojlantirishda yangi bosqich boshlandi. 2004 yilda G.K. Selevkoga ko'ra, ta'limning maqsadi talaba ega bo'lishi kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va qobiliyatlar bilan belgilanadigan an'anaviy yondashuvning professional mutaxassisni shakllantirish uchun yetarli emas deb hisoblardi. Kompetensiyaga asoslangan yondashuv "bilimning ustunligi ta'lim paradigmasini bosqichma-bosqich qayta yo'naltirish, bir qator kompetensiyalarni o'zlashtirish uchun shart-sharoitlarni yaratish ko'nikmalarini shakllantirish" sifatida belgilangan.

2005-yilda A.G. Bermus shaxsga yo'naltirilgan va ta'limning psixologik-pedagogik konsepsiyalarini "an'anaviy bilimlarning turli xil umumlashtirilgan intellektual, ijodiy, g'oyaviy, uslubiy, kommunikativ va boshqa ko'nikmalarni birlashtirgan shakllanishlari" deb hisoblaydi.

Bugungi kunda ta'lim tizimiga kompetensiyaga asoslangan yondashuvni joriy etish izchil ko'rib chiqilmoqda. Ya.I. Kuzminovga ko'ra, ta'lim paradigmasi bilimlarni doimiy ravishda to'ldirish va yangilash, ko'nikmalarni takomillashtirish, ularni mustahkamlash va kompetensiyalarga aylantirish ehtiyojini shakllantirishga qaratilganda, muvaffaqiyatli amalga oshiriladi.

Umuman olganda, kompetensiyaga asoslangan yondashuv quyidagilarga asoslanadi: o'rganish jarayonida inson muayyan amaliyotga yo'naltirilgan bilimlar, ijtimoiy va kasbiy psixologik muhim fazilatlar.

Kredit-modul tizimi sharoitida talabalarning kognitiv kompetentlarini shakllantirishning nazariy asoslari natijasida zamonaviy sharoitda kompyuter va axborot ta'minoti o'zgarishi, yangilanishi ish beruvchilar oliy kasbiy ta'lim muassasalari bitiruvchilariga qo'yadigan talablari yuqorilashib boraveradi. Bunda eng muhim talablardan biri – universitet va institut bitiruvchisining axborot texnologiyalarini bilish qobiliyati bugungi kunda juda zarur. Intellektual mehnat bozorida axborot madaniyati va malakasi yuqori bo'lgan mutaxassislarga talab katta. Zamonaviy mutaxassis kompyuter, telekommunikatsiya va boshqa vositalar yordamida ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash va ulardan foydalana olishi hamda kerakli ma'lumotlarni tanlash, tizimlashtirish, yuqori darajada o'zlashtirish qobiliyatiga ega bo'lgan holda ko'payib borayotgan axborot oqimiga yo'naltirilgan bilimlarni yangilashga tayyor shaxs sifatida shakllanishi kerak. Bunda esa mutaxassis ma'lum bir kompetensiyaga ega bo'lishi lozim. O'z navbatida mana shu omillar insonni kognitiv omillarni shakllantirish omili sifatida ko'riladi.

Kompetensiya - bu nazariy va amaliy tayyorlikda namoyon bo'ladigan bilim, ko'nikma, tajriba majmui asosida shakllanadigan shaxsning yaxlit sifati va ularni funksional savodxonlik darajasidagi faoliyatda amalga oshirish hisoblanadi.

Hozirgi axborot jamiyatida talabalarning eng katta muvaffaqiyati ta'lim jarayoniga kiritilgan asosiy o'quv kurslarini mukammal o'zlashtirishida axborot kompetensiyalari asosida olgan bilimlarini mustaqil ishlash ko'nikmalari natijasida amalda qo'llay olish ko'nikmalariga egaligi bilan ajralib turadi.

Doimiy ravishda o'z ustida ishlaydigan, muntazam malakasini oshiradigan o'qituvchilar zamonaviy jamiyatning asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Hozirgi kunda kredit-modul tizimining asosiy mohiyati talabalarga ta'lim berishda mustaqil bilim olish, ularning o'quv va kognitiv faoliyatini tashkil etish hisoblanadi. Shu sababli, oliy ta'lim talabalari doimiy ravishda o'z ustida ishlash va mustaqil mantiqiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishlari lozim.

Zamonaviy psixologik va pedagogikaga oid adabiyotlarda "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalari keng yoritilgan. Yetakchi olimlarning ishlarini tahlil qilish jarayonida "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalariga oid ta'riflar va yondashuvlarni o'qib o'rganildi.

Ko'rib chiqilayotgan tushunchalarni aniqlashda psixologik-pedagogik ta'limning faoliyat komponentiga tayanish muhim omil hisoblanadi. Bunda kompetensiyalar mutaxassisning turli faoliyatini tavsiflashi va insonning ajralmas qismi bo'lib, uning umumiy psixologik qobiliyati va faoliyatiga tayyorligini namoyon qilishi sifatida ko'rib chiqiladi.

Psixologik-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish "kompetensiya" tushunchasining umumlashtirilgan ta'rifini berishga imkon beradi, chunki oliy ta'lim muassasasida olingan bilim, ko'nikma, malaka va faoliyat kasbiy faoliyatda shakllanishi muhim omil hisoblanadi; "kompetentlik" esa oliy ta'lim muassasasida olingan va shakllantirilgan kompetensiyalardan ta'lim va kasbiy muammolarni hal qilishda foydalanish qobiliyati sifatida ko'riladi.

Umuman olganda, psixologiya-pedagogika va ta'limning konseptual qoidalariga ko'ra, xususan, "kompetensiya", "kompetentlik", "axborot kompetensiyasi" va shunga o'xshash tushunchalarning doimiy ravishda yangilab turilishi bu tushunchalarga xos ko'plab yangi mazmunlarni keltirib chiqaradi. Buning natijasida tadqiqotchilar tomonidan beriladigan ta'riflar ba'zi hollarda strukturaviy elementlarning batafsil tavsifini o'z ichiga oladi; ba'zan esa kerakli ta'rifning universalligiga urg'u beriladi.

O.B.Zayseva axborotni psixologik kompetensiyasi darajasini aniqlashning ikkita yondashuvini aniqlaydi. Birinchisi, bu konsepsiyaning tarkibiy tarkibini tahlil qilishga asoslangan. Uning tarafdorlari to'rtta asosiy darajani ajratadilar:

dunyoqarash – professional psixologik o'zini o'zi anglash, o'zini o'zi munosib baholash, professional bilim va dunyoqarashning mavjudligi;

nazariy – texnologik psixologik xarakterdagi kasbiy bilimlar;

amaliy - kasbiy mahorat va ko'nikmalar (hujjatlarini yuritish va bajarish, samarali psixologik mulqot qilish ko'nikmalari va boshqalar);

ijodiy – kognitiv nostandart psixologik yondashuv, intellektual va shaxsiy harakatchanlik, nostandart vaziyatlarda o'z-o'ziga ishinganda holda psixologik harakat qilish qobiliyati.

Bosqichma-bosqich psixologik rivojlanish quyidagi ketma-ketlikda taqdim etilishi mumkin: tanishish, xabardorlik, elementar kompetentsiyani o'zlashtirish, keyin esa funksional va tizimli kompetensiya. Axborot kompetensiyasini shakllantirish shartlaridan biri bu axborot - kommunikatsiya texnologiyalaridan psixologik ongli foydalanish orqali ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish, ya'ni ta'lim tizimini pedagogik va psixologik rivojlantirish, uning ilg'or xususiyatini ta'minlashdir.

Hozirgi kunga qadar kompetensiyalarning yagona tasnifi mavjud emas. Ilmiy adabiyotlarda quyidagi kompetensiyalar guruhlari ajratiladi:

- Kasbiy (mavzuviy) kompetensiyalar. Xorijiy adabiyotlarda bu kompetensiyalar "fan bilimi va ko'nikmalariga asoslangan holda topshiriq va muammolarni maqsadga muvofiq, uslubiy jihatdan to'g'ri yechish, natijalarni baholashga tayyorlik va ko'nikma" sifatida qaralsa, mahalliy tadqiqotchilar ularni ta'lim sohasining kasbiy texnika, ko'nikma, texnologiya va usullar sifatida belgilaydilar.

• Bazaviy (kalitli) kompetensiyalar. Ushbu kompetensiyalar “mavhum abstract ma'noda fikrlash tafakkur qilish, analiz va sintez qilish, yetakchi bo'lish, muammolarni hal qilish, psixologik moslashish, ishlash qobiliyati” deb ta'riflanadi, umuman olganda, bu barcha odamlar, ularning kasbiy mansubligidan qat'iy nazar, ega bo'lishi kerak bo'lgan psixologik kompetensiyalardir.

• Ijtimoiy-shaxsiy (shaxsiy) psixologik kompetensiyalar - bu shaxsning o'zi shaxs sifatida va shaxsning boshqa odamlar, guruh va jamiyat bilan o'zaro munosabati bilan bog'liq bo'lgan psixologik kompetensiyalarning ma'lum bir to'plami.

Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu pedagogik-psixologik kompetensiya guruhlarida turli xil asoslar mavjud. Birinchidan, ular barcha odamlarga tegishli bo'lganlarga bo'linadi va shu bilan birga odamlarning o'ziga xos xususiyatlariga bo'linadi. Ikkinchidan, bu amaliyotga yo'naltirilgan yondashuvga asoslangan kompetensiyalar guruhi bo'lib, unga axborot kompetensiyalari ham kiritilishi kerak.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, talabalarni kredit-modul ta'lim tizimida kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning psixologik asoslarini rivojlantirishimiz uchun ta'lim jarayonida olinayotgan bilimlarning tizimlilikiga va oddiydan murakkablashish tamoyillariga amal qilsak maqsadga muvofiq bo'ladi. Zero, talaba bilimlarni o'zlashtirish jarayonida unda qiziqishning ortishi va bilimlarni egallashda unda psixologik ko'nikma va malakalar shakllanishiga zamin hozirlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Muslimov N., Usmonboeva M., Mirsolieva M. Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik. UMK. - Toshkent, 2016. - B.75

2. Muslimov N.A., Quysinov O.A. Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta'limni tashkil etish. Metodik qo'llanma. Toshkent: TDPU. 2006

3. Raxmonov B. Fanlararo aloqadorlikda talabalarning axborot kompetensiyasini rivojlantirishda it-texnologiyalarining imkoniyatlari // Science and innovation, vol. 1, no. B8, 2022, pp. 509-514. doi:10.5281/zenodo.7370560

4. G'oziyev E., To'laganova G. Pedagogik psixologiya asoslari (o'quv metodik qo'llanma). - T.: Universitet, 1997. - 80 b.

5. G'oziyev E. Psixologiya (o'quv qo'llanma). - T.: O'qituvchi, 1994. - 224 b.

6. Shodiyev N., Maxmatmurodov Sh., Axmedova Sh. Mustaqil ta'lim. Uslubiy qo'llanma. - Samarqand: SamDU, 2018-80 b.

7. Shodiyev N. Pedagogika fanidan muammoli vaziyatlar va o'quv topshiriqlari.- Samarqand SamDU, 2004-115 b. Najiyeva S.N. Talabalar ijodiy faoliyatining ta'limdagi o'rni.// “PEDAGOGS” international research journal ISSN: 2181-4027_SJIF: 4.995 56-60 Volume- 37, Issue-1, July-2023

8. Najiyeva S.N. Kredit-modul tizimiga didaktik yondashish. // “Xorijiy tillarni o'rgatishda zamonaviy o'qitish metodikasi: muammolar va yechimlar” Xalqaro ilmiy-amaliy aynjuman materiallari.-Samarqand, 2022.-B.271-273

Internet saytlari

1. www.ziynet.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.edu.uz

Elibayeva Lola Sulaymonovna

Buxoro davlat Pedagogika instituti,
"Pedagogika kafedrası" katta o'qituvchisi

BOSHLANG'ICH SINFLARDA SUST O'ZLASHTIRUVCHI O'QUVCHILARNI FAOLLIGINI OSHIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Anotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining jamiyatning qay darajada muhim jabhasi ekanligi shu bilan birga ularni kerakli kadr sifatida tayyorlash muhim ekanligi hamda o'quv faoliyati bilan bog'liq bo'lgan xususiyatlar ochib berilgan. Shuningdek, ijtimoiy faolligini rivojlantirishni xorij hamda rus olimlarining tadqiqotlaridan olingan ma'lumotlar bilan maqola yanada ko'proq ma'lumotlar bilan boyitilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiylashtirish, ijodiy shaxs, idroki beqaror, barqaror, aqliy funktsiya, diqqat, ixtiyoriy diqqat, instinkt, qo'zg'aluvchanlik, stimullashtirish.

Аннотация. В данной статье раскрыты значение учащихся начальных классов как важной части общества, и важность подготовки их как необходимых кадров, а также особенности, связанные с образовательной деятельностью. Также статья дополнена информацией из исследований зарубежных и российских учёных по вопросам развития общественной активности.

Ключевые слова: социализация, творческая личность, неустойчивое восприятие, устойчивое, психическая функция, внимание, произвольное внимание, инстинкт, возбудимость, стимуляция.

Annotation. In this article, the importance of primary school students as an important part of the society, and the importance of training them as necessary personnel, as well as the features related to educational activities, have been revealed. Also, the brochure is enriched with information from the researches of foreign and Russian scientists on the development of social activity.

Key words: socialization, creative personality, unstable perception, stable, mental function, attention, voluntary attention, instinct, excitability, stimulation.

Kirish. Zamonaviy pedagogika fani uchun yosh avlodning ijtimoiy faolligini rivojlantirish muammosi alohida ahamiyatga ega bo'lib, u doimo jamiyat va davlatning diqqat markazida bo'ladi. Bu ijtimoiy faoliyat ijtimoiy ahamiyatga molik motivlar bilan tavsiflangan va ijtimoiy qimmatli natija beradigan faoliyatdagi eng muhim voqealardan biridir. Boshlang'ich maktabda o'qitishning asosiy maqsadlaridan biri bolani ijtimoiylashtirishdir va bolaning ijtimoiylashuvining ko'rsatkichlaridan biri uning ijtimoiy faolligi darajasidir. Maktab o'quvchilarga jamiyatning faol fuqarosi bo'lib, o'z harakatlarini mustaqil ravishda amalga oshirishga va ular uchun javobgar bo'lishga, qaror qabul qilishga qodir bo'lishga yordam berishi kerak. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy faolligini rivojlantirish vazifalardan biridir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy faolligini rivojlantirishning asosiy maqsadi yangi jamiyatda to'liq yashashga qodir bo'lgan va ushbu jamiyat uchun imkon qadar foydali bo'lgan fuqaro, shaxsni shakllantirish bilan bog'liq.

Boshlang'ich maktabda ta'lim bu faol, mustaqil, tashabbuskor, mas'uliyatli, ijodiy shaxsning ijtimoiy jihatdan namoyon bo'lgan fazilatlarini rivojlantirishning birinchi bosqichidir. Faoliyatning qimmatli turlari boshlang'ich sinflarda shaxs sifatida shakllanishiga erishish bu ijtimoiy faoliyatning to'liq huquqli subyekti bo'lib, ammo bu jarayonning muhim shartlari faqat boshlang'ich maktab yoshida shakllanishi mumkin.

Kichik maktab o'quvchilarining idroki beqaror va tartibsizlik, lekin ayni paytda aniqlik, "tafakkur qiziquvchanligi" bilan bevosita bog'liqdir. Idrokning past farqlanishi va tahlilning zaifligi aniq hissiylik bilan qoplanadi. Unga asoslanib, tajribali o'qituvchilar bosqichma-bosqich maktab o'quvchilarini maqsadli tinglash va tomosha qilishga o'rgatadi, kuzatish qobiliyatini rivojlantiradi. Maktabning birinchi bosqichining oxiriga kelib bolaning idroki yanada

murakkablashadi va chuqurlashadi, tahliliy, farqlovchi va uyushgan xarakterga ega bo'ladi. Kichik maktab o'quvchilarining e'tibori yetarlicha barqaror emas va hajmi cheklangan bolalar diqqatni qiziqitirmaydigan harakatlarga jamlay oladilar, ammo ularning beixtiyor e'tibori hali ham ustunlik qiladi. Shuning uchun boshlang'ich maktabda butun ta'lim jarayoni diqqat madaniyatini tarbiyalashga bo'ysunadi. Ushbu aqliy funksiyani yetarli darajada rivojlantirmasdan, o'quv jarayonini amalga oshirish mumkin emas. Maktab hayoti boladan doimiy ravishda ixtiyoriy e'tibor va ixtiyoriy diqqatni jamlash uchun harakat qilishni talab qiladi boshqa funksiyalar bilan birgalikda rivojlanadi va birinchi navbatda, o'rganish uchun motivatsiya, ta'lim faoliyati muvaffaqiyati uchun javobgarlik.

Adabiyotlar tahlili. Kichik maktab yoshi davrida faoliyatni va xulq-atvorni motivlashtirish o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi to'g'risida S.T.Shatskiy quyidagilarni kiritadi:

1. Bolalarda til topishish instinkti kuchli rivojlangan, ular bir-birlari bilan tezda tanishib oladilar – o'yinlar, hikoyalar, o'zaro gap sotish, lofchilik kabilar ana shunday instinkning belgilaridir.

2. Bolalar tabiatan mohir tadqiqotchi. Ulardagi tez qo'zg'aluvchanlik, oxiri ko'rinmaydigan savollar, hamma narsaga tegib ko'rish, ushlab ko'rish, tatib ko'rishga intilish sababi ana shunda.

3. Bolalar o'zini ko'rsatib turgisi keladi, o'zi haqida, o'z taassurotlari haqida gapirgisi, o'rtoqlashgisi keladi. O'z menligini tez-tez namoyish etib turishi ana shundan. Uning fantaziyalari va tasavvurlari boy bo'ladi – bu bolalar ijodkorligi instinktidir.

4. Bolalar hech narsadan bir narsa yaratishni, qandaydir g'ayrioddiy narsalarni to'qib chiqarishni yaxshi ko'rishadi.

5. Bolalarda xarakterning shakllanishida taqlidchanlik instinkti katta rol o'ynaydi.

Shularni yaxshi tushunib olsak, tashqaridan olib kiriladigan soxta stimullarni qidirib yurishimizga to'g'ri kelmaydi. Chunki barcha samarali stimullarni bola tabiatining o'zidanoq topish mumkin. O'qituvchilarning barcha xato va kamchiliklari ularning o'quvchi xulq-atvorining haqiqiy motivlarini bilmaslikdan, u yoki bu xatti-harakatlarga yuzaki baho berishdan kelib chiqadi. Stimallashtirish sohasida o'quvchilarni o'rganish yangicha mazmun kasb etmoqda. Bugungi kunda mos stimullarni qidirib topish va to'g'ri qo'llash maqsadida o'quvchilarni o'rganish talab etilmoqda.

Psixolog Yu.Krasovskiy tanqid ilmiy asoslangan, zamonaviy fan yutuqlari bilan qurollangan holda, savodli bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi:

• tetiklashtiruvchi tanqid ("Hechqisi yo'q. Kelgusi safar yaxshiroq bajarasan. Hozir esa uncha o'xshamadi.");

• gina-tanqid ("Bu nimasi? Axir men senga ishongan edim");

• analogiya-tanqid ("Sendek bo'lganimda men ham xuddi shunday xatoga yo'l qo'ygan edim. O'shanda o'qituvchimdan rosa baloga qolgan edim");

• umidli tanqid ("Umid qilamanki, yanagi safar vazifani yaxshiroq bajarasan");

• shaxsi noma'lum tanqid ("Sinfimizda o'z vazifasini uddalay olmayotganlar ham bor, lekin ularning ismi-sharifini aytmaymiz");

• tashvishli-tanqid ("Men sodir bo'lgan, ayniqsa, ..., ... o'quvchilarimizdagi bu holatdan tashvishdaman");

• hamdardlik ohangidagi tanqid ("Men sening holatingni yaxshi tushunaman, ammo sen ham mening ahvolimni tushunishing kerak. Axir topshiriq bajarilmagan...");

• kinoyali tanqid ("bajardik, bajardik, axiyr bajarib bo'ldik. Ishmisan – ish. Faqat endi odamlarning ko'ziga qanday qaraymiz?!");

• shama'-tanqid ("Men xuddi senga o'xshab yo'l tutgan bir kishini bilar edim. Keyin unga juda yomon bo'ldi...");

• yumshatuvchi tanqid ("Balki shunday bo'lishiga faqat sen aybdor emasdirsan");

• tanqid-nadomat ("Nega buncha betartib bajarding? Nega vaqitida bajarmading?");

• tanqid-tanbeh ("Aytganday bajarmabsan. Yanagi safar yaxshiroq bajarishga harakat qil");

• tanqid-talab ("Ishni qayta bajarishingga to'g'ri keladi");

• konstruktiv tanqid ("Topshiriq noto'g'ri bajarilgan. Endi nima qilmoqchisan");

• tahlikali tanqid ("Men yanagi safar ham topshiriq shunday bajarilishi mumkinligidan tahlikadaman").

Zamonaviy maktabni rivojlantirish yo'nalishlaridan biri bu intizomiy ta'lim modelidan voz kechish va shaxsga yo'naltirilgan modelga o'tishdir. Shunday qilib, o'qituvchi har bir bolaga dars vaqtida shaxsiy mustaqil faoliyatini tashkil etishda yordam berish muammosini hal qilishi kerak. Va bu o'qituvchi koordinator, bolalar faoliyati bo'yicha o'qituvchi lavozimini egallashini anglatadi.

V.D.Ivanovning ta'kidlashicha, "Bolaga o'zini bilish, kuchini sinab ko'rish, qobiliyatlarini rivojlantirish uchun havaskorlik faoliyati kerak"- deydi. Darhaqiqat, havaskorlik faoliyatining mohiyatini so'zlarning semantikasida izlash kerak - "men buni o'zim qilaman, aslida mening faoliyatim". Bu shuni anglatadiki, havaskorlik-bu o'z-o'zini tuzatish faoliyati, mustaqillik esa o'z-o'zidan, yordamisiz amalga oshiriladigan faoliyatdir, bu shaxsning o'zini namoyon qilishini anglatadi, bu uning o'zini o'zi anglash vositasidir. Bolaning havaskorlikka tayyorligini shakllantirish va mustaqillikni rivojlantirishning eng qulay davri 6-9 yosh. Bu yosh to'liq barkamol rivojlanish uchun katta imkoniyatlarni o'z ichiga oladi. Va o'ziga xos psixologik neoplazmalar, ijtimoiy rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlari tufayli bu yosh havaskorlik va mustaqillikni rivojlantirish uchun sezgir. Ushbu yoshdagi bolalarda havaskorlik va mustaqillikni rivojlantirish samaradorligi individual yondashuv asosida o'qituvchilar va ota-onalarning shaxsga yo'naltirilgan o'zaro ta'siri bilan ta'minlanadi.

Bola yoshligidan hamma narsaga mehnat orqali erishilishini, oson yo'llar yo'qligini tushunadi. Boshlang'ich sinf o'quvchisining o'qishga bo'lgan qiziqishi yo'qolmasligi uchun o'qituvchi uchun individual yondashuvni tashkil qilish juda muhimdir: mustaqil ishlashni o'rgatish, tasavvurni, ijodiy fikrlashni rivojlantirish, kuzatish, tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, tashabbus ko'rsatish, o'z manfaatlarini farqlash, vaqtdan oqilona foydalanish. Bolalarning darslarda, hatto boshlang'ich maktabda ham ongli ravishda, xohish bilan ijodiy ishlashlari kelajakda qanday o'ylashlari, fikrlashlari, mustaqil va ijodiy fikrlashlari, bilimlarni amalda qo'llashlariga bog'liq. Ma'lumki, so'nggi yillarda insoniyat ega bo'lgan umumiy bilimlarning tez o'sishi qayd etildi. Bilimlarni egallash jarayoni, faol, ijodiy, oddiy o'rganish, o'qituvchidan kelib chiqadigan ma'lumotlarni o'zlashtirish bilan cheklanib qolmaydi, balki ta'limning dastlabki bosqichlaridan boshlab o'quvchilar mustaqil ravishda bilim olish qobiliyatini shakllantiradilar. Mustaqillik, birinchi navbatda, tanish va notanish o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni hal qilish bilan bog'liq. Ushbu qarama-qarshilikni o'quvchilarning mustaqil faoliyati shaklida hal qilish eng samarali hisoblanadi.

Psixologlar aniqlaganidek, muammoni mustaqil hal qilish bir qator afzalliklarga ega:

1. U mantiqiy, ilmiy, ijodiy fikrlashni o'rgatadi.
2. O'quv materialini o'quvchilar uchun yanada ishonchli va ishonchli qiladi, nafaqat bilimlarni, balki ilmiy, dialektik – materialistik dunyoqarashni shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan bilim-e'tiqodlarni shakllantiradi.
3. Bu kuchli bilimlarni shakllantirishga yordam beradi, chunki o'quvchilar tomonidan mustaqil ravishda olingan material qat'iy saqlanadi va agar u unutilgan bo'lsa, unda fikrlash va bahslashish jarayonini takrorlash orqali uni tiklash juda oson.
4. Qidiruv, tadqiqot faoliyatining boshlang'ich ko'nikmalarini shakllantiradi.

Ta'limning individual shaklining afzalligi shundaki, o'quvchi bilan aloqa mavjud va har doim xatolarni tuzatish va yutuqlarni qayd etish mumkin. Shaxsiy imkoniyatlar o'quvchining shaxsiy xususiyatlarini va uning bilim qiziqishlarini chuqurroq o'rganishga imkon beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil ishlarining samaradorligini oshirish uchun o'quv jarayonida tashqi aloqa bilan bir qatorda ichki fikr-mulohazalar bo'lishi juda muhimdir. Bu boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zi mustaqil ish paytida ichki fikr - mulohazalarni yaratish jarayoni va natijalari-o'z-o'zini hurmat qilish elementlaridan foydalanish to'g'risida olgan ma'lumotlarini anglatadi. O'z-o'zini hurmat qilish shaxsni shakllantirishning eng muhim omilidir. Faqat o'zi haqida haqiqiy va yetarli bilim bolaga hayotda haqiqiy yordam beradi, ularning mavqeini oshirishga, imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga va shaxs sifatida yashashga yordam

beradi. Agar o'z-o'zini hurmat qilish o'zini o'zi boshqarish, fikrlashning ongli natijalariga asoslangan bo'lsa, u haqiqiy bilim bilan to'ldiriladi. Bunday o'z – o'zini hurmat qilish bolaning kelajakka bo'lgan yo'lini aniqlashda, ushbu yo'l bo'ylab muvaffaqiyatli qadamlarda haqiqiy yordamchidir.

Ko'pincha bizning ta'lim muassasalarimizda o'quvchiga bilimlarni passiv qabul qiluvchi, pedagogik irodani bajaruvchi roli beriladi. Biroq, hamma maktab o'quvchilari o'qituvchining irodasini u ifodalangan shaklda idrok eta olmaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilar har xil, ba'zilar uchun bitta sevimli o'qituvchi va uning o'quvchilari bajariladi, boshqalari maktabda va uyda jazolanishdan qo'rqish hissi tufayli o'quvchilarni bajaradilar, bunday bolalar itoatkorlik darajasida muayyan xatti-harakatlar stereotiplarini shakllantiradilar. O'z hukmlarida ko'proq mustaqil bo'lgan bolalar bor va shuning uchun o'zlari uchun o'quvchilarni osongina qo'yishlari mumkin, agar bu o'quvchilar o'qituvchining talablariga mos keladigan bo'lsa, bolalar ularni bajonidil bajaradilar, agar ular mos kelmasa, unda talablar bajarilmaydi. Ushbu holat o'qituvchining o'quvchi bilan o'zaro munosabatlarida yengib bo'lmaydigan qiyinchiliklar yuzaga kelganda va shaxsiy shakllanish dinamikasini kamaytirish mexanizmi bo'lgan oxirgi pastlik majmuasida paydo bo'lganda odatiy holdir. Bilim sifati bundan aziyat chekadi, maktabni tark etish istagi paydo bo'ladi. Shuning uchun o'quv jarayonini tashkil etish mazmuni, usullari va shakllarini sezilarli darajada yangilash talab etiladi. O'qituvchi-o'qituvchi, o'quv jarayonidagi koordinator. Ko'rsatma berish-bu odamni natijaga erishishga qiziqtirish, mustaqil faoliyat amalga oshiriladigan vositalarni tanlash va belgilash, maqsadga erishishga imkon beradigan operatsiyalarning zarur to'plami va ketma-ketligini aniqlash demakdir. Bolaning rivojlanishining haqiqiy darajasiga qaratilgan aniq, kasbiy ko'rsatmalar undan yaqinlashib kelayotgan faoliyatdan qo'rqish va ishonchsizlikni olib tashlaydi, mo'ljallangan natijaga erishishni ta'minlaydi. Natijada, bu sizga muvaffaqiyat holatini, quvonch, mag'rurlik va o'z-o'zidan bajarilgan ishdan hissiy qoniqish hissinini boshdan kechirishga imkon beradi.

Xulosa. Bolalarni mustaqil ishlashga va o'qituvchini har biri bilan individual ishlashga o'rgatish uchun o'qituvchining o'zi individual o'qitish texnologiyasini yaxshi bilishi kerak. Ijodiy shaxs, bilimdon, vaziyatli bo'lish, darsda vaqtdan oqilona foydalanish imkoniyatiga ega bo'lish, chunki ushbu texnologiyada ishlash orqali darsning an'anaviy shaklidan uzoqlashishni talab etadi. Har bir bola individualdir, shuning uchun o'qituvchi bolaning individualligini rivojlantirish to'liq amalga oshiriladigan sharoitlarni yaratish zarurligini yodda tutishi kerak. Akademik ko'rsatkichlari past bo'lgan o'quvchilar ham mustaqil ishlashga qodir. Kuchli o'quvchilardan farqli o'laroq, ular o'qituvchidan ko'proq yordamga muhtoj. Ushbu bolalar uchun asosiy qiyinchilik – bu harakatlar bosqichlarini to'g'ri aniqlash, tarkibni, eng muhim vazifalarni izchil va mantiqiy ravishda ochib berish. Bundan tashqari, ba'zi bolalar mustaqil, kognitiv qidiruvdan voz kechishadi, o'qituvchining yordamini kutishadi. Mustaqil ish jarayonida o'quvchilarning faol aqliy faoliyatini kuchaytirishga o'qituvchi ushbu ishni to'g'ri tashkil etgan va individual yondashuv paytida mohirona rahbarlik qilgan taqdirda erishiladi. Pedagogik tajriba va tadqiqot natijalarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, o'qituvchi tomonidan sinfda oqilona tashkil etilgan va muntazam ravishda olib boriladigan mustaqil, individual ish barcha o'quvchilarning chuqur va doimiy bilimlarni egallashiga, aqliy operatsiyalarni faollashtirishga, uzoq muddatli, intellektual faoliyat uchun bilim kuchlari va qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. O'quvchilar mustaqil ravishda zamonaviy masofaviy ta'lim dasturlarini o'zlashtirishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Андромонова И. М. Воспитание социальной активности школьников в теории и практике отечественной педагогики. Казань. 1999. 187 с.
2. Байбородова Л.В. Методика изучения мотивов участия школьников в деятельности. URL: <http://gigabaza.ru/doc/15773.html> (дата обращения: 14.10.2017)
3. Безрукова С.Б. Особенности работы с детьми младшего школьного возраста. // Начальная школа. 2014. №3. с. 20 URL: <http://nsportal.ru/> (дата обращения: 27.11.2017)

4. Белкина В.Н. Педагогическое регулирование взаимодействия детей со сверстниками. Ярославль: Педагогика. 2009. 192 с.
5. Pickren W. E., Rutherford A. A history of modern psychology in context. Hoboken, New Jersey. 2010. 380 p.

Allamberganova Baxargul Xudaybergenovna
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
Nukus filiali "Jismoniy tarbiya nazariyasi va gumanitar
fanlar kafedrası" o'qituvchisi

ZAMONAVIY JAMIYATDA YOSHLARGA CHET TILI O'RGANISHDA MUSTAQIL TA'LIMNI O'RNI VA AHAMIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarga chet tili o'qitishda mustaqil ta'limni tashkil etish mazmuni, tuzilishi, o'ziga xos xususiyatlari va pedagogik shart-sharoitlarini aniqlashtirilgan hamda talabalarga chet tili o'qitishda mustaqil ta'limni tashkil etish - ijtimoiy pedagogik zarurat haqida so'z boradi. Bundan tashqari talabalarda chet tilini o'rgatish jarayonida xotiradan amaliy foydalanish yo'llari ochib berildi.

Kalit so'zlar: kompetentlik, pedagogik texnologiya, motivatsiya, mnemonika, xotira, tafakkur, intellekt, kompetensiya, ishonch, muvaffaqiyatga yo'nalganlik, mustaqil ta'lim.

Аннотация. В данной статье определены содержание, структура, специфика и педагогические условия организации самостоятельного обучения студентов при обучении иностранному языку, а также рассмотрена социально-педагогическая необходимость организации самостоятельного обучения студентов при обучении иностранному языку. Кроме того, были открыты пути практического использования памяти в процессе обучения студентов иностранному языку.

Ключевые слова: компетентность, педагогическая технология, мотивация, мнемоника, память, мышление, интеллект, компетентность, уверенность, ориентация на соответствие, самостоятельное обучение.

Abstract. This article will talk about the content, structure, specifics and pedagogical conditions of organizing independent education in teaching foreign language to students, and the organization of Independent Education in teaching foreign language to students-social pedagogical necessity. In addition, in the process of teaching a foreign language in students, ways of practical use of memory were revealed.

Key words: competence, pedagogical technology, motivation, mnemonics, memory, thinking, intellect, competence, confidence, orientation towards success, independent education.

Kirish. Jahon ta'lim va ilmiy muassasalarida talabalarni o'z ustida mustaqil ishlash faoliyati, aqliy salohiyat muammolarini uning o'quv faoliyati muvaffaqiyatiga asos sifatida qaralib, uni intellektual rivojlantirishga doir ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Global Creativity Index (GCI) ning hisobotida keltirilishicha o'zini-o'zi rivojlantirish darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda ijodkorlikni tarbiyalash ko'rsatkichi o'sganligi bilan tavsiflanadi. Dunyoda talabalarda o'z ustida mustaqil ishlash faoliyatini tarbiyalashda-psixologik yondoshuvlardan kengroq foydalanish, pedagogik faoliyatdagi ijtimoiy faollik, ijodkorlik, kasbiy altruizm, boshqalarga ta'sir eta olish qobiliyati kabi jihatlarni pedagogik-psixologik xususiyatlar orqali tadqiq etish hozirga qadar, dunyo mutaxassislari tomonidan dolzarb muammo sifatida o'rganilmoqda. Shu bilan birga talabalarining o'z ustida mustaqil ishlash salohiyatini oshirish, takomillashtirish, psixologik ichki to'siqlarni bartaraf etishda psixologik sharoitlarni ta'minlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda.

Bu borada Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisda qilgan Murojaatnomasida «Sharq donishmandlari aytganidek, "Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir"! Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mamlakatimiz psixolog olimlari ham, mazkur muammoning ayrim jihatlari doir e'tiborga molik izlanishlar olib borilgan. Jumladan, olimlardan Sh.V.Azizova, M.G.Davletshin, A.A.Fayzullaev, B.G.Gappirov, E.M.Muxtorov,

X.A.Ruxieva, N.S.Safaev, R.I.Sunnatova, Ye.A.Xaxlina, O'.B.Shamsiyev, Sh.A.Shakarboyeva E.G'.G'oziyev va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar bunga yaqqol misoldir.

MDH davlatlar psixologiyasida ham, talabalarni o'z ustida mustaqil ishlash, ijtimoiy-madaniy, ijodiy, kasbiy o'zini o'zi rivojlantirish, qadriyatlar yo'nalishi jihatdan o'ziga xos maktablar yaratilgan bo'lib, ular ichida eng e'tirofga sazovor tadqiqotlar sifatida T.A.Arjakaeva, B.Z.Vulfova, Y.P.Varlamova, M.A.Danilov, A.A.Ivin, L.P.Kugukina, N.V.Kuzmina, Y.Y.Korjova, G.A.Korovkina, I.S.Ladenko, Y.M.Orlov, G.I.Ratyako, A.A.Rean, V.R.Strokov, I.N.Semenov, S.Y.Stepanov, N.L.Smirnova, V.N.Xarkina, V.V.Shterenko, L.N.Shulrina va boshqalarning ishlarini misol qilish mumkin.

Tahlil va munozaralar. Yuqoridagilardan farqli o'laroq, tadqiqotchi A.K.Markova talabalarlardagi o'z ustida ishlash faoliyatining psixologik jihatlari masalasini o'zini o'zi baholash, - men tuyg'usining dinamikasi, fikrlash uslubi, shaxsiy maqsadlarni belgilash ko'nikmasi hamda sosial intellekt tushunchalari bilan tushuntirishga harakat qiladi. Tadqiqotchining fikricha, har bir shaxs uchun pedagogik faoliyat o'z-o'zini anglash faoliyatidir⁶. O'z-o'zini anglash jarayoni o'qituvchi shaxsiga xos individual malakani mazmunini ochib beradi. Demak, individual malaka bu talabalarlarning ijodiy faoliyati bilan bog'liq jarayon bo'lib, u kasbiy o'z-o'zini anglash, mutaxassis sifatida o'zini qabul qilish kabi xususiyatlar uchun javob beradigan psixologik jarayon hisoblanadi.

P.V.Kondratevga ko'ra, umumo'rta ta'lim maktablarining talabalarlari o'zlarida quyidagi kasbiy qobiliyatlarni shakllantira olgan bo'lishlari kerak:

- ✚ Bilish qobiliyati;
- ✚ Tushuntira olish qobiliyati;
- ✚ Kuzatuvchanlik qobiliyati;
- ✚ Nutq qobiliyati;
- ✚ Tashkilotchilik qobiliyati;
- ✚ To'g'ri muomala qila olish qobiliyati;
- ✚ Kelajakni ko'ra bilish qobiliyati;
- ✚ Diqqatni taqsimlay olish qobiliyati va boshqalar.

O'z ustida mustaqil ishlashni namoyon etish darajasi A.F.Lazurskiy tomonidan shaxs klassifikatsiyasining asosiy mezon sifatida ko'rib chiqilgan. Asab-psixik quvvatning miqdori, faollik darajasi – boshqishlar klassifikatsiyasining asosi bo'lib, shaxs tiplari va tashqi muhitning nisbati hisoblanadi. Bunday bosqishlar uchta:

1) past psixik daraja: individ yetarli darajada tashqi muhitga moslashmagan, muhit bo'sh psixikani va kam qobiliyatli individni o'ziga bo'ysundiradi. Natijada shaxs bera oladigan shu kam natijasini ham bera olmaydi;

2) o'rta daraja: individ yaxshi ko'nikuvchan bo'ladi, tashqi muhitga moslashadi va unda o'z ichki psixik holati (endopsixika) ga muvofiq joy toradi;

3) oliy daraja: individ tashqi muhitni o'zini qiziqishlari va ehtiyojlariga ko'ra o'zgartirishga intilib, bu darajada ijodning yaqqol namoyon bo'lish jarayoni ro'y beradi.

Shaxs ijodiy faolligi motivatsiyasining shakllanishida uning o'rni haqida bir necha qarashlar mavjud bo'lib, ulardan bir nechtasining tahliliga o'tamiz. Demak, inson ijodiy faoliyatining ishki motivlariga quyidagilar kiradi:

Insonga irsiy berilgan izlanish ehtiyojidan foydalanish. Har qanday tirik mavjudot, ayniqsa odam hayotining birinchi kunlaridan o'zi tushib qolgan muhitni faol o'rganadi va uni o'ziga moslashtirishga urinadi. Tabiiy izlanish ehtiyoji (qiziqish)dan foydalanish vaziyatni tahlil qilishga, xulosalar chiqarishga, ijodiy qarorlar qabul qilishga majbur qiladi.


Saqlanish, naslni davom ettirish, yashash uchun kurash instinkti. Ekstremal sharoitlarda hayotni saqlab qolish va uni davom ettirishga qaratilgan ijodiy harakat va ishlar kuchayishi kuzatiladi. Tarixda bunga misollar ko'p.

Dastlabki moddiy ehtiyojlarni qondirish (ovqat, uy, kiyim va h.k.). Jahon patent fondining katta qismi insonning aynan shu ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan ijodiy qarorlardan iborat.

Dastlabki ma'naviy-ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish (o'z-o'zini hurmat qilish, tan olinish, yaxshi ko'rish, o'zini ko'rsatish, o'zini rivojlantirish). Birlamchi moddiy ehtiyojlar qondirilayotganda hayotda o'z o'rnini va ahamiyatini anglash istagiga asoslangan ma'naviy ehtiyojlar namoyon bo'ladi. Inson o'z-o'zini tan oladi, ya'ni qadrlaydi, o'zini hurmat qilish hissini hosil qila boshlaydi va yaqin atrofida gilardan, keyin hammadan o'z shaxsi hurmat qilinishini kutadi. Bu tuganmas va doimo o'sib boruvchi ehtiyoj ijod namoyon bo'lishining kuchli motivlaridan biridir.

Manfaatparastlik, hukmronlikka intilish, kareizm. Boy va hukmron bo'lishga intilish ba'zilar uchun o'z ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda kuchli motiv hisoblanadi. Ehtimol, bu shaxsiy xavfsizlik va yashash uchun kurash ehtiyojini qondirish bilan bog'liqdir.

Dangasalik, o'z kuchini ayash, parazitizm. Ko'pchilik holatlarda bekorchilik va atrof - muhitda parazitlik qilish istagi insoniyat taraqqiyotining, ayniqsa, uning dastlabki davrlarida harakatlantiruvchi kuchlaridan biri bo'lgan, deb hisoblaydi. Ibtidoiy odam ovqat izlashdan charchagan va dehqonchilik bilan shug'ullana boshlagan, ov qilishga eringan – shoh qazib tuzoq qo'yishni o'ylab topgan, piyoda yurgisi kelmagan – ot-arava, parovoz, avtomobilni o'ylab topgan va h.k.



1-rasm. Chet tilini o'rganishda talabalarda o'z ustida mustaqil ishlash faoliyatini samaradorlik ko'rsatkichlari

So'ngi yillarda oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonida talabalarning ijodiy imkoniyatlari va qobiliyatlarni rivojlantirish muammosiga bo'lgan e'tibor o'sib bormoqda. Olimlar tomonidan pedagogik oliygohlarning talabalarida ta'lim jarayonida o'z ustida mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirishning yaxlit tizimini amaliyotda loyihalashtirilgan va moslashtirilganligiga qaramay, ilmiy loyihalashtirish sur'ati unga nisbatan bo'lgan talab ortidan ulgurayotgani yo'q. Ushbu fenomenning tadqiq etish jadalligi bugungi kunda jamiyatning ta'lim tizimidagi ro'y berayotgan o'zgarishlar tufayli keskin ko'tarilgan. Ijodiy, faol, mustaqil fikrlay oladigan shaxsni tarbiyalash - jamiyatning o'zgargan ijtimoiy buyurtmasiga muvofiq ta'lim tizimining yo'nalishlari keng miqyosda o'zgarib bormoqda. Davrning radikal o'zgarishlari oliy ta'lim maktabidan ijtimoiy faol, erkin va ijodiy tafakkur qiladigan, yangi axborotlarni orttiradigan va uni baholay oladigan, anglangan tanlovni amalga oshiradigan, puxta o'ylangan va adekvat qarorlar qabul qiladigan talabalarni tarbiyalashni talab qilmoqda.

Xulosa va tavsifalar. Mazkur tadqiq etilgan ish bo'yicha olib borilgan nazariy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, o'z ustida ishlash faoliyatini tarbiyalashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari

yoshlarni ong kasbiy-pedagogik faoliyatini ta'minlab beruvchi asosiy komponentlarni tashkil etadi.

O'z ustida ishlash faoliyatini tarbiyalashning psixologik fenomen sifatida tadqiq etilishi o'qituvchi shaxsining xilma-xil ijtimoiy- psixologik jihatlarini, kasbiy-pedagogik yo'nalishi, kasbiy faoliyatida yuzaga keluvchi muammolar, kasbiy bilim va ko'nikmalarini shakllantirish, pedagogik qobiliyatlarining o'ziga xos tomonlari, o'z ustida ishlash faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar va kasbiy o'z-o'zini anglash kabi xususiyatlar bilan alohida xarakterlanadi.

Talabalarning mustaqil ish jarayonida didaktik kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirish mazmuni chet tilini bilish darajasida muhim shaxsiy sifatlar, jumladan, mustaqillik, o'z faoliyatini o'zi tashkil etish va o'z-o'zini boshqarish qobiliyatlari rivojlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 2022 -yil 20- dekabr. // www.uza.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. 3-tom, Toshkent, -704 b.
3. A.Jabborov O'qituvchi etnopsixologiyasi. Qarshi "Nasaf", 2015. – 180 b.
4. Шарифова М.З. Роль самостоятельной работы студентов в образовательном процессе. // Вестник интегративной психологии. Ярославль: –№29, 2023. – С. 402-406.
5. Sharifova M.Z. Talabalarda o'zini-o'zi nazorat qilish muammosining psixologik jihatdan o'rganilishi. // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar ilmiy jurnal. - Buxoro: – №12, 2023.– B. 389-391.
6. Зубов, Н.А. Как руководить педагогами: пособие для руководителей образовательных учреждений [Текст] / Н.А. Зубов. - 3-е изд., испр. и доп.-М.: АРКТИ, 2015.- 140 с.
7. Arzimbetov, T. (2023). Sport jamoalariga ijtimoiy-psixologik xizmat ko'rsatish. Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования, 2(11), 24-25.
8. Jalgasbaevich, J. T. (2023). Emotional stability in athletes as the basis of a special psychological preparation process. epra International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR), 9(7), 143-146.

Aliyev Dilshod Maxmatrabiyeovich
Oriental universiteti o'qituvchisi
aliyevali1211@gmail.com

MASOFAVIY TA'LIM MUHITIDA UMUMTA'LIM MUASSASA RAHBARLARINING AXBOROT-KOMMUNIKATSION KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART- SHAROITLARI

Annotatsiya. maqolada umumta'lim muassasa rahbarlarining masofaviy ta'lim muhitida axborot-kommunikatsion kompetentligini shakllantirishning dolzarbligi va ahamiyati asoslangan, ushbu sohada amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari tahlil qilingan. B.Blum taksonomiyasi asosida umumiy o'rta ta'lim muassasa rahbarlarining boshqaruv faoliyatida zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish kompetensiyalari tahlil qilingan. "Butun umr davomida o'qish" tamoyili asosida masofaviy ta'lim muhitida umumta'lim muassasa rahbarlarining axborot-kommunikatsion kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: umumiy o'rta ta'lim, masofaviy ta'lim, kompetensiya, axborot-kommunikatsion kompetentlik, axborotlashgan ta'lim muhiti, axborotlashgan jamiyat, pedagogik shart-sharoitlar.

Аннотация. в статье обоснована актуальность и значимость формирования информационно-коммуникационной компетентности руководителей общеобразовательных учреждений в условиях дистанционного обучения, проанализирована научно-исследовательская работа, проводимая в данной области. Б. Блюма на основе таксономии проанализированы компетенции руководителей общеобразовательных учреждений по использованию современных информационно-коммуникационных технологий в управленческой деятельности. Обоснованы педагогические предпосылки развития информационно-коммуникационной компетентности руководителей общеобразовательных учреждений в условиях дистанционного образования по принципу обучение на протяжении всей жизни.

Ключевые слова: общее среднее образование, дистанционное образование, компетентность, информационно-коммуникационная компетентность, информативная образовательная среда, информированное общество, педагогические условия.

Annotation. The article substantiates the relevance and importance of the formation of information and communication competence of heads of educational institutions in the context of distance learning, analyzes the research work carried out in this field by B. Blum on the basis of taxonomy, the competencies of heads of educational institutions on the use of modern information and communication technologies in management activities are analyzed. The pedagogical prerequisites for the development of information and communication competence of heads of educational institutions in conditions of distance education on the principle of lifelong learning are substantiated.

Key words: general secondary education, distance education, competence, information and communication competence, informative educational environment, informed society, pedagogical conditions.

Kirish. Bugungi kunda jahonda ta'lim jarayonini raqamlashtirish insonning eng muhim "moslashuvchan" ko'nikmalaridan (Soft skills) biri hisoblangan kreativ salohiyatli va zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalardan samarali foydalana oladigan rahbar kadrlarni tayyorlash ehtiyojini yuzaga keltirmoqda. Shu nuqtai nazardan Angliya, Amerika, Janubiy Koreya, Rossiya kabi bir qator rivojlangan mamlakatlarda mutaxassislarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi kompetentli yondashuv va "bilimlar iqtisodiyoti" (economy of knowledge) asosida takomillashtirilmoqda.

Dunyo miqyosida umumta'lim muassasalari rahbarlarining boshqaruv kompetentligini rivojlantirish mexanizmlarini zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalar va

innovatsiyalar asosida takomillashtirish muhim pedagogik muammo hisoblanadi. YUNESKO tomonidan uzluksiz ta'lim tizimini elektron va masofaviy texnologiyalar, kreativ va innovatsion ta'lim metodlarini joriy etish asosida takomillashtirishga, shuningdek, rahbar xodimlarning axborot-kommunikatsion kompetentligini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bundan tashqari, Yangi O'zbekistonda axborotlashgan jamiyatni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalariga mos ravishda xalq ta'limi tizimi rahbarlarining boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida "uzluksiz ta'lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek, professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish; o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish; xalq ta'limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalar va innovatsion loyihalarni joriy etish"¹ vazifalari belgilangan. Bu borada umumta'lim maktab rahbar xodimlarining axborot kommunikatsion kompetentligini elektron malaka oshirish platformasi orqali rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Umumta'lim maktab rahbar va pedagog kadrlarining axborot kommunikatsion kompetentligini rivojlantirish muammosi so'nggi yillarda bir qator olimlar tomonidan o'rganilmoqda. Jumladan, mamlakatimizda ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy hamda ta'limda elektron axborot resurslarini yaratish va ularni joriy qilishning metodik asoslari bo'yicha U.Sh.Begimqulov [3]., S.Q.Tursunovlar [12], tomonidan o'rganilgan, S.S.Gulyamov, R.X. Alimov hamda B.B.Mo'minovlar tomonidan oliy ta'lim tizimini raqamlashtirish, raqamli iqtisodiyot texnologiyalari bo'yicha yangi yo'nalishlar va fanlarni joriy etish, bulutli texnologiyalardan foydalanish orqali ta'lim tizimini isloh qilish, o'qitishda zamonaviy usullar, jumladan, interaktiv doskalar hamda planshetlardan samarali foydalanish, suni'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash [5], talabalarga masofaviy ta'lim berishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning zarurati, afzalliklari va masofaviy ta'lim sohasidan foydalanish bo'yicha statistikalar keltirilgan hamda raqamli texnologiyalardan foydalanish va masofaviy ta'limning yangi avlod tizimlarini joriy etish lozimligi, masofaviy ta'lim tizimi orqali yangi ko'nikmalarni yoki mavzuga oid materiallarni o'rganish tezroq, osonroq va arzonroq ekanligi atroflicha yoritib berilgan. Shuningdek, mamlakatimizda masofaviy ta'limni raqamli texnologiyalardan foydalangan holda samarali yo'lga qo'yish borasida to'sqinlik qilayotgan muammolar va ularni yechish bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan [14].

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlaridan A.A. Temerbekova [10], A.S. Karpechenko [6], S. A.Bikov [4], S.V. Trishina [11], O.A.Kizik [7], D. B. Yakubjonova [15] va boshqa tadqiqotchilar tomonidan axborot kommunikatsion kompetentlikni rivojlantirish masalalari tadqiq qilingan.

Xorijiy davlatlarda mutaxassislar tayyorlashga kompetentlik yondashuv, axborot kompetentligi muammolari bo'yicha Dj. Raven, E.F.Zeyer, Shtoff, I.S. Fishman, A.Daxin, I.G. Morgenshteyn, D. Bell, U. Dayzard, G. Kan, O. Tofflerlar faol tadqiqotlar olib borishgan.

Tadqiqot metodologiyasi. So'nggi yillarda ta'lim tizimiga AKT va ta'lim tizimini raqamlashtirish bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlarni taqqoslama tahlil qilish, muammolarni aniqlash, kuzatuvlarni amalga oshirish, hamda ta'lim jarayoniga tatbiq etilishi lozim bo'lgan raqamli texnologiyalar bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tahlil va natijalar. Hozirgi davr insondan umrbod ta'lim olishni, ya'ni o'z hayotiy faoliyati davomida muntazam kasbiy bilim va ko'nikmalarini oshirib borishni taqozo etmoqdaki, albatta bu raqamli texnologiyalardan keng foydalanish hamda internet texnologiyalar asosida amalga oshiriladi. Internet texnologiyalarga asoslangan ta'lim shakllaridan biri bu - masofaviy ta'limdir. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi ta'lim to'g'risidagi qonunining 16-moddasida

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикаси "Халқ таълими тизimini 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида"ги ПФ-5712-сон Фармони

“Masofaviy ta’lim o‘quv rejalari va o‘quv dasturlariga muvofiq ta’lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko‘nikmalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalangan holda masofadan turib olishga qaratilgan. Masofaviy ta’limni tashkil etish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi” - deb ko‘rsatib o‘tilgan [1].

Umumta’lim maktab rahbarlarining axborot-kommunikatsion kompetentligi turli xil axborotlarni tezkor o‘zlashtirish qobiliyati bilan xarakterlanuvchi shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim hisoblanib, kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan ko‘p darajali kompetentlik hisoblanadi va u motivatsion, kasbiy-faoliyat va reflektiv-kommunikativ komponentlardan tashkil topadi. Ta’lim tizimi xodimlarining axborot-kommunikatsion kompetentligi axborot yo‘naltiruvchi, tashkiliy, konstruktiv, kommunikativ va rivojlantiruvchi funksiyalarga ega bo‘lib, sub’yektivlik, tarkibiy, dinamiklik, integrativlik va yarim funksional xususiyatlarga ega bo‘ladi. Ta’lim tizimi xodimlarining axborot-kommunikatsion kompetentligini baholash indikatorlariga boshqaruv jarayonlari bo‘yicha zamonaviy axborotlarni tezkor o‘zlashtirish, alternativ yechimlar tizimini yaratish va optimal qarorlar qabul qilish, axborotlarni qayta ishlash hamda mutaxassislik fanlari majmui bo‘yicha bilimlari, reflektiv kasbiy faoliyati bo‘yicha tajribalari, menejerlik madaniyati, menejerlik masalalarini samarali hal etish bo‘yicha tayyorgarligi hamda o‘zining axborot kompetentligini mustaqil oshirib borish, o‘z-o‘zini rivojlantirish va baholash qobiliyatlarini kiritish mumkin.

Axborot-kommunikatsion kompetentlikni shakllantirish, uning modellari va asosiy komponentlari bo‘yicha yuqorida keltirilgan tahlillar umumta’lim muassasa rahbarlarining axborot-kommunikatsion kompetentligi bo‘yicha tizimli, aniq bir xulosa yo‘qligini ko‘rsatadi. Turli ilmiy-tadqiqot ishlarida axborot-kommunikatsion kompetentlik turlicha ko‘rsatilgan bo‘lib, bo‘lajak menejerlarni tayyorlash sohasida axborot kompetentlikni shakllantirishning mezonlari, mazmuniy tarkibi, pedagogik shart - sharoitlari to‘liq ochib berilmagan.

Shuningdek, yuqorida tahlil etilgan tadqiqot ishlari aynan axborot kompetentlikni shakllantirishga oid bo‘lsada, ularda masofaviy ta’lim muhitida ushbu kompetentlikni rivojlantirish masalalari yoritilmagan.

Hozirgi globallashtirish davri va axborotlar asrida raqamli texnologiyalarning rivojlanishi, kelajakda rivojlanishi bashorat qilinayotgan yangi texnologiyalar (bulutli, additiv, 3D-pechat, o‘z-o‘zini rivojlantiruvchi, mustaqil fikrlovchi robotlar, modellashtirish, ya’ni dinamik ob’yektlarning virtual nusxalari)ni ishlab chiqarishga kirib kelishi bo‘lajak boshqaruv kadrlari, ya’ni menejerlarning axborot kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishning nazariy hamda amaliy asoslarini yanada takomillashtirishni talab etadi.

Bo‘lajak menejerlarning axborot-kommunikatsion kompetentligi bevosita uning kasbiy funksiyalari va vazifalaridan kelib chiqib shakllantirilishi lozim. Ta’lim muassasaning tezkor o‘zgaruvchan sharoitlar, qonunchilik, raqobatchilik, jamiyatdagi qadriyat va ma’naviyat tizimlari, jamoa qarashlari, innovatsion texnika va texnologiyalar sharoitida faoliyat yuritishini hisobga olib, menejer o‘z vazifalarni amalga oshirishda menejmentning tamoyillari, nazariyasi, andozalar, ma’lumotlarga ishlov berish, boshqarish qonunlaridan foydalana bilishi talab etiladi [16].

Bo‘lajak menejerlarning axborot-kommunikatsion kompetentligini samarali shakllantirishning pedagogik shart sharoitlari deganda, bizning ta’rifimiz bo‘yicha “Axborotlashgan innovatsion ta’lim muhitida mutaxassislarning axborot kompetentligini shakllantirishga qaratilgan ta’lim jarayoni uni ishlab chiqarishdagi kasbiy faoliyati davrida rivojlantirishga qaratilgan o‘z-o‘zini rivojlantirish va baholash jarayonlari majmui tushuniladi”. Ilmiy asoslangan pedagogik shart sharoitlar majmui axborot kompetentlikning barcha komponentlarini (kognitiv, motivatsiyali, reflektiv, kommunikativ va b.) bosqichma-bosqich shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur. Bunday pedagogik sharoitlarni amalga oshirish murakkab, maqsadga yo‘naltirilgan, o‘zaro bog‘liq va ilmiy asoslangan pedagogik jarayondan iborat bo‘lib uni qo‘yidagi yo‘llar orqali amalga oshirish mumkin bo‘ladi:

umumta’lim muassasa rahbarlarining axborot-kommunikatsion kompetentligini nazariy-metodologik asoslashga tizimli va kompetentlik nuqtai nazaridan yondashish;

innovatsion ta'lim muhitida ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanishni rivojlanish strategiyasini hisobga olgan holda axborot kompetentlikni shakllantirishga konseptual yondashish; umumta'lim muassasa rahbarlarini axborotlar bilan ishlash jarayonidagi sub'yektiv shart-sharoitlarni (umumta'lim muassasa rahbarlarining Internet tizimi orqali mustaqil axborotlarni olishi, o'z-o'zini rivojlantirish va baholash qobiliyatlarini shakllantirish masalalari va h.k.) e'tiborga olish;

umumta'lim muassasa rahbarlarining hamkorlikda ishlay olish qobiliyati, loyihaviy va ilmiy-ijodiy faoliyatga yo'naltirilgan faoliyatini tashkil etish, ularning faolligini oshirishda AKT vositalaridan keng foydalanish;

axborot-kommunikatsion kompetentlikni shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar va shart-sharoitlar diagnostikasi va monitoringini olib borish.

Umumta'lim muassasa rahbarlarining axborot-kommunikatsion kompetentlikni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari axborot-kommunikatsion bo'yicha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar va ilmiy adabiyotlarda mutaxassislarning axborot-kommunikatsion kompetentligini shakllantirishda uning komponentlari, innovatsion ta'lim muhiti, innovatsion pedagogik texnologiyalar va interaktiv o'qitish metodlaridan foydalanish darajasi, elektron ta'lim resurslari hamda internet tarmog'i orqali mustaqil axborotlar olish jarayonlari atroflicha o'rganilgan, lekin masofaviy ta'lim muhitida mutaxassislarning axborot kompetentligini shakllantirish muammolari to'liq ilmiy o'rganilmaganligi aniqlangan.

Yuqoridagi tahlillar asosida bo'lajak umumta'lim muassasa rahbarlarining masofaviy ta'lim asosida axborot kompetentligini shakllantirishga qaratilgan pedagogik shart-sharoitlarni aniqlashda rahbarlarning axborot-kommunikatsion kompetentligini axborotlashgan ta'lim muhitida shakllantirish va axborotlashgan jamiyat muhitida rivojlantirish kabi bosqichlarga ajratamiz.

Axborotlashgan ta'lim muhiti – menejerlarning ta'lim muassasidagi o'qish jarayoni, ya'ni masofaviy o'qish platformalari ("Uzluksiz kasbiy ta'lim" platformasi), elektron kutubxonalar, video va audio mashg'ulotlar, telekommunikatsiya o'quv loyihalari va boshqa internet manbalar orqali qisman yoki to'liq o'qituvchi nazoratida axborotlarni qabul qilish, saqlash, qayta ishlash va foydalanish jarayonlarini o'z ichiga oladi.

Axborotlashgan jamiyat – bu global ijtimoiy jarayon va umumjamiyat ishlab chiqarish sohasida yetakchi faoliyat turi bo'lib, zamonaviy mikroprotsessor va kompyuter texnikalari hamda axborot almashinuvida foydalaniladigan boshqa turli xil texnik vositalar yordamida axborotlarni yig'ish, qayta ishlash, saqlash, uzatish va foydalanish jarayonlari majmuidir. Bunda axborot-kommunikatsion kompetentlikni rivojlantirish jarayoni sifatida qaraladi va bu rahbar xodimlarning kasbiy-hayotiy faoliyati davomida "Butun umr davomida o'qish" tamoyili asosida amalga oshishi nazarda tutiladi.

Axborotlashgan jamiyat sharoitida umumta'lim muassasa rahbarlarining axborot-kommunikatsion kompetentligini rivojlantirish quyidagi vazifalarni nazarda tutadi:

rahbarning fikrlash va tafakkur qobiliyatlarini rivojlantirish;

raqamli texnologiyalar, masofaviy ta'lim, "bulutli texnologiyalar", vebinar, onlayn ma'ruza, "blended learning", "flipped classroom" texnologiyalari, ularning asosiy komponentlari va ta'limdagi imkoniyatlarini haqida oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini oshirish;

murakkab nostandart vaziyatlarda optimal qarorlar qabul qilish yoki muammo yechimi bo'yicha aniq takliflar berish malakasini shakllantirish (masalan, faoliyatni optimallashtirishga yo'naltirilgan kompyuter o'yinlaridan foydalanish orqali va h.k.);

kompyuterli modellashtirish imkoniyatlaridan foydalangan holda rahbarlarning tadqiqot-izlanish faoliyatini rivojlantirish;

ta'lim oluvchining axborot madaniyatini, axborotlardan to'g'ri foydalanish va unga ishlov berish qobiliyatlarini shakllantirish.

Yuqorida keltirilgan faoliyat turlari malaka oshirish kurslari tinglovchilari, professor-o'qituvchi va raqamli texnologiyalar o'rtasida axborotlashgan o'zaro ta'sir bilan asoslanadi va u

umumta'lim muassasa rahbarlarida axborot-kommunikatsion kompetentlikni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlarini belgilaydi. Shuningdek, ta'limni va jamiyatni axborotlashtirish, axborotlashtirishda masofaviy ta'limdan keng foydalanish bilan bog'liq bo'lgan masalalar umumta'lim muassasa rahbarlarining axborot-kommunikatsion kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlarining asosi hisoblanadi.

Tadqiqot jarayonida B.Blum taksonomiyasi asosida umumiy o'rta ta'lim muassasa rahbarlarining boshqaruv faoliyatida zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish kompetensiyalari tahlil qilindi (1-jadvalga qarang). Mazkur kompetensiyalar uchta mezonlar asosida belgilandi: boshqaruv faoliyatini axborotlashtirish funksiyalarini anglash (kognitiv), boshqaruvga oid axborot jarayonlarini optimallashtirish (faoliyatli) va boshqaruvda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash motivlarini rivojlantirish (motivatsion).

B.Blum taksonomiyasi bo'yicha direktorlarning axborot-kommunikatsion kompetensiyalari

1-jadval.

Mezon	Daraja	Kompetensiya
Kognitiv	Bilish (K1)	umumiy o'rta ta'lim muassasalarini boshqarish va rivojlantirish jarayonlarida ko'llaniladigan zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalar va ulardan foydalanish samaradorligini bilish qobiliyati
	Tushunish (K2)	boshqaruv samaradorligini oshirish va ta'lim muassasasining axborot-boshqaruv muhitini rivojlantirishi uchun zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalarning imkoniyatlarini tushuntirib berish qobiliyati
Faoliyatli	Qo'llash (K3)	zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalarni maktabni boshqarish jarayonlarida qo'llash qobiliyati
	Tahlil qilish (K4)	zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida maktab jarayoniga taalluqli ma'lumotlarni tezkor ravishda yig'ish, tahlil etish va vizuallashtirish; yakka joyda tizimli ravishda saqlash; reja va hisobotlarni birgalikda shakllantirishni tashkil etish qobiliyati
Motivatsion	Sintez (K5)	shaxsiy axborot-boshqaruv muhitini innovatsion axborot-boshqaruv muhitiga integratsiyalash qobiliyati
	Baholash (K6)	globallashtirish sharoitida boshqaruv faoliyati natijalarini tanqidiy baholash asosida ta'lim muassasasini rivojlantirish qobiliyati.

Belgilangan kompetensiyalar asosida umumta'lim muassasa rahbarlarining zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish kompetensiyalarining rivojlanganlik darajalari aniqlandi.

Adaptiv (past) daraja umumta'lim muassasa rahbarlari axborot-kommunikatsion texnologiyalar sohasidagi bilim va ko'nikmalar mavjudligini nazarda tutadi, lekin ulardan boshqaruv faoliyatida foydalanish uchun kompetensiyalar yetarli emas.

Integrativ (o'rta) daraja umumta'lim muassasa rahbarlarining zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalar sohasida mavjud bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarini

axborot-boshqaruv muhitiga integratsiyalash qobiliyatiga ega bo'ladi, lekin ta'lim muassasaning rivojlanishiga erisha olmaydi.

Kreativ (yuqori) daraja global axborotlashtirish sharoitida boshqaruv faoliyati samaradorligini rivojlanishiga olib keladi.

B.Blum taksonomiyasi asosida ishlab chiqilgan axborot-kommunikatsion kompetensiyalarini dinamik ravishda murakkablashtirib borilishi ochib berilgan.

Xulosa va takliflar. Yuqorida bayon etilganlardan kelib chiqib, quyidagi xulosalarni keltirish mumkin:

1. Adabiyotlar tahlili natijasida global axborotlashtirish sharoitida umumiy o'rta ta'lim muassasa rahbarlari boshqaruv samaradorligiga erishish uchun ularning axborot-kommunikatsion kompetentligini rivojlantirishga zarurligi asoslandi. Shu sababli umumiy o'rta ta'lim maktab rahbarlarining boshqaruv kompetentligi tarkibida axborot-kommunikatsion kompetentligi alohida belgilanib, uning mazmun mohiyati aniqlangan va boshqaruv jarayonlarini raqamlashtirish asosida maktabning innovatsion axborot-boshqaruv muhitini shakllantirish talabi belgilangan.

2. Axborot-kommunikatsion kompetentlikga oid amalga oshirilgan mamlakatimiz va xorijiy olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlari va ilmiy adabiyotlar tahlillari asosida umumta'lim muassasa rahbarlarining axborot-kommunikatsion kompetentligini masofaviy ta'lim muhitida shakllantirish va rivojlantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari hamda ta'limni va jamiyatni axborotlashtirishga oid mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi.

3. Umumiy o'rta ta'lim muassasa rahbarlarining zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalardan boshqaruv faoliyatda foydalanish kompetensiyalarini baholash uchun boshqaruv jarayonlarini axborotlashtirish yo'llarini bilish (kognitiv), boshqaruvga oid axborot jarayonlarini optimallashtirish (faoliyatli) hamda axborot-menejerlik motivlarni rivojlantirish (motivatsion) me'zonlari belgilandi.

O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

umumta'lim muassasa rahbarlarida boshqaruv kompetentligini "Uzluksiz kasbiy ta'lim" elektron platformasi orqali rivojlantirish maqsadida interaktiv videoma'ruza va amaliyotga yo'naltirilgan vebinarlarga asoslangan tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirish;

umumta'lim muassasa rahbarlarining boshqaruv faoliyatida axborot-kommunikatsion texnologiyalardan sohasidagi muhim yutuqlariga samarali asoslangan foydalanish uzluksiz kasbiy rivojlantirishning muqobil shakllarini amaliyotga joriy etish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi qonuni. Ta'lim to'g'risida. Toshkent sh., 2023 yil, O'RQ-637-son

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 29- apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 - yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli Farmoni.

3. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari: monografiya. -T.: «Fan», 2007.

4. Биков С. А., Гнездилова Н. А. Модел управления развитием информационной компетентности специалиста-менеджера // Вестник ТГУ. 2007. № 8 С. 214–218. 07. № 8 С. 214–218.

5. Gulyamov S.S., Alimov R.X. va boshqalar. Axborot tizimlari va texnologiyalari. - T.: Sharq, 2000. – 591 b.

8. Mo'minov B.B. Pedagogik dasturiy ta'minot vositalari // Fizika-matematika va informatika. - 2009. - № 5.– B. 32 - 36.

9. Raximov O.D., Ro'ziyev H.J., Murodov M.O. Ta'lim sifati va innovatsion texnologiyalar. Monografiya. T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2016. – 206 b.

11. Тришина С.В. Информационная компетентность как педагогическая категория // Вестник ТГУ. 2012. — № 9 (44).

12. Tursunov S.Q. Ta'limda elektron axborot resurslarini yaratish va ularni joriy qilishning metodik asoslari (pedagogika oliy ta'lim muassasalari -Web-dizayn fani misolida): ped. fan. dok... diss. –Toshkent, 2011.
13. Urazmetova Sh.A. Raqamli resurslarni modellashtirish asosida talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirish, 13.00.06 - Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha dissertatsiya avtoreferati. Toshkent davlat pedagogika universiteti.
14. Shomurodov Sh.Sh.” Педагогические условия формирования информационной компетентности и будущего менеджмента и дистанционного образования. Образование и новые инновационные исследования” (2022 god №6). S. 147-152.
15. Якубжонова, Д. Б. Формирования информационной компетентности студента вуза посредством интерактивных технологий. // Молодой ученый. - 2012. - № 9 (44). - С. 323-325.
16. Qosimov G'.M. Menejment: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. T.: O'zbekiston, 2002. — 312 bet.

Mirzayeva Dilfuza Shavkatovna

Buxoro davlat universiteti maktabgacha ta'lim kafedrasida dotsenti

MAKTABGACHA TA'LIMDA ART PEDAGOGIKASI VOSITASIDA BOLALAR IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISHGA QO'YILGAN TALABLAR

Annotatsiya. Maqolada maktabgacha yoshdagi tayyorlov guruhi bolalari ijodkorligini rivojlantirishning maqsad va vazifalari, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar ijodkorligini ART pedagogikasi vositalari orqali rivojlantirishning usullari, ART pedagogikasi vositalari orqali bolalar ijodkorligini rivojlantirishda tarbiyachiga qo'yiladigan asosiy talablari haqida nazariy ma'lumotlar bayon etilgan va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: art pedagogikasi, tasviriy san'at, ijodkorlik, san'at, mahorat, chizma, shakl, rang, tasvir, tafakkur, me'zon, ijodkorlik omili, ijodkorlik parametrlari, innovatsiya, intellekt.

Аннотация. В статье изложены теоретические данные и даны рекомендации о целях и задачах развития творчества детей дошкольной подготовительной группы, методах развития детского творчества в дошкольных образовательных организациях средствами АРТ-педагогике, основных требованиях к воспитателю при развитии детского творчества средствами арт-педагогике.

Ключевые слова: художественная педагогика, изобразительное искусство, творчество, искусство, мастерство, рисунок, форма, цвет, образ, мышление, критерий, фактор творчества, параметры творчества, инновации, интеллект.

Annotation. The article describes theoretical information about the goals and objectives of the development of the creativity of children of the preparatory group in preschool age, methods of developing children's creativity in preschool educational organizations through the means of ART pedagogy, basic requirements for the educator in the development of children's creativity through the means of ART pedagogy, and gives recommendations.

Key words: art pedagogy, fine arts, creativity, art, skill, drawing, form, color, image, thinking, criterion, factor of creativity, parameters of creativity, innovation, intelekt.

Kirish. Respublikamizda Prezident Sh.M.Mirziyoyevning "Maktabgacha ta'lim sohasi uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblanib, u har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi" – degan fikrlari asosida ta'lim-tarbiya jarayonida tayyorlov guruhi bolalarining ijodkorligi va tafakkurini rivojlantirishning samarali shakl va metodlarini ishlab chiqish, mashg'ulotlarni tashkil etishning yangicha modellari va texnologiyalarini yaratish zaruratini yuzaga keltiradi. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasidagi 39-maqsdagi maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish, tarbiyachilarning professional tayyorgarligi va mahoratini oshirib borishning takomillashtirilgan tizimini joriy etish, maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida takomillashtirish kabi muhim vazifalar belgilanib, maktabgacha ta'lim subektlari ehtiyojlarini qondirish, bolalarning qobiliyatlari, iste'dodlari, ichki imkoniyatlari, o'ziga xos individual-psixologik xususiyatlarini ART pedagogikasi vositasida kompleks rivojlantirishning innovatsion-integratsion uyg'unligini asoslovchi ta'lim tizimini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining innovatsion faoliyati uzviyligini ta'minlash masalalari M.Abdullayeva, Z.Azizova, D.Abdurahimova, G.Alimova, N.Begmatova, D.Babayeva, G.Berdaliyeva, F.Valixojayeva, F.Vaxabova, G.Djanpeisova, M.Kadirova, X.Kasimova, S. Matchanov, M.Mahkamova, S.Mirdjalilova, L.Mirjalolova tahliliga keng o'rin berilgan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarga innovatsion muhitida ta'lim-tarbiya berish muammosi F.R.Qodirova, L.R.Mo'minova, G.E.Djanpeisova, Sh.A.Sodiqova, G.A.Mardonova, G.Nazirova, N.Sh.Abdullayeva, D.A. Abduraximova, M.Abdullayeva, Z.A.Botirova, A.E.Rustamovning, maktabgacha ta'lim tashkilotida hamkorlikda ishlash, gender tenglik,

STEAM texnologiyasini qo'lash asosida ta'lim sifati va jozibadorligini oshirishning ilmiy-nazariy asoslari F.R.Qodirova, Sh.Q.Toshpo'latova, N.M.Qayumova, M.N.A'zamova, G.Kurbanova va Z.M.Ashurova ilmiy tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan.

Psixolog olimlar M.Davletshin, M.Ismoilova, V.Karimova, D.Mirzajonova, Z.Nishonova, M.Rasulova, A.Erkayev, E.G'oziyevlarning ilmiy tadqiqot ishlarida badiiy san'atning bola rivojlanishdagi psixologik jihatlari ilmiy nazariy jihatdan tahlil qilingan.

Asosiy qism. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar ijodkorligini ART pedagogikasi vositalari orqali rivojlantirishning o'ziga xos maqsad va vazifalari bo'lib, ular ta'lim va tarbiya jarayonining mazmun – mohiyatini belgilab berishni o'zida aks ettiradi.

Maktabgacha ta'limda ART pedagogikasi asosida bolalar ijodkorligini rivojlantirishning maqsadi quyidagilardan iborat:

bolalarda ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish va rivojlantirish;

bolalarning ijodiy tafakkuri, fantaziyasi va ijodiy faolligini oshirish;

bolalar shaxsining rivojlanishiga ijodiy faoliyatning ta'sirini kuchaytirish.

vazifalar:

bolalarda turli san'at turlari (rassomlik, musiqa, xoreografiya, teatr, amaliy-dekorativ san'at) orqali ijodiy faollik va qobiliyatlarni namoyon qilishga qiziqishni rivojlantirish;

bolalarning ijodiy tasavvurini, fantaziyasini va ijodiy yechimlarini topishga bo'lgan ishtiyoqini rivojlantirish;

bolalarning ijodiy qobiliyatlarining shakllanishiga, rivojlanishiga va namoyon bo'lishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va uni takomillashtirish;

bolalarning yosh, individual va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyalarini yaratish va amaliyotga tatbiq etish.

ART pedagogikasining maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar ijodkorligini rivojlantirishdagi asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

bolalarning turli san'at turlari (rassomlik, musiqa, xoreografiya, teatr, amaliy-dekorativ san'at) orqali ijodiy faollik va qobiliyatlarini namoyon qilishga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirish;

bolalarning ijodiy tasavvuri, fantaziyasi va ijodiy yechimlar topishga bo'lgan ishtiyoqini rivojlantirish;

bolalarning ijodiy qobiliyatlarining shakllanishi, rivojlanishi va namoyon bo'lishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularni takomillashtirish;


- bolalarning yosh, individual va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyalarini yaratish va amaliyotga tatbiq etish;

- bolalar ijodkorligini rivojlantirish bo'yicha pedagoglar kompetensiyasini oshirish;

- maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatida art pedagogikasi vositalaridan samarali foydalanish yo'llarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish;

Umuman olganda, ART pedagogikasining maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar ijodkorligini rivojlantirishdagi asosiy vazifalari bolalarda ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish, rivojlantirish va ularning ijodiy faolligini oshirishga qaratilgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar ijodkorligini ART pedagogikasi vositalari orqali rivojlantirishning asosiy usullari quyidagilardan iborat (1-rasmga qarang).

Maktabgacha ta'limda bolalar ijodkorligini ART pedagogikasi vositasi asosida rivojlantirish usullari. 1-rasm.



Yuqoridagi rasmda keltirilgan maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayonlarida tayyorlov guruhi bolalari ijodkorligini ART pedagogikasi vositasi asosida rivojlantirish usullarining mazmuni quyidagilarni o'zida aks ettiradi:

Ijodiy loyihalar usuli - bolalarni turli san'at turlari (rassomlik, musiqa, harakat san'ati, teatr) asosida ijodiy loyihalar (rasmlar, qo'shiqlar, sahnalashtirishlar) yaratishga jalb etish; bolalarning ijodiy tasavvuri, fantaziyasi va ijodiy yechimlar topishga bo'lgan qobiliyatlarini rivojlantirish.

San'at-laboratoriyalari usuli - bolalarni turli san'at turlari (rassomlik, musiqa, harakat san'ati, teatr) bilan tanishgan holda ijodiy faoliyatga undash; bolalarning ijodiy tajribalarini boyitish, ijodiy qobiliyatlarini namoyon qilish imkoniyatlarini yaratish.

Ijodiy musobaqalar usuli - bolalarni turli san'at turlari bo'yicha ijodiy musobaqalarga (rassomlik, qo'shiq, harakat, teatr) jalb etish; bolalarning ijodiy faolligini rag'batlantirish va ijodiy qobiliyatlarini namoyon qilishiga ko'maklashish.

Ijodiy-tadqiqot usuli - bolalarda turli san'at turlari orqali ijodiy tadqiqotlar olib borishga qiziqish uyg'otish; bolalarning ijodiy tafakkur va yechimlar topishga bo'lgan qobiliyatlarini rivojlantirish.

Ijodiy jamoalar usuli - bolalarni turli san'at turlari (rassomlik, musiqa, xoreografiya, teatr) bo'yicha ijodiy kollektivlarga (studiya, krujok, to'garak) jalb etish; bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rag'batlantirish, o'z-o'zini ifodalash imkoniyatlarini yaratish.

San'at-taqdimotlari usuli - bolalar tomonidan yaratilgan ijodiy ishlar (rasmlar, haykallar, amaliy-dekorativ asarlar, sahnalashtirishlar) ni keng jamoatchilik uchun taqdim etish; bolalarning o'z ijodiy natijalaridan qoniqish hissini rivojlantirish, ularning ijodiy faolligini rag'batlantirish.

San'at-mediemarkazlar usuli - maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar uchun zamonaviy san'at mediatsentrlarini (raqamli tasviriy san'at, multimedia, robototexnika va b.) tashkil etish; bolalarning ijodiy tafakkuri, fantaziyasi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratish.

Ijodiy ekskursiyalar usuli - bolalarni san'at muzeylari, galereyalari, teatrlar, konservatoriyalar va boshqa san'at obektlariga tashrif buyurgan holda ijodiy faoliyatga jalb etish; bolalarning ijodiy qiziqishlari va qobiliyatlarini namoyon qilish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish.

San'at - folklor usuli - bolalarni milliy folklor (ertaklar, xalq qo'shiqlari, amaliy-dekorativ san'at) bilan tanishtirish va ularni ijodiy faoliyatga undash; bolalarda milliy madaniy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish istagini shakllantirish.

Ijodiy loyihalashtirish usuli - bolalarni turli san'at turlaridan foydalangan holda ijodiy loyihalar (rasmlar, qo'shiqlar, haykallar, qo'g'irchoq sahnalashtirish) yaratishga jalb etish; bolalarning ijodiy tafakkur va yechim topish qobiliyatlarini rivojlantirish.

Tadqiqotimiz davomida qo'llagan usullarimiz o'ziga xos tarzda bir qancha yo'nalishlarda namoyon bo'lishini kuzatdik. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar ijodkorligini ART pedagogikasi vositalari orqali rivojlantirishning ushbu usullari samarali hisoblanib, bolalarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishda muhim hisoblanadi.

Natijada, ART pedagogikasi vositalari orqali maktabgacha ta'lim tashkiloti tayyorlov guruhi bolalarida bir qator shaxsiy ko'nikmalar shakllantirilishiga erishildi. Jumladan:

Ijodiy-fantaziya ko'nikmasi: rang-barang materiallar va vositalardan foydalangan holda ijodiy qarashlar, tasavvurlar, fantaziyani namoyon qilish, turli ijodiy g'oyalarni o'zlashtirish va ularni mustaqil ijodiy yechimlar bilan ifodalash.

Ijodiy o'z-o'zini ifodalash ko'nikmasi: o'z hissiyotlari, kechinmalarini turli san'at turlari (rassomlik, musiqa, harakat san'ati, teatr) orqali ifodalash; o'z-o'zini ifodalash, o'zini namoyon qilish va takdim etishga bo'lgan qiziqish va ehtiyojlarni qamrab olish.

Ijodiy yechimlar topish ko'nikmasi: turli ijodiy vazifalarga mustaqil yechimlar topish, ijodiy muammolarni hal etishda yangiliklar yaratishga intilish.

Ijodiy tashabbuskorlik ko'nikmasi: o'z ijodiy g'oyalarini namoyon qilishda faollik va tashabbuskorlik ko'rsatish, ijodiy faoliyatda mustaqillik va tashabbuskorlik ko'rsatish.

Ijodiy o'zini-o'zi baholash ko'nikmasi: o'zining ijodiy ishlarini va qobiliyatlarini real baholash, o'z ijodiy yutuqlari va kamchiliklarini aniqlash.

Ijodiy munosabatlar ko'nikmasi: ijodiy hamkorlik, hamjihatlik va o'zaro yordamga asoslangan munosabatlarni o'rnatish, ijodiy faoliyatda boshqa bolalar bilan hamkorlik qila olish.

Ijodiy tahlil va refleksiya ko'nikmasi: o'z ijodiy faoliyatini va natijalarini tahlil qila olish. ijodiy ishlariga xolis baho bera olish.

Ijodiy muhit yaratish ko'nikmasi: o'z ijodiy faoliyatlari uchun qulay muhit va sharoitlarni yaratish, ijodiy ishlarini namoyish qilish uchun obstanovka yaratish.

Ijodiy qiziqish va motivatsiya ko'nikmasi: ijodiy faoliyatga bo'lgan qiziqish va havasni namoyon qilish, mustaqil ijodiy ishlash va ijodiy faollikni namoyon qilish.

Ijodiy tajribani umumlashtirish ko'nikmasi: erishgan ijodiy natijalarini tahlil qila olish, ijodiy faoliyat jarayonida orttirilgan tajribani yangi ijodiy ishlarda qo'llay olish.

Bunday ko'nikmalar shakllantirish orqali tayyorlov guruhi bolalarining ijodiy qobiliyatlari rivojlanadi va ilk ijodiy malakalar tarkib topadi. ART pedagogikasi vositalari orqali maktabgacha ta'lim tashkiloti tayyorlov guruhi bolalarida ijodiy-fantaziya, o'z-o'zini ifodalash, ijodiy yechimlar topish, ijodiy tashabbuskorlik va o'zini-o'zi baholash ko'nikmalari shakllanadi. Bu esa bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ART pedagogikasi vositalari orqali bolalar ijodkorligini rivojlantirishda tarbiyachiga qo'yiladigan asosiy talablar quyidagilardan iborat (2-jadvalga qarang).

ART pedagogikasi vositasida bolalar ijodkorligini rivojlantirishda tarbiyachilarga qo'yilgan asosiy talablar

2-jadval.

	Talablar	Mazmuni
1	Kasbiy bilim va qobiliyatlar	ART pedagogikasi , psixologiyasi, didaktikasiga oid bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish. turli san'at turlari (rassomlik, musiqa, harakat san'ati, teatr) bo'yicha yetarli bilimga va amaliy malakaga ega bo'lish. bolalar ijodkorligini rivojlantirishning zamonaviy metodlari, shakllari va vositalarini bilish.
2	Kreativlik va ijodiylik	bolalar bilan ijodiy hamkorlik qilish qobiliyatiga ega bo'lish. o'zi ham ijodiy faol bo'lish va namuna ko'rsata olish. bolalarning ijodiy qiziqishlari va qobiliyatlariga mos ijodiy muhitni yaratish.

3	Individual-yondashuv	har bir bolaning yosh, jins, shaxsiy xususiyatlari va ijodiy qobiliyatlariga alohida e'tibor qaratish. bolalarning o'ziga xos ijodiy yo'nalishlarini aniqlash va rivojlantirish.
4	Motivatsiya va ijodiy faollik	bolalarni ijodiy faoliyatga rag'batlantirish va ularning ijodiy tashabbus ko'rsatishlariga ko'maklashish. bolalarning o'z-o'ziga ishonchi va mustaqil ijodiy faoliyatini rag'batlantirish.
5	Monitoring va samaradorlikni baholash	bolalarning ijodiy rivojlanish darajasini kuzatish va obyektiv baholash qo'llanilayotgan metodlar, shakllar va vositalarning samaradorligini tanqidiy tahlil qilish
6	Refleksivlik va professional o'sish	o'z kasbiy faoliyati va yutuqlarini muntazam tahlil qilish hamda kam tomonlarini aniqlash. kasbiy bilim va ko'nikmalarini doimiy ravishda takomillashtirib borish. ART pedagogikasi sohasidagi yangi yondashuvlar, bolalar ijodiy faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish va boshqarish qobiliyatiga ega bo'lish.
7	Tashkilotchilik va rahbarlik	bolalar ijodiy guruhlarini yuritish, ularni g'alabaga undash va yo'naltirish. bolalarning ijodiy ishlarini namoyish qilish va targ'ib etish texnologiyalar va usullar bilan tanishib borish.
8	Ijtimoiy-pedagogik hamkorlik	bolalarning ota-onalari va boshqa pedagog xodimlar bilan hamkorlikda ishlash. bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda oilalar bilan o'zaro hamkorlik qilish. mahalliy ijtimoiy institutlar (muzeylar, galereyalar, teatrlar va b.) bilan hamkorlik o'rnatish.
9	Innovatsion yondashuv	bolalar ijodkorligini rivojlantirish sohasidagi ilg'or g'oyalar, yondashuvlar va texnologiyalarni qo'llash. yangi metodlar, vositalar va usullar yaratish orqali ta'lim samaradorligini oshirish
10	Kommunikativ qobiliyatlar	bolalar bilan yaqin muloqot o'rnatish olish va ularning ishonchini qozona bilish. bolalarning ijodiy g'oyalarini o'rganish va qo'llab-quvvatlash. bolalarning ijodiy ishlarini muallif sifatida taqdim qila olish.
11	Tashabbuskorlik va tashkilotchilik	bolalarda ijodiy tashabbus uyg'otish va uni qo'llab-quvvatlash. bolalarning ijodiy faoliyatini tashkil etish hamda boshqara olish. ijodiy loyihalar va ko'rgazmalar tashkil etish.
12	Bolalarni rag'batlantirish va motivatsiyalash	bolalarning ijodiy faolligini rag'batlantirish usullarini bilish va qo'llay olish. bolalarni ijodiy faoliyatga muntazam ravishda rag'batlantirib borish. ularning ijodiy muvaffaqiyatlarini e'tirof etish va mukofotlash.
13	Variativ yondashuv	turli ijodiy faoliyat turlari (rassomlik, musiqa, harakat san'ati, teatr)ni bolalarga taklif qila olish. har bir bolaning ijodiy qobiliyatlarini aniqlash va uni rivojlantirish. ijodiy faoliyat shakllari va metodlarini bolalarning yoshi hamda qiziqishlariga moslashtira olish

Yuqoridagi keltirilgan ta'lim jarayoni talablariga amal qilish tarbiyachilarga bolalar ijodkorligini rivojlantirishda yuqori natijalarga erishishga imkon beradi. Tarbiyachilar ushbu talablarga amal qilgan holda bolalar ijodkorligini rivojlantirishda samarali natijalarga erishishlari ta'minlanadi.

Xulosa. Axborot oqimining ko'payishi, ommaviy axborot vositalarining bolalar ijodiga ta'siri sharoitida vizual faoliyatni rivojlantirish muammosining hozirgi holati tarbiyachidan doimiy ravishda o'z-o'zini tarbiyalashni, ijodiy faoliyatni tashkil etishga yangi yondashuvlarni o'rganishni va muammoni samarali hal qilish istagini talab qiladi. ART pedagogikasi vositasidan foydalanish jarayonida vizual faoliyatning asosiy vazifalari: estetik tuyg'ular va badiiy didni shakllantirish bolaning shaxsiyatini har tomonlama rivojlantirish vazifalari bilan birgalikda hal qilinadi va psixolog, pedagog olimlarning qiziqishi ortib, ushbu muammoning dolzarbligini tasdiqlaydi.

Maktabgacha yoshdagi tayyorlov guruhi bolalari ijodkorligini rivojlantirishda ta'lim jarayonini ART pedagogikasi kreativ yondashuvi asosida tashkil etishda zaruriy shart-sharoitlar yaratish, uni maktabgacha ta'lim tashkilotining ta'limiy va jamoatchilik faoliyatiga faol jalb etish; tarbiyachilarni o'z ustida amaliy ishlashlarini ta'minlash, o'zining imkoniyatlari va qobiliyatlarini baholash bilan bog'liq mustaqil faoliyatga tashabbus uyg'otish va qo'llab-quvvatlash; tarbiyachilar jamoasini hamkorlikdagi ijtimoiy ahamiyatga ega, innovatsion o'quv loyihalari, dasturlar, ta'lim-tarbiya texnologiyalarini ishlab chiqishdagi ishtirokini ta'minlash; ijodiy ta'limiy muhitda o'zaro hamkorlik aloqalari, sherikchilikni kengaytirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Концепсия креативности Дж. Гилфорда и Э. П. Торренса. Концепсия креативности как универсальной познавательной творческой способности приобрела популярность после выхода в свет работ Дж. Гилфорда (Гуилфорд Ж. П., 1967).

2. Сергеева Н. Ю. Арт-педагогика как ресурс гуманитаризации школы нового века // Проблемы искусства в ХХИ веке: Задачи школы: Сборник статей по материалам Международной научно-практической конференции (Санкт-Петербург, 22—23-ноября 2010 г.) / Под научн. ред. О. Б. Островского. - СПб.: Полторак, 2010. — 450 с. — С. 132-133.

Dilova N.G. Strategies for preparing future teachers for interpersonal relationships through the legacy of eastern thinkers // Web of scholars: Multidimensional Research Journal (MRJ) Vol. 01 Issue: 07|2022 ISSN: (2751- 7543) <http://innosci.org> – P. 230-240.

Dilova N.G. "Uchinchi renessans" davrida ta'limning uzluksizligini ta'minlashda sharq allomalari merosidan foydalanish //"Maktabgacha ta'lim – maktab – oliy ta'lim" konsepsiyasi: muammo, yechimlar va istiqbollar: Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Buxoro, 2022. – B. 153-153.

Azimov Asqadjon Axtamovich
Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

INNOVATSION RIVOJLANISH JARAYONIDA TASVIRIY SAN'AT YO'NALISHI O'QUVCHILARINING MULOQOTGA KIRISHISH MUAMMOLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'quvchilar o'rtasida muloqot jarayoniga ta'sir qiluvchi va rivojlantiruvchi psixologik xususiyatlar o'rganib chiqilgan. Maqolada tasviriy san'at sohasida tahsil olayotgan o'quvchilar o'rtasida muloqot qobiliyatlarini yaxshilash uchun qulay muhitni yaratish tamoyillari ko'rib chiqilgan. Verbal va nonverbal muloqot shakllarining professional faoliyatdagi o'rni ta'kidlab o'tilgan.

Kalit so'zlar: qobiliyat, kompetensiya, intellekt, tafakkur, persepsiya, kommunikatsiya, nonverbal muloqot, individuallik.

Аннотация. В данной статье рассматриваются психологические особенности, которые влияют на развитие коммуникативных навыков у студентов. В статье рассматриваются принципы создания благоприятной среды для совершенствования коммуникативных навыков у студентов, обучающихся в области изобразительного искусства. Подчеркивается роль вербальных и невербальных форм общения в профессиональной деятельности.

Ключевые слова: способности, компетенции, интеллект, мышление, перцепция, общение.

Abstract. This article examines the psychological characteristics that affect and develop communication skills among students. The article examines the principles of creating a favorable environment for improving communication skills among students studying in the field of Fine Arts. The role of verbal and nonverbal forms of communication in professional activities is highlighted.

Key words: ability, competence, intelligence, thinking, perception, communication.

Kirish. So'nggi yillarda dunyoda olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarida muloqot madaniyati, samarali muloqot, shaxslararo munosabatlar va kommunikativ kompetensiya muammolari falsafa, sotsiologiya, madaniyashunoslik, tilshunoslik, psixologiya va pedagogika sohasida faol muhokama qilinmoqda. Turli fan sohalari olimlarining ilmiy-tadqiqot ishlarida samarali muloqot, kommunikativ kompetensiya mohiyati va mazmuni ochib bergan. Tasviriy san'at ta'limi sohasida samarali muloqot, bu nafaqat badiiy g'oyalarni yetkazish, balki ushbu g'oyalarning qanday ifoda etilishi va qabul qilinishiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy va psixologik omillarning murakkab o'zaro ta'sirini boshqarish hisoblanadi.

Inklyuziv ta'limni rivojlantirish, madaniy ongni targ'ib qilish, hamkorlikdagi loyihalar uchun imkoniyatlar yaratish va turli mexanizmlarni takomillashtirish orqali o'qituvchilar talabalarga aloqa to'siqlarini yengib o'tishga va o'zlarining badiiy qarashlarini ifoda etishda yordam berishlari mumkin. Tasviriy san'at ta'limida muloqotning ushbu psixologik xususiyatlarini o'rganishda o'qituvchilar talabalarining kommunikativ kompetentsiyasini takomillashtirishi, shu bilan ularning ta'lim tajribasini boyitish va rassom kommunikator sifatida o'sishini ta'minlash uchun amalga oshirishi mumkin bo'lgan tushunchalar va tamoyillarni o'z ichiga qamrab olgan.

Adabiyotlar tahlili. Muloqot bevosita har bir shaxsning sotsial hayotida muhim hisoblanib, turli mutaxassislik bilan shug'ullanuvchi olimlar uni ilmiy jihatdan tadqiq etishgan va bu jarayon hali davom etmoqda. Jumladan xorij olimlaridan V.N.Myasishev, A.A.Badalyev, B.G.Ananayev, L.S.Vigotskiy, A.Luria muloqot va uning rivojlanishi borasida bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borganlar.

B.G. Ananyev «Odam bilishning predmeti sifatida» asarida bu masalani chuqur tahlil qilgan. U bilimning turli elementlarini egallash muvaffaqiyatli o'zlashtirishning garovi ekanligini ta'kidlaydi. Bilimlarni egallash muloqot orqali amalga oshirilishini ham uqtirib o'tadi. B.G. Ananyev fikricha, muloqot ijtimoiy va individual holatdir. Shuning uchun nutq bilan uzviy bog'liq, kommunikativ vazifani bajarishda pantomimika, imo-ishoralar muloqot shakllari sifatida yuzaga chiqadi.

V.N. Myasishev muloqotni jarayon sifatida o'rgangan. Ya'ni shaxslarning bir-biriga muloqot orqali ta'sir ko'rsatishlarini, bir-birlarini idrok qilish obyekti sifatida tahlil qiladi. Uning fikricha: «Shaxs turlicha munosabatlarda qarama-qarshi sifatlarni namoyon qilishi mumkin.[3]

Tajribali psixolog A.A. Bodalyev esa shaxs o'yinda, o'qishda, muloqotda, ya'ni faoliyatning turli sohalarida o'zining o'rnini bilishi zarurligini uqtiradi. U o'zining «Shaxs va jamiyat» kitobida bu masalaga katta e'tibor berib, bu muammolar kam o'rganilganligini ta'kidlaydi. A. A. Bodalyevning fikricha, «insonni muloqot orqali tarbiyalashda bu unga qanday ta'sir qilishini avvaldan o'ylash zarur» [2]

Mashhur psixolog Lev Vigotskiy faqat tasviriy san'atni o'rganayotgan o'quvchilar o'rtasida aloqani yaxshilashga qaratilgan tadqiqotlar o'tkazmagan. Biroq, uning nazariyalari va tushunchalari ta'lim sharoitida, shu jumladan badiiy va ijodiy izlanishlar bilan bog'liq holda muloqot va o'rganish qanday sodir bo'lishini tushunishga katta ta'sir ko'rsatdi. Vigotskiyning ijtimoiy-madaniy nazariyasi kognitiv rivojlanishda ijtimoiy o'zaro ta'sirlar, madaniy kontekst va tilning rolini ta'kidlaydi. Uning ishidan tasviriy san'at talabalari o'rtasidagi muloqotga tegishli bo'lgan asosiy tushunchalarga quyidagilar kiradi:

Proksimal rivojlanish zonasi (ZPD): Tasviriy san'at ta'limi sharoitida ushbu nazariya shuni ko'rsatadiki, samarali muloqot ko'nikmalarini ko'proq bilimdon tengdoshlar yoki o'qituvchilar bilan o'zaro aloqalar orqali rivojlantirish mumkin.

Madaniy vositalar: Vigotskiy shaxslarning dunyo bilan o'zaro munosabatlarida vositachilik qiladigan til, ramzlar va badiiy vositalar kabi madaniy vositalar tushunchasini kiritdi. Tasviriy san'at yo'nalishida ushbu vositalar o'quvchilarning badiiy g'oyalarini qanday ifoda etishi va shakllantirishi, bu ham individual ifoda, ham hamkorlikdagi ijodkorlikni osonlashtiradi. [4].

Yana bir psixolog olim Luriya bo'lib uning nazariy asoslari va tushunchalari bilvosita ta'lim sharoitida, shu jumladan tasviriy san'at ta'limida muloqot jihatlarini tushunish bilan bog'liq. [5] Luriyaning tadqiqotlari asosida o'quvchilar bir nechta faktorlar bilan muloqotlarini takomillashtirishi mumkin. Ular:

Til va fikr: Luriya til va fikr o'rtasidagi munosabatni keng o'rganib, lingvistik qobiliyatlarning yuqori bilim jarayonlariga qanday ta'sir qilishini ta'kidladi. Tasviriy san'at ta'limida til o'quvchilarning badiiy g'oyalari va talqinlarini qanday ifoda etishida, ularning muloqot qobiliyatlariga ta'sir qilishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Funksional tizimlar: Luriyaning miyadagi funksional tizimlar konsepsiyasi miyaning turli mintaqalari va tarmoqlari murakkab kognitiv funksiyalarni qo'llab-quvvatlash uchun qanday hamkorlik qilishini tasvirlaydi. Ushbu tizimlarni tushunish talabalar o'rtasida badiiy ifoda va aloqa bilan bog'liq bo'lgan bilim jarayonlari haqida tushuncha beradi.

Madaniy-tarixiy kontekst: Luriya kognitiv rivojlanishni shakllantirishda madaniy va ijtimoiy omillarning rolini ta'kidladi. Ushbu nuqtayi nazarni tasviriy san'at ta'limida qo'llash madaniy ta'sirlar va ijtimoiy o'zaro ta'sirlar talabalarning muloqot qobiliyatlari va badiiy rivojlanishiga hissa qo'shishini ta'kidlaydi.

Muhokama. Tasviriy san'atni o'rganayotgan talabalar o'rtasidagi muloqotni yaxshilash ularning badiiy g'oyalarini ifoda etish, fikr-mulohazalarni talqin qilish va boshqalar bilan hamkorlik qilishiga ta'sir qiluvchi bir qator psixologik xususiyatlarni tushunish va hal qilishni o'z ichiga oladi. Ushbu kontekstda muloqot qobiliyatini oshirish uchun muhim bo'lgan psixologik xususiyatlar haqida munozara:

O'z-o'zini ifoda etish va badiiy o'ziga xoslik: tasviriy san'at talabalari ko'pincha o'z ishlarini o'zini namoyon qilish shakli sifatida ishlatishadi. Samarali muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish ularga badiiy qarashlarini aniq va tiniq ifodalash imkonini beradi. Bu jarayon nafaqat texnik ko'nikmalarni o'zlashtirishni, balki o'zlarining badiiy o'ziga xosligini va uni boshqalarga qanday yetkazishni chuqur tushunishni rivojlantirishni ham o'z ichiga oladi.

Emotsional intellekt: badiiy muloqot hissiyotlar bilan chambarchas bog'liq. O'quvchilar o'z ishlari orqali his-tuyg'ularni talqin qilishlari, yetkazishlari va tinglovchilari ushbu hissiy signallarni qanday qabul qilishlarini tushunishlari kerak. Ushbu jarayonda hissiy intellekt muhim

rol o'ynaydi, bu o'quvchilarga badiiy ifodaga xos bo'lgan hissiy murakkabliklarni boshqarishga imkon beradi.

Fikr-mulohazalarni qabul qilish: fikr-mulohazalar san'atning o'sishi uchun juda muhim, ammo fikr-mulohazalarni samarali qabul qilish va birlashtirish qiyin bo'lishi mumkin. Talabalar konstruktiv tanqidga chidamlilik va ochiqlikni rivojlantirishlari, badiiy ovozini yaxshilash va muloqot qobiliyatlarini yaxshilash uchun fikr-mulohazalardan qanday foydalanishni tushunishlari kerak.

Madaniy kompetensiya: badiiy muloqotga madaniy me'yorlar, tarixiy kontekstlar va ijtimoiy qadriyatlar ta'sir qiladi. Tasviriy san'atni o'rganayotgan talabalar madaniy kompetensiyani rivojlantirishdan foyda ko'rishadi, bu madaniy omillar badiiy ifodani qanday shakllantirishini va turli madaniy kelib chiqishi bilan qanday muloqot qilishni tushunishni o'z ichiga oladi.

Ijodkorlik va innovatsiya: tasviriy san'atdagi samarali muloqot ijodkorlik va innovatsiyalarni rag'batlantiradi. Talabalar tanqidiy fikrlashni o'rganishlari, konvensiyalarga qarshi chiqishlari va o'zlari tanlagan badiiy vositalar orqali o'z g'oyalarini yetkazishning yangi usullarini o'rganishlari kerak.

Moslashuvchanlik: tasviriy san'at talabalari ko'pincha moslashuvchanlik va moslashuvchanlikni talab qiladigan dinamik muhitda ishlaydi. Ular muayyan loyihalar, tomoshabinlar yoki hamkorlikdagi sozlamalar talablari asosida muloqot uslubi va badiiy yondashuvini moslashtira olishlari kerak.

O'z-o'zini anglash: o'z-o'zini aks ettirish badiiy rivojlanish va samarali muloqot uchun juda muhimdir. Talabalar muntazam ravishda o'z ishlarini aks ettirish, muloqot qobiliyatlarini yaxshilash uchun kuchli va yo'nalishlarni aniqlash va o'sish uchun maqsadlarni belgilashdan foyda ko'rishadi.

Ta'limni qo'llab-quvvatlash va atrof-muhit: va nihoyat, tasviriy san'at talabalari o'rtasida samarali muloqotni rivojlantirish uchun qo'llab-quvvatlovchi ta'lim muhitini yaratish juda muhimdir. O'qituvchilar rahbarlik, konstruktiv fikr-mulohazalar va talabalarga xavfsiz va tarbiyalash sharoitida muloqot qobiliyatlarini mashq qilish va takomillashtirish imkoniyatlarini taqdim etishda muhim rol o'ynaydi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, tasviriy san'at yo'nalishida tahsil oluvchi o'quvchilar o'rtasida muloqotni kuchaytirish ko'p qirrali psixologik ko'nikmalarni tarbiyalashni o'z ichiga oladi. O'z-o'zini ifoda etish va emotsional intellektni rivojlantirishdan tortib, noverbal muloqot va konstruktiv mulohazalarni qabul qilishgacha, bu xususiyatlar o'quvchilarga o'zlarining badiiy qarashlarini samarali ifoda etish imkoniyatini beradi. Ushbu ko'nikmalarni rivojlantirish orqali o'quvchilar nafaqat badiiy o'ziga xosligini chuqurlashtiribgina qolmay, balki turli shaxslar bilan muloqot qilish va badiiy jamoatchilik ichida mazmunli hamkorlik qilish qobiliyatini kuchaytiradi. Ushbu yaxlit yondashuv tasviriy san'at ta'limida ijodkorlik, chidamlilik va ta'sirchan muloqotni rivojlantirish uchun juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Prezident Shavkat Mirziyoyev 2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" 2021-yil.
2. E.G'oziyev. Muomala psixologiyasi. T.2001
3. M.Maqsudova Muloqot psixologiyasi o'quv qo'llanma –2006
4. The cambridge handbook of sociocultural psychology by Anton Yasnitsky, Rene van der Veer, and Michael Cole. Cambridge University Press 2020
5. Alexander Luria: A Scientific Biography" by Michael Cole and Karl Levitin Harvard University Press 2020.

Оталиева Аделя Рахметовна

Соискатель кафедры теории физического Нукусского филиала воспитания и гуманитарных наук Узбекского государственного университета физического воспитания и спорта

ПОВЫШЕНИЕ ТЕХНИКО-ТАКТИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ ЮНЫХ КАРАТИСТОВ ИННОВАЦИОННЫМИ МЕТОДАМИ

Аннотация. В этой статье рассказывается о повышении технической и тактической подготовки юных каратистов с помощью инновационных методов, а также о традициях между тренером и учеником. Кроме того, проведён анализ научной литературы по регулированию деятельности юных каратистов.

Ключевые слова: соревнования, защита и контратака, борьба, системы индивидуальной подготовки, физическая культура, спортивная подготовка, вольная борьба.

Annotatsiya. Ushbu maqolada yosh karatechilarning texnik va taktik tayyorgarligini innovatsion usullar yordamida oshirish hamda murabbiy va shogird o'rtasidagi an'analar haqida so'z boradi. Bundan tashqari yosh karatechilar faoliyatini tartibga solish borasida ilmiy adabiyotlar tahlili olib borilgan.

Kalit so'zlar: musobaqa, mudofaa va qarshi hujum, kurash, individual tayyorgarlik tizimlari, jismoniy madaniyat, sport tayyorgarligi, erkin kurash.

Abstract. This article will talk about increasing the technical and tactical training of young karate fighters using innovative methods, as well as the traditions between the coach and The Apprentice. In addition, an analysis of scientific literature was carried out on the regulation of the activities of young karate fighters.

Key words: competition, defense and counterattack, wrestling, individual training systems, physical culture, sports training, freestyle wrestling.

Введение. На сегодняшний день всё более актуальным становится изучение аспектов тренерской деятельности, направленной на достижение физического и духовного развития подростков посредством формирования интереса и ценностного отношения к здоровому образу жизни. Современная система обучения, обуславливает необходимость использования новых подходов в организации учебно-тренировочного процесса, в поиске и разработке новых технологий физической культуры и спорта. Физическая культура и спорт в этом отношении выступает не только средством развития физических качеств юных каратистов, но и важным компонентом их духовно-нравственного воспитания. Важную роль в физическом воспитании подростков играет позиция тренера, его видение процесса, стремление использовать вариативные формы организации физкультурной деятельности, развивать у подростков интерес к занятиям карате.

В настоящее время известно разностороннее влияние занятий карате на организм человека, развитие физических способностей, формирование жизненно важных умений и двигательных навыков, обеспечивающих подготовку к общественно полезному труду и защите Родины. Немаловажное место в системе современного физического воспитания занимает карате как один из самых популярных видов спорта, который способствует развитию личности спортсмена, воспитанию физически здоровой и целеустремленной молодёжи. Специфическая особенность карате связана со сложно-координационной двигательной активностью, чем объясняется его физкультурно-оздоровительная, прикладная и спортивная ценность. В своей работе мы максимально постарались раскрыть содержание, показать сущность этого вида восточных единоборств и осветить вопросы, связанные с изучением техники, методики физической, технической, тактической, психологической и теоретической подготовки спортсменов.

Спорт является в большей степени активной частью физической культуры, так как в нем присутствует возможность фиксировать результаты спортивных достижений. Существует и возможность контроля эффективности применённой методики при подготовке спортсменов.

Анализ литературы. Виноградов П.А. в своих работах обращает внимание: «В условиях социально-экономических преобразований, происходящих в стране, обостряется противоречие между растущей потребностью общества в активных, здоровых людях и катастрофически ухудшающимся здоровьем детей. На фоне социальной незащищенности нарастает проблема алкоголизации и наркомании детей и подростков, что несет угрозу нравственного разложения подрастающего поколения, и поэтому пропаганда здорового образа жизни, формирование ценности здоровья среди детей и молодежи весьма актуальна в настоящий момент».

Во время активного физического развития человеку требуется реализация личности и самоутверждения, это возможно реализовать в единоборствах. Так как мы существуем в цивилизованном мире, современным обществом созданы правила участия в спортивных соревнованиях во избежание конфликтных ситуаций. Согласно этим правилам и проводится технико-тактическая, физическая и психологическая подготовка спортсменов для достижения более высоких спортивных результатов. Существует определенная категория спортсменов, которые идут на соревнования с мыслью: «попробую поучаствовать, ну а если будет неважный результат, то придется прекратить занятия». Здесь можно привести в пример мастера карате Кэйносукэ Эноэда, который несколько лет в начале своих выступлений на соревнованиях по карате проигрывал. Однако его занятия стали только более целеустремленными, и через определенное время он стал выигрывать. Поэтому тренеру и ученикам важно грамотно выстроить учебно-тренировочный процесс, чтобы в дальнейшем получить достойный результат на соревнованиях. Для этого необходимо использовать все виды двигательной активности, направленной на увеличение функционального состояния организма, они могут зависеть от:

- ❖ возраста,
- ❖ уровня индивидуального функционального состояния,
- ❖ задач, поставленных перед юным каратистом в различные возрастные периоды.

Дрейко Н.Ю. в своих работах отмечает: «Потребность в здоровье определяет активность личности ребенка. Ответственное отношение к поддержанию своего здоровья - достаточно сложное психическое новообразование, которое, по мнению Д.В. Колесова, включает отношение к здоровью как к ценности; как способность использовать в поведении всю информацию, которая служит сохранению и укреплению здоровья. Общественно значимым является такое отношение к здоровью, которое обеспечит актуализацию потребности и устойчивую мотивацию на здоровый образ жизни. Личность рассматривается нами как продукт динамического взаимодействия между врожденными потребностями и социокультурными влияниями, как процесс формирования здоровьеориентированной личности в процессе «становления связной системы личностных смыслов» (по А.Н. Леонтьеву) и формирования «внутренней позиции личности» (по Л.И. Божович)».

Карате является древней традиционной системой воспитания личности, Белый К.В. пишет: «Основные заповеди карате предусматривают:

- ❖ уважение старших, товарищей и всех окружающих;
- ❖ никогда не применять приемы карате для нападения, только в случае защиты себя или окружающих;
- ❖ быть мужественным;
- ❖ быть выдержанным;

- ❖ быть решительным;
- ❖ постоянно тренироваться в целях укрепления тела и духа.

Анализ и обсуждение. Свойства и черты характера, объединяемые в качества личности, формируемые, необходимые и проявляемые спортсменом в образовательном процессе на разных уровнях развития (новичок, любитель, профессионал). Процесс формирования и развития личности спортсмена постепенный, начинается он, как правило, в образовательных учреждениях (спортивные школы, спортивные клубы, детские центры, различные федерации и другие организации). Перед тренером-преподавателем в образовательном процессе обучения карате постоянно возникают различные задачи, связанные с воспитанием личности, совершенствованием физических качеств спортсмена, организацией спортивных тренировок. Особое значение приобретают способы действия, которые помогут более успешно освоить содержание образования» [1].

С развитием информационных технологий и повышением уровня спортивной подготовки является актуальным внедрение в восточных единоборствах модульно-ситуационной системы подготовки. На данном этапе развития восточных единоборств с начала этого столетия проведено значительное количество научных исследований и подготовлено немало учебного материала [6], но в данное время практически не охвачены некоторые стороны многолетней подготовки юных спортсменов восточных единоборств. Таких как многосторонняя подготовка на этапах, включающих использование средств из других единоборств (традиционное оружие, цигун и атлетическая гимнастика), соотношение объемов нагрузки относительно возрастных периодов для достижения спортивных результатов, создание педагогических условий для формирования творчески активной личности занимающихся. Эти стороны можно охватить, разработав модули, которые будут включать ситуации различных сторон подготовки юных спортсменов восточных единоборств.

Для повышения уровня технико-тактического мастерства юных спортсменов и развития творческого потенциала педагога высокой квалификации в условиях учебно-тренировочного процесса была разработана технология обучения с использованием модульно-ситуационного подхода, включающего следующие модули:

Модуль 1. Теоретическая подготовка. Модуль раскрывает историю возникновения восточных единоборств, знакомит с правилами гигиены, методикой проведения учебно-тренировочного процесса, закономерностями спортивной подготовки, использует обучающую методику связи педагога и обучающихся через ситуацию (информацию), т.е. передачу сообщения о наиболее эффективных способах реализации теоретического материала в ходе учебного процесса.

Модуль 2. Техническая подготовка. Модуль включает в себя методику традиционного обучения в восточных единоборствах: техники «кихон», формальных комплексов «ката» и спарринга «кумитэ». Критерии выполнения технических действий. Изучение у спортсмена свойственных ему излюбленных технических действий и воспитание коронных действий на основе исследованных повторяющихся взаимосвязей изменения динамических ситуаций в выявленных временных промежутках.

Модуль 3. Тактическая подготовка. Модуль содержит обучающую методику тактики поведения спортсмена на соревнованиях, в экстремальных ситуациях соревновательной деятельности «кумитэ» и «ката», тактические приемы ведения поединка с соперниками различного физического развития и технической подготовленности. Применение в соревновательной деятельности большого арсенала неиспользованных ситуаций.

Модуль 4. Психологическая подготовка. Модуль знакомит юных спортсменов с правилами поведения в коллективе, с психологическими средствами контроля предстартового состояния, методами мышечной релаксации. Используется методика воспитания воли, умения постоять за себя и товарищей, поведения в зале, уважения к

старшим и друг к другу. Выполняется коррекция деятельности спортсмена в напряжённых и конфликтных ситуациях, где возможно проявление сбивающих факторов.

Модуль 5. Физическая подготовка. Модуль включает методику воспитания физических качеств юных спортсменов и методику воспитания специальных физических качеств, необходимых в соревновательной деятельности, т.к. технико-тактические действия спортсменами в основном выполняются при высокой физической напряженности и утомляемости в стрессовых ситуациях.

Модуль 6. Судейская практика. Модуль содержит методику обучения занимающихся судейской жестикуляции рефери и судьи на площадке, изучение правил соревнований, принятия судейских решений, проблемных соревновательных ситуаций.

Модуль 7. Условия развития творчески активной личности. Модуль включает методику развития творческой активности личности юных спортсменов в восточных единоборствах на основе использования педагогических условий, применения проблемных ситуаций, а также создания в ходе учебно-тренировочного процесса ситуации успеха.

Заключение. Перед тренером в процессе обучения карате постоянно возникают различные задачи, связанные с воспитанием личности, совершенствованием физических качеств спортсмена, организацией спортивных тренировок. Особое значение приобретают здоровьесформирующие технологии, которые помогут более успешно освоить основы карате. В ходе педагогического эксперимента мы рассмотрели вопросы применения здоровьесформирующих технологий в учебно-тренировочном процессе юных каратистов, так же изучили документы планирования, изучили планы-конспекты учебно-тренировочных занятий по карате, чаще использовали работу в парах в основной части занятия, отработку технических элементов, обращали особое внимание на взаимное расположение партнёров и др.

Список использованной литературы

1. Белый К. В. Маневрирование в киокусинкай / К. В. Белый. - Москва: Спорт-Человек, 2020. - 200 с.
2. Бельц В. Э. Восточные единоборства как средство социализации детей в учреждениях дополнительного образования: монография / В. Э. Бельц, Ю. Т. Ревякин. - Томск: ТГАСУ, 2015. - 200 с.
3. Чочарай З. Ю. Техническая подготовка в единоборствах: Учебное пособие для вузов/Чочарай З. Ю. - К.: Изд-во Европ. ун-та, 2003. - 216 с
4. Шиндина И. В. Теория и методика физической культуры и спорта: учебное пособие / И. В. Шиндина, Е. А. Шуняева. - Саранск: МГПИ им. М.Е. Евсевьева, 2015. - 203 с
5. Тышлер Г.Д. Теория и методика формирования техники и тактики передвижений спортсменов в соревновательном пространстве и технология совершенствования приемов в многолетней тренировке, Автореф. дис. канд. пед. наук. М., 2009. - 198 с.

Qayimov Laziz Mirzo o'g'li

Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi

Email: qayimovlaziz432@gmail.com

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA MATN O'QISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH MAZMUNI

Annotatsiya. Maqolada boshlang'ich maktab yoshida o'qish ko'nikmalarini shakllantirish xususiyatlari ochib berilgan, kichik maktab o'quvchilarining muvaffaqiyati omili sifatida o'qish ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik shartlari tahlil qilingan. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik jihatlarini ochib berilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchisida to'g'ri va ravon o'qish malakasini shakllantirish bo'yicha metodik tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, o'qish, o'qish ko'nikmasi, rivojlanish, shakllantirish, ongli o'qish, ravon, texnologiya, diqqat, tahlil, xarakter.

Аннотация. В статье раскрываются особенности формирования навыков чтения в младшем школьном возрасте, анализируются педагогические условия формирования навыков чтения как фактора успешности учащихся младших классов. Раскрыты педагогические и психологические аспекты развития навыков чтения у младших школьников. Даны методические рекомендации по формированию навыков правильного и беглого чтения у учащихся начальных классов.

Ключевые слова: начальный класс, чтение, навыки чтения, развитие, формирование, осознанное чтение, беглость, техника, внимание, анализ, характер.

Abstract. The article reveals the features of the formation of reading skills at primary school age, analyzes the pedagogical conditions for the formation of reading skills as a factor in the success of primary school students. The pedagogical and psychological aspects of the development of reading skills in primary schoolchildren are revealed. Methodological recommendations are given for developing correct and fluent reading skills in primary school students.

Key words: elementary grade, reading, reading skills, development, formation, conscious reading, fluency, technique, attention, analysis, character.

Kirish. Zamonaviy tadqiqotlarning natijasiga ko'ra, boshlang'ich maktab o'quvchilarini o'qitish jarayonida bir vaqtning o'zida ham «o'qishga o'rgatish», ham «o'qish uchun o'rgatish»dan foydalanish muhim. Bu esa boshlang'ich sinf o'quvchilarni nafaqat o'qishga o'rgatish, balki maktabdagi turli fanlarni o'zlashtirish uchun xilma-xil matn va kitoblardan foydalanish muhimligini ko'rsatadi. «Bolani o'qitish jarayonida o'qish cheksiz imkoniyatlarga va uning shaxs rivojlanishidagi qudratli potensialiga ega bo'lgan holda maktabda turli fanlarini o'rganishda undan yuqori darajada foydalanish zarur. O'qish qaysi fan va qaysi sinflarda o'qitilishidan qat'iy nazar mahsulдор va samarali faoliyat turiga aylanmog'i zarur» [1].

O'qish boshlang'ich sinf o'quvchilarining aqliy faoliyatida muhim rol o'ynaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun o'qish jarayoni murakkab va uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, darslarda sabr-toqat, e'tibor va tirishqoqlikni talab qiladi. O'qilgan matnni tushunish so'zning ma'nosi bilan bog'liq bo'lgan tovush shakli asosida sodir bo'ladi. O'qishni tushunish u yoki bu ma'lumotni idrok etish xususiyati bilan belgilanadi. Shu munosabat bilan o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish muammosi boshlang'ich sinf o'quvchisining barkamol shaxsini shakllantirish uchun dolzarb va muhimdir.

Adabiyotlar tahlili. Respublikamizda o'quvchilarni o'qish va yozishga o'rgatishning ilmiy-pedagogik asoslari, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'qish motivlarini shakllantirishning psixologik xususiyatlari, boshlang'ich sinf o'quvchilarini savodga tayyorlash va ularda o'qish ko'nikmasini shakllantirish, boshlang'ich sinf o'qish darslarida muammoli ta'limdan foydalanish K.A.Abdullayeva, B.I.Ganiyeva, M.E.Inoyatova, N.S.Jo'rayev, G.A.Mamatova, U.Marasulova, S.Matchonov, I.R.Raximova, R.G'.Safarova, A.Hamroyevlarning ilmiy tadqiqotlarida o'z

ifodasini topgan. O'qish mahorati boshlang'ich maktab o'quvchilari uchun o'quv jarayonining muvaffaqiyatining eng muhim omilidir. Tadqiqotlarga qaraganda, agar o'quvchi o'qish, gapirish va yozish texnikasini puxta egallagan bo'lsa, matn o'qish darslarini yaxshi ko'rsa, maktabning boshqa fanlarini ham muvaffaqiyatli o'zlashtiradi. Hatto V. Suxomlinskiy ham ta'kidlagan edi: "O'qish - bu bolalar dunyoni va o'zlarini ko'radigan oynadir". Darhaqiqat, kitobxonlik jarayonida o'z-o'zini anglashning o'sishi, aqliy qobiliyatlarning shakllanishi, axloqiy, vatanparvarlik, estetik jihatdan kamol topadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'z-o'zini rivojlantirishga qiziqish, o'z fikrlarini to'g'ri va malakali ifodalash istagi, nutqini rivojlantirish, o'qish ko'nikmalarini shakllantirishda o'qilayotgan matnning xususiyatlarini hisobga olish kerak. Asosiysi, o'qish jarayonini yozma nutqning ma'nosiz ovozigacha kamaytirmaslikdir. Matnlarni o'qishda o'qish estetik faoliyat sifatida qaralishi kerak, chunki matn birinchi navbatda o'rganiladi.

Metodlar. O'qishni bosqichma-bosqich o'rgatish o'quvchilarning fonematik qabul qilishini, harflar bilan tanishishni, harflarni bo'g'inlarga, so'ng so'zlarga birlashtirishni, avval sodda so'zlarni, so'ng murakkab so'zlarni o'qish, va nihoyat jummalarni hamda yaxlit matnni o'qish kabilarni rivojlantirishni ko'zda tutadi. Har bir bosqich uchun qo'yilgan talabga muvofiq kelgan kitob turi zarur. Shuning uchun o'qishga o'rgatish uchun yaratilayotgan kitoblar tasnifining usullaridan biri o'qishning asosiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirish hisoblanadi: fonematik idrok, alifbo bilan tanishish, so'z boyligini kengaytirish, ravon o'qish va o'qiganni tushunish [2].

O'qishning asosiy ko'nikmalariga yordam beruvchi kitoblar

O'qishning asosiy ko'nikmasi	Kitoblar mazmuni
Fonematik idrok	Ushbu kitoblarning maqsadi – bolalarni bir tovush bilan farq qiladigan so'zlarni tanlash bo'yicha mashq qildirish, fonemik eshitishini o'stirish. Bu kitoblarda asosan so'zlardagi tovushlarga e'tibor qaratiladi. Ular o'quvchilar bilan mashg'ulotlar o'tkazish uchun mo'ljallangan. O'qituvchilar kitoblarni ovoz chiqarib o'qish paytida savollar berish orqali fonemalar differentsiatsiyasi hamda so'zning tovush tarkibini aniqlashga o'quvchilar diqqatini yo'naltiradilar.
Savodxonlikka o'rgatish, alifbo bilan tanishish, o'qishni o'rgatish	Alifbo yoki Alfavit – ilk savodxonlikka o'rgatish kitobi. Asosiy tarkibiy qism – harflar, harfiy birikmalar, bo'g'inlar, raqamlar, grammatik ma'lumotlar, bolalarga va ota-onalarga murojaat, yo'l-yo'riqlar, matniy va rasmlil materiallar, sxemalar, jadvallar. Ilk savodxonlikka o'rgatish uchun kitob bolalarni tarbiyalash, ular nutqini rivojlantirish va mantiqiy fikrlash maqsadlariga xizmat qiladi. Tarbiyalanuvchlarning axloq me'yorlari hamda kattalar va kichiklar orasidagi o'zaro munosabatlarni shakllantiradigan materialni o'z ichiga oladi.
So'z boyligini kengaytirish	Bu o'qituvchiga ma'lum bo'lgan o'quv lug'atlari, bolalar entsiklopediyalari. Shuningdek, bolalarning lug'at boyligini kengaytirish yoki grammatika va yozuvning asosiy qoidalarini mustahkamlash uchun maxsus ishlab chiqilgan kitoblar ham mavjud. Ularda yangi so'z matnga kiritiladi, matn esa sinonim, antonimlar va frazeologizmlar bilan to'ldiriladi. Kitoblarda yuqorida sanalgan so'zlar ishlatiladi, shu orqali kontekst boyitiladi, so'ngra o'quvchining so'z boyligi tematik guruhga va so'zlarni umumlashtiruvchi mavzuda o'zlashtirish uchun kiritilgan so'z hisobiga kengayadi va h.k.

Ravon o'qish	Ravon o'qishni yaxshilashga qaratilgan kitoblar. Bu kitoblar «oddiydan murakkabga qadar» tamoyili bo'yicha joylashtirilgan o'qish uchun matnlar majmuasini o'z ichiga oladi. O'quvchilar ularni o'qishlari va qayta o'qishlari mumkin (sherigi bilan o'qish paytidagi xatolarni to'g'rilash uchun bo'lishi mumkin). Ohang ustida ishlash uchun yaratilgan kitoblar dialoglardan iborat va ularning mazmuni o'quvchilarning hissiy reaksiyasini chaqirishga yo'naltirilgan. Hissiyotlar o'quvchilarga «rolga kirishga», asarlarni zarur ohang bilan, ifodali o'qishga yordam beradi.
O'qiganini tushunish	O'qiganini tushunish ko'nikmalarining adresli rivojlanishiga yordam beradigan kitoblardan foydalanish muhimdir. («O'qish uchun yaralgan») kitobining muallifi Djeysen Bug (Bug Dj, 2014) o'qishga o'rgatish jarayonida o'qiganni tushunish ko'nikmalarini qayd etilgan kitoblar yordamida o'stirishning quyidagi usullarini taklif etadi: O'quvchilar matndagi asosiy fikrlarga oid berilgan savollarga javob beradilar. O'quvchilar voqeani qayta so'zlab beradilar, jumladan asosiy tafsilotlarni va unda ifodalangan asosiy fikr va o'gitni tushunganliklarini namoyish etadilar. O'quvchilar qahramonlar, voqea o'rni va syujetning asosiy joylarini, jumladan muhim tafsilotlarni tasvirlab beradilar. O'quvchilar hikoya yoki she'rdagi kechinmalar va kitobxon hissiyotlariga munosabatlarni anglatadigan so'z va jumalarni ajrata biladilar. O'quvchilar kitoblar o'rtasidagi asosiy tafovutlarni, ya'ni qandaydir voqeani bayon qiluvchi kitoblar va faktologik ma'lumot xabarini bergan kitoblar orasidagi farqni turli tipdagi o'qilgan matnlarning keng spektriga tayangan holda tushuntiradilar. O'quvchilar hikoyaning turli qismlarini bayon qilayotgan shaxsni aniqlaydilar. Illyustratsiyalar va tafsilotlar yordamida o'quvchilar qahramonlarni, voqea o'rni va asosiy hodisalarni tasvirlab beradi. O'quvchilar hikoya qahramonlarining sarguzashtlari va kechinmalarini taqqoslaydilar va zid qo'ya oladilar. Ma'lum ko'mak va yordam orqali o'quvchilar murakkablik darajasiga ko'ra nazmiy va nasriy asarlarni o'qiydilar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari matndagi semantik ma'noni aniqlashni va o'qiganlari asosida o'z fikrlarini ifodalashni o'rganishlari kerak. Nutq faoliyati sifatida o'qishning ustuvorligi o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishga olib kelmaydi, aksincha, uni sekinlashtiradi. "O'qish mahorati murakkab psixofiziologik jarayonlardan biridir. U aqliy va nutqiy faoliyat bilan bog'liq elementlar va xususiyatlarni o'zaro bog'laydi. O'qish jarayoni o'quvchining shaxsiy fazilatlarini, uning his-tuyg'ularini, idrokini, diqqatini, tasavvurini, qobiliyatlarini, qiziqishlarini, qadriyatlarini o'z ichiga oladi. Atrofimizdagi dunyo haqida to'plangan bilimlar rivojlanadi. So'z boyligi, o'quvchining kundalik nutqi, kundalik, individual va jamoaviy muloqot shakllari jarayonida to'plangan so'zlar zairasi safarbar qilinadi, so'zlardan foydalanishning o'rganilgan modellari, fleksiyonlar va so'z shakllanishi, matn va jumalarni qurish modellari faollashtiriladi" [3]

Boshlang'ich sinf o'quvchisida o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish quyidagi xususiyatlarga ega:

- o'quvchining o'qish sohasi faqat bitta harfni qamrab oladi, uni "aniqlash" uchun uni ko'pincha boshqalar bilan taqqoslaydi; xatni o'qish o'quvchida tovushni darhol talaffuz qilish istagini uyg'otadi, lekin o'qituvchi butun bo'g'inni talaffuz qilishni so'raydi, ya'ni u kamida yana bitta harfni o'qishi kerak, oldingisini xotirasida ushlab turishi kerak, u ikki yoki uchta tovushni bo'g'inga birlashtirishi kerak. Bu yerda ko'plab o'quvchilar katta qiyinchiliklarga duch kelishadi. Axir, butun so'zni o'qish uchun faqat uni tashkil etuvchi tovushlarni takrorlash yetarli emas. O'qish jarayoni sekin kechadi, chunki so'zni o'qish uchun so'zdagi harflarga mos keladigan bir nechta idrok etish va tanib olish amallarini bajarish kerak, bundan tashqari, tovushlarni bo'g'inlarga, bo'g'inlarni so'zlarga birlashtirish kerak. Boshlang'ich sinf o'quvchining ko'zlari chiziqni yo'qotadi, chunki u orqaga qaytib, harflar va bo'g'inlarni qayta o'qishi kerak. Uning nigohi hali chiziqlarga parallel harakat qilishga odatlanmagan. Bu muammo asta-sekin yo'qoladi, chunki o'quvchining diqqat doirasi kengayadi va u bir vaqtning o'zida butun bo'g'inni yoki butun so'zni idrok etadi;

- boshlang'ich o'quvchi har doim ham o'qiyotgan matnning ma'nosini tez anglay olmaydi. O'qishning texnik tomoniga, har bir elementar harakatga katta e'tibor beriladi va so'z talaffuz qilinguncha, kichik o'quvchi uni tushunishga ulgurmaydi. Ma'noni anglash o'qish jarayonidan ajralib chiqadi, so'zning "ta'rifi" uni o'qish bilan emas, balki keyin sodir bo'ladi; Boshlang'ich maktabda ongli o'qishga katta ahamiyat beriladi. Ongli o'qish o'qituvchining rasmlari, savollari va tushuntirishlari, ko'rgazmali qurollar, matnlarni ovoz chiqarib o'qish orqali oshiriladi, chunki eshitish stimuli so'zni vizual idrok etishni to'ldiradi va uning ma'nosini tushunishga yordam beradi.

- boshlang'ich o'quvchi uchun so'zlarni birinchi bo'g'in yoki rasm, kontekst bo'yicha taxmin qilish odatiy holdir. So'zlarni taxmin qilishga urinishlar ko'pincha o'qishda xatolarga olib keladi, lekin o'quvchi ongli ravishda o'qishga intiladi. Bunday xatolar bo'g'inni bo'g'in orqali darhol o'qish, tovush-harf tahlili va sintezi bilan tuzatiladi. O'qishni o'rganishda keng tarqalgan qiyinchilik - bu tovushlarni birlashtirish qiyinligi: maktab o'quvchilari alohida tovushlarni talaffuz qiladilar, lekin bo'g'in hosil qila olmaydilar. Ovozlarni birlashtirishdagi qiyinchiliklarni yengishning eng samarali usuli bo'g'inli o'qish hisoblanadi. O'qish birligi sifatida bo'g'inga e'tibor berish o'quv jarayonida yordam beradi.

Natijalar. Boshlang'ich sinf o'quvchilari tomonidan o'qilishi mumkin bo'lgan matnni idrok etish kattalarni idrok etishdan farq qiladi va o'ziga xos xususiyatlarga ega:

- parchalanish, o'qilayotgan asarni idrok etishning yaxlitligi yo'qligi;
- umumlashtiruvchi idrokning zaifligi;
- hayotiy tajribaning yetishmasligi;
- o'quvchining amaliy faoliyati bilan aloqasi;
- ifodalangan hissiylik, empatiya;
- nutq mazmuniga qiziqishning ustunligi;
- ifodali nutq vositalarini yetarlicha tushunmaslik;
- bolani idrok etishning reproduktiv darajasining ustunligi.

Ma'lumki, boshlang'ich maktab davrida kichik maktab o'quvchilari og'zaki-mantiqiy fikrlashga o'tishadi, bu yoshda vizual-majoziy fikrlash ustunlik qiladi. Yosh o'quvchi uchun sabab-oqibat munosabatlarini o'rnatish qiyin, bu fikrlashning o'ziga xosligi bilan bog'liq; Shuning uchun bolaga vaqtinchalik aloqalarni aniqlash osonroq bo'ladi va xuddi shu sababga ko'ra bolada o'qish qobiliyatini rivojlantirishda paydo bo'ladigan qiyinchiliklar mavjud. Boshlang'ich maktab yoshida semantik xotira faol shakllana boshlaydi, matnni tushunish va fikrlashga qaratilgan ishlarni talab qiladi.

Semantik xotirani takomillashtirish tufayli o'qilayotgan asar to'g'risida tasavvur hosil bo'ladi, bu esa o'quvchiga matndagi sabab-natija munosabatlarini aniqlashga yordam beradi. Bundan tashqari, kichik maktab o'quvchilari uchun quyidagi tahlil uchun matnning alohida tarkibiy qismlarini ajratish qiyin - kerakli epizodning ma'nosini aniqlash, harakatlarni baholash va qahramonlarning xarakterini tahlil qilish va hokazo.

Xulosa. O'qish ko'nikmalarini shakllantirish jarayoni murakkab, ko'p qirrali jarayondir. Bu, birinchi navbatda, o'qilayotgan asarning ma'nosini, uning mazmunini tushunish qobiliyatini shakllantirish; to'g'ri o'qish - so'zlarni tashlab ketish, o'zgartirish, almashtirish va xatolarning oldini oladigan tarzda o'qish qobiliyati; ekspressivlik - tinish belgilarini to'g'ri intonatsiya qilish, matnga emotsionallik, jonlilik, sur'at – ma'lum bir o'qish tezligini berish qobiliyati hisoblanadi.

M.I. Omorokovaning ta'kidlashicha, boshlang'ich maktab o'quvchilarida o'qish jarayoni quyidagi rivojlanish bosqichlariga ega: bo'g'in, bo'g'in Q so'z, so'z Q bo'g'in. Birinchi bosqichda o'quvchi harfni ko'radi va uni tovushga aylantiradi. Yosh o'quvchi harflarni qanchalik yaxshi bilsa va ishonch bilan bir harfdan ikkinchisiga o'tsa, uning o'qish jarayoni tezroq davom etadi. O'qishning zaruriy usuli - bu harflarga mos keladigan tovushlarni sekin, izchil talaffuz qilishdir. [4]

Kichik maktab o'quvchisi quyidagi tartibni bajaradi: harfning grafik tasvirini tahlil qiladi, uni tovushga aylantiradi, so'zni tashkil etuvchi bo'g'inlarni ketma-ket o'qiydi, ularni so'z bilan birlashtiradi va uning ma'nosini tushunadi.

O'qish ko'nikmalarini rivojlantirish jarayoni quyidagi shartlar bilan tavsiflanadi:

- o'qish malakalarini shakllantirishda idrok, diqqat, xotira, fikrlash kabi psixologik jarayonlarning xususiyatlarini hisobga olish kerak;

- o'qish ko'nikmalari bilan birga nutq faoliyatining boshqa turlari: tinglash, yozish ko'nikmalari shakllanishi o'qish ko'nikmalarining tez shakllanishiga xizmat qiladi;

- o'qish darslari shunday tuzilishi kerakki, darsdagi ish mazmuni, shakllari va texnologiyalari kichik yoshdagi maktab o'quvchilarida faqat ijobiy motivatsiya va o'qishga va kitobga qiziqishni shakllantirishga xizmat qilishi lozim;

- o'qish malakalarini shakllantirishni faqat bitta dars – o'qish darsining maqsadi sifatidagina emas, balki boshqa darslarning maqsadlaridan biri sifatida ham ko'rish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Лемов Д. Мастерство учителя. Проверенные методики выдающихся преподавателей. – М.: Издательство «Манн, Иванов, Фербер», 2016.

2. Оморокова, М. И. Совершенствование чтения младших школьников: метод. пособие для учителя / М. И. Оморокова; М-во общ. и проф. образования РФ. - Москва: Аркти, 1997. — с.74.

3. Оморокова М.И. Совершенствование чтения младших школьников - М.: 2009., С.93.

4. Turganaliyevna J. U. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish va yodlash ko'nikmasini rivojlantirish metodikasi //Science Promotion. – 2024. – С. 113-115.

5. Avezmurodovich, O. R. (2020). Difficulties in learning to write and read left-handed children. // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8 (8), 40-45.

6. Rustambek Qo'ldoshev. Chapaqay bolalarni maktabga qanday tayyorlash kerak? Pedagogik mahorat. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal Buxoro 2020-yil, 3-son 145-147 b.

7. Azimov Y., Hamroyev A. Husnixat va uni oqitish usuliyoti (Ma'ruza matnlari). Buxoro, 2003, -52 bet.

8. Qayimov Laziz Mirzo o'g'li "Boshlang'ich sinflarda ertaklarni o'qitish asosida o'qib va tinglab tushunish malakalarini takomillashtirish" // Pedagogik mahorat ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2023, № 9.

Xatamov Boburjon Qosimjon o'g'li

“Oila va gender” ilmiy tadqiqot instituti tayanch doktoranti

xatamovboburjon@gmail.com

O'SMIRLIK DAVRIDA VIRTUAL OLAM VOSITALARI XUSUSIDA: IJTIMOIIY TARMOQLARDAN FOYDALANISH BO'YICHA KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya. O'smirlar orasida foydalanish darajasi ommalashib borayotgan va ularning ko'p vaqtlarini sarflashiga sabab bo'layotgan virtual olam vositalaridan to'g'ri, samarali va me'yorida foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish jamiyatimiz uchun zarur vazifa hisoblanadi. O'smirlarning bo'sh vaqtlarini jamiyat uchun foydali kasblarga yo'naltirishda virtual olam vositalari imkoniyatlaridan foydalanish samarali natijalarni bermoqda.

Kalit so'zlar: virtual olam, ijtimoiy tarmoqlar, o'smir, o'smirlik davri ijtimoiylashuvi, ijtimoiylashtirish, ijtimoiy tarbiya, virtual olam vositalari, hikikomori, kompyuter o'yinlari, soxta muhimlik.

Abstract. It is a necessary task for our society to form the skills of correct, effective and moderate use of the tools of the virtual world, which are becoming popular among teenagers and cause them to spend a lot of time. Using the opportunities of the virtual world in directing free time of teenagers to useful professions for society gives effective results.

Key words: virtual world, social networks, adolescent, socialization of adolescent, socialization, social education, virtual world tools, hikikomori, computer games, false importance.

Аннотация. Формирование навыков правильного, эффективного и умеренного использования инструментов виртуального мира, которые становятся популярными среди подростков и заставляют их проводить много времени, является необходимой задачей нашего общества. Использование возможностей виртуального мира в направлении свободного времени подростков на полезные для общества профессии даёт эффективные результаты.

Ключевые слова: виртуальный мир, социальные сети, подросток, социализация подростков, социализация, социальное образование, инструменты виртуального мира, хикикомори, компьютерные игры, ложная значимость.

Kirish. O'smirlik davri ko'pchilikning boshidan turli qiyinchilik va tushunmovchiliklar bilan o'tadigan shaxs rivojlanishining muhim bosqichi hisoblanadi. XXI asr hayotimizga internet va undan foydalanish vositalari: smartfon, noutbuklar keng kirib kelgan davr sifatida esda qoladi. Zamonaviy texnologiyalarni yoshi katta avloddan ko'ra yosh avlod tezroq o'rganadi va hayotida ulardan ko'proq foydalanishga harakat qiladi. Insonlarni ijtimoiylashtirishda katta o'ringa ega deb ta'riflangan virtual olam vositalari, onlayn jamiyatlar ba'zi insonlarda salbiy oqibatlarni nomoyon qildi. Ya'ni virtual olam jozibadorligi ularni haqiqiy hayot ne'matlaridan bebahra qoldira boshladi. Bu ularning ixtiyori o'laroq sodir bo'ldi. Yaponiyada va dunyoning turli hududlarida haqiqiy jamiyat bilan juda kam munosabatga kirishadigan hikikomorilar (virtual olamda faol, uyidan tashqariga juda kamdan-kam hollarda o'ta zarur bo'lgandagina chiquvchilar) toifasi vujudga keldi.

Adabiyotlar tahlili. Insonlarning xususan o'smir yoshidagilarning virtual olam vositalaridan foydalanishi yuzasidan oldin ham ko'plab ilmiy ishlar bajarilgan. Kel Nyuportning “Diqqat: chalg'ituvchi dunyoda muvaffaqiyat sirlari” nomli asari kitobxonlar orasida mashhurlikka erishgan bo'lsa. Virtual olam qaramligidan chiqishda o'zida yaxshi odatlarni shakllantirib yomon odatlardan xalos bo'lmoqchi bo'lganlar Jeyms Klirning “Atom odatlari” kitobidagi foydali maslahatlaridan ko'p foyda ko'rganlarini aytib o'tishdi. Shuningdek, Sherri Turklening virtual olam vositalari insonlarni haqiqiy hayotda o'zaro bir-biridan uzoqlashtirayotganliklarini yoritgan “Alone together” (Birgalikda yolg'izlik) asari ham ilm ommasi oldida mashhur. O'zbek olimlaridan Shayh Muhammad sodiq Muhammad Yusuf hazratlarining “Ijtimoiy odoblar” kitobida zamonaviy aloqa texnologiyalaridan qanday

foydalanish odoblari yoritilgan. Muhammadamin Yahyo tomonidan yozilgan "Internet tahdidlaridan himoya" qo'llanmasida internet foydalanuvchilari duch kelishi mumkin bo'lgan xatarlar keng yoritilganligi bilan ahamiyatli. Bolaning ijtimoiylashuv jarayonlarini o'z ilmiy ishida yoritgan N.Egamberdiyevaning ijtimoiylashuv jarayoni haqidagi ilmiy fikrlari ham ilmiy tadqiqotimiz uchun muhim. Yuqoridagi asarlarda umumiy jihatlar yoritilgan bo'lib, ulardan ushbu maqoladagi o'smirlik davrida virtual olam vositalaridan foydalanish ko'nikmalari yozishda tahlil foydalandik.

Maqsad. Inson umr davrlaridan o'smirlik davri o'ziga alohida e'tibor talab qiladi, sababi bu davrda o'smirning tanasida ruhiy va jismoniy o'zgarishlar kuchayadi. O'smirda yangi qiziqishlar, istaklar paydo bo'la boshlaydi. Ruhiy va aqliy jihatdan o'z fikriga egalik, ishlarni uddalay olish qobiliyati mavjudligi, ma'suliyatni olish ko'nikmasi, tanqidiy fikrlashning o'sishi kabilarni uchratish mumkin. O'smirlar ijtimoiylashuvida ularga ta'sir o'tkazishi mumkin bo'lgan salbiy omillardan ko'z yumib bo'lmaydi. Bunday omillar jumlasiga jinoiy guruhlar, diniy ekstrimistik guruhlar, behayolikni kasb qilib olganlar, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilar, alkogol ichimlik ichishga mukkasidan ketganlar, qimorbozlar kiradi. Virtual olam vositalarining taraqqiy etishi yuqoridagi salbiy omillarning zararini yanada urchib ketishida katalizator vazifasini bajarmoqda. Hozirgi raqamli dunyoda bunday omillarga video o'yinlar o'ynash, ijtimoiy tarmoqlarga mukkasidan ketish kabilarni ham dunyo olimlari kiritishmoqda. Sababi so'nggi 20 yilda raqamli dunyo hayotimizning bir bo'lagiga aylandi, ayrim insonlarda esa bu bo'lak ko'proqni tashkil qilib qaramlik darajasiga tushgan. Bu qaramlik turli ruhiy, aqliy va jismoniy kasalliklarga olib kelishi isbotlangan. Bugungi rivojlangan davlatlarda bu qaramlikning og'ir oqibatlarini ham ommaviy axborot vositalari orqali eshitib turibmiz. O'smirlarning bu kabi nojo'ya xatti-harakatlarga qo'shilishi ko'p jihatdan ularning yosh xususiyatlari, tajribasizliklari, xavfli vaziyatlarda to'g'ri qarorga kela olmasliklari bilan bog'liq. O'smirlik davrining o'ziga xos jihatlaridan biri boshqalarga taqlid qilish va ulardan o'rnak olishda namoyon bo'ladi. Ayni paytda o'smir atrof-muhitidagi olamning qandayligiga qarab ularning ijtimoiylashuvi salbiy yoki ijobiy bo'lishi mumkin.

Globalashuv jarayonlari, bir tomondan, o'smirlarning dunyoqarashi shakllanishiga, jahon xalqlarining etnik xususiyatlari va turmush tarzi haqida ko'proq ma'lumot olishiga xizmat qilayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, ularning bir qismida milliy qadriyatlar, milliy ma'naviyatning nisbatan kamroq o'zlashtirilishiga sabab bo'lmoqda. Bu jarayonda, ayniqsa, televideniya, internet, kompyuter o'yinlari, kinoseriallarning ta'siri kuchli bo'lmoqda.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. Virtual olam, ya'ni internet, ijtimoiy tarmoqlar va o'zaro bir-biri bilan tarmoqlar orqali ulangan video o'yinlar olami, o'smirlarning dunyoqarashi shakllanishiga, dunyo ilm-fanini oson o'zlashtirishiga, til o'rganishiga, do'stlari bilan aloqalarini saqlab qolishlarida muhim o'ringa ega bo'lsada, boshqa tomondan ularning jamiyat tomonidan o'rnatilgan umumaxloqiy me'yorlardan og'ishiga sabab bo'lmoqda. Yigirma yil avval o'smirlarning xorijiy davlatdagi tengdoshlari bilan muloqot qilishi cheklangan bo'lsa hozirgi kunda til bilgan o'smirlar uchun muloqot qilishga chegaralar qolmadi. Umumiy gaplashadigan maydonning mavjudligi, va u yerdagi akkauntni yashirish imkoniyatlari o'smirlarning xohlagan mavzuda xohlagan toifadagi insonlar bilan muloqot qilishga qulay muhit bo'lib xizmat qilmoqda. Ijtimoiylashuv jarayoni o'smirlar uchun muhim hisoblanib, virtual olamdagi ijobiy imkoniyatlar qatorida salbiy omillar o'smirlar hayotiga turlicha ta'sir qiladi. "Ijtimoiylashtirish – jamiyatning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun zarur bo'lgan namunali xulq, psixologik mexanizm, sotsial norma va qadriyatlarni o'zlashtirish jarayonidir[1]".

Tahlil va natijalar. O'smirlarning virtual olamdagi ijtimoiylashuvini xavfsizligini ta'minlashda ota-onalar bilan birgalikda ta'lim muassasidagi pedagogik jarayon boshqaruvchilari va ishtirokchilari ham interfaol pedagogik bilim, ko'nikma, malakalarga ega bo'lishlari zarur.

O'smirlik davri boshqa yosh davrlaridan shunisi bilan farq qiladiki, o'smirlik davrida bola qaysi mashg'ulot bilan ko'p shug'ullansa, qaysi faoliyatga qattiq qiziqib qolsa uning kelajakdagi kasbiga, hayotiga shu qiziqishlari bevosita ta'sir qiladi. Xattoki, yoshi ulg'ayganida ham o'smirlik davridagi qiziqqan mashg'uloti ish faoliyatiga foydali bo'lmasa ham o'sha mashg'ulot bilan

shug'ullanish holatlarini ko'rishimiz mumkin. O'smirlik davri kasb-hunar tanlash, yangi ilmlarni egallash, jamiyat bilan ijtimoiy munosabatlarga kirishishning yangi bosqichga ko'tarilishi bilan ham muhim. Shunday ijtimoiylashuv davrida o'smirlar ijtimoiy tarbiya berish jamiyat va ota-onalar oldidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi. "Ijtimoiy tarbiya – bolada ijtimoiy ahamiyatga molik fazilatlarini shakllantirish jarayoni. Ijtimoiy tarbiya jarayonida bolaga inson va jamiyat hayotiga oid axloqiy tushunchalar, qonun-qoidalar singdiriladi. Ijtimoiy tarbiya natijasida shaxsning ijtimoiylashishi tezlashadi. U ijtimoiy munosabatlarga kirishish usullarini o'zlashtiradi. Shaxsga kasb-hunar o'rgatish va umuman kishining g'oyaviy-ma'naviy qiyofasini shakllantirishga qaratilgan xatti-harakatlar jarayoni ijtimoiy tarbiyadir"[2]. Ijtimoiy pedagogika olimlari virtual olam vositalaridan foydalanish o'smirlarning ijtimoiy, aqliy, ruhiy va jismoniy rivojlanish jarayoniga foydali va zararli ta'sirini o'rganadilar. Bu tez rivojlanayotgan va o'sib borayotgan tadqiqot sohasi bo'lib, o'smirlarning ijtimoiylashuv jarayonini ijobiy o'tishiga ma'sul mutaxassislarini qiziqtiradi (masalan, yoshlar, ota-onalar, tarbiyachilar, o'qituvchilar, siyosatchilar, amaliyotchilar va texnologiya sohasi a'zolari). Hozirgi kungacha quyidagi ilmiy dalillar va fikrlar asoslangan:

Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish tabiatan yoshlar uchun foydali yoki zararli emas. O'smirlarning onlayn hayoti ko'p holatlarda ularning oflayn hayotini aks ettiradi. Yana shuni ta'kidlash kerakki, virtual olamning ta'siri o'smirlarning shaxsiy, jismoniy, ruhiy o'ziga xosliklariga hamda ular yashayotgan ijtimoiy muhitlariga bog'liq. Shuningdek, o'smirlarning virtual olamda nimalarni kuzatishi, qiziqishi, atrofida qilgan bilan virtual olamdagi qanday voqealarni muhokama qilishi, oiladagi tarbiyasi kabilarga ham bevosita bog'liq.

Quyidagi maqola dunyodagi barcha o'smirlar shu qoidalar asosida virtual olam vositalaridan foydalansa ularning virtual olam vositalaridan foydalanish kompetensiyalari shakllanishiga oz bo'lsada xizmat qiladi va ular virtual xatarlardan ma'lum darajada xavfsizlikda bo'ladi. Bu maqola o'smirlarning virtual olam vositalaridan me'yorida va samaraliroq foydalanishlarida ularga va ularning tarbiyachilariga yordam beradigan bir tahliliy, tajribaviy xulosalardir.

O'smirlik davri, balog'at yoshi kuzatilgunga qadar sodir bo'lgan biologik va ruhiy o'zgarishlardan boshlanadi (taxminan 9-10 yoshdan boshlab) va hech bo'lmaganda yoshlarning ijtimoiy muhitida keskin o'zgarishlarga qadar davom etadi (bu taxminan 15-16 yosh). Lekin ruhiy o'zgarishlar ancha kechroq yakunlanadi (taxminan 25 yoshga to'lgunga qadar). Hozirgi kunda yosh davrlarini turli olimlar va turli mintaqalar turlicha yosh chegaralari bilan tasniflashadi. O'smirlik davrini ko'pchilik olimlar 10-11 yoshdan 15-16 yoshgacha bo'lgan oraliqlarni keltirib o'tishgan. Ijtimoiy tarmoqlardan yoshiga mos ravishda foydalanish har bir o'smirlarning yetuklik darajasiga (masalan, o'z-o'zini boshqarish qobiliyatlari, intellektual rivojlanish, anglash) asoslangan bo'ladi. Ehtimoliy xavflar erta o'smirlik davrida - kech o'smirlik va erta balog'atga qaraganda ko'proq biologik, ijtimoiy va psixologik jihatdan kattaroq bo'lishi mumkin. Virtual olam turli muammolar va g'oyalarning inkubatoriga aylanishi mumkin, ya'ni u o'smirlarda mutaassiblik, boshqa din, irq, fikr egalari nisbatan toqatsizlik va nafratni kuchaytiradi. Natijada yuzaga keladigan ehtimoliy xavf, jumladan, oflayn rejimda jismoniy zo'ravonlik, shuningdek, o'smir farovonligiga tahdid soladi.

Ushbu maqolaga asos bo'lgan tadqiqot ijtimoiy, xulq-atvor, psixologik yoki pedagogik faoliyatni standartlashtirilgan baholashni tugatgan, shuningdek, muayyan virtual olam vazifalari yoki mazmuni bilan shug'ullanganligi haqida xabar bergan (yoki kuzatilgan) minglab o'smirlar bilan o'tkazildi. Biroq, bu tadqiqot kamchiliklardan holi, mukammal tadqiqot bo'ldi deb aniq ishonch bilan aytolmayman. Birinchidan, sabab-oqibat aloqalarini ko'rsatadigan topilmalar kamdan-kam uchraydi, chunki sabab-oqibat xulosalarini chiqarish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni yig'ish qiyin, sababi bunday imkoniyatlar katta texnologik kompaniyalarda mavjud bo'lib ular shaxsiy ma'lumotlar sirliqligini saqlash majburiyati sabab bu ma'lumotlarni biz kabi tadqiqotchilarga berishmaydi. Ikkinchidan, virtual olamdan foydalanish bo'yicha ko'p yillik tadqiqotlar mavjud emas; Shuning uchun o'smirlarning ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishiga oid uzoq muddatli natijalar o'rtasidagi bog'liqlik deyarli noma'lum. Uchinchidan, marginallashtirilgan yoshlar populyatsiyalari, jumladan, marginallashtirilgan irqiy, etnik, gender, ijtimoiy-iqtisodiy kelib

chiqishi, turli xil qobiliyatga ega bo'lganlar yoki nogironligi bor bolalar bilan nisbatan kam tadqiqotlar o'tkazildi. Lekin shunday bo'lsada o'tkazilgan tadqiqot natijalari bizga o'smirlarning virtual olam vositalari bilan o'zaro munosabatiga oid ko'plab foydali natijalarni berdi va ularni tahlil qilish orqali o'smirlarga va ularning ijtimoiy agentlariga foydali tavsiyalar ishlab chiqildi. Virtual olam vositalariga biz televizor, radio, ijtimoiy tarmoqlar, telefon so'zlashuvlari, elektron xabarlardan tortib virtual meta olamlar va suniy aql dasturlarigacha bo'lgan raqamli olam vositalarini keltirganmiz.

Televizor o'tkan asr elliginchi yillaridan ommalasha boshlagan va bugungi kunga qadar deyarli har bir oila xonadonida ko'rish mumkin bo'lgan texnologiya. "Televizion dasturlarni tartibsiz va surunkali ko'rish yosh bolalarni uxlash, ovqatlanish, dam olish, qolaversa, o'qish jarayonlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ko'rsatuvlarni tartibsiz ko'rish bolalarning xotirasini ham zaiflashtiradi. Ovozi balandlatib qo'yilgan televizor oldida aytilgan so'zni uning miyyasida saqlanishi yoki shunday sharoitda dars tayyorlayotgan bolaning biror mavzuni puxta o'zlashtirishi qiyin. O'smir yoshidagi bolalarning televizor ko'rish me'yori sifatida bir kunga 1,5 soat sifatida belgilangan lekin bu boshqa smartfon, gadjetlarni inobatga olmaganda[3]. Tan olib aytish kerakki, smartfon, gadjet kabi zamonaviy texnologiyalar chiqqandan keyin televizorni ko'ruvchilar soni biroz kamaygan. Ularning o'rnini o'smirlar hayotiga smartfonlar, kompyuter o'yinlari kirib keldi. Kompyuter o'yinlari – kompyuter yordamida o'ynaladigan ko'ngilochar va boshqaotirmali ermaklar. Kompyuter o'yinlari yordamida ko'p narsalarni amaliy bilib olish va amaliy tajribalar o'ttirish mumkin[4].

Ijtimoiy tarmoqlarga qaram bo'lib qolgan va do'stlari tomonidan internetsiz yashay olmaydigan odam deya nom olgan Baratunde Turston 2013-yilda yigirma besh kunga internetsiz yashab ko'rishni o'zida tajriba qilib ko'radi. U o'zining internetsiz o'tkan dastlabki haftasida haqiqiy hayot ritmiga ancha o'rganib olgan, yangiliklardan bebaxralik unchalik tashvishlantirmayotgandi. Garchi u internetda o'zining mavjudligimni ko'rsatib turmasam ham, men o'z mavjudligimni his qila boshladim" deydi u. U o'zida internetdan ta'tilga chiqish usulini sinab ko'rgan edi. Ba'zilar buni boshqacha nomlaydi masalan o'zbek blogeri Kunduziy buni "detoks" deydi va o'zida ham detoksni sinab ko'rgan videosini you tube platformasiga joylagan. Uning tajribasi o'zi kutgandan ko'ra osonroq, yaxshiroq o'tganini ta'kidlaydi va qolganlarga ham shunday detokslar qilishni maslahat beradi. Telefonimizdagi mavjud ijtimoiy tarmoqlarni oyda bir marotaba yoki uch oyda bir marotaba kam foydalanayotgan yoki oxirgi 1-2 oy foydalanmagan ilovalar va ijtimoiy tarmoqlarni o'chirib tashlash yoki telefon ekranida ko'rinmaydigan qilib arxivlash mumkin. Bu usul orqali siz telefon ekranidagi sizning muhim vaqtingizni keraksiz yoki muhim bo'lmagan ilovalardan foydalanish vaqtingizni ancha tejaydi. Qachonki sizga o'sha ilova kerak bo'lganida yana qayta o'rnatib undan kerakli ishingizda foydalanishingiz mumkin. To'g'ri bu sizdan ma'lum vaqt talab qiladi lekin siz ilovani ko'rinmas yoki o'chirish orqali uni qayta o'rnatishga ketgan vaqtingizdan ko'ra ancha ko'proq vaqtni tejagan bo'lasiz. Agar do'stlaringiz sizni tarmoqda ko'rimay qolganingiz yoki xabarlarga javob yozmayotganingizni aytib qolishsa ularga vaqtinchalik ijtimoiy tarmoqdan foydalanmayotganingizni agar muhimroq xabari bo'lsa qo'ng'iroq qilishini so'rashingiz mumkin. Do'stlaringiz yoki boshqa bir insonni sizga juda muhim xabari bo'ladigan bo'lsa sizga albatta qo'ng'iroq qiladi. Agar qo'ng'iroq qilmay ijtimoiy tarmoqda javob yozishingizni kutsa demak bu xabar juda ham muhim emas. Muhim bo'lmagan xabarlarga vaqt va diqqatingizni ketkazmaganiz yaxshi. Ijtimoiy tarmoqdan foydalanmayotganizdan ma'lum vaqt o'tgach undan foydalanmayotganingiz sizning hayotingizga salbiy ta'sir qilmagan bo'lsa o'sha tarmoqlardan butunlay voz kechishingiz mumkin. Agar siz hayotda do'stlarim nima bilan shug'ullanayotgani, nimalar haqida gaplashayotgani, shov-mediada nimalar sodir bo'layotganini bilmay qolyapman bu mening karyeram, shaxsiy rivojlanishim uchun salbiy ta'sir qilyapti deb hisoblasangiz ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishni xohlagan vaqt davom ettirishingiz mumkin. Lekin shuni unutmangki, ijtimoiy tarmoqlardagi ko'plab xabarlar bizning diqqatimiz, vaqtimizni olish hisobiga daromad ko'radi, rivojlanadi. Bizning diqqatimizni yanada ko'proq jalb qilish maqsadida ijtimoiy tarmoqlarning ofislarida ko'plab olimlar, marketologlar va boshqa bir qancha mutaxassislar jiddiy va tinmay ishlashmoqda. "Ijtimoiy medianing makkorligi shundaki, sizning

diqqatingizni o'g'irlab foyda ko'radigan kompaniyalar marketing to'ntarishi qilgan: ularning xizmatidan foydalanmasangiz, o'zingizni muhim yangilikdan quruq qolib ketyotgandek his qilishingizga erishganlar"[5]. Ijtimoiy tarmoqlardagi do'stlarim orasida men alohida muhim o'ringa egaman deb o'ylashlarining yana bir sababi ijtimoiy tarmoqlarda kimdir boshqa bironing yangi joylagan xabariga layk bossa bu keyinchalik men ha, qandaydir muhim-muhimmas xabar chiqarsam sen ham mening xabarimga men bosgan layk "qarzi"ni qaytar, menikiga ham men senikiga izoh yozgandek izoh yoz" kabi soxta almashish majburiyati bor. Bu esa soxta muhimlik hissini keltirib chiqaradi. Meni xabarlarimga shuncha odam layk bosdi, shuncha odam munosabat bildirdi demak, mening fikrlarim jamiyat uchun muhim ekan, degan soxta hayollarni tug'diradi.

Ijtimoiy tarmoqlar bu – xususiy kompaniyalar tomonidan ishlab chiqilgan, yaxshi moliyalashtirilgan, puxta marketing qilingan, shaxsiy ma'lumotlaringiz va diqqat-e'tiboringizni reklama beruvchilarga sotish uchun mo'ljallangan mahsulotdir. Ular qanchalik ko'ngilochar bo'lmasin hayotdagi sizning vazifalaringiz, majburiyatlariningizni bajarishingizga to'siq bo'luvchi, sizni samarali ishlashdan chalg'ituvchi narsalardan biridir. Bugungi kunda o'smirlarimiz "Nima ish qilasiz?" degan savolga "Maktabda o'qiyman" deb javob beradi. Lekin maktab o'smirning 8:00 dan 13:00 gacha bo'lgan 5 soat vaqtini oladi. Ana boring yo'lga va ovqatlanishga ketadigan vaqtlar bilan 8 soat vaqtlarini oladi. Agar ota-onalar farzandlarini qo'shimcha to'garaklarga bergan bo'lsalar yaxshi lekin hamma ota-onalarning ham qo'shimcha to'garaklarga mablag'lari yetmaydi yoki bolalarining bo'sh vaqtlariga befarq. Qolgan 16 soatda o'smirning nimalar bilan shug'ullanayotganini nazorat qilish o'smirlarning kelajakda qanday shaxs bo'lib shakllanishlarida muhim o'ringa ega. Ularni nazorat qilish uchun ularga gapi o'tadigan nazoratchi bo'lishi muhim. Bugungi kunda ko'plab o'smirlarimizning ota-onalari ertalabdan kechgacha band. Zero jadid allomamiz bejiz "farzand tarbiyasiga loqayd qaragan millat inqirozga mahkumdur. Ularni begona qo'llar va begona madaniyatga taslim etganlar o'zini yo'qotishga mahkumdur. Bugungi kunda tuzumning yuzi qoralari hisoblangan zolimlar, aroqxo'rlar, buzuqlar, bangilar, isyonkorlar kechagi kunda tarbiyasiga beparvo qaralgan bolalardir[6]" deb aytmagan. Tariximizdan ma'lumki, milliy qadriyatlarimizda ayollarimiz ko'proq uyda farzand tarbiyasi bilan mashg'ul bo'lishgan. Ishlasalar ham uyda yoki bolalarini nazorat qila olish imkoni bo'lgan yengil ishlarda ishlashgan. Otalarning asosiy majburiyati esa oilaning moddiy ta'minoti uchun mas'ul, ishdan kelganida farzandlarining tarbiyasida onaga yordam beruvchi, bolalarini ham erkalovchi, vazifalarni bajarganlarni mukofotlovchi, sho'xlik qilgan, vazifalarni bajarmagan, onasini qiynaganlarga nasihat qiluvchi ba'zan jazolovchi rolida bo'lgan. Uydagi bolalar onalar tomonidan onasidan ham ko'ra otasidan ko'proq hayiqib turadigan qilib tarbiyalangan. Bugungi kunda jamiyatimizga aynan farzandlarining kelajagi uchun ko'p moddiy yetishmovchiliklarga sabr qiluvchi onalar; oilaning moddiy ta'minotini ta'minlaydigan otalar yetishmayotganini kuzatish mumkin.

"Ota-onangiz sizning virtual olamdan foydalanishingizni nazorat qiladimi?" degan savolga 90 foiz respondent "ha" deb javob bergan. Bu natija bir qarashda odamni quvontirsa, lekin chuqurroq o'ylab ko'rilsa boshqa fikrga ham kelish mumkin. Xo'p, 90 foiz ota-onalar o'z farzandlarini nazorat qilishsa yuqorida biz tahlil qilgan virtual olamda ko'p vaqt sarflayotganlar, begonalar bilan gaplashayotganlar haqida bu ota-onalar biladimi? Bilsa nega bunchalik ko'p foydalanishiga erkin qo'yib berishgan? Demak, ota-ona nazorat qilishining sifati muhim ekan. Ba'zi o'smirlar bu nazorat qilish haqida noto'g'ri tushungan bo'lishlari ham mumkin. Ular haftada bir marotaba telefonini olib tekshirib ko'rishni nazorat qilish deb tushunishmoqda.

"Agar nazorat qilishsa qay tarzda, qaysi mobil dasturlardan yoki shunga o'xshash texnologiyalardan foydalanadi (Misol uchun: "ota-ona nazorati", "Microsoft family", "google family", "digital safety", my hour yoki smartfon sozlamalaridan)" deb berilgan savolga 60 foiz respondent aniq bir dasturni yozmagan bu esa ularning ota-onalari tomonidan bunday dasturlar yordamida nazorat qilinmasligi, ota-onalarning bunday dasturlar haqida xabarlari yo'qligi ma'lum bo'ladi. 20 foiz respondent ota-onalarini telefonlarini qo'lga olib tekshirishlarini aytgan bo'lsa, 20 foizi smartfon va dastur sozlamalaridan deb javob berishgan. Bu yerda ota-onalar tomonidan bolalarni nazorat qilishning samarali usuli zamonaviy dasturlardan foydalanish va qo'lga olib tekshirishdir. Shuningdek, smartfonga ekrandan foydalanishga cheklov o'rnatib qo'yishdir. Biz bu

savol bilan ota-onalar bolalarining virtual olamdagi faoliyatini nazorat qilyaptimi degan savolimizni tekshirish uchun qo'ygan edik va kutgan natijamizni berdi. Haqiqatda bugungi kunda ko'pchilik ota-onalar o'smir farzandlarini qanday zamonaviy texnologiyalar yordamida nazorat qilish yo'llarini bilishmayapti. Faqat aksar, o'z farzandi kelajagiga befarq bo'lmagan, alohida e'tibor va mablag' ajratadigan asosan yosh ota-onalar farznadini o'smir yoshida nazorat qilishmoqda.

O'smirlarning maktab o'qishi vaqtidan boshqa vaqtlarni mazmunli, manfaatli mashg'ulotlar bilan to'ldirolmayotganimiz bizning barchamizning aybimiz. Bizga turli boshog'riqlar tug'diradigan ko'cha o'yinlaridan ko'ra uyda ekran qarshisida o'yin o'ynab vaqt o'tkazadigan, tinch bola bizning ishdan bo'sh vaqtimizni virtual olamda o'tkazishimiz uchun qulay. Zamonaviy texnologiyalarning insonga ta'sirini o'rganuvchi Sh.Turkle aytganidak "endi kompyuter, aqlga aylanish chegarasida turgan mashina, bizni o'zgartirmoqda, shakllantirmoqda" [7]. O'smirlarning va o'zimizning ham bo'sh vaqtlarimizni haqiqatda foydali mashg'ulotlar bilan band qilishimiz virtual olam qaramligidan, diqqatimiz bo'linuvchanligidan, xotiramiz sustligidan, muvaffaqiyatsizliklarimizni muvaffaqiyatli qilishimizda katta o'ringa ega. Maktabdan keyin qo'shimcha fan to'garaklari uyga kelib fanlardan uyga vazifa tayyorlash va yana kitob o'qish yoki qandaydir aqliy faoliyat bilan doimiy band bo'lish bolani "jinni" yoki kasal qilib qo'ymaydi faqat oraliq vaqtlarda ko'z va bir xil o'tirishdan toliqqan qomatga dam berish boshqa harakatli mashg'ulot bilan chalg'ishning o'zi yetarli. Bir aqliy mehnatni davomiy qilish o'sha ish samaradorligini oshirishi isbotlangan.

Xulosa. O'smirlar orasida foydalanish darajasi ommalashib borayotgan va ularning ko'p vaqtlarini sarflashiga sabab bo'layotgan virtual olam vositalaridan to'g'ri, samarali va me'yorida foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish jamiyatimiz uchun zarur vazifa hisoblanadi. O'smirlarning bo'sh vaqtlarini jamiyat uchun foydali kasblarga yo'naltirishda virtual olam vositalari imkoniyatlaridan foydalanish samarali natijalarni bermoqda. Dunyoda virtual olam qaramligi ta'sirida hikikomorilar toifasi shakllangani ma'lum, bizda ham hikikomorilar kabi ijtimoiy hayotdan uzilib qolgan yoshlar paydo bo'lishini oldini olishda virtual olam vositalaridan me'yorida foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish muhimligi e'tirof etildi. O'smirning o'zi, oilasi, jamiyat uchun foydali mashg'ulotlar bilan shug'ullanishida oiladagi ijtimoiy agentlarning xususan onaning o'rni alohida ekanligi ta'kidlandi. Qolaversa o'smirlarning virtual olamdan samarali foydalanishlarini nazorat qilishning eng samarali yo'li bu oiladagi ijtimoiy agentlar ekanligi ilmiy tadqiqotimiz davomida isbotlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Egamberdiyeva N.M. "Madaniy-insonparvarlik yondashuv asosida talabalarni shaxsiy hamda kasbiy ijtimoiylashtirish nazariyasi va amaliyoti. Ped.f.dokt. diss.avt. – Toshkent: 2010, - b.18
2. Aminov M.N., "Tarbiya" T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi 2010. -156-b
3. Aminov M.N., "Tarbiya" T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi 2010. -413-b
4. Aminov M.N., "Tarbiya" T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi 2010. -226-b
5. Nyuport K., Diqqat: chalg'ituvchi dunyoda muvaffaqiyat sirlari. T.: Toshkent. "Nihol" 2020-y. 180-b
6. Akmal Miravaz "Tarbiyaning oltin kaliti" Toshkent: Movarounnahr, 2020. 4-bet
7. Turkle SH., Alone together New York: Basic Books, 2011. 11-bet.

Muxlisov Sodiqjon Saidjonovich

Buxoro davlat universiteti "Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalar
Kafedrası" dotsenti, (PhD)

INNOVATSION RIVOJLANISH DAVRIDA INFORMATIKA O'QITUVCHILARIDA TASHKILIY-PEDAGOGIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada innovatsion rivojlanish davrida informatika o'qituvchilarida tashkiliy-pedagogik kompetentlikni rivojlantirish xususiyatlari o'rganilgan. Shuningdek, informatika o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi, kompyuter texnologiyalaridan ta'lim-tarbiya jarayonida samarali foydalanishning asosiy tushunchalari keltirib o'tilgan. Bundan tashqari innovatsion rivojlanish davrida informatika o'qituvchilarining pedagogik kompetentligi ilmiy nazariy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: kompetentlik, motivatsiya tizimlashtirish, ta'lim-tarbiya, kommunikatsiya, motiv.

Аннотация. В данной статье исследуются особенности развития организационно-педагогической компетентности учителей информатики в период инновационного развития. Также рассматриваются вопросы профессиональной подготовки учителей информатики, основные концепции эффективного использования компьютерных технологий в образовательном процессе. Кроме того, в период инновационного развития был проведён научно-теоретический анализ педагогической компетентности учителей информатики

Ключевые слова: компетентность, мотивация систематизация, воспитание, общение, мотив.

Abstract. This article explores the features of the development of organizational and pedagogical competence in Informatics teachers during the period of innovative development. Also cited are the professional training of computer science teachers, the basic concepts of the effective use of computer technology in the educational process. In addition, during the period of innovative development, the pedagogical competence of Informatics teachers was analyzed scientifically theoretically.

Key words: competence, motivation systematization, education, communication, motivation.

Kirish. So'nggi yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini davlat boshqaruvi va davlat xizmatlari ko'rsatishning barcha sohalariga joriy etish bo'yicha bosqichma-bosqich o'tkazilayotgan islohotlar axborot xizmatlarini ilgari surish, "elektron hukumat" tizimini rivojlantirish va amalga oshirish, xalq bilan muloqot qilish va aholining kundalik muammolarini joylarda o'z vaqtida hal qilishning samarali mexanizmlarini yaratish, AKTdan foydalanishga asoslangan iqtisodiyotning yuqori texnologik tarmoqlarini shakllantirish va faol rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish, axborot texnologiyalari mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar va buyurtmachilariga qo'shimcha imtiyozlar va preferensiyalar berish hisobiga ushbu tarmoqda ilmfan, ta'lim va ishlab chiqarishning integratsiyalashuvini yanada chuqurlashtirish[2] kabi maqsadlarning belgilanishi informatika o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligi mazmunini tadqiq etishning muhimligini ifodalaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi"da informatika o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi, ularda tashkiliy-pedagogik kompetentlikni rivojlantirish bilan bog'liq quyidagi strategik maqsadlar belgilab berilganligini ko'rishimiz mumkin:

mamlakatni modernizatsiya qilish, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, inson kapitalini mehnat bozori talablari asosida rivojlantirish;

oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish;

sohada sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, uning jozibadorligini oshirish, jahon miqyosidagi raqobatbardoshligini ta'minlash [1].

Adabiyotlar tahlili. Informatika o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi, kompyuter texnologiyalaridan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish, axborot xavfsizligini ta'minlash, ta'lim jarayonlarini axborotlashtirish, ta'limda elektron axborot resurslarni yaratish, mediakompetentlik, moslashuvchi WEB tizimlarni yaratishning ilmiy-nazariy asoslari D.Abduraximova, D.Abduraximov, A.Abdugodirov, M.Aripov, A.Ashirova, S.Babadjanov, U.Begimqulov M.R.Fayziyevlar tomonidan tadqiqotlarida informatika o'qituvchisining kasbiy, metodik tayyorgarligi, pedagogik shart-sharoitlari, informatika o'qituvchisining kasbiy, maxsus-texnologik, tashkiliy-pedagogik kompetentligi hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari kompetensiyalarining xususiyatlari yoritib berilgan.

D.B.Abduraximovning "Kasb-hunar kollejlarda informatikani ta'lim turlari aloqadorligida o'qitish metodikasi" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida kichik mutaxassislarining malakasini oshirishda informatika sohasida internet va masofaviy ta'lim asosida o'qitish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan[5].

M.E.Mamarajabovning "Kasb-hunar kollejlarda informatika fanining "Amaliy dasturiy ta'minoti" bo'limi mazmuni va o'qitish metodikasi (Excel va Power Point dasturlari misolida)" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiya ishida kasb-hunar kollejlarda informatika fanida "Excel va Power Point dasturlari" mavzularini o'qitish metodikasi va "Excel dasturi" mavzusiga oid elektron darslikdan tashkil topgan yangi avlod o'quv metodik materiallar majmuasi ishlab chiqilganligini ko'rishimiz mumkin.

U.Sh.Begimqulovning "Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida respublikamizda internet tizimidagi pedagogik ta'limning axborot-ta'lim resurslarini jamlash, tizimlashtirish, saqlash va yetkazishga qaratilgan www.pedagog.uz portali yaratish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.[6].

M.R.Fayziyevaning "O'quv jarayoniga moslashuvchi Web tizimlarni yaratish" mavzusidagi pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya ishida integrallashgan axborot-ta'lim ta'minotini amalga oshirishga qaratilgan zamonaviy Web texnologiyalarga asoslangan o'quv jarayoniga moslashuvchi Web tizim dasturi ta'minoti va Web dasturlash fanining takomillashgan mazmuni asosida elektron axborot-ta'lim resurslari yaratilgan. [10].

Mualliflar A.Abdugodirov va N.Taylaqovlar tomonidan taqdim etilgan "Informatika va axborot texnologiyalari" 9-sinf darsligida esa, axborot texnologiyalarning ta'lim amaliyotiga joriy etilishi naqadar dolzarb ahamiyat kasb etayotganligini ko'rish mumkin.

O.Davlatovning "Talabalarda axborot xavfsizligini ta'minlash kompetentligini tarixiy-madaniy meros vositasida rivojlantirish" nomli tadqiqot ishida "Axborot xavfsizligini ta'minlash eng avvalo, turli axborot manbalaridagi ma'lumotlarni tahlil etish, baholash va zararli axborotlarni aniqlash, talabalarni zararli axborotlar tahdididan o'z-o'zini va jamiyat a'zolarini himoya qilish, ularga qarshi kurashishga tayyorlashni talab etadi"[9] degan xulosa berilgan.

S.Gulyamov va A.Shermuhamedovlar tomonidan "O'zbekistonda masofaviy ta'limning rivojlanishi" maqolasida O'zbekistondagi dastlabki masofaviy ta'limning tashkil etilishi va bu boradagi qiyinchiliklar yutuqlar va oldindagi vazifalar xususida so'z yuritilgan[11].

F.Zokirovaning 2007-yilda "Informatika va ta'lim" jurnalida e'lon qilingan "AKT muhitida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash" maqolasida talabalarni kasbiy tayyorgarligini oshirishda axborot kommunikatsiya texnologiyalarning o'rni va ahamiyati yoritilgan.

O'.Q.Tolipovning "Oliy pedagogik ta'lim tizimida umummehnat va kasbiy ko'nikma hamda malakalarni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari" nomli monografiyasida kasbiy

tayyorgarlik mazmuniga quyidagicha to'xtalib o'tadi. Kasbiy tayyorgarlik mutaxassisning butun faoliyati davomida ma'naviy-axloqiy hamda kasbiy sifatlarining yanada takomillashishi hamda kasbiy kompetentlikning shakllanishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar darajasini ifodalaydi va ushbu jarayon o'qituvchilarni tayyorlashga nisbatan quyidagi innovatsion yondashuvlarni talab etadi:

- mehnat bozori talablari hamda ilm-fan, texnika, texnologiya va iqtisodiyotning eng so'nggi yutuqlari asosida uzviy ravishda takomillashtirilib turiladigan kasbiy ta'lim dasturlarini yaratish;
- uzluksiz ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish orasidagi o'zaro mustahkam integratsiyani yo'lga qo'yish;
- ta'lim muassasalarini zamonaviy moddiy-texnik baza va o'quv-uslubiy adabiyotlar bilan ta'minlash;
- oliy ta'lim tizimiga yuqori malakali o'qituvchi, metodist va muhandis pedagoglarni jalb etish;
- o'qituvchilarning bilish faolligi, kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish, shuningdek, ularda faol kasbiy motivatsiyani qaror toptirish;
- oliy ta'lim muassasalari o'quv amaliyotiga innovatsion o'qitish texnologiyalarini keng tatbiq etish zaruriy omillardan hisoblanadi.

Tahlil va muhokamalar. Pedagogik-psixologik adabiyotlar tahlili asosida informatika o'qituvchisining kasbiy faoliyati va kasbiy tayyorgarligi mazmunini quyidagicha izohlashimiz mumkin: informatika o'qituvchisining kasbiy faoliyati mutaxassisning malakasi va ta'lim darajasini o'zida namoyon etib, iqtisodiy, sotsiologik kasbiy faoliyatning psixologik tomoni va axloqiy jihatlarni nazarda tutsa, kasbiy tayyorgarligi zaruriy kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish asosida yuzaga keluvchi shaxs ijtimoiy kompetentligining o'ziga xos ko'rinishi. Shuningdek, mutaxassisning faoliyati davomida ma'naviy-axloqiy hamda kasbiy sifatlarining yanada takomillashishi, kasbiy kompetentligining shakllanishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar darajasi hamda informatika o'qituvchisining psixologik, psixofiziologik, jismoniy hamda ilmiy-nazariy-amaliy tayyorgarligini ifodalaydi.

1-jadval.

Informatika o'qituvchilarda tashkiliy-pedagogik kompetentlikni rivojlanganlik darajasini aniqlovchi metodik vositalar

№	Komponentlar	Metodik vositalar
1.	Motivatsion-maqсадli	1. Kasbiy motivatsiyani aniqlash metodikasi 2. "O'quv motivatsiyasining yo'nalganligini tashxis qilish" metodikasi
2.	Kognitiv-metodik	Test topshirig'i
3.	Kommunikativ	1. "Muloqotchanlikning umumiy darajasini aniqlash" so'rovnoma
4.	Tashkiliy-faoliyatli	1. "Shaxsning kommunikativ va tashkilotchilik moyilliklari diagnostikasi" metodikasi

Tashkiliy-pedagogik kompetentlikning rivojlanganlik darajasini aniqlashga doir pedagogik va psixologik so'rovnoma, metodikalar pedagogik jarayondagi o'qituvchi va ta'lim oluvchi munosabatlarining tashkiliy-pedagogik jihatlari, tashkiliy-pedagogik kompetentligi rivojlangan informatika o'qituvchisi qanday sifatlariga egaligi, ushbu sifatlarining roli, shuningdek, informatika o'qituvchilarining ta'limiy va tashkiliy ko'nikmalariga egaliklarini tashxislashda alohida ahamiyatga egadir.

Sinaluvchilar guruhida tashkiliy-pedagogik kompetentlikni rivojlantirishning amaliy ahamiyatini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlari tashkil etildi va talaba-respondentlar guruhida

tanlab olingan diagnostik vositalar o'tkazildi, natijalar son va sifat jihatdan tahlil qilindi informatika o'qituvchilarda tashkiliy-pedagogik kompetentlikning mavjud holatini aniqlash yuzasidan o'tkazilgan pedagogik-psixologik so'rovnoma, metodikalar natijalariga ko'ra, tashkiliy-pedagogik kompetentlikning minimal (past), standart (o'rta), maksimal (yuqori) darajalari aniqlandi.

Xulosa. Tadqiqot ishimizning "Innovatsion rivojlanish davrida informatika o'qituvchilarida tashkiliy-pedagogik kompetentlikni rivojlantirish xususiyatlari" bo'yicha quyidagi xulosaga kelindi: Pedagogik-psixologik adabiyotlar tahlili asosida informatika o'qituvchisining kasbiy faoliyati va kasbiy tayyorgarligi mazmunini quyidagicha izohlashimiz mumkin: informatika o'qituvchisining kasbiy faoliyati mutaxassisning malakasi va ta'lim darajasini o'zida namoyon etib, iqtisodiy, sotsiologik kasbiy faoliyatning psixologik tomoni va axloqiy jihatlarni nazarda tutsa, kasbiy tayyorgarligi zaruriy kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish asosida yuzaga keluvchi shaxs ijtimoiy kompetentligining o'ziga xos ko'rinishi bo'lib, mutaxassisning butun faoliyati davomida ma'naviy-axloqiy hamda kasbiy sifatlarining yanada takomillashishi, kasbiy kompetentlikning shakllanishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar darajasini ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30-iyundagi "Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5099-son Farmoni.
3. Abdullayeva Q.M. "Maxsus fanlarni o'qitishda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini shakllantirishning metodik asoslari": Ped. fan. nomz. ... Dis. – T., 2006. – 137 b.
4. Абдукодиров А.А. Теория и практика интенсификации подготовки учителей физика-математических дисциплин: Аспект использования компьютерных средств в учебно-воспитательном процессе: дисс..док..пед..наук: 13.00.01 / Ташкент. гос. пед. ин-т им Низами. – Ташкент, 1990. – С. 360
5. Abduraximov D.B. Kasb-hunar kollejlari informatikani ta'lim turlari aloqadorligida o'qitish metodikasi // Ped. fan. nom.dis. avtoref - Toshkent: Nizomiy nomdagi TDPU. 2007. -24 b.
6. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti: Ped.fan.dok. ... diss. – T.: 2007. – B. 305. – 38 b.
7. Бирюкова, Т.И. Формирование личностных компетентностей студентов медицинского ВУЗа в процессе изучения иностранного языка [Текст]: дис.канд.пед. наук / Т.И.Бирюкова. - Ставропол, 2008. – Стр 113-114.
8. Бабанский Й.К. Личностный фактор оптимизации обучения, // Вопросы психологии, 1984, N21. стр – 51-57.

Sharopov Mirjon Nurxon o'g'li
Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

TALABALARNI TEXNIK IJODKORLIK FAOLIYATIDA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarni axborot ta'lim muhitida texnik ijodkorlik faoliyatida tayyorlash metodikasini takomillashtirish chora tadbirlari ochib berilgan. Texnik ijodkorlik jarayonida o'quvchilar o'zlarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, innovatsiya va ixtiro asoslari bilan tanishish, ijodiy muammolarni hal qilish usullari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Texnik ijodkorlik, texnik fikrlash, konstruktorlik texnologik faoliyat, texnologik vazifalar, intellekt, qobiliyat, faoliyat, metodika.

Аннотация. В данной статье раскрыты мероприятия по совершенствованию методики подготовки студентов к технической творческой деятельности в информационной образовательной среде. В процессе технического творчества учащиеся развивают свои творческие способности, знакомятся с основами новаторства и изобретательства, рассказывают о методах решения творческих задач.

Ключевые слова: техническое творчество, техническое мышление, конструкторская, технологическая деятельность, технологические задачи, интеллект, способности, деятельность, методика.

Abstract. This article reveals measures to improve the methodology of preparing students in the activities of technical creativity in the information educational environment. In the process of technical creativity, students talk about the development of their creative abilities, acquaintance with the basics of innovation and invention, ways to solve creative problems.

Key words: technical creativity, technical thinking, constructorstechnological activity, technological tasks, intellect, ability, activity, methodology.

Kirish. Jahon miqyosida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash, ularni ta'lim tizimlariga muvaffaqiyatli integratsiyalashuviga hissa qo'shadigan omillar va imkoniyatlarni o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Turli xalqaro tashkilotlar, jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Axborot jamiyati bo'yicha Butunjahon sammitining (WSIS forumi) tashkil etilishi, ushbu sammitda axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga oid muammolarni hal qilish, axborot jamiyatini qurish bo'yicha umumiy qarash, istak va majburiyatga erishish mazmunidagi maqsadlarning belgilanishi axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish, soha mutaxassislaridan bo'lgan informatika o'qituvchilarini tayyorlash, ularni tashkiliy-pedagogik va kasbiy jihatdan yetuk shaxs etib shakllantirishning ahamiyatligini ham aks ettiradi.

Adabiyotlar tahlili. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlaridan O.Jigalova, V.Koropovskaya, V.Kotenko, G.Kruchinina, A.Kurbatskiy, M.Lebedeva, N.Listopad, N.Nurmagomedova, A.Pimenova, O.Sadikova, V.Suranov, T.Sepik, N.Tolstova, I.Falina, T.Shastun kabilarning tadqiqotlarida kasbiy ijodkorlik, metodik tayyorgarligi, pedagogik shart-sharoitlari, talabalarning, maxsus-texnologik, tashkiliy-pedagogik kompetentligi hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari kompetensiyalarining xususiyatlari yoritib berilgan.

Xorij olimlaridan G.Eysenck, A.Binet, F.Galton, J.P.Gilford, R.B.Kettell, J.Locke, K.Perlet, J.Piaget, J.Renzulli, C.Spearman, R.Sternberg, L.L.Thurstone, K.Heller va boshqalar tomonidan talabalar iqtidorning ko'p faktorli murakkab psixologik tuzilmasi masalalari ilmiy tadqiq etilgan.

Talabalarni ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga AK va raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish muhim o'rin tutadi. Talabalarning ijodkorlik faoliyatini rivojlantirish – bu, birinchi navbatda, faoliyatga ijodiy munosabatni rivojlantirish bilan uzviy bog'liqdir. Ijodkorlik mehnatga ijodiy munosabat jarayoni bilan integrativ yo'naltirilgan bo'lib, talabalarni shaxsiy va kasbiy sifatlarni tarkib toptiradi, bunda qat'iyatlilik, kreativlik, kognitivlik, tashabbuskorlik, mustaqillik kabi fazilatlar tarkib topib boradi. Shu o'rinda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Bizning

asosiy maqsadimiz – yoshlarning sifatli ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lishiga erishish, ularning o'z qobiliyati va iste'dodini ro'yobga chiqarish uchun barcha zarur sharoitlarni yaratib berishdan iborat", – degan fikrlari o'rindir.

Ixtirochilik ijodkorligini amalga oshirishda kompyuterlarni qo'llashning shakl va usullarini belgilashda, avvalo ular yordamida talabani ixtiro qilishni emas, balki yangi texnik yechimni yaratishdagi axborotlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish va uni amalga oshirishning samarali yo'llarini ishlab chiqishda foydalanishni e'tiborga olish lozim. Bundan kelib chiqqan holda ixtirochilik ijodkorligini takomillashtirishdagi vazifalar tahlili asosida, bu jarayonda kompyuterlarni qo'llashning quyidagi asosiy yo'nalishlarga amal qilinadi:

1. Ta'lim jarayonini aniq masalalarini hal qilishga yordam beruvchi didaktik vosita sifatida.
2. Talabalar ilmiy-texnik ijodkorligining axborot bilan ta'minlanganlik darajasini oshirishga xizmat qiluvchi didaktik vosita sifatida.
3. O'qituvchilarni tayyorlashda politexnik yo'nalishni amalga oshirishni ta'minlovchi vosita sifatida.

Ixtirochilik ijodkorligini shakllantirishning asosi sifatida kompyuterlar vositasida amalga oshiriladigan dasturlashtirilgan ta'lim metodidan foydalandik. Bunga ko'ra talabalar ixtirochilik ijodkorligiga oid bilimlarini kompyuter axborot kadrlari orqali o'rganadilar va operatsion kadrlar vositasida sinab ko'radilar. Dasturlashtirilgan ta'limni amalga oshirishda kompyuterlardan foydalanishning yana bir afzalligi test savoliga noto'g'ri javob berilgan holda, talabada ishlab chiqilgan bilimlar bankidan qo'shimcha ma'lumotlar olib vazifani bajarishga qayta kirishish imkoniyatining mavjudligidir. Bundan tashqari, displeyda shaklni chizishni mustaqil bajarish talabani chizmachilik elementlari, masshtab, o'lcham, koordinata to'g'risidagi tushunchalarni mukammal o'zlashtirishiga xizmat qiladi. Ixtirochilik ijodkorligini amalga oshirishdagi asosiy vazifalardan biri axborotlarni topish va qayta ishlash bilan bog'liq bo'lganligi sababli kompyuterlarning axborot bilan ta'minlovchi didaktik vosita sifatida qo'llanishi alohida dolzarblik kasb etadi. Ma'lumki, kompyuterlar axborotlarni yig'uvchi, saqlovchi va uzatuvchi qurilma sifatida ishlaydi. Ma'lumotlar talab darajasida qayta ishlanib, hajm jihatidan qanchalik keng, aniq, asosli va foydalanish uchun qulay shaklga keltirilsa, ilmiy imkoniyatlardan foydalanish samaradorligi va erishiladigan ijodiy yutuqlar soni hain ortib boradi. Bu boradagi kompyuterlar imkoniyatlaridan to'laroq foydalanish maqsadida talabalar ixtirochilik ijodkorligini amalga oshirishning avtomatlashtirilgan o'quv-axborot tizimini ishlab chiqdik va joriy qildik.

Iste'dod muammosi keng ko'lamdagi psixologik-pedagogik tadqiqot predmeti sifatida ko'plab tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Ushbu muammo bir necha jabhalarda o'rganilgan bo'lsa ham psixikaning muntazam rivojlanib borishi sababli ushbu mavzuni tadqiq qilish hamda o'rganishga doimo ehtiyoj sezilaveradi. Shuningdek, tajribalar shuni ko'rsatdiki, biror sohaga tegishli iste'dodlarga ega odamlar ushbu soha uchun zarur bo'lgan bilim ko'nikma va malakalarni osongina o'zlashtiradilar hamda olingan natijalar samaradorligi bilan boshqalardan farq qiladilar. Insondagi mavjud iste'dod uning hayoti va faoliyatida muhim rol o'ynaydi hamda uni qaysi faoliyat sohasi uchun ko'proq mos kelishini aytishga imkon beradi. Lekin, qobiliyat bilim, ko'nikma yoki malaka emas, chunki, jamiyatda biror natijaga erishmagan uquvsiz deb baholangan insonlar keyinchalik biron-bir sohaning yetakchi mutaxassisi sifatida elga tanilishi, yuqori lavozimni egallashi, tadbirkor shaxs sifatida kamol topishi hodisasi tajribada ko'p uchraydi. Shu sababdan, bilim, ko'nikma va malakalarni egallash jarayonida qobiliyatlar namoyon bo'lsa-da, biroq ular bir-biriga bevosita taalluqli emas. Bilim ko'nikma, malakalar insonni o'z ustida tinmay ishlashi va mashq qilish natijasida egallanadigan aniq voqelik, deb tasavvur qilinsa, qobiliyatlar shaxsning hali ro'yobga chiqmagan ichki imkoniyatlari(layoqatlar) sifatida namoyon bo'ladi.

Tahlil. Robert Sternberg, aql-idrok, ijodkorlik va ta'lim psixologiyasi bo'yicha tadqiqotlari bilan tanilgan taniqli psixolog, tadqiqotlar orqali talabalarni texnik ijodkorlik faoliyatiga tayyorlashning pedagogik va psixologik xususiyatlarini tushunishga katta hissa qo'shdi: [7]

Aqlning triarxik nazariyasi: Sternbergning triarxik nazariyasi aqlning uchta jihatini taklif qiladi: analitik, ijodiy va amaliy. Texnik ijodkorlik sharoitida ijodiy komponent ayniqsa

dolzarbdir, chunki u texnik sohalarda zarur bo'lgan yangi g'oyalar va yechimlarni yaratishni o'z ichiga oladi. Muvaffaqiyatli razvedka nazariyasi: sternbergning muvaffaqiyatli razvedka nazariyasi hayotda muvaffaqiyatga erishish uchun analitik, ijodiy va amaliy qobiliyatlarning birlashishini ta'kidlaydi. Ushbu yaxlit yondashuv shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilar talabalarni texnik ijodkorlikka samarali tayyorlash uchun barcha uchta komponentni rivojlantirishlari kerak.

Amaliy intellekt: Sternbergning amaliy intellekt kontsepsiyasi atrof-muhitga moslashish va bilimlarni real sharoitlarda samarali qo'llash qobiliyatiga qaratilgan. Texnik ijodkorlikda amaliy intellekt nazariy bilimlarni amaliy muammolarni hal qilish va innovatsiyalar uchun qo'llashda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Kontekstli ta'lim: Sternberg talabalar hayoti va kelajakdagi martaba uchun mazmunli va dolzarb bo'lgan o'quv muhitining muhimligini ta'kidlaydi. Texnik ijodkorlik uchun bu amaliy o'rganish, hamkorlik qilish va bilimlarni real hayotga tatbiq etish imkoniyatlarini taqdim etishni anglatadi.

Muammolarni hal qilish qobiliyatlari: sternbergning muammolarni hal qilish qobiliyatlari bo'yicha ishi ularning texnik ijoddagi ahamiyatini ta'kidlaydi. O'qituvchilar ushbu ko'nikmalarni o'quvchilarga tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va yechimlarni topishda tizimli yondashuvlarni talab qiladigan murakkab muammolarni taqdim etish orqali rivojlantirishlari mumkin. [7]

Umuman olganda, Robert Sternbergning ta'lim psixologiyasiga qo'shgan hissasi o'qituvchilar ijodiy fikrlash, amaliy muammolarni hal qilish qobiliyatlari va ularni texnik sohalardagi haqiqiy muammolarga tayyorlaydigan mazmunli o'rganish tajribalarini rivojlantirish orqali talabalarning texnik ijodkorligini qanday oshirishi haqida qimmatli tushunchalarni beradi. Uning nazariyalari va tadqiqotlari ta'lim amaliyotida aql va ijodkorlikka muvozanatli yondashuvning muhimligini ta'kidlaydi.

Xovard Gardnerning tadqiqotlari talabalarni texnik ijodkorlik faoliyatiga tayyorlash bilan bog'liq bo'lgan pedagogik va psixologik xususiyatlarning jihatlariga, xususan uning ko'p intellekt nazariyasi va tegishli ta'lim falsafalari ob'ektiviga to'xtalib o'tdi. [8]

Ko'p intellekt nazariyasi: Gardner nazariyasi intellekt yagona, sobit mavjudot emas, aksincha lingvistik, mantiqiy-matematik, fazoviy, tana-kinestetik, musiqiy, shaxslararo, shaxslararo, naturalistik va potentsial ekzistensial intellektlar kabi bir nechta shakllarda mavjud deb ta'kidlaydi. Texnik ijodkorlik nuqtayi nazaridan, ushbu nazariya shuni ko'rsatadiki, shaxslar nafaqat an'anaviy akademik qobiliyatlar, balki turli xil aqlar orqali texnik faoliyatda ustun bo'lishlari mumkin.

Shaxsiylashtirilgan ta'lim: Gardnerning g'oyalari o'qituvchilar talabalarning turli xil kuchli va aql-idroklarini tan oladigan va qondiradigan shaxsiy ta'lim yondashuvlarini qo'llab-quvvatlaydi. Texnik ijodkorlikda bu talabalarga o'zlarining afzal ko'rgan aql-idroklariga mos keladigan faoliyat bilan shug'ullanish imkoniyatlarini taqdim etishni anglatadi va shu bilan ularning motivatsiyasi va texnik sohalardagi yutuqlarini oshiradi.

Ijodkorlik va muammolarni hal qilish: Gardner turli xil intellektlarning ijodiy fikrlash va muammolarni hal qilishga qanday hissa qo'shishini o'rganib chiqdi. Texnik ijodkorlikda shaxslar ijodiy ishlarda aqlning ko'p o'lchovli xususiyatini ta'kidlab, murakkab muammolarni yangilash, prototiplash va hal qilish uchun bir nechta aql-idroklardan foydalanishlari mumkin.

Ijodkorlikni baholash: Gardnerning ishi o'qituvchilarni talabalarning texnik ijodkorligini namoyish etishning turli usullarini qamrab oladigan turli xil baholash usullaridan foydalanishga undaydi. Baholash talabalarga o'zlarining kuchli tomonlarini turli xil aql-idroklarda namoyish etishga imkon beradigan ishlashga asoslangan vazifalar, portfellar va loyihalarni o'z ichiga olishi mumkin.

Hamkorlik va aloqa: Gardnerning shaxslararo intellektga bo'lgan e'tibori texnik ijodkorlikda hamkorlik va samarali muloqotning muhimligini ta'kidlaydi. O'qituvchilar ushbu ko'nikmalarni talabalardan birgalikda ishlashni, fikr almashishni va yechimlarni muhokama qilishni talab qiladigan hamkorlikdagi loyihalarni tuzish orqali rivojlantirishlari mumkin.

Madaniy va kontekstli omillar: Gardner, shuningdek, madaniy va kontekstli omillar aqlning rivojlanishi va ifodalanishiga qanday ta'sir qilishini o'rganib chiqdi. Talabalarni texnik

ijodkorlikka tayyorlashda o'qituvchilar madaniy kelib chiqishi va atrof-muhit omillari odamlarning muammolari hal qilish va innovatsiyalarga bo'lgan yondashuvlarini qanday shakllantirishi mumkinligini hisobga olishlari kerak.

Govard Gardnerning tadqiqotlari o'qituvchilar turli xil intellektlarni qabul qilish va shaxsiylashtirilgan, ijodiy o'rganish tajribalarini qo'llab-quvvatlaydigan muhitlarni rivojlantirish orqali talabalarning texnik ijodkorligini qanday oshirishi mumkinligini tushunish uchun boy asos yaratadi. Uning nazariyalari texnik sohalarda va undan tashqarida muvaffaqiyat qozonish uchun zarur bo'lgan kognitiv va kognitiv bo'lmagan qobiliyatlarni tarbiyalaydigan yaxlit ta'limning muhimligini ta'kidlaydi.

Xulosa. Talabalarda fizika, matematika, informatika, texnologiya va boshqa fanlarni o'qitishni takomillashtirish va samaradorligini oshirishda pedagogik va innovatsion texnologiyalaridan foydalanishga doir adabiyotlar tahlil qilingan. Ularda talabalarda ta'limni tashkil etishning mazmuni, vositalari va pedagogik va innovatsion texnologiyalaridan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari va vazifalari o'rganilgan, o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda zamonaviy texnika va texnologiyalarning pedagogik ta'siri muammosiga doir nazariy materiallar berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

